Устройство собирает информацию с датчиков и бортовой системы трактора по интерфейсам RS-485, RS-232, SPI, I2C и CAN. Данные передаются на ПК или сервер, аккумулируются в базе данных и анализируются по заданным алгоритмам [5].

Для анализа данных используется программное обеспечение. Основные интерфейсы связи – RS-485(232) и CAN, также возможны SPI, I2C и аналоговые сигналы. Разработанное диагностическое устройство и процесс по сбору диагностической информации с CAN-шины трактора John Deere 8420 представлены на рисунке 1.




Рисунок 1 – Прототип устройства по сбору диагностической информации, и процесс сбора диагностической информации с CAN-шины трактора John Deere 8420

В ходе исследований было установлено, что анализ данных, передаваемых по шине CAN, играет ключевую роль в мониторинге энергонасыщенной сельскохозяйственной техники (СХТ). Шина CAN (Controller Area Network) позволяет собирать и передавать данные о техническом состоянии различных агрегатов и систем машины. Протоколы данных передаются в соответствии со стандартами SAE 1939, что обеспечивает унификацию и совместимость информации, получаемой от различных устройств и систем [6].

Особую роль в анализе данных играет протокол FMS-Standart description. С его помощью можно определить следующие ключевые параметры: часовой расход топлива (позволяет оценить эффективность использования топлива и выявить возможные утечки или неисправности топливной системы), температура охлаждающей жидкости (важный показатель, который помогает контролировать тепловой режим работы двигателя и предотвращать его перегрев), бортовое напряжение в электронном блоке управления (ЭБУ) (даёт информацию о состоянии электрической системы машины), частота вращения коленчатого вала (позволяет отслеживать работу двигателя и выявлять аномалии в его функционировании), давление масла (критически важный параметр для контроля состояния смазочной системы и предотвращения износа деталей двигателя) и другие технические параметры. В таблице 1 представлена расшифровка полученных данных по протоколу (SAE) J1979, J1939

Таблица 1

Расшифровка данных по протоколу (SAE) J1979, J1939

Диагностический параметр	Числовой показатель	Протокол			
		SAE j1979		SAE j1939	
		SID	PID	PGN	SPN
Ошибка Check Engine		0*01	0x01	FECA	1213
Обороты, об/мин	600 - 1200	0*01	0x0C	F004	190
Температура ОЖ, °С	88 - 92	0*01	0x05	FEEE	110
Напряжение борта, В ч	3,7 – 11,2	0*01	0x42	FEF7	168
Температура масла, °С	82 - 107	0*01	0x5C	FEEE	175
Расход мгновенный, г/кВт в час	266	0*01	0x5E	FEF2	183

Таким образом, использование шины CAN и соответствующих протоколов передачи данных позволяет создать эффективную систему мониторинга и диагностики СХТ. Она обеспечивает постоянный контроль за техническим состоянием машин, помогает своевременно выявлять и устранять неисправности, что в конечном итоге способствует повышению надёжности и продолжительности эксплуатации сельскохозяйственной техники.

Заключение

Экспериментальный прототип диагностического устройства позволяет эффективно диагностировать технику в процессе эксплуатации за счет оперативного мониторинга параметров технического состояния. Внедрение такого метода диагностики в инженерной службе АПК снизит затраты сельхозтоваропроизводителей на 10–12 %.

ЛИТЕРАТУРА

1. Ерохин М.Н., Дорохов А.С., Катаев Ю.В. Интеллектуальная система диагностирования параметров технического состояния сельскохозяйственной техники // Агроинженерия. 2021. № 2(102). С. 45-50.

2. Голубев И.Г., Мишуров Н.П., Федоренко В.Ф. и др. Цифровые решения при техническом сервисе сельскохозяйственной техники: Аналитический обзор. М.: ФГБНУ «Росинформагротех», 2020. 76 с.

3. Федоренко В.Ф., Таркивский В.Е. Цифровые беспроводные технологии для оценки показателей сельскохозяйственной техники // Сельскохозяйственные машины и технологии. 2020 № 14 (1). С. 10-15. DOI 10.22314/2073-7599-2020-14-1-10-15. EDN JCGGNG.

4. Костомахин М.Н., Саяпин А.С., Петрищев Н.А., Молибоженко К.К. К вопросу совершенствования способов диагностирования энергонасыщенных тракторов с применением микропроцессорных программируемых устройств серии AVR // Сельскохозяйственная техника: обслуживание и ремонт. 2021. № 7. С. 44-52. EDN OYZQXI.

5. Зуб Д.В. Разработка аппаратно-программной платформы сбора и обработки эксплуатационных данных сельскохозяйственной техники // Технический сервис машин. 2020 Т. 58 № 1 (138). С. 162-167.

6. Тишанинов И.А, Герасимов В.С, Казакова В.А. Вопросы стандартизации онлайн-мониторинга тракторов // Стандарты и качество. 2024. № 12. С. 40-46. DOI 10.35400/0038-9692-2024-12-82-24. EDN DLMMLL.

УДК 631.17: 631.33

ГЛУБОКАЯ ОБРАБОТКА ПОЧВЫ С ДИФФЕРЕНЦИРОВАННЫМ ВНЕСЕНИЕМ МИНЕРАЛЬНЫХ УДОБРЕНИЙ ПО ГЛУБИНЕ

Борисенко И.Б.
д.т.н., проф., Волгоградский государственный аграрный университет, Россия.

Мезникова М.В.
д.т.н., с.н.с., Волгоградский государственный аграрный университет, Россия.

Скрипкин Д.В.
к.т.н. Волгоградский государственный аграрный университет, Россия.

Аннотация. Разработана конструкция почвообрабатывающего орудия, позволяющего проводить глубокую обработку почвы (чизельную или щелевую) с возможностью внесения минеральных удобрений в обрабатываемую зону с необходимым распределением их по глубине.

Annotasiya. Tuproqqa chuqur ishlov berish (chizelli yoki yoriqli) bilan bir vaqtda mineral o‘g‘itlarni zaruriy chuqurlikdagi qatlamlar bo‘yicha taqsimlash imkoniyatiga ega bo‘lgan tuproqqa ishlov berish qurilmasining konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Annotation. The design of the tillage tool has been developed that allows both surface and main tillage (chisel or slot), as well as at the same time being able to apply mineral fertilizers to the treated zone with the necessary distribution of them in depth.

С целью увеличения производства продуктов питания в сельском хозяйстве постоянно осуществляется совершенствование и разработка технологий возделывания сельскохозяйственных культур. Для получения высоких и стабильных урожаев производитель обязан создавать оптимальные условия и режимы растениям, основными из которых являются: температурный режим, водный режим, качественные показатели обработки почвы, а также наличие питательных веществ по горизонтам их залегания. В современных условиях рыночных отношений и опираясь на экологические тенденции производства и системы точного земледелия при постоянстве роста стоимости минеральных удобрений, а также ГСМ, современный сельхозтоваропроизводитель вынужден приспосабливаться к данным условиям. С целью решения данных задач производителю необходимо снижать дозы внесения минеральных удобрений за счет перехода с разбросного способа распределения, на дифференцированный с распределением по глубине в зависимости от требований [1, 2].

Технология дифференцированного внесение минеральных удобрений в почву при глубокой обработке представляет собой инновационный подход к сельскому хозяйству, направленный на оптимизацию урожайности и эффективности использования питательных веществ.

Глубокая обработка почвы включает тщательную подготовку почвы, часто путем глубокой вспашки при использовании тяжелой техники, для разрушения уплотненных слоев и улучшения проникновения корней и влаги.

Дифференцированное внесение минеральных удобрений: этот метод предусматривает внесение различных видов или количеств удобрений на необходимую глубину. Это объясняется тем, что различные питательные вещества могут быть более эффективными в определенных слоях, в зависимости от потребностей культуры и почвенных условий.


Появление новых современных технологий способствует увеличению урожайности

сельскохозяйственных культур и получению продукции высокого качества. Все это в свою очередь увеличивает применение высокопроизводительной универсальной техники, дающей возможность изменить технологические параметры в зависимости от физического состояния почвы и особенностей возделываемой культуры.

Обзор источников [3, 5] показывает, что внутрипочвенное дифференцированное внесение минеральных удобрений в осенний или весенний период повышает урожайность, в зависимости от почвенно-климатических условий до 25%.

Для глубокой обработки с одновременным дифференцированным внесением минеральных удобрений в почву разработано большое многообразие комбинированных агрегатов, имеющих определенные конструктивные и технологические отличительные характеристики. Общими недостатками для существующих конструкций является сложная конструкция, невозможность улучшения мелиоративного состояния обрабатываемой почвы, невозможность внутрипочвенного внесения или дифференцированного внесения по глубине минеральных удобрений в почву [3, 4]. Для этого было разработано орудие для глубокой обработки почвы с дифференцированным внесением минеральных удобрений по глубине, исключающее приведенные недостатки, новизна которого подтверждена патентами РФ на изобретение: № 2533038 от 20.11.14, Бюл. № 32; № 2544950 от 20.03.15, Бюл. № 8; № 2714289 от 13.02.20, Бюл. № 5; № 2579791 от 10.04.2006, Бюл. № 10; №2747144 от 28.04.2021 Бюл. № 13 и №2754984 от 08.09.2021 Бюл. № 25.

Технический результат от применения предлагаемого технологического решения заключается в повышении урожайности сельскохозяйственных культур при работе орудием для глубокой обработки почвы RU 2747144 C1, представляющим собой комбинированную клинообразную стойку 1 с установленным на ее носке сменным долотом 3. На задней части стойки смонтирован тукопровод 2. По осевой линии задней стороны стойки через равные расстояния выполнены резьбовые отверстия 4, определяющие вертикаль распределение туков. К резьбовым отверстиям присоединены лево- и правосторонние распределители туков 5, выполненные в виде пластин, и направленные под углом 20…35° к боковой стенке борозды, образовываемой клинообразной стойкой. Длина пластины определяется зоной смыкания почвы (рис. 1).



А) вид сбоку; В) вид сзади; А-А) вид сверху.

Рисунок 1 – Рабочий орган орудия для мелиоративной чизельной обработки почвы

Главным в этой конструкции является возможность равномерно распределять удобрения и мелиоранты в вертикальной плоскости, на глубину от - 0,1 до 0,35 м. Это особенно актуально в зонах засушливого земледелия, таких, как Волгоградский регион. В

большинстве случаев в конструкциях машин для внесения удобрений в почву отсутствует такая возможность, корневая система растений развивается более активно и мощно именно в слое заделки удобрений. При внутрипочвенном внесении на глубину 0,05 – 0,15 м или с последующей заделкой, с учетом наступления засушливых периодов, шансов растению выжить практически нет. Корневая система не способна проникнуть вглубь почвы и подтянуть влагу из нижних слоев. Поэтому внесение удобрений и мелиорантов на глубину 0,25 – 0,4 м дает возможность корневой системе культурных растений получать питательные вещества из глубоких почвенных слоев, где влага сохраняется дольше. Соответственно внесение удобрений в глубокие слои почвы с возможностью регулирования нормы и распределения по глубине имеет важное технологическое значение.

Орудие для глубокой обработки почвы с дифференцированным внесением минеральных удобрений по глубине работает следующим образом. Перед началом работы емкости для удобрений заполняются соответствующим для данной операции материалом. При движении орудия в заглубленном состоянии долото разрезает пласт, а комбинированная клиновидная стойка раздвигает пласт в боковые стороны. При этом образуется зона рыхления в виде трапециевидной щели с боковыми стенками, которые через определенное время смыкаются за счет релаксации почвы. По тукопроводу подаются удобрения, которые по мере продвижения в тукопроводе частично отделяются отсекателями и направляются через окна на пластину. В результате релаксации почвы, за тукопроводом образуется мелиоративный слой почвы с заданным распределением удобрений. Регулирование количества удобрений по слоям почвы осуществляется величиной наклона отсекателя. Количество окон 4 определяет требуемую равномерность распределения удобрений по слоям почвы. Обычно, величина слоя горизонта составляет 10 см, что обеспечивает требуемое расположение и распределение вносимого в корнеобитаемый слой почвы удобрений и химмелиорантов, повышающих урожайность сельскохозяйственных культур.

Норма внесения удобрений, при постоянной производительности тукового аппарата, зависит от изменения скорости движения МТА, соответственно количественное значение можно определить по формуле:

$$Q_{ол} = \frac{P600}{VB}$$

где: P – принятая производительность тукового аппарата, кг/мин.

На рисунке 2 показано влияние изменения скорости движения МТА на норму локального внесения минеральных удобрений при постоянной производительности тукового аппарата.




Рисунок 2 - Влияние скорости движения МТА на норму локального внесения минеральных удобрений (P=1,5кг/мин, B=0,7м)

Из данной зависимости следует вывод, что необходимо нивелировать влияние изменения скорости МТА на количество вносимого удобрения. Данную зависимость можно компенсировать передаточным отношением редуктора привода тукового аппарата от опорного колеса почвообрабатывающего орудия.

Предложенное орудие для глубокой обработки почвы с дифференцированным внесением минеральных удобрений по глубине можно применять не только в технологиях возделывания полевых культур, но и при выполнении обработки почвы в садах и виноградниках. При этом оно может использоваться при подрезании корневой системы с целью увеличения продуктивности и качества получаемой продукции с одновременным внесением питания непосредственно в зону нахождения корневой системы растений.

Заключение

Глубокая обработка почвы играет важную роль в современном сельском хозяйстве, обеспечивая лучшую подготовку почвы для растений и способствуя повышению урожайности. Однако успешное внедрение этой методики требует тщательного планирования инвестиций в оборудование и учета особенностей почвы и растений. Глубокая обработка почвы является важным инструментом в руках фермеров для обеспечения устойчивого роста сельскохозяйственных культур и сохранения почвенного плодородия на будущее.

Применение предложенного орудия глубокой обработки почвы с дифференцированным внесением минеральных удобрений по глубине обеспечивает насыщение пахотного корнеобитаемого горизонта необходимыми удобрениями и мелиорантами, что способствует созданию хороших условий для роста и развития растений, увеличивая урожайность возделываемой культуры.

ЛИТЕРАТУРА

1. Борисенко, И.Б. Технологический процесс основной обработки как фактор ресурсосбережения при возделывании сельскохозяйственных культур / И.Б. Борисенко, А.Н. Сидоров, М.В. Мезникова, М.Н. Сытилин // Оптимизация сельскохозяйственного землепользования и усиление экспортного потенциала АПК РФ на основе конвергентных технологий: материалы Международной научно – практической конференции, г. Волгоград, 29-31 января, 2020 г. – Волгоград: ФГБОУ ВО Волгоградский ГАУ, 2020. – Том 1. – С.112-118.

2. Борисенко, И.Б. Обоснование конструктивных параметров орудий для выполнения полосовой обработки почвы в энергосберегающей системе земледелия / И.Б. Борисенко. М.В. Мезникова / Вестник аграрной науки Дона. – 2020. – № 4 (52). – С. 19-27.

3. Борисенко. И.Б. Эффективность применения технологии Strip-till / И.Б. Борисенко, М.В. Мезникова // Мировые научно-технологические тенденции социально экономического развития АПК и сельских территорий: материалы Международной научно-практической конференции, посвященной 75-летию окончания Сталинградской битвы, Волгоград, 31.01 – 02.02.2018. – Том 2. – С.181-187.

4. Мезникова, М.В. Совершенствование технологического процесса полосной глубокой обработки почвы за счет оптимизации конструктивных параметров рабочего органа [Текст]: автореф. дис. … канд. техн. наук: 05.20.01 / Мезникова Марина Викторовна. – Волгоград, 2018. – 20 с.

5. Мезникова, М.В. Теоретические исследования зоны деформации почвы рабочим органом Strip-till / М.В. Мезникова, И.Б. Борисенко // Стратегические ориентиры инновационного развития АПК в современных экономических условиях: материалы Международной научно-практической конференции / Волгоградский ГАУ. – Волгоград, 2016. – Т.2. – С.185-190.

UO‘T 634.1-13

KENG QAMROVLI YASSI KESUVCHI ISH ORGANLARINING TORTISHGA QARSHILIKLARINI ANIQLASH

Imomqulov Q.B.
t.f.d., prof., Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Xalilov J.M.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований, проведенных по теоретическому определению тягового сопротивления широкозахватных плоскорежущих рабочих органов машины для обработки интенсивных садово-пропашных культур.

Annotasiya. Maqolada intensiv bog‘ qator orlariga ishlov beradigan mashinaning keng qamrovli yassi kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiliklarini nazariy aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Annotation. The article presents the results of studies conducted on the theoretical determination of the traction resistance of wide-grip flat-cutting working bodies of a machine for processing intensive garden-row crops

Keyingi yillarda Respublikamizda hol meva yetishtirishni ko‘paytirish va bu sohaning rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan Vazirlar Mahkamasining 24.07.2021 yildagi 458-son qarori bilan Qishloq xo‘jaligi birlashmalarining a’zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik sub’ektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko‘chatlar (pakana va yarim pakana) hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi [1].

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-dekabrdagi 1012-sonli qaroriga asosan, iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan bog‘ va tokzorlarni yaroqsiz deb topish tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlangan [2].

Respublikamizda ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llagan holda, yuqori texnologiyaga asoslangan intensiv bog‘ va uzumzorlarni barpo etishga katta e’tibor berilmoqda. Yetakchi va rivojlangan mamlakatlar qishloq xo‘jaligida intensiv bog‘ qator orasiga ishlov berishda energiya va resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnik vositalarning yangi turlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.


Intensiv bog‘larda daraxt ildizi yaxshi rivojlanishi bog‘dan yuqori hosil olish va turli xil kasalliklarga qarshi kurashish, tuproqqa sifatli ishlov berib, qator orlarini begona o‘tlardan tozalash maqsadida QXMITI da tomchilatib sug‘oriladigan intensiv bog‘ qator orlariga ishlov beradigan mashinaning konstruksiyasi ishlab chiqildi [3]. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida intensiv bog‘ qator oralariga ishlov berish uchun keng qamrovli yassi kesuvchi ishchi jihozi qabul qilib olinib, ushbu ishchi organning maqbul qiymatlarini aniqlash uchun nazariy tadqiqotlar olib borildi. Ushbu maqolada qator orasiga ishlov berishda qo‘llaniladigan keng qavrovli yassi kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan nazariy tadqiotlar natijalari keltirilgan (1-rasmga qaralsin).

Keng qamrovli yassi kesuvchi ish organining tortishga qarshiligini umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R_t = R_i + 2R_p, \quad (1)$$

bunda R_i– ishchi organ iskanasining tortishga qarshiligi, N;

R_p – ishchi organ pichog‘ining tortishga qarshiligi, N.



1-rasmga. Keng qamrovli yassi kesuvchi ish organlari konstruktiv sxemasi

Mashina barcha yassi kesuvchi ish organlarining iskanalari yopiq kesish sharoitida ishlaydi. Buni hisobga olganda bitta iskananing tortishga qarshiligini quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlash mumkin [4]:

$$R_i = T_t t_i b_i + K_s\left[b_i + htg\left(45° - \frac{\varphi_2}{2}\right)\right]h\frac{\cos\varphi_2 \sin(\alpha_i + \varphi_1)}{\cos^2\frac{1}{2}(\alpha_i + \varphi_1 + \varphi_2)} +$$

$$+b_i h\rho\left(L_i g + V_m^2 \sin\alpha_i\right)tg(\alpha_i + \varphi_1)\left(1 + \frac{W}{100}\right), \quad (2)$$

bunda T_t – tuproqning ishlov berilayotgan qatlamdagi qattiqligi, Pa;

t_i – iskana tig‘ining qalinligi, m;

b_i – ish organ iskanasining eni, m;

K_s – tuproqning siljishga solishtirma qarshiligi, Pa;

ρ – tuproqning zichligi, kg/m^3;

h – ishlov berish chuqurligi, m;

α_i – ish organ iskanasining tuproqni uvalash burchagi, °;

φ_1; φ_2 – ish organining ishchi sirtiga va tuproqqa ishqalanish burchaklari, °;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2;

V_m – mashinaning harakat tezligi, m/s;

W – tuproqning namligi, %.

L_i – iskananing uzunligi, m;

Mashinaning birinchi qatorida joylashgan yassi kesuvchi ish organining o‘ng va chap pichoqlari yopiq kesish sharoitida ishlaydi, ya’ni ular yaxlit tuproqqa ta’sir ko‘rsatadi va ularning tortishga qarshiliklarini quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz [4].

$$R^I_{po'} = R^I_{pz} = b_p\left\{\left\{\frac{T_t t_p}{\sin\gamma_i} + K_s\frac{h}{\cos\frac{1}{2}\beta_p + \varphi_1 + \varphi_2}\times\left[\sin\frac{1}{2}(\beta_p + \varphi_1 + \varphi_2) + \right.\right.\right.$$

$$\left.\left.\left.+tg\varphi_1\cos\frac{1}{2}(\varphi_1 + \varphi_2 - \beta_p)\cos\beta_p\right]\right\} + h\rho\left\{C_\rho g \times\right.\right.$$

$$\left.\left.\times\frac{\sin\beta_p + tg\varphi_1(\cos\gamma_p ctg\gamma_p + \sin\gamma_p\cos\beta_p)}{\cos\beta_p - tg\varphi_1\sin\gamma_p\sin\beta_p} + V_m^2\times\right.\right.$$

$$\times\frac{\sin^2\gamma_p\left[\sin\beta_p+tg\varphi_1\sin\gamma_p\left(ctg^2\gamma_p+\cos\beta_p\right)\right]}{ctg\beta_p-tg\varphi\sin\gamma_p}\Bigg\}\left(1+\frac{W}{100}\right)\Bigg\}, \qquad (3)$$

bunda $R^I_{po'}, R^I_{pz}$ – mos ravishda mashinaning birinchi qatoriga o‘rnatilgan yassi kesuvchi ish organi o‘ng va chap pichoqlarining tortishga qarshiligi, N;

t_p – pichoqlar tig‘larining qalinligi, m;

C_p – pichoqlar ishchi sirtlarining kengligi, m;

b_p – pichoqning qamrash kengligi, m;

β_p – ish organ pichog’ining tuproqni uvalash burchagi, °;

γ_p – ishchi organning ochilish burchagining yarmi, °.

Mashinaning ikkinchi qatorida joylashgan yassi kesuvchi ish organlarining o‘ng va chap pichoqlari ochiq kesish sharoitida ishlaydi, ya’ni ular yonboshida mashinaning birinchi qatoriga o‘rnatilgan ish organi tomonidan yumshatilgan zona yoki ochilib qolgan daraxt ildizlarini ko‘madigan sferik disklar hosil qilgan egatlar bo‘lgan tuproq palaxsalariga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ularning tortishga qarshiliklari quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi [4]:

$$R^{II}_{po'}=R^{II}_{pz}=\left\{\frac{T_i t_i b_p}{\sin\gamma_p}+K_s\left\{b_p-\frac{\left[\sqrt{K_s^{\,2}+4q_oK_s b_p\dfrac{tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}{\cos\varphi_1\cos(\gamma_i+\varphi_1)}}-K_s\right]\cos(\gamma_p+\varphi_1)\cos\varphi_1}{2q_o tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}\right\}\times\right.$$

$$\times\frac{\left[\sqrt{K_s^{\,2}+4q_oK_s b_p\dfrac{tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}{\cos\varphi_1\cos(\gamma_p+\varphi_1)}}-K_s\right]}{q_o\sin\gamma_p\,tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}\times$$

$$\times\left[\sin(\gamma_p+\varphi_1)+\cos\gamma_p\sin\varphi_1\right]\cos^2\varphi_1+h\rho b_p\times$$

$$\times\left\{L_i g\frac{\sin\alpha_i+(\cos\gamma_p ctg\gamma_p+\sin\gamma_p\cos\alpha_i)tg\varphi_1}{\cos\alpha_i-\sin\gamma_i\sin\alpha_i tg\varphi_1}+\right.$$

$$\left.+K_T V^2\frac{\sin^2\gamma_p\left[\sin\alpha_i+\sin\gamma_p(ctg\gamma_p+\cos\alpha_i)tg\varphi_1\right]}{ctg\alpha_i-\sin\gamma_p tg\varphi_1}\right\}\left(1+\frac{W}{100}\right)\Bigg\}, \qquad (4)$$

Yuqorida olingan natijalar bo‘yicha mashinaning birinchi va ikkinchi qatorlariga o‘rnatilgan yassi kesuvchi ish organlarining tortishga umumiy qarshiliklari R_u aniqlash uchun quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$R_u=3\left[T_t t_i b_i+K_s\left[b_i+htg\left(45°-\frac{\varphi_2}{2}\right)\right]h\frac{\cos\varphi_2\sin\left(\alpha_i+\varphi_1\right)}{\cos^2\dfrac{1}{2}\left(\alpha_i+\varphi_1+\varphi_2\right)}+\right.$$

$$\left.+b_i h_\rho\left(L_i g+V_m^2\sin\alpha_i\right)tg\left(\alpha_i+\varphi_1\right)\left(1+\frac{W}{100}\right)\right]+4b_p\times$$

$$\times\left\{\left\{\frac{T_t t_p}{\sin\gamma_i}+K_s\frac{h}{\cos\frac{1}{2}\beta_p+\varphi_1+\varphi_2}\times\left[\sin\frac{1}{2}\left(\beta_p+\varphi_1+\varphi_2\right)+\right.\right.\right.$$

$$\left.\left.\left.+tg\varphi_1\cos\frac{1}{2}\left(\varphi_1+\varphi_2-\beta_p\right)\cos\beta_p\right]\right\}+h\rho\left\{C_\rho g\times\right.\right.$$

$$\times\frac{\sin\beta_p+tg\varphi_1\left(\cos\gamma_i ctg\gamma_p+\sin\gamma_p\cos\beta_p\right)}{\cos\beta_p-tg\varphi_1\sin\gamma_p\sin\beta_p}+V_m^2\times$$

$$\left.\left.\times\frac{\sin^2\gamma_p\left[\sin\beta_p+tg\varphi_1\sin\gamma_p\left(ctg^2\gamma_p+\cos\beta_p\right)\right]}{ctg\beta_p-tg\varphi\sin\gamma_p}\right\}\left(1+\frac{W}{100}\right)\right\}+$$

$$+2\left\{\frac{T_i t_i b_i}{\sin\gamma_p}+K_s\left\{b_p-\frac{\left[\sqrt{K_s^2+4q_o K_s b_p\frac{tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}{\cos\varphi_i\cos(\gamma_i+\varphi_1)}}-K_s\right]\cos(\gamma_p+\varphi_1)\cos\varphi_1}{2q_o tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}\right\}\times\right.$$

$$\left.\times\frac{\left[\sqrt{K_s^2+4q_o K_s b\frac{tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}{\cos\varphi_1\cos(\gamma_p+\varphi_1)}}-K_s\right]}{q_o\sin\gamma_p\,tg\alpha_i\sin(\alpha_i+\varphi_1)}\times\right.$$

$$\times\left[\sin(\gamma_p+\varphi_1)+\cos\gamma_p\sin\varphi_1\right]\cos^2\varphi_1+h\rho b_p\times$$

$$\times\left\{L_i g\frac{\sin\alpha_i+(\cos\gamma_p ctg\gamma_p+\sin\gamma_p\cos\alpha_p)tg\varphi_1}{\cos\alpha_i-\sin\gamma_p\sin\alpha_i tg\varphi_1}+\right.$$

$$\left.+K_T V^2\frac{\sin^2\gamma_p\left[\sin\alpha_i+\sin\gamma_p(ctg\gamma_p+\cos\alpha_i)tg\varphi_1\right]}{ctg\alpha_i-\sin\gamma_p tg\varphi_1}\right\}\left(1+\frac{W}{100}\right)\Bigg\}. \qquad (5)$$

T_t=1,2·10^6 Pa, t_i=0,001 m, b_i=0,08 m, K_s=2·10^4 Pa, h=0,12 m, φ_1=30°, φ_2=40°, α_i=30°, ρ=1200 g/m^3 L_i=0.50 m, g=9,81 m/c^2, W=16%, B_q=4 m, b_h =0,5 m, h_D =0,16 m, K_T=0,9, D=0,61 m, β=15°, α=40°, Δ=0,05 m, t_p = 0,001 m, γ_i=45°, β_p=30°, b_p=0,36 m. qabul qilinib (5) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblashlar 1,7-2,2- m/s harakat tezliklarida mashinaning birinchi qatoriga o‘rnatiladigan yassi kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiligi 5,4 kN, ikkinchi qatorga o‘rnatiladigan ish organiniki esa 2,7 kN, barcha shunday ish organlariniki esa 10,8 kN oralig‘ida bo‘ladi.

Xulosa

1,7-2,2- m/s harakat tezliklarida mashinaning birinchi qatoriga o‘rnatiladigan yassi

kesuvchi ish organlarining tortishga qarshiligi 5,4 kN, ikkinchi qatorga o‘rnatiladigan ish organiniki esa 2,7 kN, barcha shunday ish organlariniki esa 10,8 kN oralig‘ida bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. https://lex.uz/ru/docs/5524284?ONDATE=24.07.2021%2000
2. https://lex.uz/docs/4650303
3. Imomqulov Q.B., Xalilov J.M., Nishanboev N.N. // Intensiv bog‘ qator oralariga ishlov beradigan ish organining parametrlarini asoslash / Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. – Namangan, 2024. -№ 2 (15). – 77- 81 b.
4. To‘xtaqo‘ziyev A., Imomqulov Q.B. Tuproqni kam yenergiya sarflab deformasiyalash va parchalashning ilmiy-texnik asoslari. – Toshkent: KOMRON PRESS, 2013. – 120 b.

UO‘T 631.31

TUPROQ FIZIK-MEXANIK XOSSALARINING O‘ZGARUVCHANLIGINI TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARINING ISHLOV BERISH CHUQURLIGI BO‘YICHA RAVON YURISHIGA TA’SIRINI BARTARAF ETISH

To‘xtaqo‘ziyev A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.d., prof.

Rasuljonov A.R.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.f.d., k.i.x.

Annotasiya. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini ko‘rsatishicha, tuproq fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi tuproqqi ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon harakatiga ta’sir ko‘rsatmasligi uchun ularning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazlari shu tekislikda ularga ta’sir etuvchi qarshilik kuchlari teng ta’sir etuvchisining ta’sir chizig‘ida joylashtirilishi lozim.

Аннотация. Как показывают результаты проведенных исследований, чтобы исключить влияние изменчивости физико-механических свойств почвы на равномерность хода почвообрабатывающих машин по глубине обработки мгновенные центры вращения их в продольно-вертикальной плоскости должны быть расположены на линии действия равнодействующей сил сопротивления, действующих на них на этой плоскости.

Annotation. The conducted research results show that to eliminate the influence of soil physical and mechanical properties variability on the uniformity of the soil-cultivating machines' movement along the tillage depth, their instantaneous centers of rotation in the longitudinal-vertical plane should be located on the lines of action of the resultant resistance forces acting on them in this plane


Ma’lumki, ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi (bir tekisliligi) barcha tuproqqa ishlov berish mashinalarining asosiy ish ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ishlov berish chuqurligi talab darajasida bo‘lsa va uning barqarorligi, ya’ni bir tekisda bo‘lishi ta’minlansa, ekinlarni bir tekis rivojlanishi va pishib yetilishiga hamda ulardan yuqori hosil olinishiga erishilinadi, aks holda esa, ya’ni belgilangan ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi ta’minlanmasa – o‘simliklarni notekis rivojlanishi va pishib yetilishi kuzatiladi, hosildorlik 12-15 foizga pasayadi. Bular Respublikamiz va boshqa mamlakatlarda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan[1-4]. Shu sababli ham har bir tuproqqa ishlov berish mashinasi uchun ishlov berish chuqurligi va uning belgilangandan chetlanishlari(notekisligi)ga qat’iy talablar va cheklanishlar qo‘yilgan.

Ilgari bajarilgan tadqiqotlarda mavjud tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi keng chegarada o‘zgarishi va bu o‘zgarish hattoki bir dalani o‘zida ruxsat etilgandan 3-4 marta katta bo‘lishi hamda buning eng asosiy sababi tuproq fizik-mexanik xossalari(namligi, zichligi, qattiqligi)ning doimiy ravishda o‘zgarib turishi ekanligi ko‘rsatilgan [5-8].

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqib biz tomonimizdan osma plug misolida tuproq fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligini uning tuproqqa ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon (bir tekis) yurishiga salbiy ta’sirini bartaraf etish bo‘yicha maxsus tadqiqotlar o‘tkazildi.

Tuproq fizik mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi plugning ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon yurishiga ta’sir etmasligi uchun u(plug)ning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazi π_1 (rasmga qaralsin) shu tekislikda unga ta’sir etayotgan R_{XZ} va F_X (bunda R_{XZ}-plugning lemexlari va ag‘dargichlariga ta’sir etayotgan reaksiya kuchlarining teng ta’sir

etuvchisi, N; F_X-plugning dala taxtalariga ta'sir etuvchi ishqalanish kuchlarining teng ta'sir etuvchisi, N) kuchlar teng ta'sir etuvchisi R_{XZ}^{y} ning ta'sir chizig'i τ-τ da joylashgan bo'lishi lozim. Chunki bunda R_{XZ} va F_X kuchlarning plugning oniy aylanish markaziga nisbatan momentlari yig'indisi nolga teng bo'ladi va ularning va demak tuproq fizik-mexanik xossalarining o'zgaruvchanligi ishlov berish chuqurligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.



1-rasm.Tuproqning fizik-mexanik xossalarini o'zgaruvchanligini plugning ishlov berish chuqurligi bo'yicha bir tekis yurishiga salbiy ta'sirini bartaraf etishga doir sxema

Plugning bo'ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazining τ-τ chizig'ida joylashgan o'rni π_1 ni aniqlash uchun 1-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib R_{XZ}^{y} kuch ta'sir chizig'i τ-τ ning va $D(D_1)$ hamda $A(A_1)$ nuqtalardan, ya'ni traktor osish mexanizmininig pastki tortqilaridan o'tadigan to'g'ri chiziqning $XD(D_1)Z$ koordinatalar sistemasidagi tenglamalarini tuzamiz. Ular mos ravishda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Z = Xtg\psi_{XZ}^{y} + \left(e + \frac{n-1}{2}L + \frac{\rho_{XZ}}{\sin\psi_{XZ}} \right) tg\psi_{XZ}^{y} +$$

$$+0,5b_d\left(1 - ctg\psi_{XZ}tg\psi_{XZ}^{y}\right) - H_1; \quad (1)$$

$$Z = \frac{\left(H_3 + h - H_1\right)X_B}{\sqrt{l_b^2 - 0,25\left(l-c\right)^2} - \left(H_3 + h - H_1\right)^2}, \quad (2)$$

bunda ψ_{XZ} – R_{XZ} kuch ta'sir chizig'ining gorizontga nisbatan o'rnatilish burchagi, °;

e–plugning pastki osish nuqtalaridan uning birinchi korpusining lemexigacha bo'lgan bo'ylama masofa, m;

n–plugga o'rnatilgan korpuslar soni, dona;

L–plugning korpuslari orasidagi bo'ylama masofa, m;

ρ_{XZ}–plugning o'rta (shartli o'rta) korpusi lemexining uchidan R_{XZ} kuchning ta'sir chizig'igacha bo'lgan masofa, m;

H_1–plugning tayanch tekisligidan pastki osish nuqtalarigacha bo'lgan tik masofa, m;

H_3–traktor tayanch tekisligidan u osish mexanizmi pastki tortqi-larining qo'zg'almas sharnirlari $A(A_1)$gacha bo'lgan tik masofa, m;

h–plugning ishlov berish chuqurligi, m;

X_B–traktor osish mexanizmi pastki va markaziy tortqilarining qo'zg'almas sharnirlari

orasidagi bo‘ylama masofa, m;

l_b– traktor osish mexanizmi pastki tortqilarining uzunligi, m;

l–plugning pastki osish nuqtalari orasidagi ko‘ndalang masofa, m;

c–traktor osish mexanizmi pastki bo‘ylama tortqilarining qo‘zg‘almas sharnirlari orasidagi ko‘ndalang masofa, m.

(1) va (2) ifodalarni birgalikda yechib, plug oniy aylanish markazining τ-τ chiziqda joylashgan o‘rnini (rasmdagi π_1 nuqtani) aniqlash uchun quyidagi ifodalarga ega bo‘lamiz:

$$X_{\pi_1} = \frac{\sqrt{l_b^2 - 0,25(l-c)^2 - (H_3+h-H_1)^2}}{(H_3+h-H_1) - \sqrt{l_b^2 - 0,25(l-c)^2 - (H_3+h-H_1)}tg\psi_{XZ}^y} \times$$
$$\times\left[\left(e + \frac{n-1}{2}L + \frac{\rho_{XZ}}{\sin\psi_{XZ}}\right)tg\psi_{XZ}^y + 0,5b_d\left(1 - ctg\psi_{XZ}tg\psi_{XZ}^y\right) - H_1\right]; \quad (3)$$

$$Z_{\pi_1} = \frac{H_3+h-H_1}{(H_3+h-H_1) - \sqrt{l_b^2 - 0,25(l-c)^2 - (H_3+h-H_1)}tg\psi_{XZ}^y} \times$$
$$\times\left[\left(e + \frac{n-1}{2}L + \frac{\rho_{XZ}}{\sin\psi_{XZ}}\right)tg\psi_{XZ}^y + 0,5b_b\left(1 - ctg\psi_{XZ}tg\psi_{XZ}^y\right) - H_1\right]. \quad (4)$$

Plugning oniy aylanish markazi π_1 nuqtada joylashishi uchun bundan tashqari traktor osish mexanizmi yuqorigi bo‘ylama tortqisining davomi ham ushbu nuqtadan o‘tishi lozim. Bunga asosan plugning pastki $D(D_1)$ va yuqorigi S osish nuqtalari orasidagi tik masofa $(H_2)'$ ni to‘g‘ri tanlash hisobiga erishilinadi va uni aniqlash uchun rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib quyidagi ifoda olindi:

$$(H_2)' = Z_{\pi_1} - \frac{X_{\pi_1}(H_3+h-H_1+Z_B-Z_{\pi_1})}{\sqrt{l_b^2 - 0,25(l-c)^2 - (H_3+h-H_1)^2} - X_B - X_{\pi_1}}. \quad (5)$$

(3)-(5) ifodalarga H_3 = 0,6 m, h = 0,35 m, H_1 = 0,85 m, l_b = 0,95 m, l = 1,04 m, s = 0,62 m, ye = 0,62 m, n = 3 dona, L = 1,0 m, ρ_{XZ} = 0,15 m, b_d = 0,2 m, X_V = 0,3 m, Z_V = 0,56 m, ψ_{XZ} = 12º, ψ^y_{XZ} = 10º qiymatlarni qo‘yib, 3-4 sinfdagi traktorlar bilan agregatlanadigan pluglar uchun X_{π_1} = 295 cm, Z_{π_1} = 0 cm va $(H_2)'$ = 71,1 cm bo‘lishi lozimligini aniqlandi.

Xulosa

Tuproqning fizik-mexanik xossalarining o‘zgaruvchanligi tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi bo‘yicha ravon harakatiga ta’sir etmasligi uchun ularning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazlari shu tekislikda ularga ta’sir etuvchi qarshilik kuchlari teng ta’sir etuvchisining ta’sir chizig‘ida joylashtirilishi lozim. Bunga asosan tuproqqa ishlov berish mashinalarining pastki osish nuqtalaridan ularning bo‘ylama-tik tekislikdagi oniy aylanish markazlarigacha bo‘lgan gorizontal va tik hamda ularning pastki va yuqorigi osish nuqtalari orasidagi tik masofalarni to‘g‘ri tanlash hisobiga erishilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Соколов Ф.А. Агрономические основы комплексной механизации хлопководства. – Ташкент: Фан, 1977. – 224 с.

2. Кондратюк В.П. Обработка почвы под посев хлопчатника в Средней Азии. –

Ташкент: Фан, 1972. – 286 с.

3. Аристов А.Н., Муля М.Г. Результаты опытов по определению влияния неравномерности глубины вспашки на потери урожая яровой пшеницы // Труды ЧИМЭСХ. – Челябинск, 1972. – Т.57. – С. 5-12.

4. Князов А.А., Баев Н.К. Исследование влияния неравномерности глубины пахоты на урожайность зерновых культур в условиях Среднего Поволжья // Труды ЧИМЭСХ. – Челябинск, 1972. – Т.57. – С. 13-18.

5. Набиев Т.С. Исследование и обоснование параметров регулятора заглубления рабочих органов культиваторов для повышения качества между-рядной обработки хлопчатника: Автореф. дис. … канд. техн. наук. – Ташкент, 1975. – 26 с.

6. Глущенко А.Д. и др. О повышении устойчивости движения в почве рабочих органов хлопковых культиваторов-растениепитателей// Механизация хлопководства. – 1980. – № 10. – С. 11-12.

7. Аповов И. Вероятностно-статистические закономерности изменения внешных воздействий машинно-тракторных агрегатов // Механизация хлопководства. – 1980. – № 4. – С. 17-19.

8. Бурченко П.Н. Механико-технологические основы почвообрабаты-вающих машин нового поколения. – Москва, ВИМ, 2002. – 212 с.

UO‘T 634.1-13

MEVALI DARAXT KO‘CHATLARINI ILDIZ TIZIMINI TAHLIL QILISH ORQALI MASHINA CHUQUR YUMSHATKICH-EGATOCHKICHINING ISHLOV BERISH CHUQURLIGI VA KENGLIGINI ASOSLASH

Mukimov Z.A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoanti

Annotasiya. Maqolada mevali daraxt ko`chatlarini o`tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan mashina chuqur yumshatgich-egatochgichini ishlov berish chuqurligi va kengligini tanlash uchun otqaziladigan mevali daraxt ko`chatlarining ildiz tizimlarini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментальных исследований по изучению корневой системы саженцев плодовых деревьев, высаживаемых для выбора глубины и ширины обработки глубокорыхлителя-бороздореза машины, осуществляющей непрерывную посадку саженцев

Annotation. The article presents the results of experimental studies on the study of the root systems of fruit tree seedlings planted for selecting the depth and width of processing of the deep ripper-furrow cutter of a machine that performs continuous planting of fruit tree seedlings


Yangi mevali bog‘ barpo qilinadan maydonlar belgilangan tartibda tanlab olinadi va 50-60 cm chuqurlikdan o‘g‘itlangan holda asosiy ishlov beriladi. Ishlov berilgan ekin maydoni tekshlanib, ko‘chat o‘tqazishga tayyorlanadi. So‘ngra maydonga ko‘chat o‘tqazish ishlariga kirishiladi.

Mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish mashinasida mevali daraxt ko‘chatlarini sifatli o‘tqazish uchun o‘tqaziladigan ko‘chatlarning novdalari va ildizlarining uzunliklari hamda kengliklari muhum o‘rin tutadi. Shu munosabat bilan o‘tqaziladigan ko‘chatlarning o‘lchamlaridan kelib chiqib, mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish mashinasi qismlarini, jumladan, mashina chuqur yumshatgich-egatochkich parametrlarini asoslash kerak bo‘ladi. Ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan mashina chuquryumshatgich-egatochgichning ishlov berish o‘lchamlari (chuqurligi va kengligi) asoslanmagan. Ba’zi mualliflar egat o‘lchamlarini mavjud o’tqaziladigan ko‘chatlarning parametrlari nuqtai nazaridan kelib chiqib qabul qiladilar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yangi mevali bog‘larni barpo etishda kasallikka chidamli, serhosil va sifatli hosil beradigan navlaridan iborat mevali bog‘lar tashkil qilinishi maqsadida kuchli o‘suvchi payvandtagli, yarim pakana payvandtagli va pakana payvandtagli ildiz tuzulishiga ega bo‘lgan 2 yoki 3 yillik payvantagli ko‘chat turlari o‘tqazilmoqda. Bunday ildiz tuzulishi barcha mevali daraxt ko‘chatlari uchun ta’alluqli hisoblanadi. Shuni alohida takidlash kerakki, ushbu mevali daraxt ko‘chati turlari, navlariga va shox-shabbalarini va ildiz tizimlarini rivojlanishi turlichadir. Ushbu payvandtagli ko‘chatlarni ildizlarini tuzulishidan kelib chiqib, ularni ildiz o‘lchamlari kuchli o‘suvchi payvandtagli ko‘chatlarda ko‘chat ildizlarining asosiy ildizi yon so‘ruvchi ildizlaridan uzun bo‘lib, uning uzunligi 330 mm gacha bo‘lsa, yon so`ruvchi ildizlarini kengligi 300 mm gacha bo‘ladi. Bu mevali daraxt ko‘chatlarini ozuqlanish maydonini kattaligini hisobga olib 5x5, 6x6, 8x8 m va katta sxemalarda o‘tqaziladi. Yarim pakana payvandtagli ko‘chatlarda ko‘chat ildizlarining asosiy ildizi yon so‘ruvchi ildizlaridan bir oz uzunroq bo‘lib, uning uzunligi 250 mmgacha bo‘lsa, yon so‘ruvchi ildizlarini kengligi 260 mm gacha bo‘ladi. Bu mevali daraxt ko‘chatlarini ozuqlanish maydoni 4x5, 3x5, 5x5 m va boshqa o‘rtacha sxemalarda o‘tqaziladi. Pakana payvandtagli ko‘chatlarda ko‘chat ildizlarining asosiy ildizi yon so‘ruvchi ildizlaridan qisqa bo‘lib, uning uzunligi 180 mm gacha bo‘lsa, yon

so‘ruvchi ildizlarini kengligi 300 mm gacha bo‘ladi. Bu mevali daraxt ko‘chatlarini ozuqlanish maydoni **4×1,2, 4x1,5, 4x2 m va boshqa kichik** sxemalarda o‘tqaziladi.

Mevali daraxt ko‘chatlarini ildiz tizimlarini ko‘mish chuqurligini aniqlashda mevali daraxt ko‘chatlari ildiz uzunligini o‘rganishdan tashqari payvandlash orqali ko‘paytirilgan payvantagli ko‘chatlarni payvandtaglarini tuproq bilan ko‘milib qolishini oldini olishga maqsadida e’tiborga olish kerak (1-rasm).



a) **b)**

1-rasm. Ko‘chatni payvandtagi (a) va uni tuproq bilan ko‘mish sathigacha bo‘lgan masofa (b)

Aks holda payvantagiga havo o‘tmasligi natijasida turli kasalliklarga chalinishi, mo‘rtlashishi va chirishi natijasida ko‘chatni kelgusida qurib qolishi yoki rivoji past bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga payvandtag ostidan yovvoyi navni o‘sib chiqishi natijasida mevali bog‘ sifatiga zarar keltiradi. Demak, payvantaglarni tuproq bilan ko‘milib qolishini oldini olish chegarasi bu ko‘mish cuqurligini maksimum chegarasini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

Akademik M.Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida o‘tqazilayotgan mevali daraxt ko‘chatlarini parametrlari bilan tanishib, xisob-kitob ishlari yuritidi. Ilmiy-tadqiqot instituti mutaxssislarini ma’lim qilishicha, yangi bog‘ barpo etish uchun asosan 1-2-3 yillik ko‘chatlar o‘tqazilishi takidlandi. O‘tqazilayotgan ko‘chatlarni shoxlari va ildizlarini o‘lchamlari olindi (1-jadval).

1-jadval

O‘tqazish uchun tayyorlangan 2-3 yillik mevali daraxt ko‘chatlarining shox va ildizlarining o‘lchamlari

T/r	**Daraxt ko‘chatini nomi**	**Shoxlari**, mm		**Ildizlari**, mm	
		uzunligi	**kengligi**	**uzunligi**	**kengligi**
1	Olma	148-152	310-340	190-230	180-220
2	O‘rik	165-173	360-420	220-220	200-240
3	Softoli	166-174	270-320	210-240	110-140
4	Bodom	161-170	410-470	210-250	180-240
5	Olxo‘ri	147-154	200-250	210-250	200-250
Jami	**O‘rtacha:**	**160**	**350**	**210**	**200**
	Maksimum:	**174**	**470**	**250**	**250**

Takidlanishicha, o‘tqazilayotgan ko‘chatlar standart talablariga javob beradigan bo`lishi kerak. Ko‘chatni mexanik shikastlangan, qurigan, o‘tqazish uchun xalaqit qiladigan bir qator ortiqcha shox va ildizlari o‘tkir bog‘ qaychisi yordamida qisqartiriladi. Bundan tashqari, ko‘chatlarni yahshi ko‘karib ketishi uchun ko‘chatni shox va ildizlari kuchliroq qisqartirilishi mumkin. Natijada dala sharoitida o‘tqazish uchun kovlab olingan ko`chatlarni shoxlari va ildizlarining uzunligi hamda kengligi bo‘yicha ma’lum darajada qisqarishiga olib kelinadi. Bu esa mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan mashina chuqur yumshatgich-egatochkich parametrlarini tanlashda muhum hisoblanadi. Ko‘chat o‘tqazishni osonlashtirish maqsadida ko‘chat shoxlarini o‘lchamlarini ham hisobga olish kerak bo‘ladi.

Ko‘chatni o‘tqazish chuqurligini hisoblash. O‘tqazish uchun tayyorlangan mevali daraxt ko‘chatlarini ko‘chat o‘tqazish agrotexnikasidan kelib chiqib tanlaymiz. Yuqoridagi 1-jadvaldan kelib chiqadigan xulosa shuki, mevalarning turlari, ularning ko‘chatlarini ildiz uzunligi(balandligi) maksimum 250 mm ga teng bo‘lar ekan.

Ko‘chatni o‘tqazish agrotexnikasiga asosan ko‘chat ildiz bo‘g‘zidan 60-80 mm ko‘milsa, ko‘chatni yahshi ko‘karib ketishi mumkin, lekin ko‘chat payvandtagini ko‘milib qolmasligini inobatga olinishi zarur. Bunda ko‘chat ildiz bo‘g‘zidan payvandtaggacha bo‘lgan masofa 65-70 mm gachaligini hisobga olinadi. Payvandtagni tuproq bilan ko‘milib qolmasligi uchun tuproq bilan payvandtaggacha bo‘lgan 25-30 mm masofani chiqarib tashlashimiz kerak. Demak, ko‘chat ildizi bo‘g‘zidan tuproq bilan ko‘milish balandligi 40 mm bo‘ladi.

Ko‘chat ildizini tuproq bilan ko‘milishi ko‘chat ildizini ildiz uzunligi maksimum 250 mm va ko‘chat ildiz bo‘g‘zini 40 mm ko‘milishini hisobga olsak, ko‘chat o‘tqazish chuqurligi kamida 290 mm ni tashkil qiladi.

Ko‘chatni o‘tqazish kengligini hisoblash. O‘tqazish uchun tayyorlangan mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazish agrotexnikasidan kelib chiqib tanlaymiz. Bunda, ko‘chatlarni ildiz kengligi asosiy o‘rin tutadi. Ko‘chatlarni shox-shabbalarini kengligi ko‘chatlarni o‘tqazish kengligiga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ko‘chatlarning ildiz tizimini tahlili shuni ko`rsatdiki, ko‘chatlarni o‘tqazish kengligini hisoblashda ko‘chatlarni asosiy ildizlari emas, balki yon so‘ruvchi ildizlarining o‘lchami muhum o‘rin tutadi. Bu so‘ruvchi ildizlar otqaziladigan ko‘chatni bevosita tuproq bilan faol birikib ketishi natijasida ko‘chatni tez ko‘karib amal olishida muhum o‘rin tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ko‘chatlarni yon ildizlarini kengligi kamida 250 mm ga tengligi aniqlangan edi. O‘tqazilayotgan ko‘chat ildizlarini tuproqdagi namlik va ozuqalardan samarali foydalanib, yahshi rivojlanishini ta’minlash uchun qo‘shimcha yumshoq qatlam hosil qilish maqsadida, ko‘chat ildizini yon so‘ruvchi ildizlarini ko`chatni rivojlanishini inobatga olish kerak bo‘ladi. Shu sababli ko‘chat ildizlarini ikki tomonidan qo‘shimcha 50 mm dan 100 mm miqdorida qo‘shimcha yumshoq tuproq qatlamini hosil qilsh maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu bilan mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan chuqur yumshatgich-egatochgichni kengligi kamida 350 mm ni tashkil qiladi.

Xulosa

O‘tqazish uchun tayyorlangan turli mevali daraxt ko‘chatlarini ildiz va shox qismlari o‘lchamlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot izlanishlaridan kelib chiqib, mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishni uzuluksiz amalga oshiradigan chuqur yumshatgich-egatochgichni ishlov berish chuqurligi kamida 300 mm va kengligini kamida 350 mm bo‘lishini lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ostonaqulov T.E., Narzieva S.X., B.X.G‘ulomov. Mevachilik asoslari. Qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlari talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011. 298 bet.

2. Исломов Е.И. Обоснование параметров комбинированного орудия для улучшения аридных пастбищ Узбекистана. Автореф. дисс.док.философии (PhD) по техн.наукам. – Ташкент. 2019.-С. 24.

3. Ribakov A.A., Ostrouxova S.A. Ўзбекистон мевачилиги. Qishloq xo‘jalik oliy o‘quv yurtlari talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2011. 515 bet.

4. Ergashev M., Akbarov I., Mukimov Z. Mevali daraxt ko‘chatlarini o‘tqazishning anaviy usullarini o‘rganib ko‘chat o‘tqazish mashinasini loyihash. Xalqaro Ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjumani. TIQXMMI milliytadqiqot universiteti BuxTRBI. 23-25 mart 2025 yil. 253-258 b.

UO‘T 631.31

ISHLOV BERISH CHUQURLIGI VA UNING BARQARORLIGI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NAZORAT ETILADIGAN VA BOSHQARILADIGAN TUPROQQA ISHLOV BERISH MASHINALARI

To‘xtaqo‘ziyev A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institute, t.f.d., prof.

Rasuljonov A.R.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d., k.i.x.

Komilov N.M.
Namangan davlat texnika universiteti, t.f.f.d., k.i.x.

Annotasiya. Maqolada ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalar asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan osma plug va chizel-kultivatorning konstruksiyalari va ishlash tamoyillari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены конструкции и принципы работы навесного плуга и чизель-культиватора, у которых глубина обработки и ее устойчивость контролируются и управляются на основе цифровых технологий.

Annotation. The article presents the designs and operating principles of a mounted plow and chisel cultivator, the processing depth and stability of which are controlled and controlled based on digital technologies

Ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi (bir tekisligi) barcha tuproqqa ishlov berish mashinalarining asosiy ish ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ishlov berish chuqurligi talab darajasida bo‘lsa va uning barqarorligi, ya’ni bir tekisda bo‘lishi ta’minlansa, ekinlarni bir tekis rivojlanishi va pishib yetilishiga hamda ulardan yuqori hosil olinishiga erishilinadi, aks holda esa, ya’ni belgilangan ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi ta’minlanmasa-o‘simliklarni notekis rivojlanishi va pishib yetilishi kuzatiladi, hosildorlik pasayadi [1-5].

Ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligini ta’minlash hamda ularni nazorat etish va boshqarish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan [6, 7].

Ushbu maqolada ishlov berish chuqurligi va uning barqarorligi raqamli texnologiyalar asosida nazorat etiladigan va boshqariladigan tuproqqa ishlov berish mashinalarining konstruksiyalari va ularning ishlash tamoyillari keltirilgan.


Tuproqqa ishlov berish mashinalari belgilangan chuqurlikka botib ishlashi va shu chuqurlikda barqaror yurishi uchun ularning tayanch g‘ildiraklari doimiy ravishda dala yuzasiga bosib turilishi va ular(tayanch g‘ildiraklar)ning tuproqqa tik bosim kuchi ma’lum bir maqbul qiymatga ega bo‘lishi lozim, ya’ni Q_Z=Q_M (bunda Q_Z – tuproqqa ishlov berish mashinasi tayanch g‘ildiraklari tomonidan tuproqqa beriladigan tik bosim kuchi, N; Q_M – tuproqqa ishlov berish mashinasi tayanch g‘ildiraklari tomonidan tuproqqa beriladigan tik bosim kuchining ishlov berish chuqurligi barqaror bo‘lishini ta’minlaydigan maqbul qiymati, N.) shart ta’minlanishi lozim. Agar Q_Z = 0 bo‘lsa tuproqqa ishlov berish mashinasi belgilangan chuqurlikka botmasdan ishlaydi, $Q_Z < Q_M$ bo‘lsa tuproqqa ishlov berish mashinasining tayanch g‘ildiragi dala yuzasidagi notekisliklarga yetarli darajada moslasha olmaydi va demak ishlov berish chuqurligining barqarorligi ta’minlanmaydi, $Q_Z > Q_M$ bo‘lganda esa mashinani tortishga ortiqcha energiya sarflanadi.

Ilgari bajarilgan tadqiqotlarda olingan natijalar bo‘yicha tuproqqa ishlov berish

Ushbu maqolada qurilmaning yumshatgich va o‘qyoysimon panjalarini belgilangan chuqurlikka botib ishlashini tadqiq etish bo‘yicha nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Adabiyotlardan ma‘lumki [3] qurilmaning yumshatkich va o‘qyoysimon panjalari belgilangan chuqurlikka botib ishlash uchun quyidagi shart bajarilishi lozim (rasmga qarang).

$$N_u > 0; \tag{1}$$

bunda N_u – tuproq tomonidan qurilmaning tayanch g‘ildiraklariga ta‘sir etuvchi umumiy reaksiya kuchi, N.



Qurilmaning yumshatgich va o‘qyoysimon panjalarini belgilangan chuqurlikka botib ishlashini tadqiq etishga doir sxema

Ilgari bajarilgan tadqiqotlar bo‘yicha [4].

$$N_u = \sqrt{1+\mu^2}\left\{\left[mg + R_{1xz}\sin\psi_{o'} + R_{2xz}\sin\psi_{o'}\right]\times\right.$$
$$\times\frac{H_2\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}\left[\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-X_B\right]}{(H_2-Z_B)\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-(H_3+h-H_1)X_B}-$$
$$-\left[R_{1xz}\cos\psi_{o'} + R_{2xz}\cos\psi_{o'}\right]\times$$
$$\times\frac{H_2(H_3+h-H_1)\left[\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-X_B\right]}{(H_2-Z_B)\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-(H_3+h-H_1)X_B} + mgl_2 +$$
$$+R_{1xz}\left\{\left[h_1(ctg\alpha_{o'}+ctg\psi_{o'})-l_1\right]\sin\psi_{o'} - H_1\cos\psi_{o'}\right\}+$$
$$\left.+R_{2xz}\left\{\left[L+h_2(ctg\alpha_{o'}+ctg\psi_{o'})-l_1\right]\sin\psi_{o'} - H_1\cos\psi_{o'}\right\}\right\}:$$
$$:\left\{\frac{H_2\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}\left[\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-X_B\right]}{(H_2-Z_B)\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-(H_3+h-H_1)X_B} + l_T +\right.$$
$$\left.+\mu\left\{\frac{H_2(H_3+h-H_1)\left[\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-X_B\right]}{(H_2-Z_B)\sqrt{l_b^2-(H_3+h-H_1)^2}-(H_3+h-H_1)X_B} + H_1 - h - 0{,}5d_T\right\}\right\}. \qquad (2)$$

bunda m – qurilmaning massasi, kg;

g – erkin tushish tezlanishi, g/cm^3;

R_{1xz}, R_{2xz} – mos ravishda qurilmaning yumshatkich va o‘qyoysimon panjalariga bo‘ylama-tik tekisligida ta‘sir etuvchi qarshilik kuchlarining teng ta‘sir etuvchilari;

H_1 – qurilma yumshatkich va o‘qyoysimon panjalaring tayanch tekisligidan uning pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofa, m;

H_2 – qurilmaning pastki va yuqori osish nuqtalari orasidagi tik masofa, m;

H_3 – traktorning tayanch tekisligidan osish mexanizmi pastki tortqilarining qo‘zg‘almas shartnirlari $A(A_1)$gacha bo‘lgan tik masofa, m;

l_b – traktor sh mexanizmi pastki tortqilarining uzunligi, m;

X_B, Z_B – mos ravishda traktor osish mexanizmi pastki va markaziy tortqilarining $A(A_1)$, B qo‘zg‘almas sharnirlari orasidagi bo‘ylama va tik masofalar, m;

ψ_{yu}, $\psi_{o'}$ – qurilmaning yumshatkich va o‘qyoysimon panjalariga ta‘sir etuvchi R_{1xz} va R_{2xz} kuchlarining gorizontiga og‘ish burchagi, °;

L – qurilmaning yumshatgich va quyosh panjalari orasidagi bo‘ylama masofa, m;

l_1 – qurilmaning pastki osish nuqtalari qurilmaning pastki osish nuqtalari $D(D_1)$ dan umshatish panjalari tig‘i (uchi) gacha bo‘lgan bo‘ylama masofa, m;

l_2 – qurilmaning pastki osish nuqtalari $D(D_1)$ dan uning og‘irlik markazigacha bo‘lgan bo‘ylama masofa, m;

h_1, h_2 – mos ravishda qurilmaning o‘qyoysimon panjalarining tig‘laridan ularga tuproq

tomonidan ta‘sir etuvchi qarshilik kuchlarining teng ta‘sir etuvchilari

R_{1xz}, R_{2xz} – qoyilgan nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofalar, m;

l_T – qurilmaning pastki osish nuqtalaridan u tayanch g‘ildirakining osish nuqtalarigacha bo‘lgan bo‘ylama masofa, m;

d_T – tayanch chig‘ildiraklarning diametri;

μ – qurilma tayanch g‘ildiraklarining dumalashga qarshilik koeffitsienti.

(2) ifodadan H_3, l_b, X_B, Z_B traktor bo‘yicha ma‘lum ekanligi, H_2 standartlashtirilganligi [5] m, R_{1xz}, R_{2xz}, ψ_{yu}, $\psi_{o‘}$, l_1, l_2, h_1, h_2 boshqarilmaydigan omillar bo‘lganligi, L texnologik jarayon ishonchli bajarilishi ya‘ni yumshatkich va o‘qyoysimon panjalaring orasiga katta kesaklar, begona o‘tlar, shox-shabbalar va o‘simlik qoldiqlari tiqilmasligi shartlaridan [6-9], hamda l_t va d_t lar konstruktiv jihatdan qabul qilinganligini hisobga olsak (1) shart ya‘ni qurilma yumshatkich va o‘qyoysimon panjalarning belgilangan chuqurlikka botib ishlashi asosan H_1, ya‘ni ularni tayanch tekisligidan u (qurilma)ning pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan tik masofani to‘g‘ri tanlash hisobiga H_2, ya‘ni qurilmaning pastki va yuqorigi nuqtalari orasidagi tik masofani o‘zgartirmagan (saqlagan) holda ta‘minlanadi.

Xulosa

Yuqorida o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar bo‘yicha shuni ta’kidlash mumkinki, qurilma yumshatkich va o‘qyoysimon panjalarning belgilangan chuqurlikka botib ishlashi qurilmaning pastki va yuqorigi nuqtalari orasidagi tik masofani o‘zgartirmagan (saqlagan) holda ta‘minlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Jo‘rayev F.O‘., Saidova G.K. Bog‘ qator oralariga ishlov beradigan universal qurilmaning tadqiqot maqsadi, vazifalari va dastlabki tajriba-sinov natijalari// SUV va YER resurslari jurnali. – Buxoro, 2024. №4 (1). –B. 60-66.

2. Саидова Г. Предварительное результаты экспериментальных исследований универсального устройство для обработки между садовыми рядами, цель и задачи исследования// Журнал научный импульс. – Москва. 2024. – С. 405-410.

3. Синеоков Г.И., Папов И.М. Теория и расчет почвообрабатывающих машин. -М.: Машиностроение, 1977. –С. 328.

4. Тухтакузиев А. Механико-технологические основы повышения эффективности почвообрабатывающих машин хлоководческого комплекса: Дисс. ...док.тех.наук. – Янгиюл, 1998. – С. 336.

5. To‘xtaqo‘ziyev A., Mansurov M., Rasuljonov A. Ish organlari ramaga qo‘zg‘almas biriktirilgan tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlash chuqurligi barqarorligini ta’minlashning ilmiy-texnik yechimlari // Toshkent: Muxr PRESS MCHJ, 2019. – 70 b.

6. Imomkulov K. B., Abdunazarov E. E. The results of the experiments conducted on the selection of the type of working body of the machine for burying pomegranate bushes //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 65-69.

7. Elmurodovich A. E. et al. Vegetable cultivation technology and basics of land preparation for planting //Механика и технология. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 170-175.

8. Qutbiddin, I., and AbdunazarovElbek KS Burying machine to pomegranate. "bushes." Journal of Critical Reviews 7.13 (2020): 1377-1381.

9. Abdunazarov E. E., Khamzayeva S. M. Анор тупларини кўмадиган машина уюмлагичи ён деворининг ҳаракат йўналишига нисбатан ўрнатилиш бурчагини назарий тадқиқ этиш //American journal of education and learning. – 2024. – Т. 2. – №. 5. – С. 1226-1233.

UO‘T 631. 31.06

YUMSHATKICH PANJANING ENINI ASOSLASH BO‘YICHA O‘TKAZILGAN TADQIQOTLAR

Xudoyarov A.N.
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute, t.f.d., prof.

Abdimominov I.A.
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute, t.f.f.d

Yuldasheva M.A.
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotasiya. Maqolada yumshatkich panjaning enini asoslash bo‘yicha o‘tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari yumshatkich panjaning eni 20 cm chuqurlikda devorlari zichlangan egatlar hosil qilmasdan ishlov berish uchun kamida 60 mm bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi.

Аннотация. В стате приведены результаты теоретических и эксперименталных исследований по обоснованию ширины рыхлителной лапы. Результаты проведенных исследований показали, что ширина рыхлителной лапы должна быт не менее 60 мм для обработки на глубине 20 см без образования борозд с уплотненными стенками.

Annotation. The article presents the results of theoretical and experimental studies on the justification of the width of the loosening tine. The results of the conducted research showed that the width of the cultivator tine should be at least 60 mm for processing at a depth of 20 cm without creating furrows with compacted walls.

Yerlarga ekish oldidan ishlov berish uchun qo‘llaniladigan kombinatsiyalashgan mashina va mashinalar tuproqni ekishga tayyorlash bo‘yicha bir nechta yoki barcha texnologik operatsiyalarni qo‘shib bajaradi. Natijada traktorlarning tuproqqa ko‘rsatadigan salbiy ta’siri kamayadi, ish sifati va unumi ortadi, tuproqqa ishlov berish muddati qisqaradi va undagi namni saqlanib qolishiga erishilinadi, yonilg‘i va boshqa xarajatlar sarfi kamayadi.

Yuqorida ta’kidlaganlardan kelib chiqib, Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan tuproqqa asosiy va ekish oldidan ishlov berish uchun energiya resurstejamkor hamda yuqori ish unumiga ega bo‘lgan mashinalar ishlab chiqish loyihasi bo‘yicha respublikamiz sharoitida yerlarni chigit ekish uchun tayyorlashda qo‘llaniladigan kombinatsiyalashgan mashina ishlab chiqildi. U rama, unga o‘rnatilgan osish qurilmasi, tayanch g‘ildiraklari hamda ish organlaridan iborat bo‘lib, ular bajariladigan jarayondan kelib chiqqan holda ramada ketma-ket joylashtirilgan. U yumshatkichlar (yumshatkich va o‘qyoysimon panjalar), tekislagich-zichlagich hamda plankali g‘altakmoladan tashkil topgan. Ish jarayonida yumshatkichlar tuproqni 14-24 cm chuqurlikka yumshatadi, tekislagich-zichlagich va plankali g‘altakmola ishlov berilgan qatlam yuzasini tekislaydi, zichlaydi hamda nam saqlanishini ta’minlaydigan mayin tuproq qatlamini hosil qilib ketadi, ya’ni daladan bir o‘tishdayoq tuproqni chigit ekishga tayyor holga keltiradi. Bu mehnat, energiya va yonilg‘i-moylash materiallari sarfini sezilarli darajada kamayishi hamda tuproqning ortiqcha zichlanmasligini ta’minlaydi.

Kombinatsiyalashgan mashina ish organlarining minimal energiya sarflangan holda yuqori ish sifatini ta’minlash maqsadida kombinatsiyalashgan mashina tuproqni yumshatuvchi ish organlarining turi va parametrlarini asoslashga yo‘naltirilgan. Shundan kelib chiqqan holda ushbu maqolada kombinatsiyalashgan mashina yumshatkichining enini asoslash bo‘yicha

o‘tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.


Yumshatkichining eni yumshatkich panja tomonidan ishlov berilgan qatlam tubida devorlari zichlangan egat hosil bo‘lmasligi shartidan aniqlaymiz [1]. Buning uchun quyidagi shart bajarilishi lozim:

$$h_{кр} \geq h\,, \tag{1}$$

bunda h_{kp} – yumshatkich panjaning kritik yumshatish chuqurligi, m;

h – belgilangan ishlov berish chuqurligi, m.

Aks holda, ya’ni $h_{kr}<h$ bo‘lganda ishlov berilgan qatlam tubida devorlari zichlangan egat hosil bo‘ladi (1-rasm) va buning natijasida tuproqning fizik-mexanik xossalari yomonlashadi hamda unga ishlov berish uchun befoyda energiya sarflanadi.



1 – ustun; 2 – yumshatkich panja

1-rasm. Yumshatkich panjaning enini aniqlashga doir sxema

Yumshatkich panja ko‘rinishidagi ish organlari uchun h_{kp} ni quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlash mumkin [2]:

$$h_{кр} = \frac{b_{ю}\left[0{,}1\dfrac{T_{э}}{[\tau_{к}]}\left(1+3tg\psi_{xz}\right)-n_{t}\right]}{m_{t}+tg\alpha_{ю}}, \tag{2}$$

bunda T_e – tuproqni ezilishga solishtirma qarshiligi;

$[\tau_k]$ – tuproqni siljishga kritik qarshiligi;

ψ_{xz} – yumshatkich panjaga ta’sir etuvchi tuproq qarshilik kuchlari teng ta’sir etuvchisini gorizontga nisbatan og‘ish burchagi;

n_t, m_t – tuproqning fizik-mexanik xossalariga bog‘liq bo‘lgan o‘lchov birliksiz koeffitsientlar.

(1) ifodani hisobga olgan holda (2) ifodani $b_{ю}$ ga nisbatan yechib, quyidagi ifodani olamiz [1, 2]:

$$b_{ю} \geq \frac{\left(m_{t}+ctg\alpha_{ю}\right)h}{\left[0{,}1\dfrac{T_{э}}{[\tau_{к}]}\left(1+3tg\psi_{xz}\right)-n_{t}\right]}. \tag{3}$$

m_t=4,2, $\alpha_{ю}$=30°, $T_э$=1,44·10^6 Pa, $[\tau_k]$=2·10^4 Pa, ψ_{xz} =40° hamda n_t=2,5 qabul qilib [3] (3) ifoda bo‘yicha yerlarga 20 cm chuqurlikda devorlari zichlangan egatlar hosil qilmasdan ishlov berish uchun yumshatkich panjaning eni kamida 5,2 cm bo‘lishi lozimligini aniqlaymiz.

Yumshatkich panjaning enini o‘rganishda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida yumshatilgan qatlam tubida hosil bo‘ladigan devorlari zichlangan egatning balandligi va uning tortishga

qarshiligi olindi, qo‘shimcha ravishda tuproqning uvalanish sifati va ishlov berish chuqurligi o‘rganildi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar bitta ish organiga, qo‘shimcha ko‘rsatkichlar esa laboratoriya-dala qurilmasi ramasiga izlarining kengligi 20 cm etib o‘rnatilgan ish organlarida o‘rganildi.

Tajribalarning natijalari quyidagi jadval va 2-4-rasmlarda keltirilgan.

1-jadval


Yumshatkich panjaning enini kombinatsiyalashgan mashina ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

Ko‘rsatkichlarning nomi	Ish organining eni, mm			
	40	50	60	70
Ishlov berish chukurligi, cm				
$M_{o'r}$	16,2/16,3	17,9/18,0	19,1/19,7	20,7/20,8
$\pm\sigma$	1,9/2,2	1,8/1,7	1,7/1,8	2,0/1,9
Quyidagi o‘lchamli (mm) fraksiyalar miqdori, %				
> 100	2,1/1,5	2,9/2,5	3,7/3,2	4,5/3,8
100-50	15,6/14,1	16,8/15,3	18,5/17,1	20,4/19,3
<50	82,3/84,4	80,3/82,2	77,8/79,7	75,1/76,9
Ish organining tortishga qarshiligi, kN				
$M_{o'r}$	1,40/1,73	1,55/1,88	1,75/2,15	1,99/2,41
$\pm\sigma$	0,21/0,22	0,18/0,27	0,23/0,19	0,30/0,25


Izoh: sur’atda ish tezligi *V=6* km/h bo‘lgan; maxrajda *V=9* km/h bo‘lgan.

Jadvalda hamda 2-rasmda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yumshatkich panjaning enini 40 mm dan 70 mm gacha o‘zgarishi ishlov berish chuqurligini ortishiga olib kelgan. Buni shu bilan izohlash mumkinki, ish organining eni ortishi bilan ishlov berilgan qatlam tubida hosil bo‘ladigan do‘ngliklarning balandligi va eni kamayadi. Bundan tashqari ish organining eni kichik bo‘lganda tuproqning kritik yumshatilish chuqurligi kamayib, ish organlari oralig‘ida tuproq yetarli yumshatilmaydi.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda ish organi enini oshishi tuproqning uvalanish sifatini yomonlashuviga, ya’ni ishlov berilgan qatlamda o‘lchami 100 mm dan katta va 100-50 mm oraliqda bo‘lgan kesaklar (fraksiyalar) miqdorini ko‘payishi, o‘lchami 50 mm dan kichik bo‘lgan fraksiyalar miqdorini, ya’ni tuproqning uvalanish darajasini kamayishiga olib kelgan. Buni ish organi eni ortishi bilan tuproqning deformatsiyalanish zonasi ortib, katta kesaklarni ko‘chish extimoli ortishi bilan izohlash mumkin. Tezlik yuqori bo‘lganda tuproqning uvalanish sifatini yaxshilanishi kuzatildi.



2-rasm. Ishlov berish chuqurligini yumshatkich panjaning eniga bog‘liqligi



1 – *V*=6 km/h; 2 - *V*=9 km/h.

3-rasm. Yumshatkich panjaning tortishga qarshiligini uning eniga bog‘liqligi

Jadval va 3-rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ish organining eni oshishi bilan har ikkala tezlikda ham uning tortishga qarshiligi ortgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan kombinatsiyalashgan mashina bilan tuproqqa ekish oldidan ishlov berilganda qatlam tubida devorlari zichlangan egat hosil bo‘lmasligi uchun yumshatkich panjaning eni 60 mm dan kam bo‘lmasligi lozim.

Xulosa

Daladan bir o‘tishda tuproqni belgilangan chuqurlikka yumshatilishi, uning yuza qismi tekislanishi, maydalanishi va talab darajasida zichlanishini ta’minlaydigan kombinatsiyalashgan mashinani qo‘llab bartaraf etish mumkin. Buning uchun kombinatsiyalashgan mashina hamda uning ish organlari parametrlarini asoslash bo‘yicha yangi tadqiqotlar o‘tkazilishini talab etadi.

Tuproqqa ekish oldidan ishlov beradigan kombinatsiyalashgan mashina energiyatejamkorlikni ta’minlash uchun uning yumshatuvchi ish organlari yumshatkich panjaning eni mos ravishda kamida 5,2 cm bo‘lmasligi lozim.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan kombinatsiyalashgan mashina bilan tuproqqa ekish oldidan ishlov berilganda qatlam tubida devorlari zichlangan egat hosil bo‘lmasligi uchun yumshatkich panjaning eni 60 mm dan kam bo‘lmasligi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Новиков Ю.Ф. Некоторые вопросы теории деформирования и разрушения пласта под воздействием двугранноно клина // Сборник научных трудов ЧИМЭСХ. – Вып. 46. – Челябинск, 1976. – С. 20-28.

2. Imomqulov Q.B. Kam energiya saflab tuproqqa ishlov beradigan mashinalarni yaratish: Diss. … t.f.d. – Toshkent, 2016. – 175 b.

3. Панов И.М., Сучков И.В., Ветохин В.И. Вопросы теории взаимодействия рабочих органов глубокорыхлителей с почвой // Исследование и разработка почвообрабатывающих машин: Сб. тр. ВИСХОМ. – Москва, 1988. – С. 43-61.

4. Abimominov I.I. Yerlarga ekish oldidan ishlov berishda qo‘llaniladigan kombinatsiyalashgan mashina yumshatkichlarining turini tanlash va parametrlarini asoslash: Dis. .t.f.f.d.(PhD)-Gulbaxor, 2022.-124 b.

UO‘T 631. 31.06.

O‘RMON KO‘CHATXONALARINI EKISHGA TAYYORLOVCHI MASHINANING ZICHLOVCHI ISH ORGANI

Xudoyarov A.N.
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, t.f.d., prof.

Voxobov A.A.
O‘rmon xo‘jaligi ilmiy-tadqiqot instituti Andijon filiali

Annotasiya. Maqolada o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlashdagi muammolar, ko‘chatxonalarini ekishdan oldingi ishlov berishga qo‘yilgan talablar hamda tuproqni ishlashdagi asosiy agrotexnik ko‘rsatkichlar va ularni nazorat qilish usullarining tavsifi keltirilgan hamda o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlovchi mashina uchun pushtani tekislab-zichlovchi ish organini qismlari va texnologik ish jarayoni bo‘yicha ma’lumotlar yoritilgan.

Аннотация. В статье изложены проблемы подготовки лесных питомников к посадке, требования к предпосадочной обработке питомников, основные агротехнические показатели обработки почвы и методы их контроля, а также приведены сведения об устройстве и технологическом процессе почвовыравнивающего и уплотняющего рабочего органа машины для подготовки лесных питомников к посадке.

Annotation. The article describes the problems of preparing forest nurseries for planting, requirements for pre-planting treatment of nurseries, the main agrotechnical indicators of soil cultivation and methods of their control, as well as information on the structure and technological process of the soil-leveling and compacting working element of the machine for preparing forest nurseries for planting.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rmon xo‘jaligi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagi «Respublikada o‘rmonlardan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4424-son qaroriga asosan [1], o‘rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, shu jumladan yangi o‘rmonzorlar barpo etish, ish o‘rinlarini tashkil etish, o‘rmonlardan qo‘shimcha foydalanishni rag‘batlantirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish maqsadida o‘rmon fondi yerlari foydalanuvchilarini qo‘llab-quvvatlashning bir kator yangi shakllari joriy etildi.

Tuproqqa sifatli ishlov berish birinchi galda bajariladigan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ekishdan oldin yerlarga ishlov beradigan mashinalarning vazifasi tuproq yuzasiga sifatli ishlov berish, shudgorlangan yerdagi palaxsa va kesaklarni maydalash, kuz-qishda va erta bahorda to‘plangan namni uzoq muddat saqlab turish, mayda donador, dala yuzasida mayin tuproq qatlamini hosil qilish, begona o‘tlarni bartaraf etish, dala yuzasini tekislash, tuproqda mikrobiologik faollikni oshirish, qatqaloqni yumshatish, tuproq qatlamini zichlash va shu bilan bir vaqtda mineral o‘g‘itlarni aralashtirish, sho‘r tuproqlarda esa tuzning yuqoriga ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaslik, ko‘chatlarni ko‘karishi va durkun rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir.

Dalani qishloq xo‘jalik ekinlarini ekishga tayyorlash yerni haydash, ekish oldidan tuproqqa ishlov berish, ko‘pgina dalalarda sho‘r yuvish va yaxob suvi berishdan iborat. Bu ishlar navbati, sug‘orish muddatlari, sug‘orish me’yorlari, ishlov berish chuqurligi, dalalar tuprog‘ining hususiyatlariga, sizot suvlarining joylashish chuqurligiga, bundan oldin ekilgan ekinlar turiga qarab aniqlanadi. Bunda fan yutuqlari, ilg‘orlar tajribasi va respublikaning xuddi ana shunday sharoitlarda ekin yetishtiradigan boshqa xo‘jaliklarning tajribalari hisobga olinishi kerak.

S.Roktanenning fikricha, tuproqning o‘z og‘irligi ostida cho‘kishi natijasida hosil bo‘ladigan zichlanishi “g‘ovaklik muvozanati”ga erishilgandan keyin to‘xtaydi. Bunday g‘ovaklik ob-havo sharoiti va tuproqning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan optimal g‘ovaklikka mos kelishi yoki undan farq qilishi mumkin [2].

Tuproqning “g‘ovaklik muvozanati” yoki g‘ovakligi-g‘ovak hajmining tuproqning umumiy hajmiga nisbati, foizda ifodalanadi. U tuproqdagi havo va suv tarkibini tavsiflaydi va uning fizik xususiyatlarini va o‘simliklarning o‘sishiga ta’sirini baholash uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi.

Tuproqning maqbul va haqiqiy zichliklari nisbati tuproqqa ishlov berish muddati, usuli va tegishli ish organlarini belgilashda asosiy omil bo‘lib hizmat qiladi. Barcha holatlarda tuproq namligi va o‘simlik qoldiqlari bilan ifloslanish darajasi, ob-havo va boshqa sharoitlar kabi parametrlarni hisobga olinishi kerak bo‘ladi.

Kam energiya sarfi bilan tuproqni samarali parchalanishini ta’minlash uchun tuproqqa ishlov berish uning fizik yetilish fazasida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Quyida tuproqni ishlashdagi asosiy agrotexnik ko‘rsatkichlar va ularni nazorat qilish usullarining tavsifi keltirilgan.

Granulometrik tarkib bu tuproqdagi har xil hajmdagi zarrachalarning ularning kimyoviy yoki mineral tarkibidan qat’i nazar foizda ifodalangan miqdori. Bu ko‘rsatkich tuproqning fizik holati va unumdorligini belgilaydi.

Tuproqning granulometrik tarkibi uni tayyorlash sifatiga bevosita bog‘liq. A’lo darajadagi tuproq strukturasida agregat hajmlari 0,25-10 mm bo‘lib, ularning optimal miqdori qora tuproqlarda 45-60% ni tashkil etadi. Tuproqdagi chang (zarrachalar 0,25 mm dan kichik) miqdori 30-40% gacha oshsa, tuzilma yomonlashadi. Shu sababli, agrotexnik talablar asosida ekish qatlamida 25 mm dan kichik agregatlar kamida 80% bo‘lishi kerak, shuningdek 50 mm dan katta bo‘laklarning tuproq sirtida bo‘lishi qat’iyan man yetiladi.

Tuproq zichligi bu tuproqning eng muhim fizik xususiyatidir. Tuproqning qattiq fazasi kg/m³ da, g‘ovaklik esa foizda ifodalanadi. Zichlik tuproqdagi havo, suv va issiqlik muhitiga ta’sir ko‘rsatadi, demak, barcha biologik jarayonlar uchun sharoit yaratadi. Shu sababli, tuproq zichligini nazorat qilish muhim va zarur.

Tuproqning g‘ovakliligini aniqlash uchun profilometr qo‘llaniladi. Profilometr bir necha joyda yer yuzasiga, ishlov yo‘nalishiga perpendikulyar holda joylashtiriladi. Uning har bir vertikal chizig‘i yer sirtiga tegib turishi kerak. Marza balandligi va egat chuqurligi 5 mm aniqlik bilan o‘lchanadi. O‘lchovlar soni kamida 60 ta bo‘lishi kerak. Keyin o‘rtacha arifmetik qiymat asosida o‘rtacha g‘ovaklilik aniqlanadi. Bundan tashqari, tuproq sirtining relyefini nusxalash orqali ipning cho‘zilishi o‘lchanadi va baho beriladi.

Tuproqning qattiqligi bu uning yorig‘lik va siqishga qarshi turish qobiliyatini ifodalaydi. Bu xususiyat o‘simlik ildizlarining rivojlanishiga, urug‘larning unishiga, shuningdek, tuproqning issiqlik, havo va suv rejimlariga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, tuproq qattiqligi qishloq xo‘jaligi texnikasining tortish qarshiligi darajasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Qattiqlik tvyordomer yordamida o‘lchanadi. Ko‘rsatkich kg/sm² birlikda ifodalanadi.

Ishlov chuqurligi bu ishlov berilmagan yer sirtidan ish organi tomonidan ochilgan egat tagigacha bo‘lgan masofadir. Chuqurlik shkalali lineyka yoki belgilangan metall tayoqcha yordamida o‘lchanadi. Baholash uchun dalaning diagonali bo‘ylab 25 ta o‘lchov amalga oshiriladi. Ishlov berilgan tuproqning yumshoqligi sababli haqiqiy chuqurlik biroz oshirib ko‘rsatiladi, shu sababli o‘rtacha chuqurlik 10-15 % ga kamaytiriladi.

Ishlov chuqurligidagi muttanosiblik-o‘rtacha chuqurlikning belgilangan qiymatdan og‘ishi orqali aniqlanadi. Bu og‘ish 10 % dan oshmasligi kerak.


Tuproq zichligi-bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun mexanik usullar (qumli, fiksajli, bur

usuli va boshqalar) qo‘llaniladi. Shuningdek, gamma nurlari, rentgen nurlari kabi turli nurlanishlarning material orqali o‘tishiga asoslangan asboblar yordamida ham zichlik aniqlanadi.

Hozirgi zamonaviy yerga ishlov beruvchi texnikalar yuqoridagi agrotexnik talablarga to‘liq javob bera olmaydi. Shu sababli, ushbu ko‘rsatkichlarga mos yangi tuproqni tekislovchi va zichlovchi agregat ishlab chiqish Respublikamizning o‘rmonchilik va ko‘chat yetirish sohasining rivojlanishi uchun dolzarb va muhim vazifadir.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganlardan kelib chiqib, o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlashda belgilangan agrotexnik talablarni bajarish maqsadida o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlovchi mashina [3, 4] uchun pushtani tekislab-zichlovchi ish organ taklif etilmoqda (1-rasm).

Taklif etilayotgan pushtani tekislab-zichlovchi ish organing texnologik ish jarayoni keltirilgan bo‘lib, u-old va yon tumshuqlar hamda sirpanuvchi asoslardan tashkil topgan.



1-old va yon tumshuqlar; 2-sirpanuvchi asos

1-rasm. Pushtaga shakl berib zichlovchi ish organining texnologik ish jarayoni

Pushtaga shakl berib zichlovchi ish organ texnologik ish jarayonida pushtaga shakl berib zichlovchi ish organ tumshug‘i hosil qilingan pushta profilida hosil bo‘lgan notekisliklarni tekislaydi, asoslari esa pushta profili bo‘ylab tuproq qatlamini zichlaydi.

Taklif etilayotgan ish organini qo‘llash bilan o‘rmon ko‘chatxonalarida ekilayotgan ko‘chatlarning ekish sifati yaxshilanadi hamda ekish jarayonidagi energiya sarfini kamaytirish imkoni yaratiladi.

Xulosa

O‘rmon ko‘chatxonalarining ekishga tayyorlash mavjud zamonaviy tuproqqa ishlov beruvchi mashinalar yordamida amalga oshirish imkoniyati talab darajasiga javob bermaydi.

O‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlashda belgilangan agrotexnik talablarni bajarish maqsadida o‘rmon ko‘chatxonalarini ekishga tayyorlovchi mashina uchun pushtani tekislab-zichlovchi ish organ taklif etilmoqda.

Taklif etilayotgan ish organini qo‘llash bilan o‘rmon ko‘chatxonalarida ekilayotgan ko‘chatlarning ekish sifati yaxshilanadi hamda ekish jarayonidagi energiya sarfini kamaytirish imkoni yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. https://lex.uz/uz.

2. Роктанэн Л.С. Плотность почвы как фактор плодородия и некоторые методики ее определения // Тр. Целиноградского СХИ, т. 8, в. 2.–1973. – С. 34-37.

3. A.N. Xudoyarov, M.A.Yuldasheva, I.A.Nazirjonov Investigating the rationale of dimensional elements in the ripper of a combined unit E3S Web of Conferences 497, 03024 (2024) ICECAE 2024.

4. A.N.Xudoyarov, M.A.Yuldasheva, I.A.Nazirjonov Results of studies on studying the influence of the number of speed of a rotary ripper on its working indicators. European multidisciplinary journal of modern science Special Issue: Use of Modern Innovation on Integrated Research

УДК 631.5;631.331.

ИЗУЧЕНИЕ СКОРОСТИ РЕЗАНИЯ ПОЧВЫ РОТОРОМ

Утепбергенов Б.К.
Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологии, к.т.н., доц.

Рамазанов Б.Н.
Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологии

Оразалиев М.Р.
Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологии

Аннотация. В статье приведены теоретические исследования работы ротора ротационной бороны с вертикальной осью вращения. Установлено, что для обеспечения качественного крошения комков почвы, образованных при вспашке, окружная скорость ножа ротора должно быть не менее 4,77 м/с. Расчеты, проведенные по известным формулам, показали, что для обеспечения этой окружной скорости ротора его частота вращения должна быть – 387 об/мин.

Annotasiya. Maqolada vertikal aylanish o‘qiga ega rotatsion borona rotorining ishlashining nazariy tadqiqotlari keltirilgan. Shudgorlashda hosil bo‘lgan kesaklarning sifatli uvalanishini ta’minlash uchun rotor pichog‘ining aylanma tezligi 4,77 m/s dan kam bo‘lmasligi kerakligi aniqlandi. Ma’lum formulalar bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblashlar rotorning ushbu aylanma tezligini ta’minlash uchun uning aylanish chastotasi - 387 ayl/min bo‘lishi kerakligini ko‘rsatdi.

Annotation. The article presents theoretical research on the operation of the rotary harrow rotor with a vertical axis of rotation. It has been established that to ensure high-quality crumbling of soil particles formed during plowing, the rotor blade's rotational speed should be at least 4.77 m/s. Calculations carried out using known formulas showed that to ensure this rotational speed of the rotor, its rotational speed should be - 387 rpm.

Как известно технология предпосевной предпосевной подготовки почвы в Республике Узбекистана состоит из нескольких самостоятельных операций, выполняемых в настоящее время чизель-культиваторами, зубовыми и дисковыми боронами и малой-выравнивателями.

Но при этом не всегда обеспечивается требуемое качество подготовка почвы к севу, особенно после озимых зерновых, так как из-за высокой температурой летного воздуха, способствующей интенсивному испарению влаги из почвы, и многократными проходами уборочных и транспортных средств, почва имеет низкую влажность и высокую твердость.

Поэтому некоторые из этих операций проводится неоднократно, что приводит к излишнему уплотнению и распылению почвы, уменьшению содержания в ней питательных элементов и гумуса, а также к затяжке сроков сева сельхозкультур.

Получение качественной разделки почвы возможно при применении почвообрабатывающих машин и орудий с активными (ротационными) рабочими, т.е. фрез. Они за один проход обеспечивают качественную подготовки почвы к севу, улучается водно-воздушный режим почвы, а также её биологическая активность. Почва, обработанная фрезой, обладает лучшими физическими свойствами, все это создает благоприятные условия для роста, развития растений и накопления урожая.

В зоне хлопководства исследованием технологического процесса работы орудий с

активными рабочими органами и обоснованием их параметров занимались Р.И.Байметов, А.А.Ахметов, У.Р.Игамбердиев, А.Тухтакузиев и др.

Работа этих ученых посвящены изучению кинематики и динамики почвообрабатывающих фрез, а также изучению влияния их конструктивных параметров и режимов работы на энергоемкость фрезерования почвы

В задачу теоретических исследований входило изучение кинематики и элементов технологического процесса работы ротора с вертикальной осью вращения и получение на этой основе аналитических зависимостей, позволяющих определить его режима работы и параметров, а также установить влияние их на агро-энергопоказатели работы ротора.

В исследованиях нами по аналогии с роторами ротационных борон ведущих зарубежных фирм («Лемкен», «Кьюн» и др.) число ножей ротора принято в количестве 2 шт, а диаметр – 0,235 м.

Скорость резания почвы в любой момент времени направлена по касательной к абсолютной траектории движения ножа ротора (рис.1).




Рис.1. Схема к определению абсолютной скорости точки М ротора

Скорость резания или абсолютная скорость движения ножа определяется как первые производные координат точек по времени, т.е.

$$V_o = dx/dt = V_П \pm R\omega\cos\omega t = V_П \pm V_o\cos\omega t \text{ ..(1)}$$

$$V_o = dx/dt = -R\omega\sin\omega t = -V_o\sin\omega t \text{ ...(2)}$$

Модуль абсолютного скорости ножа ротора

$$V_a = \sqrt{V_x^2 + V_y^2} = \sqrt{V_П^2 \pm 2V_П V_o\cos\omega t + V_o^2} \quad (3)$$

Учитывая, что $\lambda = V_O/V_П$ и $\omega t = \alpha$ уравнения (3) можно представить в следующем виде

$$V_a = V_П\sqrt{\lambda^2 \pm 2\lambda\cos\alpha + 1} \quad (4)$$

Из этого уравнения следует, что абсолютная скорость ножа ротора, иначе скорость резания почвы, величина переменная и изменяется в зависимости от угла поворота ротора в относительном движении.


Абсолютная скорость точек 1 и 2 (рис.1), расположенных на оси ротора, перпендикулярной к направлению его движения, определяются соответственно как

$$V_{a1} = V_o + V_П = V_П(1+\lambda) \quad (5)$$

и

$$V_{a2} = V_o - V_П = V_П(\lambda - 1) \quad (6)$$

На рис.2 показано изменение абсолютной скорости ножа ротора в зависимости от угла его поворота вертикальной оси при $V_П = 1{,}5$ м/с, R = 0,1175 м и различных значения λ.



1 – при $\lambda = 2{,}50$; 2 – при $\lambda = 3{,}00$;
3 – при $\lambda = 3{,}50$; 4 – при $\lambda = 4{,}00$

Рис.2. Изменение абсолютной скорости ротора в зависимости от угла α его поворота

Анализируя данные, приведенные на рис.2, приходим к выводу, что минимальное значение абсолютной скорости ротора приходится углу поворота его на 180° при всех рассматриваемых значениях показателя кинематического режима λ. Следовательно, на характер изменения абсолютной скорости ротора этот показатель не влияет.

На практике обычно для определения абсолютной скорости любой точки ножа, лежащей на окружности ротора, воспользуется годографом скоростей [1, 2].

Для построения годографа абсолютной скорости ножа необходимо соединить концы векторов V_{a1} и V_{a3} прямой линией и из точки O_2 пересечение этой линии с продольным диаметром ротора провести окружность, проходящую через концы векторов V_{a1} и V_{a3} (рис.3).

Как следует из рис.3 радиус окружности годографа

$$R_r = \sqrt{R^2 + \left(\frac{V_П + V_o}{K_V} - \frac{V_П}{K_V}\right)^2} = \sqrt{\left(R^2 + \frac{\omega}{K_V}\right)^2}, \qquad (7)$$

где K_V- масштаб скорости.

Абсолютная скорость точек окружности ротора равна по модулю произведению его угловой скорости ω на радиус, проведенной из мгновенного центра вращения O_1 к данной точке и направлена по нормали к этому радиусу.

Представленная на рис.3 схема наглядно показывает изменение абсолютной скорости ножа ротора как по величине, так и по направлению за полный оборот ротора.




Рис.3. Годограф абсолютной скорости ножа ротора

С целью обеспечения качественного крошения комков и глыб, почвы минимальная абсолютная скорость ножа должна быть равна или больше критической скорости, при которой произойдет их разрушение [3, 4], т.е.

$$V_{O\min} = V_o - V_П \geq V_{кр} = \sigma_B \sqrt{\frac{(J + mR^2)}{3EJ\rho(1-k^2)}}, \qquad (8)$$

где σ_B – предел прочности комков почвы, МПа;

J – момент инерции ротора относительно оси вращения, кгм^2;

m – масса комка почвы, взаимодействующего с ножом, кг;

E – модуль упругости комка почвы, МПа;

k – коэффициент восстановления комка почвы;

ρ – плотность комка почвы, кг/м^3;

Решая неравенство (8) относительно V_o, получим

$$V_O \geq \sigma_B \sqrt{\frac{(J + mR^2)}{3EJ\rho(1-k^2)}} + V_П . \quad (9)$$

Таким образом из этой неравенности можно определить окружную скорость ножа ротора. Принимая $V_П = 2{,}0$ м/с и подставляя (9) известные значения $\sigma_B = 0{,}15$ МПа, $E = 1{,}9$ МПа, $\rho = 1200$ кг/м^3, $m = 1{,}02$ кг, $J = 0{,}02$ кгм^2 и $R = 0{,}1175$ м, получим, $V_O \geq 4{,}77$ м/с.

Заключение

Теоретическими исследованиями установлено, что для обеспечения качественного крошения комков почвы, образованных при вспашке, окружная скорость ножа ротора должно быть не менее 4,77 м/с.

Расчеты, проведенные по известным формулам, показали, что для обеспечения этой окружной скорости ротора его частота вращения должна быть – 387 об/мин.

ЛИТЕРАТУРА

1. Синеоков Г.Н., Панов Н.М. Теория и расчет почвообрабатывающих машин. – М.: Машиностроение, – 1977. -328 с.

2. Садыков Р.О. Результаты сравнительных испытаний экспериментального и базового роторов// Современные тенденции развития аграрного комплекса. – 2016. – С. 1243-1245.

3 Садыков Р.О. Результаты сравнительных испытаний роторов ротационной бороны с вертикальной осью вращения //Принципы и технологии экологизации производства в сельском, лесном и рыбном хозяйстве. – 2017. – С. 301-304.

4. Tuhktakuziev A., Utepbergenov B.K. Combined implements for simultaneous loosening and levelling of soil surface //AMA, Agricultural Mechanization in Asia, Africa and Latin America. – 2002. - Т. 33. - №. 2. – С. 15-16.

UO‘T 631.313.1

G‘ALTAKMOLALI MOLA-TEKISLAGICHNING SANOAT NUSXASI SINOVLARINING NATIJALARI

To‘xtaqo‘ziyev A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.d., prof.

Xushvaqtov B.V.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.n., k.i.x.

Ergashev M.M.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.n., k.i.x.

Akbarov I.A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.f.d.

Annotasiya. Maqolada g‘altakmolali mola-tekislagichning sanoat nusxasi ishlab chiqilganligi va uning sinovlari natijalari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Sinovlarda ishlab chiqilgan g‘altakmolali mola-tekislagich belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko‘rsatkichlari unga qo‘yilgan talablarga to‘liq mos keldi.

Аннотация. В статье приведены сведение по разработке промышленного образца мала-выравнивателя с катком и результатам его испытаний. В испытаниях разработанный мала-выравниватель с катком надежно выполнял заданный технологический процесс и показатели его работы полностью соответствуют предъявляемым к ним требованиям.

Annotation. The article provides information on the development of an industrial design for a roller leveler and the results of its tests. In the tests, the developed roller leveler reliably performed the specified technological process and its performance indicators fully met the requirements

Ma’lumki, yerlarni ekishga tayyorlashdagi asosiy vazifa dalalar yuzasini tekislash, talab darajasida zichlash va undagi yirik kesaklarni maydalab, mayin tuproq qatlamini hosil qilishdan iborat. Hozirgi paytda mamlakatimizda bu maqsadda MV-6,0, MV-6,5 hamda xo‘jaliklarda mavjud bo‘lgan boshqa yasama mola-tekislagichlardan keng foydalaniladi. Ammo mavjud mola-tekislagichlar tirkama bo‘lganligi sababli foydalanish uchun noqulay, past manevrchanlik va ish unumiga ega, katta burilish maydonini talab etadi (va demak salt yurishga ko‘p vaqt sarflanadi). Bundan tashqari mavjud mola-tekislagichlarning zichlovchi qismlari tuproq bilan sirpanib ta’sirlashishi sababli ularning oldiga tuproqning ko‘plab uyulishi va ularning ishchi sirtlariga tuproq hamda o‘simlik qoldiqlarini yopishib qolishi kuzatiladi. Buning natijasida mola-tekislagichlarning ish sifati yomonlashadi va tortishga qarshiligi ortadi, yopishib qolgan tuproq va o‘simlik qoldiqlarini tozalash esa qo‘l kuchi bilan amalga oshiriladi. Bu esa ko‘p vaqtni talab etadi va agregatning bekor turib qolishi va ish unumining pasayishiga olib keladi. Buning natijasida yerlarni ekish uchun tayyorlashda yonilg‘i, mehnat va materiallar sarfi ortadi[1].

Olib borgan izlanishlarimiz mavjud mola-tekislagichlarning ta’kidlangan kamchiliklarini ularni osma etib tayyorlash hamda tuproqqa sirpanib ishlaydigan ishchi sirtga ega bo‘lgan zichlovchi qismini aylanib ishlaydigan ishchi qism, ya’ni g‘altakmola (katok) bilan almashtirish yo‘li orqali bartaraf etilishi mumkin ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda zichlovchi qismi g‘altakmoladan tashkil topgan osma mola-tekislagich (keyingi o‘rinlarda g‘altakmolali mola-tekislagich) ishlab chiqildi va uning parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi.

G‘altakmolali mola-tekislagich osish qurilmasi bilan jihozlangan rama, tekislaydigan ishchi qism (keyingi o‘rinlarda tekislagich) va g‘altakmoladan tashkil topgan bo‘lib, u dala bo‘ylab harakatlanganda tekislagich ishlov berilgan dala yuzasini tekislaydi, g‘altakmola esa o‘z o‘qi atrofida aylanib tekislagich tomonidan tekislangan dala yuzasini zichlaydi va undagi kesaklarni maydalaydi[2].

O‘tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar asosida jahon bankining “O‘zbekiston milliy innovatsion tizimini modernizatsiya qilish” (MUNIS) loyihasi “Ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish” dasturi doirasidagi “Keng qamrovli osma g‘altakmolali mola-tekislagichni tijoratlashtirishga tayyorlash” mavzudagi loyihasi bo‘yicha g‘altakmolali mola-tekislagichning konstruksiyasi yaratildi hamda 2 dona sanoat nusxasi “CHIRCHIQSELMASH” MChJda tayyorlanib, sinovlari o‘tkazildi.

1-rasmda ishlab chiqilgan g‘altakmolali mola-tekislagich sanoat nusxasining umumiy ko‘rinishlari tasvirlangan, 1-jadvalda esa uning texnik tavsifi o‘rin olgan.



1-rasm. G‘altakmolali mola-tekislagich sanoat nusxasining umumiy ko‘rinishi

Ishlab chiqilgan g‘altakmolali mola-tekislagich markaziy va o‘ng hamda chap yon seksiyalardan tashkil topgan bo‘lib, yon seksiyalar markaziy seksiya bilan bo‘ylama sharnirlar vositasida bog‘langan va gidrosilindrlar vositasida transport holatidan ish holatiga va ish holatidan transport holatiga o‘tkaziladi.

Ish holatida g‘altakmolali mola-tekislagichning markaziy va yon seksiyalari maxsus kronshteynlar va barmoqlar vositasida bir-biri bilan qattiq bog‘lanadi va bir butun qattiq sistemani hosil qiladi.

G‘altakmolali mola-tekislagichning har bir seksiyasi ko‘ndalang va ularni bir-biri bilan bog‘lovchi bo‘ylama bruslardan tashkil topgan bo‘lib, harakat yo‘nalishi bo‘yicha birinchi bo‘lib joylashgan ko‘ndalang brus tekislagich, ikkinchi brus esa g‘altakmola bilan jihozlangan. Markaziy seksiya osish qurilmasi va iz yumshatkichlar bilan jihozlangan.

Ishlab chiqilgan mola-tekislagichda uning tekislagichining tubidan pastki osish nuqtalarigacha bo‘lgan hamda pastki va yuqorigi osish nuqtalari orasidagi tik masofalarni o‘zgartirish nazarda tutilgan. Bu uning tuproqqa ko‘rsatadigan bosimini rostlash imkonini beradi.

Ta’kidlangan tik masofalarni o‘zgartirish uchun mola-tekislagich osish qurilmasining pastki va yuqorigi osish nuqtalari kronshteynlarida teshiklar ochilgan.

1-jadval

G‘altakmolali mola-tekislagichning texnik tavsifi

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomi va o‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlarning qiymati
1.	Turi	Osma
2.	Agregatlanadigan traktor klassi	3-4
3.	Qamrash kengligi, m	8,0

4.	Ish tezligi, km/h	6-8
5.	Asosiy vaqtdagi ish unumi, ha/h	3,6-4,8
6.	Massasi, kg	1350 ± 50
7.	Tashqi o‘lchamlari, mm: kengligi uzunligi balandligi	 8000 2180 1550

G‘altakmolali mola-tekislagichning sinovlari Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tajriba uchastkasining 8-dalasida yerlarni takroriy ekinlarni ekishga tayyorlash davrida o‘tkazildi. Sinovlar o‘tkazilishidan oldin tuproqning 0-10 va 10-20 cm qatlamlardagi namligi va qattiqligi aniqlandi. Ularning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Sinovlar o‘tkazilgan dala tuprog‘ining namligi va qattiqligi

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomi va o‘lchov birligi	Dastlabki talablar bo‘yicha	Ko‘rsatkichlarning qiymati
1.	Tuproqning qatlamlar bo‘yicha (cm) namligi, %: 0-10 10-20	o‘rtacha 16-18	15,8 16,6
2.	Tuproqning qatlamlar bo‘yicha (cm) qattiqligi, MPa: 0-10 10-20	Ko‘pi bilan 1,0	0,65 0,87



2-rasm. G‘altakmolali mola-tekislagichning ish jarayonining ko‘rinishi

Sinovlarda g‘altakmolali mola-tekislagich JINMA 1804 traktoriga qo‘shib ishlatildi (2-rasm), harakat tezligi 6 va 8 km/h etib belgilandi.

Sinovlarda g‘altakmolali mola-tekislagichning quyidagi ko‘rsatkichlari aniqlandi: harakat tezligi; tuproqning uvalanish sifati; 5-15 cm qatlamdagi tuproqning zichligi; harakat yo‘nalishi va unga ko‘ndalang yo‘nalishda dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi; ish unumi; yonilg‘i sarfi.

Harakat tezligi, tuproqning uvalanish sifati, tuproqning 5-15 cm qatlamdagi zichligi O’zDSt 3412:2019 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari” me’yoriy hujjat bo‘yicha aniqlandi, ish unumi va yonilg‘i sarfini aniqlash uchun xronometrik kuzatuvlar olib borildi va ekspluatatsion vaqt birligida ishlov berilgan maydon hamda yonilg‘i sarfi aniqlandi [3].

Sinovlarda olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Ishlab chiqilgan g‘altakmolali mola-tekislagich sinovlarining natijalari

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati		
		Dastlabki talablar bo‘yicha	Sinov natijalari bo‘yicha	
1.	Harakat tezligi, km/h	6-8	6,7	7,8
2.	Tuproqning uvalanish sifati, % >50 50-25 <25	 – – > 80	 4,7 11,7 83,6	 4,1 9,6 86,3
3.	Tuproqning 5-15 cm qatlamdagi zichligi, g/cm^3	1,1-1,2	1,16	1,14
4.	Dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, cm: - harakat yo‘nalishi bo‘yicha - ko‘ndalang yo‘nalish bo‘yicha	< ± 2 < ± 2	± 1,61 ± 1,43	±1,56 ± 1,37
5.	Ish unumi, ga/soat: - asosiy vaqtdagi - ekspluatatsion vaqtdagi	 3,6-4,8 2,84-3,79	 4,02 3,18	 4,68 3,54
6.	Yonilg‘i sarfi, kg/ha	–	3,08	3,13

Ularlan ko‘rinib turibdiki, tuproqning uvalanish darajasi, ya’ni o‘lchami 25 mm dan kichik fraksiyalarning miqdori 6 km/h harakat tezligida 83,6 foizni, 8 km/h harakat tezligida esa 86,3 foizni tashkil etgan, tuproqning zichligi mos ravishda 1,16 va 1,14 g/cm^3 bo‘lgan dala yuzasidagi notekisliklar balandliklarining o‘rtacha kvadratik chetlanishi 6 km/h harakat tezligida ± 1,43-1,61 cm ni, 8 km/h harakat tezligida esa ± 1,37-1,56 cm ni tashkil etgan.

Sinovlarda belgilangan ish tezliklarida, ya’ni 6-8 km/h harakat tezliklarida mola-tekislagichning tortishga umumiy qarshiligi 9,06-9,66 kN ni, solishtirma qarshiligi 1,51-1,61 kN ni, asosiy vaqtdagi ish unumi 4,02-4,68 ga/h ni, ekspluatatsion vaqtdagi ish unumi 3,18-3,54 ga/h ni, yonilg‘i sarfi 3,08-3,13 kg/ha ni tashkil etdi.

Sinovlarda olingan natijalar dastlabki talablarga to‘liq mos keladi. Sinovlarda g‘altakmolali mola-tekislagich belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning jiddiy kamchiliklari kuzatilmadi.

G‘altakmolali mola-tekislagichni sotib olish bo‘yicha buyurtmalar “CHIRCHIQSELMASH” MChJga berilishi mumkin.

Xulosa

O‘tkazilgan sinovlar natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan g‘altakmolali mola-tekislagich belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning ish ko‘rsatkichlari unga qo‘yilgan talablarga to‘liq mos keldi.

ADABIYOTLAR

1. Tukhtakuziev A., Ergashev M. M., Akbarov I. A. Small leveler with roller //Scientific-technical journal. – 2021. – T. 4. – №. 1. – C. 42-45.

2. Akbarov I. Determination of the vertical load applied to the roller breaker // The role of youth in agricultural science. Collection of articles of the Republican scientific-practical conference. - Tashkent, 2020. - pp. 344-348

3. O’zDSt 3412:2019 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi mashinalar va qurollar”. – Toshkent, 2019. – 54 b.

UDC 631.313.1

SOIL-CRUSHING MECHANISM OF BIAXIAL ROTARY TILLAGE BASED ON DISCRETE ELEMENT SIMULATION ANALYSIS

Chunsong Guan
Nanjing Institute of Agricultural Mechanization, Ministry of Agriculture and Rural Affairs, Nanjing, China

Jingjing Fu
Nanjing Institute of Agricultural Mechanization, Ministry of Agriculture and Rural Affairs, Nanjing, China

Guangqiao Cao
Nanjing Institute of Agricultural Mechanization, Ministry of Agriculture and Rural Affairs, Nanjing, China

Annotation. The article has explored the mechanism of biaxial layered rotary tillage and soil fragmentation based on discrete element simulation by establishing a biaxial layered tillage simulation model.


Annotasiya. Maqolada ikki o‘qli qatlamli rotatsion ishlov berish va tuproqni maydalash mexanizmi ikki o‘qli qatlamli ishlov berish modelini yaratish orqali diskret elementli modellashtirish asosida o‘rganilgan.

Аннотация. В статье исследуется механизм двухосного слоистого ротационного возделывания и дробления почвы на основе дискретного элементного моделирования путем создания модели двухосного слоистого возделывания.

Materials and Methods

Establishment of soil bin model

In order to truly reflect the actual field soil and consider the soil stratification and cutting effect, the discrete element method is used to establish the surface and bottom layer soil models. The surface soil has a higher density and lower viscosity than the bottom soil; the bottom soil has a lower density and larger particles. In this study, the surface soil particle size was 7 mm and the bottom soil particle size was 14 mm. A virtual soil bin with dimensions of 2000 mm long × 1600 mm wide × 250 mm high was established (Fig.1).




1-surface layer soil 2-bottom layer soil

Fig.1 Soil bin model

Establishment of biaxial rotary tillage component model

The biaxial rotary tillage components primarily consist of a rotary roller and a crushing roller. The rotary roller is 1200 mm long, with a 95 mm radius. The blades are 30 IS225 rotary tillage blades. The crushing roller is a drum structure densely covered with soil-crushing teeth. The drum's length matches the rotary tillage roller's dimensions, and its radius is 140 mm. The teeth are arranged in four rows, with 7 cm spacing between adjacent teeth (Fig.2).




1-rotary tillage roller 2-crushing roller

Fig.2 Geometric model of biaxial rotary tillage component

Establishment of simulation model

The discrete element parameters of soil and rotary tillage components are set based on actual test performance and references [1-3]. During the simulation, the X-axis was the forward direction, the acceleration due to gravity along the Y-axis was 9.8 m/s, the machine's forward speed was 0.8 m/s, and the rotary blade's penetration depth was 150 mm. The simulation was performed with horizontal and vertical spacing of 540 mm and 100 mm, respectively. And the rotation speed of rotary blade and crushing roller was 280 r/min and 450 r/min, respectively. After setting these parameters, the simulation began. After the simulation concluded, data was exported and analyzed using the post-processing module.




1-soil bin 2-rotary tillage roller 3-crushing roller

Fig.3 EDEM simulation model


Results and Discussion

Analysis of soil stratification disturbance processes

Kombinatsiyalashgan agregat ikki qismdan: ochilgan egatlar ustiga va pushtalarga (ekish zonasi) plyonka to‘shaydigan va poliz ekinlari ko‘chatlarini to‘shalgan plyonka ustidan pushtalarga (ekish zonasi) ekadigan ko‘chat ekish qurilmasidan tashkil topgan bo‘lib uning ish jarayoni quyidagicha kechadi. Qurilmaning oldida joylashgan shibbalovchi katoklar 20 ko‘chat ekish zonasini trapesiya shakliga keltirib, kerakli zichlikda zichlab va shibbalab, pushtalarga shakl berib ketadi, ortidan pushtaning o‘stiga tomchilatib sug‘orish quvurini yotqizadigan ish organi ekish zonasidan ko‘ndalangiga 5 cm masofada tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizadi, so‘ngra ochish disklari 18 egat va pushtalar ustiga to‘shaladigan plyonkaning ikki chetini ko‘mish uchun chuqurligi 10 cmga teng bo‘lgan ariqchalarni ochib ketadi, plyonka to‘shagich 7 egat va ikkita pushtani plyonka bilan qoplaydi, ketidan plyonka chetlarini tuproqqa tekislab yotqizuvchi moslama 17, ochish disklar 18 yordamida ochilgan ariqchalarda harakatlanib to‘shalgan plyonkaning ikki chetini tuproqqa tekislab bosib, ko‘mish disklari 16 plyonkaning ikki chetini tuproq bilan ko‘mib ketadi. So‘ngra to‘shalgan plyonka ustiga tuproq yotqizuvchi moslama 14 pushta tepasiga ekiladigan ko‘chatlarning chetlari ochilib qolmasligi uchun eniga 7 sm qilib tuproq to‘shab ketadi.



1-rama; 2-osish qurilmasi; 3-tomchilatib sug‘orish quvur rulonini o‘rnatish moslamasi; 4-tomchilatib sug‘orish quvuri; 5-parallelogarmm mexanizmi; 6-plyonka rulonini o‘rnatish moslamasi; 7-plyonka to‘shagich; 8-ko‘chatlarni qo‘yish uchun moslama; 9-o‘rindiq; 10-ko‘chat ekish qurilmasi; 11-ko‘chat ekkich; 12-zichlagich; 13-harakat uzatuvchi g‘ildirak; 14-plyonka o‘stiga tuproq yotqizuvchi moslama; 15-plyonka o‘stiga tuproq yotqizuvchi moslamaga tuproq uzatuvchi disk; 16-ko‘mish disklari; 17-plyonka chetlarini tuproqga tekislab yotqizuvchi moslama; 18-ochish disklari; 19-tomchilatib sug‘orish quvurini yotqizadigan ish organi; 20-shibbalovchi katoklar.

3-rasm. Poliz ekinlarini ko‘chat usulida plyonka ostiga ekadigan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi



1-plyonka; 2-tomchilatib so‘g‘orish quvuri; 3-ko‘chat; 4-egat; 5-pushta.

4-rasm. Kombinatsiyalashgan agregat o‘tganidan keyingi pushta ko‘rinishi.

Ko‘chat ekish qurilmasi 10 harakat uzatuvchi g‘ildirak 13 orqali zanjirli uzatmalar yordamida aylanma harakatlanib, poliz ekinlari ko‘chatlarini pushtalarga, plyonkani teshib tuproqqa ekib ketadi, zichlagich 12 esa ekilgan ko‘chatlarning chetlarini tuproqqa botirib zichlab ketadi.

O‘rindiq 9 da o‘tirgan ishchi ko‘chat ekkich 11 ga ko‘chatlar qo‘yilgan moslama 8 dan

o‘tiradi.

Kombinatsiyalashgan agregat 1,5–2 km/soat harakat tezligida harakatlanadi.

Xulosa

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan agregatning konstruktiv sxemasi asosida uning tajriba nusxasi tayorlanib, amaliyotda qollanilsa, poliz ekinlari ko‘chatlarini plyonka ostiga ekish texnologiyasi butunlay mexanizatsiyalashadi, qo‘l mehnati va boshqa harajatlar keskin kamayadi hamda ish sifati va unimi oshadi.

ADABIYOTLAR

1. https://lex.uz/docs/4567334
2. https://ourworldindata.org/explorers/global-food?tab=chart&Food=Watermelons&Metric=Land+use&Per+capita=false&country=~OWID_WRL
3. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/45878-respublika-bo-yicha-qancha-maydonga-poliz-ekinlari-ekilgan
4. P.F.Orinbayev, B.B.Ramazanov, Z.M.Kalmuratova O‘zbekistonda poliz ekinlarini yetishtiruchi xo‘jaliklar tomonidan qo‘llanilayotgan texnologiya// Qurilish va ta‘lim ilmiy jurnali – Namangan, 2025. – № 3. – B. 280-283.
5.https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0304423824004990?utm_source=chatgpt.com
6. https://www.purdue.edu/hla/sites/yardandgarden/seed-versus-transplant/?utm_source=chatgpt.com
7. https://cals.cornell.edu/school-integrative-plant-science/school-sections/horticulture-section/outreach-and-extension/pandemic-vegetable-gardening/pandemic-vegetable-gardening-2021-archive/transplants-or-direct-seeding-whats-best?utm_source=chatgpt.com
8. Mevali bog‘ qator oralarida sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2015. – 23 b.
9. Surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, yuqori hosildor sabzavot va poliz urug‘lari navlarini saralab olish va o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish” bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent, Tafakkur, 2016. – 77 b.

UO‘T 631.331

POLIZ EKINLARI URUG‘LARINI EKISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Allaniyazov S.
Nukus davlat texnika universiteti, t.f.n.

Ramazanov B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institute, PhD

Ablatova G.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada poliz ekinlari urug‘larini ekishda bugungi kunda respublikamizda qo‘llanilayotgan texnologiyalar tahlil qilingan va ularni takomillashtirishga qaratilgan poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini aniq ekadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi keltirilgan.

Аннотация. В статье анализируются технологии, применяемые в нашей республике при посеве семян бахчевых культур, и представлена конструктивная схема комбинированной машины, которая одновременно подготавливает почву и точно сеет семена бахчевых культур,исключая применение ручного труда.

Annotation. The article analyses the technologies used in our republic for sowing melon seeds and presents a design diagram of a combined machine that simultaneously prepares the soil and accurately sows melon seeds, eliminating the need for manual labour.

Poliz ekinlarini yetishtirish texnologiyasi dehqonchilikda eng qadimiy usullardan biri hisoblanadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sug‘orish jarayonida nihollar va hosil chirishining oldini olish maqsadida ekin maydonlarida egat va pushtalarni olish zarur. Shu bilan birga, yetishtiriladigan ekin turiga qarab egat va pushtalarning chuqurligi hamda kengligi turlicha bo‘ladi [1].

Poliz ekinlari urug‘larining unib chiqishi, avvalo, ularni to‘g‘ri muddatda ekish bilan uzviy bog‘liq. Respublikamizning markaziy hududlarida qovun va tarvuzning ertapishar navlari 15-aprelgacha, o‘rtapishar navlari 20-apreldan 10-maygacha, kechpishar navlari esa 15 maydan 10-iyungacha ekiladi. Janubiy viloyatlarda ertapishar navlar uchun eng qulay muddat 10 aprelgacha, o‘rtapishar navlar uchun 10-20-aprel, kechpishar navlar uchun esa 10-20 iyun hisoblanadi. Shimoliy viloyatlarda esa ertapishar qovun va tarvuzlar 20-aprelgacha, o‘rtapisharlari 25-apreldan 10-maygacha, kechpishar navlari esa 20-30 may oralig‘ida ekilishi tavsiya etiladi [2].

Poliz ekinlari urug‘larini ekish ishlari agrotexnik talablarga muvofiq tuproqning 8-10 cm chuqurlikdagi qatlamida harorat +12…+15 °C darajaga yetganda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki bu turdagi egatlar qator oralariga ishlov berish jarayonida to‘rt g‘ildirakli traktorlardan samarali foydalanish imkonini beradi. Ekish sxemasi qovun va tarvuz uchun (210+70):2×70 yoki (270+90):2×70 cm, qovoq uchun esa (450+90):2×90 cm qilib belgilanadi. Urug‘lar 3-6 cm chuqurlikda joylashtiriladi. Mayda urug‘li qovun va tarvuz navlarini ekishda gektariga o‘rtacha 4 kg, yirik urug‘li tarvuzlar uchun 5-6 kg, qovoq urug‘larini ekish uchun esa 3-5 kg urug‘ sarflanishi talab etiladi [3].

Hozirgi kunda MDH mamlakatlari hamda respublikamizda poliz ekinlari urug‘larini ekish jarayonida turli texnologiyalar qo‘llanilmoqda [4]. Mazkur maqolada ushbu texnologiyalarning afzalliklari va mavjud kamchiliklari tahlil qilingan.


Respublikamiz fermer xo‘jaliklarida poliz mahsulotlarini yetishtirish odatda, kuzda shudgorlab qo‘yilgan maydonlarda erta bahorda chizellash va ekish oldi ishlov berishdan boshlanadi. Keyin esa egatochgichlar yordamida egatlar ochilib, ularga organik o‘g‘itlar solinadi, so‘ngra o‘g‘it solingan egatlar okuchnik yordamida ko‘milgan holda pushta shakllantiriladi. Shu tarzda tayyorlangan pushtalarga poliz ekinlari urug‘lari yoki ko‘chatlari asosan qo‘l mehnati bilan ekiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda qo‘llanilayotgan mavjud agrotexnologiyalarda qo‘l mehnati hamda yonilg‘i-moylash materiallari sarfi yuqori hisoblanadi. Shu bilan birga, agrotexnik talablarga muvofiq belgilangan ishlar ko‘p vaqt talab etishi natijasida tuproqdagi namlikning yo‘qolishi kuzatiladi. Bundan tashqari, poliz ekinlari urug‘lari yoki ko‘chatlari asosan qo‘l mehnati orqali ekilishi ularni yetishtirish jarayonida mehnat unumdorligini pasaytiradi va ish jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Ana shu jihatlar amalda qo‘llanilayotgan texnologiyaning asosiy kamchiliklari sifatida qayd etiladi.

Ushbu keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida QXMITI olimlari tomonidan poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini ekadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan (1-rasm).

Kombinatsiyalashgan mashina osish qurilmasi 2 bilan jihozlangan rama 4, eksgauster 3, bunker 5, ekish apparati 6, zichlagich 7, ko‘mgich 8, ekkich 9, freza 10, egatochgich 11, tayanch g‘ildirak 12 va parallelogramm mexanizm 13 dan iborat.

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruksiyasi ikki qismdan: ya’ni yerlarni bir yo‘la ekishga tayyorlaydigan va poliz ekinlari urug‘larini aniq ekadigan pnevmatik ekish seyalkasidan iborat bo‘lib, uning ish jarayoni quyidagicha kechadi: ramaning oldingi qismiga o‘rnatilgan egatochgich 11 sug‘orish egatlarini ochib ketadi. Freza 10 sug‘orish egatini ochish jarayonida tuproq yuzasida hosil bo‘lgan yirik kesaklarni maydalab, urug‘larni ekish uchun mayin tuproq qatlamini hosil qilib ketadi.



1-traktor; 2-osish qurilmasi; 3-eksgauster; 4-rama; 5-bunker; 6-ekish apparati; 7-zichlagich; 8-ko‘mgich; 9-ekkich; 10-freza; 11-egatochgich; 12-tayanch g‘ildirak; 13-parallelogramm mexanizm

1-rasm. Poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini ekadigan kombinatsiyalashgan mashinaning konstruktiv sxemasi

So‘ngra pnevmatik seyalkaning ekkichi 9 tayyorlangan pushtalarning tepa qismiga poliz ekinlari urug‘larini aniq ekib, ko‘mgich 8 lar bilan ko‘madi va zichlagich 7 yordamida zichlab ketadi.

Ushbu kombinatsiyalashgan mashina yordamida yerlarni tayyorlashda quyidagi

samaradorlikka erishish mumkin. Birinchi navbatda, egatochgich sug‘orish egatini ochadi va freza urug‘ ekish uchun zarur bo‘lgan mayin tuproq qatlamini hosil qiladi. Bu esa urug‘larni bir xil chuqurlikda va optimal sharoitda joylashishiga zamin yaratadi. Pnevmatik ekish apparati urug‘larni aniq me’yorda va bir tekis ekish imkonini berib, ko‘chatlarning bir hil o‘sib chiqishini ta’minlaydi. Shuningdek, ko‘mgich va zichlagichlar yordamida urug‘lar tuproq bilan yetarlicha ko‘miladi hamda yaxshi namlikni saqlaydi. Natijada, bir nechta texnologik operatsiyalar bitta ish jarayonida bajariladi, qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyoj keskin kamayadi, yonilg‘i-moylash materiallari sarfi tejaladi va eng asosiysi-agrotexnika talablariga to‘liq rioya etilgan holda ish sifatli bajariladi. Shu orqali tuproqdagi namlikning yo‘qolishi oldi olinadi va tuproqning ortiqcha zichlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Bundan tashqari, poliz ekinlarining urug‘lari yuqori aniqlikda ekilishi sababli, o‘sish va rivojlanish jarayoni barqaror kechadi hamda hosildorlikning ortishiga erishiladi.

Xulosa

Poliz ekinlarini ekish uchun bir yo‘la yerlarni tayyorlaydigan va urug‘larini aniq ekadigan kombinatsiyalashgan mashina qo‘llanilganda qo‘l mehnatiga barham berilib, kam sarf- xarajatlar bilan yuqori hosil olishga erishish ta‘minlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mamatov F.M., Xudayarov B.M., Rajabov A.X. Paxta dalalarida pushta olishning ilmiy-texnik asoslari. – Toshkent: Navruz, 2018. – B.28-34.

2. Mevali bog‘ qator oralarida sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2015. – 23 b.

3. Surxondaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitiga moslashgan, yuqori hosildor sabzavot va poliz urug‘lari navlarini saralab olish va o‘z vaqtida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish” bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent, Tafakkur, 2016. – 77 b.

4. Orinbayev.P Poliz ekinlari urug‘larini ekish texnologiyalarining tahlili // Qishloq va suv xo‘jaligining zamonaviy muammolari:/ XXI - yosh olimlar, magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. – Toshkent: TIQXMMI, 2022. – B. 870-874.

УДК.631.331.99

РЕЗУЛЬТАТЫ СТЕНДОВЫХ ИСПЫТАНИЙ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОГО КАТУШЕЧНОГО ВЫСЕВАЮЩЕГО АППАРАТА НА ВЫСЕВЕ СЕМЯН КОРМОВОЙ ПОЛЫНИ

Умаров Ш.Г.
Научно-исследовательский институт механизации сельского хозяйства базовый докторант

Хазиев С.А.
Научно-исследовательский институт механизации сельского хозяйства (PhD)

Аннотация. В статье приведены результаты стендовых испытаний экспериментального катушечного высевающего аппарата на высеве семян кормовой полыни для условий аридной зоны Узбекистана, где обоснованы нормы и равномерность высева в зависимости от параметров и режимов работы предлагаемого аппарата.

Annotasiya. Maqolada O'zbekiston arid zonasi sharoitlari uchun xashak bop shuvoq urug'larini ekishda eksperimental g'altakli ekish apparatining stend sinovlari natijalari keltirilga. Bu erda tavsiya etilgan qurilmaning parametrlari va ish rejimlariga qarab ekish meyyorlari va bir xilligi organilgan.

Annotation. This article presents the results of bench tests of the experimental reel seeding apparatus on the sowing of fodder wormwood seeds for the conditions of the arid zone of Uzbekistan, where the norms and uniformity of sowing are substantiated depending on the parameters and modes of operation of the proposed apparatus

В настоящее время семена пустынных кормовых растений, в частности, кормовой полыни, высевают вручную. Многолетние изучения зарубежных исследователей В.П. Горячкина, А.Н. Семёнова, Г.М. Бузенкова, А.Н. Карпенко, С.А. Ма, В.Т. Солдатова а также отечественных Т.Мусаева, С.Мамаджанова, Э.Фарманова и других [1-5] показывают, что для высева несыпучих семян трав можно применять сеялки с катушечными высевающими аппаратами. Катушечный высевающий аппарат, в сравнении с другими типами высевающих аппаратов на высеве семян различных растений, обладает рядом положительных качеств. К числу таких следует отнести, прежде всего, сравнительную простоту устройств и удобства регулировки. Постоянство высева этим аппаратом достаточно высокое, количественная равномерность высева также довольно высока, и при этом неравномерность составляет в пределах 6 – 10% при агротребовании 20% [1-5].

Исходя из вышеуказанных нами проведены испытания экспериментального катушечного высевающего аппарата на высеве семян кормовой полыни. Изучение работы катушечного высевающего аппарата со сводоразрушительным устройством на высеве семян кормовой полыни, изготовленного на базе почвообрабатывающего посевного агрегата АЯМ-2, сеялок СНП-1 и СПК-0,7, предназначенных для высева семян саксаула, изени, камфоросмы и чогона проводились на лабораторном стенде (рис.1). Вариатором и перестановкой сменных приводных звездочек проводилась регулировка режимов работы аппарата.

При испытаниях изучены норма и неравномерность высева высевающим аппаратом в зависимости от числа оборотов катушки и нормы высева семян при различной ширине междурядья и чистоте семян.

В испытаниях чистота семян полыни составляла в пределах 25-100%, норма высева в пределах 3,0-120,0 kg/ha.





Рис. 1. Кинематическая схема лабораторного стенда для изучения высевающих аппаратов


Определение чистоты полыни и исследования высевающего аппарата проводились по общеизвестным методикам. Данные исследований приведены на рисунках 2 и 3.

Результаты исследований показали, что при высеве семян полыни катушечным высевающим аппаратом со сводоразрушительным устройством наблюдается даже визуально порционность вывода семян из аппарата желобками катушки. Однако постоянство высева остаётся достаточно удовлетворительным, т.е. даже, казалось бы, при значительной порционности вывода семян из аппарата, количество высева за оборот катушки изменяется мало (рис.2).


Полученные результаты по неравномерности высева в зависимости от нормы высева и чистоты семян (рис.3) показали, что чем больше засоренность тем выше неравномерность. Кроме того, на неравномерность сказывается и ширина междурядий.



А




Б



В Г

1-минимальная, 2-средняя, 3-максимальная нормы высева за один оборот катушки

Рис.2 Количественная равномерность высева семян полыни при ширине междурядья 45 (А); 60 (Б); 70 (В) и 90 (Г) cm



А – В = 45 cm; Б – В = 60 cm; В – В = 70 cm; Г – В = 90 cm.
1 – $W_ч$ = 100 %; 2 – $W_ч$ = 75 %; 3 – $W_ч$ = 50 %; 4 – $W_ч$ = 25%.

Рис. 3 Неравномерность высева *q* семян полыни в зависимости от нормы высева Q_p, чистоты семян $W_ч$ и ширины междурядия *B*

Неравномерность высева находится в зависимости от чистоты семян в пределах, соответственно, при междурядье 45 cm: 100 % - 1,7- 2,4%; 75 % - 1,8 – 4,9 %; 50 % - 2,8 – 3,5 %; и 25 % - 3,9 - 5,5 %; при междурядье 60 cm: 100 % - 1,2 - 2,1 %; 75 % - 1,2 - 2,2 %; 50 % - 2,6 % - 4,1 %; и 25 % - 2,9-5,4 %; на междурядьях 70 cm: 100 % - 1,3 - 1,9 %; 75 % - 1,6 - 2,1 %; 50 % - 2,3 - 3,3 % и 25 % - 3,3 - 10,0 %; а междурядье 90 cm: 100 % - 1,4 - 2,0 %; 75 % - 1,7 - 2,4 %; 50 % - 2,7 - 3,5 %; и 25 % - 3,1 - 9,8 %.

По результатам видно (рис.3), что при меньшей норме высева для каждого междурядья и чистоты семян неравномерность выше, чем при оптимальной норме высева. Несмотря на это необходимо отметить, что полученная неравномерность во всех случаях находится в пределах агротехнических требований (не более 20%).

Заключение

Экспериментальный катушечный высевающий аппарат со сводоразрушительным устройством обеспечивает норму и неравномерность высева семян кормовой полыни, соответственно, в пределах 30,0-120,0 kg/ha и 1,2-10,0% в зависимости от засорённости семян, которые допускаются до 75%. Неравномерность высева по агротехническим требованиям не более 20,0%.

Катушечный высевающий аппарат со сводоразрушительным устройством можно регулировать на междурядье по агротребованиям для полыни в пределах 45-90 cm, при этом норма высева устанавливается рабочей длиной катушки, зазором между катушкой и клапаном и числом оборотов катушки, которые изменяются, соответственно, в пределах 5-30 mm, 5-55 mm и 1-3 оборотов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Шамсутдинов З.Ш. Создание долголетних пастбищ в аридной зоне Средней Азии. – Ташкент. Фан. 1975. с. 3-163.

2. Агротехнические указания по улучшению пустынных и полупустынных пастбищ Узбекистана. – Ташкент. 1969. с. 1-29.

3. Бузенков Г.М., С.А. Ма. Машины для посева сельскохозяйственных культур. – Москва, Машиностроение. 1976, 272с.

4. Мусаев Т. Комбинированный посевной агрегат для пастбищ. ж. Сельское хозяйство Узбекистана. 1975. №3, с.31-32.

5. Фармонов Э.Т. Саксовул ва черкез ўсимликлари уруғларини экишни механизациялашнинг илмий-техникавий ечими. Техника фанлар доктори (DSc) диссертацияси. – Тошкент, 2021, 190 с.

UO‘T 631.319.06

TUPROQQA FREZALI ISHLOV BERIB BIR YO‘LA URUG‘NI ANIQ VA DONALAB EKISH JARAYONINING NAZARIY TADQIQI

Shaymardanov B.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti

Ro‘ziyev D.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti

Berdimuratov P.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti

Sharipov Z.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, Milliy tadqiqot universiteti

Shaymardanov X.
Boston College Information Technology Services

Annotasiya. Maqolada tuproqqa ekish oldi frezali ishlov berish orqali pushta shakllantirib, bir yo‘la chigit ekish va sug‘orish quvurlarini manzilli joylashtirish kombinatsiyalashgan mashinasining nazariy asoslari berilgan.

Аннотация. В статье приведены теоретические основы комбинированной машины, которая при предпосевной фрезерной обработке почвы формирует гряды, одновременно высевает семена хлопчатника точным и дозированным способом и укладывает трубки капельного орошения.

Annotation. The article presents the theoretical basis for a combined machine that forms ridges during pre-sowing milling of the soil, simultaneously sows cotton seeds in a precise and metered manner, and lays drip irrigation tubes

Yog‘ingarchilikdan hosil bo‘ladigan ortiqcha ko‘lob suvning salbiy ta’siridan va bahorgi suv yetishmasligining oldini olish maqsadida freza yordamida bira yo‘la mayda fraksiyali tuproqli jo‘yak hosil qilish, uning ichiga urug‘ ekish va sug‘orish quvurini manzilli joylashtirish texnologiyasini yaratish kam xarajatlar talab qilib, erta bahorda qisqa muddatlarda ob-havoga bog‘liqlikni kamaytirib ekish imkonini beradi.


1-rasmda ushbu texnologik jarayonni amalga oshirishga mщljallangan kombinatsiyalashgan ekkichning ishchi organlari, ishlash tartibi, sug‘orish quvuri va soshnikning sxemalari ko‘rsatilgan.


Traktorga osilgan ekkich kuzda shudgor qilingan dalada harakatlanganda tasmali frezalar orasida joylashgan egat ochgich 4 jo‘yak ochib, freza barabani 5 ga qator orasidan tuproqni tashlab beradi, freza tuproqni va begona o‘tlarni maydalaydi va pushta shakllantigich fartugi 6 ichiga uloqtiradi. Fartukka kirish va undan chiqishi kichrayib boruvchi trapesiya shaklida bo‘ladi.


Tuproq oqimining fartuk ichi o‘rta qismida va chiqishida trapesiya shaklga ega bo‘ladi. Ushbu tuproq trapesiyalari zichligi kam, ya’ni g‘ovakligi katta bo‘lganligi sababli oxirgi trapesiya zichlagich yordamida kerak bo‘ladiga zichlikkacha sfera shaklda zichlanadi (2-rasm). Zichlagich g‘altagining zichlash darajasi ramaga sharnirli qotirilgan prujinali talper-tortqi 7 bilan rostlanadi.


Pushta shakllantirgich fartugi korpusi freza barabani g‘ilofiga sharnirli bog‘langanligi va

chiqish qismida ramaga va fartuk korpusiga sharnirli ulangan prujinali tortqiga osiilganligi sababli tuproq oqimi ta’sirida fartuk korpusi tik yo‘nalishda tebranma harakatlanadi. Natijada fartuk orqa qirrasiga mahkamlangan g‘altakcha 12 bilan tuproq uyumi tekislanadi va shibbalanadi. Zichlagich g‘altakchasi uzunligi fartuk chiqish qirrasi eniga teng bo‘lib, freza barabanidan uloqtirilayotgan tuproq oqimini qaytarish vazifasini ham bajaradi.












1-freza barabani g‘ilofi; 2-freza barabani; 3-fartukni g‘ilofga osish sharniri; 4-sug‘orish quvurining yo‘naltirgich quvurida joylashishi; 5-fartukka mahkamlangan quvur yo‘naltirgich; 6-y o‘naltirgich g‘altakchalari; 7-soshnik tushirish quvuri; 8-fartukni osish sharniri; 9-shakllangan pushtani zichlagich; 10-fartuk yon devori; 11-urug‘ o‘tkazgich; 12-fartukning zichlash g‘altagi.

1-rasm. Kombinatsiyalashgan ekkichning umumiy sxemasi:

Tadqiqotchilar [8] izlanishlari natijasida, gidrometereologiya ko‘rsatkichlari tahlilidan yog‘ingarchiik natijasida ko‘lob sathi maksimal qiymati 9-10 sm bo‘lishligini e’tiborga olib, oxirgi zichlangan pushta balandligi 10 sm deb qabul qilindi. Shu holatdan kelib chiqib, va sirt yuzasi sferik shakldagi pushtada quyosh radiatsiyasining issiqlik to‘planishi maksimal bo‘lishligidan oxirgi hosil bo‘ladigan pushta sirtini sfera ko‘rinishda qabul qilinadi [14].



a b v

a-fartuk o‘rtasida; b-fartukdan chiqishida; v-zichlagichdan keyin

2-rasm. Pushta shakllantirgich ichida va zichlagichdan keyingi pushtalar shakllanish sxemasi

Ekkichning tajriba variantida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida pushta shakllantirgich fartugi ichida hosil bo‘ladigan pushtalar 4-rasmda keltirilgan. 2-rasm a da keltirilgan pushta shakli shakllantirgich fartugi uzunligi o‘rtalariga to‘g‘ri kelsa, 2-rasm b dagisi - shakllantirgich fartugidan keyingi zichlangich ta’sirida shakllanadi. Oxirgi 2-rasm v shaklni tuproqni asosiy zichlagich shakllantiradi, ushbu oxirgi pushtaning zichligini o‘lchab aniqlanganida u 1,1 - 1,2 g/sm3 ga tengligi aniqlandi.

Ishlov berilgan tuproq massasi o‘zgarmaslik shartidan 4-rasmdagi shakllar hajmlari o‘lchandi:


$$V_1 = V_2 = \frac{1}{2}(a+b)\cdot h, \tag{1}$$

Rasm 4 v shaklning hajmini topamiz:

$$V_3 = S \cdot h, \tag{2}$$

bunda S, h - mos ravishda sferaning yuzasi va balandligi.

Sfera yuzasi S ni quyidagicha topamiz:



$$y = -ax^2 + 10$$

$$0 = -a \cdot 1600 + 10$$

$$a = \frac{1}{160}$$

$$S = 2\cdot\int_0^{40}\cdot\left(-\frac{x^2}{160}+10\right)\cdot dx = 2\cdot\left(-\frac{x^3}{3\cdot 160}+10x\right)\cdot\int_0^{40} =$$

$$= 2\cdot\left(-\frac{40^3}{3\cdot 160}+40\cdot 10\right) = 2\cdot\left(-\frac{1600\cdot 40}{3\cdot 160}+400\right) =$$

$$= 2\cdot\left(-\frac{400}{3}+400\right) = \frac{1600}{3} = 533{,}3\ cm^2.$$

Yuqoridagilardan kelib chiqib

$$\frac{V_3}{V_1} = 0{,}222, \quad \frac{V_3}{V_2} = 0{,}333, \quad \frac{V_2}{V_3} = 0{,}666 \quad ekanligidan$$

$$\rho_3 = 1{,}15\ g/cm^3 \quad bo‘lganida$$

$$\rho_1 = 0{,}333\ g/cm^3, \quad \rho_2 = 0{,}383\ g/cm^3 \quad ga\ teng$$

ekanligi aniqlandi. Demak, birinchi va ikkinchi hajmlardagi g‘ovaklik 50% dan ortadi.

Dastlabki eksperimentlar natijalaridan oxirgi hosil bo‘ladigan sfera shaklidagi balandligi 9-10 cm pushtaning ichki harorati 4-5 ^{0}C ga oshganligi, tuproq sirtidagi hosil bo‘ladigan qatqaloq 2-3 mm bo‘lishligi aniqlandi.

Pushta shakllantirgich fartuki parametrlarini asoslash

Tadqiqotlar tahlili [3] asosida olingan natijalar bo‘yicha xulosa qilish mumkinki, tuproq oqimini fartuk ichiga yo‘naltirish uchun g‘ilof va fartukning qaytarish burchagi katta bo‘lganda eng yaxshi shaklga ega bo‘ladi. Shu sababli mavjud g‘ilof shakllari: silindrik, parabolik va tarkiblilaridan oxirgisi optimalga yaqin energetik ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi.

Frezadan otilayotgan tuproq oqimining fartuk bo‘ylab xarakatlanishi uchun quyidagi shartlar qabul qilinadi:

- tuproq zarrachalari oqim ko‘rinishida harakatlanadi;
- tuproq oqimi fartukning ikkinchi yarmida uyum hosil qiladi.

G.F. Ponov [7], tuproq kanalida tajribalar o‘tkazib, quyidagilarni aniqlagan: uloqtirilayotgan tuproq massasi, uloqtirish masofasi va uloqtirishga sarflangan ish freza diametri oshishi bilan oshadi, masalan, freza diametrining 320 dan 500 mm ga oshishi uloqtirilayotgan tuproq vazni 8,85% ga, uloqtirilish masofasi 57% ga, uloqtirish ishi sarfi 51% ga oshishiga olib kelgan.

Freza barabaning diametrini hisobiy aniqlash quyidagi formuladan aniqlanadi [7]:

$$D = (2{,}5 \div 3)a_{max}, \tag{3}$$

bunda a_{max} - tuproqqa ishlov berish chuqurligi, m.

Tadqiqotchilar ishida [9] g‘ilofga o‘tkazilgan urinma «τ-τ» va freza pichog‘idan uloqtirilayotgan tuproq oqimi tezligi V_{ob} orasidagi burchak kattaligini aniqlash uchun μ_k parametrini kiritadi va tekis burchak π va g‘ilof ishchi sirtining gorizontalga nisbatan o‘rnatilish burchagi α_n orqali quyidagi ifodadan aniqlaydi

$$\mu_k = \pi - (\alpha_{ob} + \alpha_n) \tag{4}$$


Ifoda shuni ko‘rsatadiki, g‘ilof va fartukning o‘zgarmas knstruksiyasida μ_k qiymati asosan tuproqning uloqtirilish burchagiga boqliq. Ushbu ifoda tuproq uloqtirilish burchagining 0° dan hisoblash uchun qabul qilingan oralig‘ida o‘zgarishiga bog‘liq (masalan, G.N. Sineokov va I.M.Panovlar ma’lumotlari bo‘yicha [11] yumshatilmagan tuproqning uloqtirish burchagi 30^0 tashkil etadi, uni hisoblashlar uchun asos qilib qabul qilish mumkin).

Qirqish tezligining 6 m/s dan oshishida tuproq qirindisi deformatsiyasining tashqi ko‘rinishi o‘zgarishiga olib keladi. Pichoq oldida bitta emas, balki bir nechta tirqishlar hosil bo‘ladi. Tirqish hosil bo‘lish jarayonining o‘ta jadallashishi monolit buzilishining uvalanish ko‘rinishiga o‘tish ustunligidan dalolat beradi [7].


Pichoqning oldindan yumshatilgan tuproq bilan o‘zaro tasirlashish jarayoni yuqorida keltirilgan ancha farqlanadi: pichoq oldida tirqish hosil bo‘lmaydi, balki tuproq qirindisi elementlarining siljishi sodir bo‘ladi [7].

Zich tuproqni qirqishda qirqib olinadigan qirindining tuproq hajmining 30% ni tashkil etuvchi yuqori qismi gorizontga nisbatan 10-30° burchak ostida uloqtiriladi. Oldindan yumshatilgan tuproq qirindisi yuqori qismi gorizontga nisbatan 5-15° burchak osti uloqtiriladi va uning uloqtirilish masofasi birinchi holatdan kamroq [7].

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida urug‘ ekish soshnigining fartukka o‘rnatilish va tuproqning zichlanish muhiti aniqlanadi (3-rasm). 4-rasmdan ko‘rinadiki, soshnikni o‘rnatish muhiti fartuk uzunligining yarmidan keyin va tuproq zichlanish muhitidan pastda joylashadi.



3-rasm. Soshnikni o‘rnatish joyini aniqlashda frezadan tuproq oqimining fartuk ichiga uloqtirilish sxemasi



4-rasm. Soshnikni o‘rnatish va tuproqni zichlash muhitini aniqlashning hisobiy sxemasi

Fartuk uzunligi tuproq oqimining fartuk oxirgi chiqish qirrasidan chiqib ketmaslik shartidan aniqlanadi. Dastlabki eksperimentalar natijalaridan fartukning uzunligi 500-600 mm ni tashkil etdi.

Tuproq oqimining g‘ilof va fartukda turg‘un harakatlanish shartidan shakllantirgich fartugi kirish balandligini aniqlaymiz:

$$h_{vx.f} = R_b + h_p + h_t - l_k \cdot cos\beta_k^{pr} \quad (5)$$

bu yerda R_b - freza barabanning radiusi, m;

h_p - pichoq balandligi, m;

h_t - pichoq tig‘i bilan g‘ilof ichki sirti orasidagi masofa, m;

l_k - β_k^{pr} burchak ostidagi uzunlik, m. (8-rasm).

Tadqiqotlardan aniqlanganki [7], baraban diametri qanchilik kichik bo‘lsa, tuproqqa rotatsion ishlov berish mashinalari energetik ko‘rsatkichlari shunchalik kichik bo‘ladi. Shuning uchun kam vaznli va kichik gabaritli mashinalar yaratish uchun, hamda buralish momentini kamaytirish uchun baraban diametrini imkon darajasida kichik tanlanadi. Bu holatda barabannaning maksimal botishida dala yuzasi bilan freza korpusi orasida tirqish ko‘zda tutilishi lozim.

Soshnikni o‘rnatish balandligi

$$h_c = H_f - H_p + h_g, \ \ m, \quad (6)$$

bunda H_f - fartuk balandligi, m;

H_ρ - tuproq zichlanish qalinligi m,;

h_g - ekish chuqurligi, m.

Soshnikni fartuk uzunligi bo‘yicha o‘rnatish masofasi


$$l_c = \frac{l_f}{2} - \frac{h_f}{2} \cdot cos15^0, \quad (7)$$

Bunda l_f - fartuk uzunligi, m; h_f - berilgan no‘qtadagi fartuk balandligi, m.

Agar urug‘ni ekish va manzilli sug‘orish quvurini joylashtirish no‘qtasi tuproq oqimi uloqtirilish burchagidan pastda ya’ni < 15^0 joylashtirilsa, urug‘ va quvur joylashish chuqurligi tuproqning fizik-mexanik xususiyatlariga, soshniklarning fartuk bilan birgalikdagi og‘irligiga, soshnikning tayanch yuzasi kattaligiga, fartuk chiqish qirradan joylashish masofasiga bog‘liq

bo‘ladi.

Tuproqning fizik-mexanik xususiyatlari tuproqning namligiga, maydalanish darajasiga, bu esa o‘z navbatida kinematik rejim ko‘rsatkichi λ ga ya’ni freza pichog‘ining ilgargilanma tezligi v_m va aylanma tezligiga v_o ga hamda frezalash chuqurligi N ga bog‘liq bo‘ladi.



5-rasm. Fartukning g‘ilofga ulanishi joyini topish va uloqtirilgan tuproq oqimining fartukka urishidagi kuchlar ta’siri sxemasi

5-rasmda freza pichog‘idan uloqtirilgan tuproq massasining g‘ilof va fartukka urilishi kuchlari sxemasi keltirilgan. Markazdan qochma kuch ta’sirida g‘ilof va fartukka uriladigan tuproq massasining fartuk ichiga yo‘naltirilishi shartdan kuchlar ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Markazdan qochma kuch $$F_\omega = m \cdot \omega^2 \cdot r \quad (8)$$

Og‘irlik kuchi $$G = mg\ r \quad (9)$$

Ishqalanish kuchi $$F_i = f \cdot N \quad (10)$$

Fartukning qaytarish-uloqtirish kuchi $$F_q = G + F_i \quad (11)$$

Markazdan qochma kuch ta’sirida tuproq massasi fartuk ishchi yuzasiga urilishi natijasida maydalangan kesak qo‘shimcha deformatsiyalanadi va qaytarish kuchi ta’sirida ma’lum masofaga uloqtirilib sochiladi.

Markazdan qochma kuch ta’sirida mayda kesaklarning fartuk ishchi yuzasiga urilib deformatsiyalanish kritik tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi [9]:

$$V_{kp} \geq [\sigma_{ch}] \cdot cos\,\alpha_\omega \cdot \sqrt{\frac{(J+mR_b^2)}{3J\rho\,(1-k^2)\left(2R_b h_f - h_f^2\right)}} \quad (12)$$

Bu ifodadan ko‘rinib turibdiki frezali barabanning aylanma harakatdagi chiziqli tezligi ta’sirida fartuk ishchi yuzasiga urilish tezligi freza barabani radiusi, inersiya momenti, ishlov berish chuqurligi hamda kesaklarning mustahkamligi, massasi, elastiklik moduli, zichligi va tiklanish koeffitsienti markazdan qochma kuchning yo‘nalish burchagiga bog‘liq ekan.

Ilgari bajarilgan tadqiqotlarga asosan $[\sigma_{ch}] = 3{,}5 \cdot 10^5$ Pa, $E = 1{,}9 \cdot 10^6$ Pa, $\rho = 1200$ kg/m^3, $m = 1{,}02$ kg, $k = 0{,}3$, $J = 0{,}11$ kgm^2.

Kesaklarning fartuk ichki yuzasidan uloqtirilishi. Freza pichog‘i yordamida tuproq palaxsalarining maydalanishdan so‘ng mayda kesaklar freza aylanma tezligi ta’sirida fartuk ishchi yuzasi tomon irg‘itiladi. Tuproq oqimi sochilish tasmasi eni va zarrachalar uchish masofasi tuproq qatlamlari aralashish, o‘simlik qoldiqlarining ko‘milishi va fartuk ichida teng taqsimlanish darajasini aniqlaydi.

Fartuk ishchi yuzasidan tuproq zarrachalari tushish momentida (6-rasm) unga og‘irlik kuchi mg va havo qarshilik kuchi ta’sir qiladi [13].

$$R_c = k_n \cdot m \cdot v_n^2\,, \quad (13)$$


bunda v_n - zarrachalarning boshlang‘ich tezligi; k_n - paruslik koeffitsienti.

Zarrachalarni tekis yuzaga harakati birlamchi yaqinlashishini qabul qilib, uning harakat tenglamasini tuzamiz, bunda koordinatalar boshini zarrachalarning yuzadan tushish joyida deb

belgilaymiz. Unda

$$\left.\begin{aligned}\ddot{x} &= -k_n v_n^2 \cdot cos\alpha_1 \\ \ddot{y} &= -g + k_n v_n^2 \cdot sin\alpha_1\end{aligned}\right\} \quad (14)$$

bunda α - zarrachalar tezligi vektorining OX o‘qiga qiyalik burchagi.



6-rasm. Fartuk ishchi yuzasidan uloqtirilgan tuproq zarrachalariga ta’sir qilish kuchlari


(14) tenglamani yechish uchun $\alpha_1 = 0$ ni qo‘yib olamiz, chunki α_1 burchak 7-9° dan oshmaydi, undan so‘ng ikki marta integrallab, tuproq zarrachasi uchish masofasini aniqlaydigan tenglamani keltirib chiqaramiz,

$$x = \frac{\ln(k_n \cdot v_n \sqrt{g} + 1)}{k_n}. \quad (15)$$

Tenglama (15) dan ko‘rinadiki, tuproq zarrachalarining uloqtirilish masofasi ularning boshlang‘ich tezligi, paruslik koeffitsienti va freza pichog‘i tig‘ining fartuk ishchi yuzasigacha joylashishi balandligiga bog‘liq. Tuproq kesaklari bilan birga poyalar va boshqa o‘simlik qoldiqlari ham uloqtiriladi. O‘simlik qoldiqlarining paruslik koeffitsienti qiymati tuproq kesak zarralaridan katta ekanligidan ularning uchishi masofasi kichik bo‘ladi. Shuning hisobiga uloqtirilayotgan massa aralashadi, bu esa ayniqsa tuproqqa organik va mineral o‘g‘itlar kiritilishida muhim hisoblanadi.


Freza rotoridan uloqtirilayotgan tuproq zarrachalari kinetik energiyaga ega bo‘lib, bu energiya oldin uloqtirilgan tuproq zarrachalarini zichlashga sarflanadi. Fartuk ishchi yuzadan qaytib tushayotgan kesak zarrachalarining dinamik ta’sirida bu zarrachalar kinetik energiyasining yumshoq tuproq qatlamiga kirishi kabi uni zichlashga ham sarflanadi. Hisoblashlar va kuzatuvlar [7] shuni ko‘rsatadiki, uloqtirilayotgan zarrachalar 1,5-3 kgk/sm^2 ga ekvivalent bo‘lgan dinamik bosimni yuzaga keltiradi, ya’ni taxminan suv qo‘yilgan yengil silindrik g‘altak bosimiga mos keladi. Shu sababli fartuk tagidan zichlangan tuproqda katta qiymatdagi g‘ovaklik bo‘lmaydi.

Dastlabki tajribalardan agregat hakati tezligining muqobil qiymatlarini aniqlash maqsadida freza barabanining chiziqli tezligi va agregat harakat tezligi nisbati - kinematik rejim ko‘rsatkichi λ ning oxirgi zichlangan pushta balandligi h_p orasidagi o‘rganildi (7-rasm).




7-rasm. Kinematik rejim parametri bilan oxirgi zichlangan pushta orasidagi bog‘lanish grafigi

Yuqorida keltirilgan hisobiy tadqiqotlar asosida oxirgi zichlangan pushtaning 1,1-1,2 g/sm^3 zichligini ta’minlashda fartuk ostidagi tuproq mssasi o‘zgarmaslik shartidan $h_p \cong 9\ sm$ ekanligidan $\lambda = 4$ ekanligi aniqlanadi. λ ning qiymati oshishi bilan o‘zgarmas qiymatda o‘rnatilgan soshnikdan tushayotgan urug‘ ko‘milish chuqurligi oshadi. Bu urug‘ o‘nib chiqishini kechiktiradi. Va aksincha



8-rasm. Fartuk tagi tuproq uyumi hajmi o‘zgarishi va oxirgi zichlashdan keyingi hajmning fartuk va zichlagich uzunliklariga bog‘liq grafigi



9-rasm. Fartuk ostidagi tuproq uyumining uzunligi bo‘yicha va zichlagichdan keyingi o‘zgarishi grafigi

bo‘lganda urug‘ning quruq tuproqqa tushish ehtimoli oshadi.

Fartuk ostiga uloqtirilayotgan tuproqning tiqilib qolish shartidan dastlabki tajribalardan fartuk tagidagi tuproq uyumi hajmining fartuk uzunligi bo‘yicha va pushtani oxirgi zichlashdan keyingi qiymatlar o‘zgarishlarini o‘rganib (2-rasm), muqobil qiymatlarini topdik (8-rasm).

Fartuk tagidagi tuproq oqimi zichligining fartuk uzunligi bo‘yicha va zichlagichdan keyingi zichligini o‘rganishni teskari tartibda bajarildi: o‘tkazilgan tajribalar asosida λ har xil qiymatlarida zichlangan pushta balandligini (9 sm) qabul qilib olinib, fartuk ostidagi tuproq zichliklarini fartuk oxiridan old tomonga o‘zgarishini hisoblab topdik (9-rasm). Keltirilgan grafik tahlilidan shakllanayotgan tuproq g‘ovakligi 50% oshishligi aniqlandi.

Grafik tahlilidan fartukning uzunligi 500-600 mm bo‘lishligi aniqlandi, undan ortiq uzunlikda zichlik o‘zgarmaydi, demak ortiqcha uzunlik metall sarfini va fartuk vaznini oshiradi.

Zichlagichning tadqiq etiladigan parametrlari. Agrotexnik talablarga mos ravishda frezalash bilan bira yo‘la urug‘ ekishda ekilgan urug‘ ustidagi tuproq g‘ovakligi oshadi. Natijada tuproq zichligini talab darajasidagi 1,1-1,2 g/sm^3 ga yetkazish uchun tuproq g‘altak yordamida zichlanadi.

Shundan kelib chiqib, g‘altakning tuproqqa botish chuqurligi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanadi.


Frezali ishlov berilganda, odatda, to‘proq g‘ovakligi oshadi va hajmiy paxmayish sodir bo‘ladi. Bu ko‘rsatkich odatda 30% dan oshadi. Tuproqqa balandligi 10 sm bo‘lgan pushta hosil qilishda pushtaning usti ko‘rinishi sfera shaklida (2-rasm) bo‘lishi kerak, bu pushta ustida mulcha qatlami hosil qilishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shu sababli pushta shakllantiradigan g‘altakning ko‘rinishi 10- rasmdagi kabi bo‘lishi kerak.

Oldindan o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar asosiy fartukdan chiqayotgan pushta balandligi ikki baravar kamayganda, ya’ni, pushta 10 sm gacha zichlanganda tuproq zichligi 1,1 - 1,2 g/sm^3 ga teng bo‘ladi.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlari [23] natijasida chigit ekilgandan keyin zichlanish uyumi yon tomonining gorizontga nisbatan nishablik burchagi 30^0 atrofida bo‘lishligi aniqlangan, bu holda yomg‘ir suvining oqib tushishida pushta yoni yuvilib ketmaydi. Shu sababli zichlagichning konussimon qismi (10-rasm) qiyalik burchagi $\alpha = 30^0$ ni qabul qildik.

Zichlagich silindr qismining enini akademik G.M. Rudakovning [13] pushta ustida ekkich ishchi organining harakatlanishi hisobga olish bo‘yicha ma’lumotini e’tiborga olib, va pushta sirtining sfera shaklini hosil qilish zichlagich sirtlari orasidagi tirqish kengligini hisobga olib 200 mm

qabul qilindi.



10-rasm. Zichlagichning aniqlangan parametrlari

Zichlagichning qamrov kengligi g‘altak ikki chekkadagi qirralarining yerga tayanib qolmasligi shartidan, fartuk qamrov kengligi 800 mm bo‘lganida V_e=600 mm qabul qilinadi. Konstruktiv hisoblardan g‘altakning o‘lchamlari (10-rasm) qabul qilindi. Shundan kelib chiqib, zichlash g‘altagiga tik yuklanishni topamiz.

Tadqiqotlardan isbotlanadiki, tuproq zichlanishi tarqalishi va g‘altakning botish chuqurligi agregat tezligi 1,5 - 2,5 m/s bo‘lganida o‘zgarmas bo‘lib saqlanadi 1,5-2,5 m/s [3, 4, 6, 7].

Zichlagichga beriladigan tik yuklanishni pushta tuprog‘i talab darajasida zichlanishi ta’minlanishi shartidan quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz [12]

$$Q_z = 0{,}5q_s(1+\mu V_a^2)\Big\{B_s D_s\Big[\sqrt{D_s h_z - h_z^2} - (0{,}5D_s - h_z)\times \arcsin\frac{\sqrt{D_s h_z - h_z^2}}{D_s}\Big] + 2B_k(D_s + 2B_k tg\alpha)\times \Big[\sqrt{(D_s+2B_k tg\alpha)h_z - h_z^2} - [0{,}5(D_s+2B_k tg\alpha) - h_z]\times \arcsin\frac{\sqrt{(D_s+2B_k tg\alpha)h_z - h_z^2}}{D_s+2B_k tg\alpha}\Big]\Big\} \quad (16)$$

bunda q_s – pushta tuprog‘ining statik hajmiy ezilish koeffitsienti, N/m^3;

μ – proporsionallik koeffitsienti, s^2/m^2;

V_a– agregatning harakat tezligi, m/s.

q_s = 2·10^6 N/m^3 [15; 151-b.], μ = 0,08 s^2/m^2 [15; 33-35-b.] va h_z= 2,5 cm qabul qilinib hamda B_s, D_s, α, B_k larni yuqorida aniqlangan qiymatlarini qo‘yib, (16) ifoda bo‘yicha 1,5-2,2 m/s harakat tezligida pushta tuprog‘ining talab darajasida zichlanishini ta’minlash uchun zichlagichga 2,1-2,4 kN oralig‘ida tik yuklanish berilishi lozimligini aniqlandi.

Xulosa

Tuproqqa frezali ishlov berib, bir yo‘la pushtalar shakllantirib, ustiga ma’lum chuqurlikka urug‘ ekish va sug‘orish quvurlarini manzilli joylashtirish texnologiyasi bir qancha sarf-xarajatlarni va qatqaloq xosil bo‘lishining oldini oladi va ekilgan urug‘ning aniq unib chiqishiga zamin yaratadi. Pushta shakllantirgich fartugining uzunligi bшyicha o‘rtasida tuproq zichligi $\gamma_1 = 0{,}333$ g/sm^3,

fartukdan keyin $\square_2 = 0{,}383$ $\square/\square\square^3$ va oxirgi hosil bo‘lgan pushtaning zichligi 1,1-1,2 g/sm3 ga tengligi hamda sfera shaklidagi balandligi 9-10 sm bo‘lishi, pushtaning ichidan harorat 4-5 0S ga oshganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 12 dekabrdagi PQ-431- sonli “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Сенин М.Ф. Технологические и технические основы совмещения фрезерования почвы с посевом. М6 Изд-во МСХА, 1991. 40-49 с.

4. Калинин А.Б. Мировые тенденции и совреиенные технические системы для возделывания картофеля: учебное пособие / А.Б. Калинин, В.А.Ружьев, И.З. Теплинский. - СПб.: Проспект Науки, 2016. - 160 с.

5. Turdialiev V.M. Tuproqqa ishlov beradigan va sabzavot ekinlarini ekadigan kombinatsiyalashgan mashinani ishlab chiыishning ilmi-texnik yechimlari. Texn. fanl.doktori (Doktor of Science) dissertatsiya ishi, 2018 y., Toshkent. 306 b.

6. Muxamedov J., Turdaliev V., Qosimov A., Mamadaliev I. Kombinatsiyalashgan agregat ekish oldidan tuproqqa ishlov beruvchi frezali barabanining parametrlarini ilmiy asoslash // Mashinasozlikda zamonaviy materiallar, texnika va texnologiyalar: xalqaro ilmiy- texnikaviy anjuman to‘plami. – Andijon: -2015. - II-seksiya. – B. 320-323.

7. Синеоков Г.Н., Панов И.М. Теория и расчет почвообрабатывающих машин. -М.: Машиностроение, 1977. -53,125, 259, 296-299 с.

8. Бердимуратов П.Т. Разработка и обоснование параметров формовщика гребней для хлопковой сеялки. Диссер. на соиск. учен. степ. доктора философии (Phd) по техн. наук. Ташкент. 2019. 43-47 с.

9 Ахметов А.А. Тенденция совершенствования конструкции хлопководческих предпосевных почвообрабатывающих машин-орудий / Toshkent: Ilmiy texnika axboroti-Press nashrioti. 2017 г., 174-179 с.

10. Рудаков Г.М. Технологические основы механизации сева хлопчатника. Издательсва Фан УзССР. 1974. 226-231 с.

11. Попов Г.Ф. Обоснование диаметра фрезбарабана, формы рабочих органов и скоростных режимов работы фрезы ФПН-2,8 и ФПН-4,2. Материалы НТС ВИСХОМ. Вып.2. М., ОНТИ ВИСХОМ, 1963, с. 125.

12. Абdualiev N.H. G‘o‘za qatorlari orasida pol hosil qiladigan qurilma zichlagichining parametrlarini asoslash: Diss. t.f. (PhD). – Namangan, 2021. – 58-60 б.

13. Рудаков Г.М. Перспективные технологические процессы механизации возделывания хлопчатника. – Ташкент, 1984. – 14-251 с.

14. Агрофизика: учеб. пособие / Е. В. Шеин [и др.]; Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых. – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2014. – 40-47 с. ISBN 978-5-9984-0462-7.

15. Xoliqulov J. O‘. Bog‘ qator oralarini ekishga tayyorlaydigan kombinatsiyalashgan mashina pushta olgichi va zichlagichining paramttrlarini asoslash. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun Dissertatsiya. O’zbekiton, Gulbahor, 2025 y. 151 b.

UO‘T 631.331.99

PIYOZ URUG‘LARINI EKADIGAN SEYALKA PUSHTAOLGICHI TEKISLAGICHLARINING HARAKAT YO‘NALISHIGA NISBATAN O‘RNATILISH BURCHAGINI TADQIQ ETISH

Xamidov N.M.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, t.f.f.d.

Eshdavlatov A.E.
Qarshi davlat texnika universiteti.t.f.f.d., dots.

Xabibullayev B.M.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Orazaliev M.R.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotasiya. Maqolada bir yo‘la pushta shakllantirib, sabzavot ekinlarining mayda urug‘larini qatorlab ekadigan seyalka pushtaolgichi tekislagichlarining harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagining ularning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье приведены результаты экспериментальных исследований по изучению влияния угла установки относительно направления движения выравнивателей гребнеделателя сеялки для сева мелкосеменных овощных культур с одновременной нарезкой поливных борозд на показатели его работы.

Annotation. This article presents the results of experimental studies on the influence of the angle of installation relative to the direction of movement of the levelers of the comber of the seeder for sowing small-seeded vegetable crops with simultaneous cutting of irrigation furrows on the indicators of its work.

O‘zbekiston sharoitida sabzavot ekinlarining mayda urug‘larini ekadigan maxsus seyalka bo‘lmaganligi sababli bu ish bizning tuproq-iqlim sharoitimizga moslashmagan xorijiy seyalkalar hamda har xil yasama moslamalar bilan amalga oshirilmoqda. Ammo bu seyalkalar va moslamalar agregatning daladan bir o‘tishida pushtalarni shakllantirib, mayda urug‘larni ularning tepasiga qatorlab ekib keta olmaydi. Bundan tashqari ekishga tayyorlangan dalalarda pushta olish va ekish tadbirlari alohida-alohida agregatlar bilan bajarib kelinmoqda. Bu esa ekish muddatining cho‘zilishi, urug‘lik, mehnat, yonilg‘i-moylash materiallari sarfining ortishiga olib kelmoqda.

Yuqorida ta’kidlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida ekishga tayyorlangan dalalarda agregatning bir o‘tishida pushtalarni shakllantirib, ularning tepasiga sabzavot ekinlari urug‘larini qatorlab ekadigan seyalka konstruksiyasi ishlab chiqilgan [1].

Ushbu maqolada seyalka pushtaolgichlariga o‘rnatiladigan tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagining uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Tekislagichlarning asosiy vazifasi pushtaolgichlar tomonidan shakllantirilgan pushtalar tepasini tekislash orqali talab darajasidagi balandlik va kenglikka ega bo‘lgan pushtalarni hosil qilish hamda urug‘larni bu yerga bir tekis ekilishini ta’minlashdan iborat.

Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagining uning ish

ko‘rsatkichlariga ta’sirini tadqiq etishda asosiy ko‘rsatkichlar sifatida pushtaning geometrik o‘lchamlari (pushta balandligi, tepasining kengligi) va pushtaolgichning tortishga qarshiligi qabul qilindi. Tajribalarda tekislagichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 5° interval bilan 25° dan 40° gacha o‘zgartirildi. Bunda tekislagichlarning har birini qamrash kengligi 250 mm, pushtaolgichga o‘rnatilish balandligi 120 mm, pushtaolgichlar orasidagi ko‘ndalang masofa 700 mm, ular orasidagi bo‘ylama masofa 200 mm etib qabul qilindi hamda tekislagichlarning tikka nisbatan o‘rnatilish burchagi 0° va agregatning harakat tezligi 5,2 va 7,6 km/h etib tanlandi.


Tajribalarda tekislagichlar bilan jihozlangan pushtaolgich tomonidan shakllantirilgan pushtaning geometrik o‘lchamlari O’z DSt 3412:2019 [2], uning tortishga qarshiligi esa O’z DSt 3193:2017 [3] me’yoriy hujjatlarda keltirilgan usullar bo‘yicha aniqlandi.

Tajribalarda olingan natijalar quyidagi jadval hamda 1-3-rasmlarda keltirilgan.

1-Jadval

Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini pushtaolgichning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri

№	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati							
		Tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °							
		25		30		35		40	
1	Harakat tezligi, km/h	5,2	7,6	5,2	7,6	5,2	7,6	5,2	7,6
2	Pushta o‘lchamlari: - balandligi, mm - tepasining kengligi, mm	 130 210	 115 270	 115 265	 105 305	 105 305	 95 325	 100 315	 90 340
3	Tortishga qarshilik kuchi, N	566	602	515	554	517	557	621	662



1 – 5,2 km/h;

$h_p = 0{,}05\gamma^2 - 4{,}95\gamma + 207{,}75;$


$R^2 = 0{,}9966.$

2 – 7,6 km/h;

$h_p = 0{,}1\gamma^2 - 8{,}5\gamma + 280;$

$R^2 = 1.$

1-rasm. Pushtaolgichlar tomonidan shakllantirgan pushta balandligining tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari



1 – 5,2 km/h;

$b_2 = -0{,}3\gamma^2 + 25{,}9\gamma - 240{,}5;$


$R^2 = 0{,}9991.$

2 – 7,6 km/h;

$y = -0{,}2\gamma^2 + 17{,}6\gamma - 44{,}5;$

$R^2 = 0{,}9982.$

2-rasm. Pushtaolgichlar tomonidan shakllantirgan pushta tepasining kengligini tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari



1 – 5,2 km/h; 2 – 7,6 km/h;

$R = 1{,}53\gamma^2 - 95{,}79\gamma + 2043{,}1$; $R = 1{,}55\gamma^2 - 97{,}41\gamma + 2035$;

$R^2 = 0{,}983$. $R^2 = 0{,}984$.

3-rasm. Pushtaolgichning tortishga qarshiligini tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari

Ulardan ko‘rinib turibdiki, agregatning har ikkala harakat tezlik-larida tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini 25° dan 30° gacha oshishi bilan pushta balandligini mos ravishda 130 mm dan 115 mm gacha va 115 mm dan 105 mm gacha kamayishi, pushta tepasining kengligini mos ravishda 210 mm dan 265 mm gacha va 270 mm dan 305 mm gacha ortishi, 30° dan 40° gacha oshishi bilan esa pushta balandligini mos ravishda 115 mm dan 100 mm gacha va 105 mm dan 90 mm gacha kamayishi, pushta tepasining kengligini mos ravishda 265 mm dan 315 mm gacha va 305 mm dan 340 mm gacha oshishi kuzatilgan. Ya’ni, tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagini 25° dan 40° gacha oshishi pushta balandligining kamayishi hamda pushta tepasi kengligining oshishiga olib kelgan. Buni o‘rganilayotgan burchakning ortishi tuproq bo‘laklarining tekislagichlar tomonidan harakat yo‘nalishi bo‘yicha surilishi va ularni pushtalar egatlariga ko‘p to‘kilishga olib kelishi bilan izohlash mumkin.

Agregatning harakat tezligi 5,2 km/h dan 7,6 km/h gacha ortganda pushta balandligi 10 mm dan 15 mm gacha kamaygan, pushta tepasining kengligi 20 mm dan 60 mm gacha kengaygan. Buni agregat harakat tezligi ortishi bilan pushtaolgich barcha elementlarining tuproq bo‘laklariga beriladigan zarba kuchini kattalashishi va ularni uzoq masofaga uloqtirilishi bilan izohlash mumkin.

Agregatning 5,2 va 7,6 km/h harakat tezliklarida tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 25° dan 40° gacha o‘zgarishi bilan pushtaolgichning tortishga qarshiligi mos ravishda avvaliga 566 N dan 517 N gacha va 602 N dan 557 N gacha kamaygan, keyinchalik 517 N dan 621 N gacha va 557 N dan 662 N gacha ortgan. Buning asosiy sababi shundaki, tekislagichlar harakat yo‘nalishiga nisbatan 30-35° oralig‘ida o‘rnatilganda tuproqning ularning oldida uyulishi va ishchi sirtlariga yopishib qolishi minimal darajada bo‘ladi [4, 5, 6.].

Xulosa

Kam energiya sarflagan holda sabzavot ekinlarining mayda urug‘lari ekiladigan pushtalarni talab darajasida shakllantirish uchun tekislagichlarning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi 30-35° oralig‘ida tanlanishi va rostlanishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. To‘xtaqo‘ziyev A., Ibragimov A.A., Xamidov N.M. Bir yo‘la pushta olib mayda urug‘li sabzavot ekinlari urug‘larini ekadigan seyalka pushtaolgichi tekislagichining

parametrlarini nazariy asoslash // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining axborotnomasi. – Nukus, 2021. – №2. – B.18-23.

2. O’z DSt 3412:2019 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Tuproqqa yuza ishlov beruvchi mashinalar va qurollar. Sinov dasturi va usullari” – Toshkent, 2019. – 52 b.

3. O’z DSt 3193:2017 “Qishloq xo‘jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli” – Toshkent, 2017. – 14 b.

4. Сергиенко В.А. Технологические основы механизации обработки почвы в междурядьях хлопчатника. –Ташкент: Фан, 1978. – 112 с.

5. Ibragimov A.A. G‘o‘za qator oralariga ishlov berish va donni qatorlab ekish uchun kombinatsiyalashgan agregat ishlab chiqishning ilmiy-texnik yechimlari: Tex. fan. dok. (DSc) dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 196 b.

6. Утемуратова Д.Т. Обоснование параметров плоскорежущей лапы-бритвы хлопкового культиватора (на примере Республики Каракалпакстан): Автореф. дисс.… канд.техн.наук. – Янгиюль, 1994. – 16 с.

UO‘T 631.363

TUPROQNI FREZALAB, PUSHTALAR SHAKLLANTIRADIGAN VA TOMCHILATIB SUG‘ORISH QUVURLARINI YOTQIZIB URUG‘ EKADIGAN KOMBINATSIYALASHGAN AGREGAT

Berdimuratov P.T.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

Saidqulova Yu.A.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute Milliy tadqiqot universiteti

Annotasiya. Maqolada ekish oldidan tuproqni tasmali frezalash, pushtalar shakllantirish va tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizib birato‘la urug‘ ekish imkoniga ega kombinatsiyalashgan agregat konstruksiyasi va ishlash jarayonlari bo‘yicha izlanishlar natijalari keltirilgan.Taklif etilayotgan mashinada texnik ekinlar urug‘larini ekishdan oldin tuproqqa frezali ishlov berish, pushtalar shakllantirish, tomchilatib sug‘orish quvurini pushta ustiga bo‘ylamasiga joylashtirish va birato‘la urug‘ ekish bir vaqtda bajariladi.

Аннотация. В статье приводятся результаты исследований по разработке конструкции и процесс работы комбинированного агрегата для предпосевного полосового фрезерования почвы, формирования гребней, укладки шлангов капельного орошения Предлагаемая конструкция машины одновременно выполняет операции предпосевной фрезерной обработки почвы с формированием гребней, укладки шлангов новой конструкции для капельного орошения, уплотнения гребней и посев семян с помощью различной конструкции сеялок.

Annotation. The article presents the results of research on the design and operation of a combined unit for pre-sowing strip tillage, ridge formation, laying drip irrigation hoses. The proposed machine design simultaneously performs pre-sowing soil milling with ridge formation, laying newly designed hoses for drip irrigation, ridge compaction, and seed sowing using various seed drill designs

Qishloq xo‘jaligida energiya-resurs tejamkor texnologiyalar va texnikalardan foydalanishning asosiy usullaridan biri kombinatsiyalashgan agregatlardan foydalanishdir O‘zbekiston sharoitida an’anaviy texnologiyalar bo‘yicha begona o‘tlarni va tuproq qatqaloqlarini yo‘qotish maqsadida ikki marta tirmalash va molalash tadbirlari bajariladi. Bu esa agregatning tuproqni zichlashiga, bir necha qishloq xo‘jalik texnikalari va chopiq traktorlarini ishlatilishiga olib keladi.

Keyingi yillarda ilg‘or tajribalarga asoslangan pushtaga ekish amaliyoti keng tarqalmoqda. Tajribalarda aniqlanishicha, tomchilatib sug‘orish quvurlarini pushta ustiga o‘simlik yoniga joylashtirish va sug‘orishni amalga oshirish qator oralariga an’anaviy usullarda ishlov berish imkonini beradi.

Olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi - ekish oldidan tuproqqa faol ishlov berib, pushta hosil qilish, tomchilatib sug‘orish quvurlarini pushta ustiga ekiladigan urug‘ yoniga joylashtirish va birato‘la urug‘ni ekish uchun kombinatsiyalashgan mashina konstruksiyasini yaratishdan iborat.


Muammoning hozirgi holati. Hozirgi paytda kirib kelayotgan va qo‘llanilayotgan innovatsion ekish oldi tuproqqa ishlov berish texnologiyalari yerni kuzda ag‘darib va ag‘darmasdan ishlov berilganda ham qo‘llanish imkonini beradi. Jumladan, tuproqqa pushtali ishlov berish (ridge tillage) texnologiyasida tuproqqa ekishgacha ishlov berilmaydi. Tuproq

qatlamining 1/3 qismiga o‘q panjali yoki jo‘yaklarni tozalovchi ishchi qurollar bilan ishlov berilib, pushtalar shakllantiriladi va ekish amalga oshiriladi. Ekish balandligi 10-15 sm li pushtalar ustida amalga oshiriladi. Begona o‘tlarga qarshi kurashda gerbitsidlar qo‘llanib, kultivatsiya bilan birgalikda amalga oshiriladi. Tasmali ishlov berish (strip tillage) texnologiyasida pushtali ishlov berish singari tuproq yuzasining 30 % iga frezalar bilan, diskli ishchi organlar bilan yoki passiv yumshatkichlar bilan ishlov beriladi. Tartib bo‘yicha odatda bu jarayon bilan birga ekish amalga oshiriladi. Begona o‘tlarga qarshi kurashda gerbitsidlar qo‘llanib, kultivatsiya bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Hal etiladigan vazifalar-ekish oldidan bajariladigan tirmalash va mola bosish jarayonlari o‘rniga tuproqqa faol ishlov berib, tuproqni talab darajasida yumshatish va begona o‘tlarni yo‘qotish; pushta shakllantirish va uni zichlash bilan bir vaqtda tomchilatib sug‘orish quvurini ma’lum chuqurlikda ko‘mib joylashtirish; urug‘ ekish; kultivatsiyalar sonini keskin qisqartirish yoki butunlay o‘tkazmaslik; pushta ichida tomir tizimini manzilli va tekis namlantirish va o‘g‘itlash.

Bajarilgan tadqiqotlar natijalari. O‘zbekiston tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqib, tuproqqa asosiy ishlov berishning an’anaviy va innovatsion texnologiyalari qo‘llanilganda ham ekish oldi ishlov berish va ekish imkonini beradigan kombinatsiyalashgan mashina konstruksiyasi yaratildi (1-rasm).

Mashina ikki qismdan iborat: 1) tuproqqa freza bilan ishlov berib, pushta shakllantirish va tomchilatib sug‘orish quvurini pushta ustiga ekiladigan urug‘ qatori yoniga bo‘ylama joylashtirish qismi; 2) ekish qismi. Texnik ekinlarni keng qatorlar oralig‘ida ekish (60 va 90 sm) da turli xil ekkichlar-qatorlab va aniq ekish mashinalari ishlatiladi. Taklif etilayotgan kombinatsiyalash agregatda turli xil ekkichdan foydalanish maqsadida pushta tayyorlash va ekish qismlari alohida joylashgan. Turli sinfdagi chopiq traktorlariga agregatlanishi bo‘yicha mashina ikki xil holatda ishlatilishi mumkin: 1) faqat birinchi qismi bilan ekish oldidan pushta tayyorlash va tomchilatib sug‘orish quvurini joylashtirish; 2) pushta tayyorlash, tomchilatib sug‘orish quvurlarini pushta ustiga joylashtirish va birato‘la urug‘ ekish. Ikkala holat ham bahorgi ekish va hosil yig‘ib olingandan keyingi qayta ekish jarayonlarini amalga oshiradi.



1-freza ramasi; 2-tomchilatib sug‘orish quvuri o‘ram g‘altagi; 3-freza uzatma reduktori vali; 4-pichoqli barabanli freza; 5-pichoqli baraban kronshteyni; 6-pushta shakllantirgich g‘ilofi; 7-pushta zichlagich g‘altagi kronshteyni; 8-pushta zichlagich g‘altagi; 9-zichlash g‘altagini rostlash talrepi; 10-ekkich (seyalka) uchun osma moslama; 11-ekkich osma moslamasi gidrotsilindri; 12-ekkich (seyalka).

1-rasm. Tuproqni frezalab, pushtalar shakllantiradigan va tomchilatib sug‘orish quvurlarini yotqizib urug‘ ekadigan kombinatsiyalashgan agregat

Mashina old qismi traktorga uch nuqtada osiladi, frezaning reduktori traktorning quvvat olish valiga ulanadi. Ekkich mashina old qismining osish moslamasi 10 (rasm 1) orqali uch nuqtadan ulanadi, osma ulagichda ekkichni gorizontga nisbatan rostlanish moslamasi 9 ga ega.

Traktorga agregatlangan mashina quyidagicha ishlaydi: traktor ishga tushganida avval


freza 1 ishga tushiriladi, mashina tushirilib tuproqqa ishlov berish va ekish boshlanadi. Freza 1 (rasm 1) tuproqqa faol ishlov beradi, unga o‘rnatilgan g‘ilof 6 yordamida pushta shakllantiriladi. Tomchilatib sug‘orish quvuri o‘ram g‘altagi 2 dan maxsus moslama orqali (rasmda ko‘rsatilmagan) quvur pushta ustiga ma’lum 2-3 sm chuqurlikka ko‘miladi va usti yopiladi. Shakllangan pushta kronshteynga o‘rnatilgan pushta zichlagich g‘altagi 7 bilan zichlanadi. Undan keyin harakatlanayotgan ekkich 12 g‘ildiraklari pushta tubiga tayanib, sudraladi, u bilan harakat ravonligi ta’minlanadi. Urug‘ ekishda qatorlab yoki aniq ekish mashinalari ishlatilishi mumkin.

Frezaning aylanma harakati chiziq tezligi yo‘nalishi agregat harakati bo‘yicha yo‘nalganligi sababli uning sudralib tortilishiga qarshiligi kamayadi. Shu sababli frezaga ta’sir qiluvchi kuchlar tahlili mashinani sudrashga qarshiligini aniqlashga yordam beradi. O‘rnatiladigan ekkichlarning sudrashga qarshiligi ularning rusumi tavsifidan qabul qilinadi.

Freza ishchi organlariga ta’sir qiluvchi kuchlar tahlili. Freza pichoqlari agregat harakatiga perpendikulyar joylashgan bo‘ylama o‘qqa ega, shuning uchun ularga ta’sir qiluvchi elementar kuchlarni bitta umumiy teng ta’sir qiluvchi kuch R_{xz} ga keltirish mumkin. Bu kuch agregat harakatiga perpendikulyar bo‘lgan bo‘ylama o‘qqa vertikal tekislikka nisbatan ma’lum burchak ψ ostida joylashtirilgan (rasm 2 *a*).

ψ burchak va R_{xz} kuch qiymatlari freza barabanining aylanish burchagi φ=ωt ga bog‘liq holda o‘zgaradi (rasm 2 b). Pichoqnining tuproqqa kirishi boshlanishidan tuproq qirindisi qirqib olinishi sodir bo‘lishi oqibatida R_{xz} kuch qiymati oshadi, keyin pichoqning baraban o‘qi vertikal tekisligidan o‘tishi bilan pastdan yuqoriga harakatlanishida qarshilik botiq egri chiziq bo‘yicha kamayadi. R_{xz} kuchining oshishi mos ravishda baraban aylanish burchagining 15...25^0 qiymatlari oralig‘ida bo‘ladi. Shu burchaklar orasida barabanning majburiy aylanishlari oqibatida kuch R_{xz} ning ta’siri natijasida frezani sudrashga qarshiligi kamayadi. Barabanning aylanishlar soni 160 ayl/min bo‘lganida sudrashga qarshilik oshadi.

R_{xz} kuchini uni tashkil etuvchilari R_x va R_z ga ajratish mumkin. Gorizontal tashkil etuvchi $R_x=R_{xz}cos\psi$ agregat yo‘nalishi bo‘yicha yo‘naladi va mashinani sudrashga qarshiligini kamaytiradi, bu mashinaning 0,9-1,2 sinfdagi traktorlar bilan ishlash imkonini beradi.



2-rasm. Frezaning ta’sir qiluvchi kuchlar va quvvat tavsifi

a-pichoqqa ta’sir qiluvchi kuchlar sxemasi; *b*-R_{xz} kuchi va ψ burchagining pichoq aylanishi burchagiga bog‘liq holda o‘zgarish grafigi.

Vertikal tashkil etuvchi $R_z=R_x tg\psi$ ning vertikal yo‘nalishida mashina ishchi organlarining tuproqqa chuqurlashishiga qarshilik qiladi, pastga yo‘nalishida esa chuqurlashishga yordam beradi. Olingan barcha qiymatlar natijasida burchakning o‘zgarishi +12 dan -15^0 gacha ekanligi aniqlandi. R_z kuchi yuqoriga yo‘nalishida ijobiy, pastga yo‘nalganida salbiy qiymatlarga ega.

Rotatsion pichoqlarning qarshilik qiymatlarini quyidagi soddalashtirilgan formuladan aniqlash mumkin:

$$R_x=k_k\delta b, \qquad (1)$$

bunda k_k – qirqib olishga solishtirma qarshilik koeffitsienti, N/m^2; δ - qirindi qalinligi, *m*; b - qirindi eni, *m*.

Qirqib olishning solishtirma qarshiligi tuproqning mexanik tarkibi (o‘simlik qoldiqlari ham hisobga olinadi) va uning holatiga, qirindilar o‘lchamlariga (pichoqqa uzatilayotgan

qatlam)ga va qirqish tezligiga ya'ni baraban aylanishlar soniga bog'liq. Olingan ma'lumotlardan kichik qatlam uzatilishida solishtirma qarshilik katta, qalin qatlam uzatilishida esa solishtirma qarshilik kamayishiga olib keladi. Bu holatda yupqa qatlamga nisbatan qalin qatlamning uzatilishi tuproqning kam uvalanishiga sabab bo'ladi.

Freza ishiga talab qilinadigan quvvat taxminan quyidagicha aniqlanadi:

$$N = N_m + N_k + N_{up}, \quad (2)$$

bunda N_m – mashinaning dala bo'ylab harakatlanishi quvvati, *kVt;* N_k – tuproqni qirib olish uchun quvvat (tuproq deformatsiyasi), *kVt;* N_{up} – qirindilarni irg'itish uchun quvvat, *kVt.*

Birinchi tashkil etuvchi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N_m \approx 10^{-2} fG\upsilon, \quad (3)$$

bunda G – mashina massasi, *kg*; υ – mashina harakat tezligi, *m/s*; f – dumalanish koeffitsienti, f = 0,15...0,2.

Ikkinchi tashkil etuvchi quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$N_k = 10^{-4} k_k \, \delta \, bazn/6, \quad (4)$$

bunda a – tuproqqa ishlov berish chuqurligi, 7-12 *cm*; z –pichoqlarning umumiy soni; n – freza barabani aylanishlar soni, *160-200 min*$^{-1}$.

Uchinchi tashkil etuvchi quyidagicha aniqlanadi:

$$N_{ir} = 510^{-4} k_0 \, G_T \, u_b, \quad (5)$$

bunda G_T - bir sekundda irg'itilayotgan tuproq massasi, *kg;* k_0 – ishchi organning shakliga bog'liq holda tuproq irg'itilishi koeffitsienti; u_b – barabanning aylanma tezligi, *m/s*.

Freza bilan tuproqqa ishlov berish uchun quvvat sarfi quvvatning solishtirma eltuvchanligi, ya'ni ish hajmi birligi uchun quvvat sarfi bo'yicha baholanadi (masalan, dm^3).


Yuqoridagi kuchlar tahlilidan ko'rinadiki, pichoqqa tuproq qatlami uzatilishining kamayishi va ilgargilanma harakat tezligining oshishi bilan solishtirma ish keskin oshadi, shu sababli freza tezligi nisbatan uncha katta emas - 1,1...1,4 m/s (4...5 km/h). Bunday ish tartibida irg'itilayotgan tuproq hajmidan kerakli sathdagi pushta balandligi shakllantiriladi. Bundan shakllangan pushtani zichlashga qarshilik kamayadi.

Pushta shakllantirgichga ta'sir qiluvchi qarshilik kuchlar tahlili. Pushta shakllantirgichga ta'sir qiluvchi qarshilik kuchlari irg'itilgan tuproqni qabul qilish fartugi, ikkita yon ag'dargichlar va yuqori to'g'ri qismlari qarshiliklari yig'indisiga teng:


$$P_x = R_{1x} + 2R_{3x} + R_{px} + R_{nx} + R_{2x}, \quad (6)$$

bunda R_{1x} – fartukda irg'itilayotgan tuproqqa qarshilikning gorizontal tashkil qiluvchisi; R_{3x} –tuproqning yon ag'dargichlarga qarshiligi gorizontal tashkil etuvchisi; R_{px} – tuproqning ag'dargichlar old qirralariga qarshilik kuchlari gorziontal tashkil etuvchilari; R_{nx} – shakllantirgich ag'dargichlarining past qirralariga qarshilik kuchi gorizontal tashkil etuvchisi; R_{2x}– tuproqning shakllantigich yuqori tom qismiga qarshili kuchi gorizontal tashkil etuvchisi.

Ushbu qarshilik kuchlari qiymatlari analitik usulda va dala sharoitida dinamometrik tenzometrlash tajribalari natijalari asosida aniqlanadi [8].



3-rasm. Pushta shakllantirgichga bo'ylama-vertikal tekislikda ta'sir qiluvchi kuchlar sxemasi



4-rasm. pushta shakllantirgichga gorizontal tekislikda ta’sir qiluvchi kuchlar sxemasi

Taklif etilayotgan tomchilatib sug‘orish quvuri [7] elastik plastikatdan tayyorlangan, suv chiqarish teshiklari quvur bo‘ylama o‘qi bo‘yicha ma’lum mosafada joylashgan. Suv chiqarish teshiklari dumaloq teshiklar bo‘lib, teshik diametri *d* ning quvur diametri *D* ga nisbati quyidagicha: *d/D* = 1/(30…40), quvur devoridagi teshiklar orasidagi masofa *L* = 80…400 mm ga teng.

Xulosa

Ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan mashina erta bahorda tirmalash va molalash operatsiyalari o‘rniga pushta shakllantirib, urug‘ ekish va tomchilatib sug‘orish usulida chigit suvi va o‘g‘itlash imkonini beradi. Traktorga agregatlangan mashinadan ikki usulda foydalaniladi: pushta shakllantirish va pushta ustiga tomchilatish quvurini joylashtirish; birato‘la urug‘ ekish. Agregat bir necha opreatsiyalarni bir o‘tishda bajrishi energiya va resurs tejash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. «Почвозащитное и ресурсосберегающее земледелие: Теория и методика исследований» под общей редакцией доктора сельскохозяйственных наук, профессора Хафиза Муминджанова. Продовольственная и сельскохозяйственная организации Объединенных Наций. Анкара, 2015.

2. Асаналиев А. и др. Почво- и водосберегающие технологии в Центральной Азии / А. Асаналиев, Т. Сыдыкбаев, А. Гареева - Б.: 2018. 204 с. ISBN 978-9967-11-645-0

3. «Почвозащитное и ресурсосберегающее земледелие в Центральной Азии: современное состояние, программы государственной и институциональной поддержки, а также стратегия для его внедрения» Продовольственная и сельскохозяйственная организации Объединенных Наций, 2012.

4. Нурбеков А., Кассам А., Сыдык Д., Зиядуллаев З., Джумшудов И., Хафиз Муминджанов, Дэвид Фейндель, Йозеф Турок. «Практика Почвозащитное и ресурсосберегающее земледелия в Азербайджане, Казахстане и Узбекистане» Продовольственная и сельскохозяйственная организации Объединенных Наций. Анкара, 2016.

5. Ревякин Е.Л., Табашников А.Т., Самойленко Е.М., Драгайцев В.И. «Ресурсосберегающие технологии: состояние, перспективы, эффективность»: науч. изд. М.: ФГБНУ «Росинформагротех», 2011.

6. Пылыпив А. М., Нестерова В.А., «Необходимость применения ресурсосберегающих технологий в растениеводстве». Интернет-журнал «Мир науки», Выпуск №1, январь – март, 2015. 6. Отчет ОФ ЦОКИ по проведённым мероприятиям за период май-ноябрь 2017 года в рамках проекта ФАО/ГЭФ «Устойчивое управление горными лесными и земельными ресурсами в условиях изменения климата».

7. Б.П.Шаймарданов, Х.Б.Шаймарданов, Р.Д.Матчанов. Поливной шланг для капельного орошения и способ его укладки. Патент UZ IAP 06314. 14.10.2020. (21). № IAP 2017 0013 № (22). 12.01. Ташкент. 2017.

8. F Mamatov, B Mirzaev, P Berdimuratov, B Shaimardanov. M Aytmuratov, D Jumamuratov Traction resistances of the cotton seeder moulder. GIS 2021 IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 868 (2021) 012052 IOP Publishing doi:10.1088/1755-1315/868/1/012052.

UO‘T 631.33.02.5

QISHLOQ XO‘JALIGI EKIN URUG‘LARI VA KO‘CHATLARINI EKISH QURILMA ZICHLAGICH (PRIKATKA)LARINING TAHLILI

Kalmuratova Z.M.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada qishloq xo‘jaligi ekin urug‘lari va ko‘chatlarini ekishda qo‘llaniladigan zichlagich (prikatka) qurilmalarining konstruktiv tuzilishlari, ishlash prinsiplari va ularning samaradorlik darajasi tahlil qilingan.

Аннотация. В статье анализируются конструкции, принципы действия и эффективность различных уплотняющих устройств, используемых при севе семян и посадке рассад сельскохозяйственных культур.

Annotation. The article analyses the designs, operating principles and effectiveness of various compacting devices used for sowing seeds and planting seedlings of agricultural crops.

Zamonaviy qishloq xo‘jaligida ekinlarning barqaror unib chiqishi hamda yuqori darajadagi hosildorlikka erishish, asosan, urug‘ va ko‘chatlarni ekishning to‘g‘ri agrotexnik usullariga bog‘liq. Ayniqsa, zichlagich (prikatka) qurilmalarining ahamiyati bu jarayonda muhim o‘rin egallaydi. Ushbu moslamalar urug‘ yoki ko‘chatning tuproq bilan zich kontaktini ta’minlab, namlikning saqlanishiga, tuproqdagi havo bo‘shliqlarining kamayishiga va teng unish uchun optimal sharoit vujudga kelishiga xizmat qiladi.

Urug‘ sepilganidan so‘ng uni tuproqqa bosib chiqish (ya’ni zichlash) quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Urug‘ bilan tuproq orasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi;

Tuproqdagi namlikning bug‘lanib ketishini sekinlashtiradi;

Ildizlar uchun havo bo‘shliqlari kamayib, sog‘lom mikroiqlim hosil qiladi;

Shamol va quyosh ta’sirida tuproqning haddan tashqari tez qurib qolishining oldini oladi.

Ko‘chat ekish jarayonida esa prikatka yordamida ildiz atrofidagi tuproq zichlanadi, bu esa ko‘chatning o‘sishiga qulay, barqaror muhitni shakllantiradi [1].

Qishloq xo‘jaligi texnologiyalari bugungi kunda eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan va insoniyat hayotida bevosita ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan biri hisoblanadi. Bu esa dunyo miqyosida ortib borayotgan aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish zarurati bilan izohlanadi. Mazkur yo‘nalish nafaqat mexanizatsiyalashtirilgan texnik qurilmalarni, balki zamonaviy agrokimyoviy vositalar va o‘simliklarni kasalliklar, begona o‘tlar hamda hasharotlardan himoya qiluvchi ilg‘or texnologiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, urug‘lik mahsulotlarining sifati va hosildorligini oshirishga qaratilgan biotexnologik yechimlar ham qishloq xo‘jaligi innovatsiyalarining ajralmas qismini tashkil etadi.

Yurtimizda ham ushbu sohani modernizatsiya qilish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va topshiriqlari misol bo‘la oladi. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyatlar hokimlariga 2025-yilda zamonaviy paxta terish mashinalari, lazerli yer tekislagichlar hamda ko‘p funksiyali, aniq donalab chigit ekish seyalkalarini xarid qilish rejasini shakllantirish topshirilgan [2].

Hozirgi zamon qishloq xo‘jaligi amaliyotida turli konstruksiyadagi zichlagich qurilmalari keng qo‘llanilmoqda. Ular orasida quyidagi asosiy turlari mavjud:

Silliq barabanli zichlagichlar-tuzilishi jihatidan eng oddiy va ko‘p tarqalgan variant bo‘lib, silliq metall yoki yog‘ochdan tayyorlangan baraban og‘irligi orqali tuproqni siqadi.

Halqali (zveno) zichlagichlar-tishli yoki halqali shakldagi baraban yordamida tuproqni qisman zichlab, qisman esa g‘ovaklik holatini saqlab qoladi. Ular, asosan, o‘rta va yengil strukturalarga ega tuproqlarda ishlatiladi.

Rifli (profil) zichlagichlar-yuzasi maxsus riflarga ega bo‘lib, zichlash jarayonida namlikni ushlab turishga xizmat qiluvchi rifchalar hosil qiladi.

Vibratsion zichlagichlar-ilg‘or texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, yuqori zichlash darajasi va bir tekis bosimni ta’minlaydi. Ular ko‘proq ko‘chat ekish amaliyotida qo‘llaniladi.

Zichlagich tanlashda muhim texnik ko‘rsatkichlar:

Massa (kg): Qurilmaning tuproqni zichlash qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Massasi kattaroq zichlagichlar chuqurroq qatlamlarni siqadi, biroq harakatchanlik darajasi kamayadi.

Ish kengligi (metr): ish jarayonida zichlanadigan maydon hajmini bildiradi. Katta maydonlarda keng ish yuzasiga ega zichlagichlar yuqori unum beradi.

Zichlash bosimi (kPa): Tuproqqa ta’sir etuvchi kuch miqdori bo‘lib, urug‘ning zararlanmasligi va havoning siqilishi uchun muvozanatli bo‘lishi lozim.

Ish tezligi (km/soat): Traktor bilan birgalikda samarali ishlashi uchun muhim. Haddan ortiq tez harakat zichlash sifatini pasaytirishi mumkin.

Zamonaviy zichlagichlarning afzalliklari:

Oxirgi yillarda ishlab chiqarilayotgan zichlagichlar quyidagi ustunliklarga ega:

Energiya tejamkorlik,

Turli xil tuproq sharoitlariga moslashuvchanlik,

Qurilmalar bilan oson integratsiyalashuvi,

Texnik xizmat ko‘rsatishning soddaligi.

Masalan, “Agrotex MZ-2,7” yoki “Lemken VarioPack” kabi ilg‘or zichlagichlar bir vaqtning o‘zida siqish, tekislash va yiv hosil qilish kabi bir nechta funksiyalarni bajaradi.

Ko‘chat ekishdagi zichlashning roli:

Ko‘chatlar ekilgach, ularning ildiz atrofidagi tuproqni bir xilda siqish quyidagi afzalliklarni beradi:

Ildizni ortiqcha havodan ajratadi;

Tuproqdagi namlikni ushlab qoladi;

Ko‘chatning ildiz otishini va tez o‘sishini ta’minlaydi.

Aks holda, ildizlar havo bilan bevosita aloqada bo‘lib qurib qolish xavfi ortadi. Shu sababli, zichlash sifati tashqi tomondan sezilmasligi mumkin bo‘lsa-da, u butun vegetatsiya davriga bevosita ta’sir qiladi.

Amaliy tavsiyalar:

Yengil tuproqlarda-halqali zichlagichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Og‘ir tuproqlarda-silliq yoki rifli zichlagichlar samaraliroq hisoblanadi.

Urug‘ ekish chuqurligi 4-6 cm bo‘lsa, zichlash bosimi 70-100 kPa atrofida bo‘lishi lozim.

Ko‘chat ekishda zichlagichlar bilan birgalikda sug‘orish tizimlarini uyg‘unlashtirish natijadorlikni yanada oshiradi. [3]

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekinlarning sifatli unib chiqishi va ko‘chatlarning muvaffaqiyatli ildiz otishida zichlagich qurilmalarning ahamiyati kattadir. Ushbu qurilmalar yordamida urug‘ va ko‘chat atrofidagi tuproq qatlamining optimal zichligi ta’minlanadi, bu esa o‘simliklarning agrotexnik talablarga mos holda rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, energiya tejamkor, funksional jihatdan ilg‘or zichlagichlardan foydalanish dehqonchilikda unumdorlikni oshirib, barqaror hosildorlikka erishishda muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli, har bir fermer

xo‘jaligi yoki agrotexnik mutaxassis ekish texnologiyasini ishlab chiqishda zichlash usulini alohida e’tiborda saqlashi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Atabayeva N., Qodirho‘jayev O. O‘simlikshunoslik, Toshkent “Yangi asr avlodi”, 2021, 301 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-431-сон 12.12.2024.
3. Bo‘riev H.Ch., Do‘smurotova S.I., Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘shunosligi. Toshkent, “Mehnat”, 2023, 100 b.

UO‘T 634.1-13

MEVALI DARAXT KO‘CHATLARINI EKISHNI UZLUKSIZ AMALGA OSHIRADIGAN MASHINA KO‘MGICHINING HARAKATINI TADQIQ ETISH

To‘xtaqo‘ziyev A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.d., prof.

Ergashev M.M.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.f.d., k.i.x.

Akbarov I.A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.f.d.

Abdubannopov A.A.
Farg’ona davlat texnika universiteti.


Annotasiya. Maqolada mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina harakatini tadqiq etish вщyicha o‘tkazilgan nazariy tadqiotlarning natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты теоретических исследований по изучению движения закапывателя машины для беспрерывной посадки саженцев плодовых деревьев

Annotation. The article presents the results of theoretical research on studying the movement of the dredger of a continuous fruit tree planting machine.

Respublikamiz tabiiy iqlim sharoiti keng assortimentdagi o‘ta sifatli eksportbop bog‘dorchilik va uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish uchun mosligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining barcha sohalari kabi bog‘dorchilikni ham rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bundan tashqari O‘zbekistonda mevali bog‘lar barpo etish va ulardan yuqori hosil olishda energiya tejamkor, bir necha texnologik jarayonlarni agrotexnika talablariga mos ravishda amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqarishga e’tibor berilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “Agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta’minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish, sanoatbop meva-sabzavot hajmini 3,4 mln.tonnaga yetkazish, qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan texnika va tirkamalar turlarini ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish, mahalliylashtirish darajasini 50 foizga yetkazish, mashinasozlik mahsulotlari tannarxini o‘rtacha 20 foizga pasaytirish” ustuvor vazifa qilib qo‘yilgan [1]. Ushbu qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish va bog‘dorchilikni qishloq xo‘jaligining serdaromad sohasiga aylantirish uchun unda bajariladigan hamma ishlarni mexanizatsiyalash talab etiladi. Bog‘dorchilikda ham har qanday ekinni parvarishlash texnologiyasidek, yerni ko‘chat ekishga tayyorlash, ko‘chat ekish, zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash, hosilni yig‘ishtirish va mahsulotni saralash kabi ishlar bajariladi.

Hozirgi kunlarda respublikamizda ko‘chat ekishdan oldin tuproq 30-35 cm chuqurlikda haydaladi, chizellanadi va ketma-ket molalanadi. Shu jarayonlar to‘liq bajarilgandan so‘ng belgilangan joydan ko‘chat ekiladigan chuqurlar kovlanadi. Chuqurlar maxsus KYa-100, KNYu-100, KRK-60 qurilmalar yoki qo‘lda 60x60x60 cm o‘lchamda kovlanadi [2]. Ko‘chatlarni



1-rama; 2-osish qurilmasi; 3- chuqur yumshatkich-egatochgich; 4-diskli ko‘mgich; 5-konussimon g‘altakmola; 6-ko‘chat zahirasi uchun joy (bunker); 7-o‘rindiq; 8-iztortkich; 9- ekran

1-rasm. Daraxt ko‘chatlarini ekadigan mashinaning kostruktiv sxemasi

ko‘mish esa to‘liq qo‘l kuchi bilan bajariladi. Bu esa mehnat sarfi va boshqa sarflanadigan xarajatlarni yuqori bo‘lishiga olib keladi. Ushbu ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda QXMITIda yangi bog‘larni barpo etishda qo‘llaniladigan hamda mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina ishlab chiqildi hamda uning parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda.

Daraxt ko‘chatlarini ekadigan mashina rama 1, osish qurilmasi 2, chuqur yumshatkich-egatochkich 3, ishchi sirti sferik disk ko‘rinishida bo‘lgan hamda dala yuzasiga tik o‘rnatilgan ko‘mgich 4, konussimon g‘altakmola 5, ko‘chat zahirasi uchun joy (bunker) 6, o‘rindiq 7, iztortkich 8 va ekran 9 lardan tashkil topgan (1-rasm).

Ish jarayonida daraxt ko‘chatlarini ekadigan mashina ko‘chat ekiladigan chuqur egat ochadi, u yerga tushirilgan ko‘chatni tuproq bilan ko‘madi va zichlaydi.

Ushbu maqolada mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina ko‘mgichining ish jarayonidagi harakatini tadqiq etishga doir o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Ko‘mgich ish jarayonida murakkab harakat qiladi: o‘z o‘qi atrofida aylanma va mashina bilan birga ilgarilanma harakatda bo‘ladi va u ishchi sirtining istalgan nuqtasining *xyz* koordinatalar sistemasidagi (2-rasm) harakati quydagicha ifodalanadi

[3] $$x = V_i t + R\sin\varphi_i \cos\alpha\cos\omega t + R(1-\cos\varphi_i)\sin\alpha; \quad (1)$$

$$y = R(1-\cos\varphi_i)\sin\alpha - R\sin\varphi_i \sin\alpha\cos\omega t; \quad (2)$$

$$z = -R\sin\varphi_i \sin\omega t, \quad (3)$$

bunda V_i – ko‘mgichning mashina bilan birgalikdagi ilgarilanma harakat tezligi, m/s;

t – vaqt, s;

R- ko‘mgich ishchi sirtining egrilik radiusi


φ_i – qaralayotgan “i” nuqta holatini aniqlaydigan markaziy burchakning yarmi, °;

ω – ko‘mgichning aylanma harakatdagi burchak tezligi, rad/s.

(1)-(3) tenglamalardan foydalanib, ko‘mgich ishchi sirti qaralayotgan nuqtasining absolyut tezligi va tezlanishini aniqlaymiz:

$$V_a = \sqrt{\left(\frac{dx}{dt}\right)^2 + \left(\frac{dy}{dt}\right)^2 + \left(\frac{dz}{dt}\right)^2} \quad (4)$$

va $$W_a = \sqrt{\left(\frac{d^2x}{dt^2}\right)^2 + \left(\frac{d^2y}{dt^2}\right)^2 + \left(\frac{d^2z}{dt^2}\right)^2}, \quad (5)$$



2-rasm. Ko‘mgichning ish jarayonidagi harakatini tadqiq etishga doir sxema

bunda $\frac{dx}{dt} = V_i t - \omega R \sin\varphi_i \cos\alpha \sin\omega t;$ (6)

$$\frac{dy}{dt} = \omega R \sin\varphi_i \sin\alpha \sin\omega t; \quad (7)$$

$$\frac{dz}{dt} = -\omega R \sin\varphi_i \cos\omega t; \quad (8)$$

$$\frac{d^2x}{dt^2} = -\omega^2 R \sin\varphi_i \cos\alpha \cos\omega t; \quad (9)$$

$$\frac{d^2y}{dt^2} = \omega^2 R \sin\varphi_i \sin\alpha \cos\omega t; \quad (10)$$

$$\frac{d^2z}{dt^2} = \omega^2 R \sin\varphi_i \sin\omega t. \quad (11)$$

Bularni hisobga olganda (4) va (5) ifodalar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

$$V_a = \sqrt{V_i^2 - 2V_i\omega R \sin\varphi_i \cos\alpha \sin\omega t + \omega^2 R^2 \sin^2\varphi_i} \quad (12)$$

va

$$W_a = \omega^2 R \sin\varphi_i. \quad (13)$$

Adabiyotlardan ma’lumki [4]

$$\omega = \frac{2V_i \cos\alpha}{D}, \quad (14)$$

bunda D – ko‘mgichning diametri. m.
ω ning (14) ifoda bo‘yicha qiymatini (12) va (13) ifodaga qo‘yib quyidagilarga ega bo‘lamiz

$$V_a = 2V_i \sqrt{\frac{1}{4} - \frac{R}{D}\cos^2\alpha \sin\varphi_i \left(\sin\frac{2V_i \cos\alpha}{D} t + \frac{R}{D}\sin\varphi_i \right)} \quad (15)$$

va

$$W_a = \frac{4V_i^2}{D^2} R \sin\varphi_i \cos\alpha. \quad (16)$$

Bu ifodalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘mgichning tuproqqa ta’sir darajasi va demak ish ko‘rsatkichlari uning harakat tezligiga, diametriga, harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga hamda ish sirtining egrilik radiusiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi va bular ishlab chiqilgan qurilma ko‘mgichining parametrlarini tadqiq etishda hisobga olinishi lozim.

Xulosa

Mevali daraxt ko‘chatlarini ekishni uzluksiz amalga oshiradigan mashina ko‘mgichining tuproqqa ta’sir darajasi va demak ish ko‘rsatkichlari uning harakat tezligiga, diametriga, harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga hamda ish sirtining egrilik radiusiga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-60-son Farmoni.
2. Ostonaqulov T.E., Narzieva S.X., B.X.G‘ulomov Mevachilik asoslari. Qishloq xo‘jalik

oliy o‘quv yurtlari talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2010. – 298 b.

3. Канарев Ф.М. Ротационные почвообрабатывающие машины и орудия. – Москва: Машиностроение, 1983. – С. 144.

4. Ergashev M.M. Kombinatsiyalashgan borona diskli yumshatkichlarining parametrlarni asoslash. Tex. fan. (PhD) … dis. – Toshkent – 2018. – 165 b.

UO‘T 631.331.52

PIYOZ URUG‘INI KO‘P QATORLAB EKADIGAN SEYALKA TAJRIBA NUSXASI SINOVLARINING NATIJALARI

Eshdavlatov A.E.
Qarshi davlat texnika universiteti, t.f.f.d., dots.

Xamidov N.M.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute, t.f.f.d.

Annotasiya. Maqolada ishlab chiqilgan piyoz urug‘larini ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning tajriba nusxasi sinovlarining natijalari keltirilgan bo‘lib, bunda urug‘larning ko‘milish chuqurligi, tasmadagi qatorlar kengligi, sug‘orish egatlarining chuqurligi aniqlangan.

Аннотация. В статье представлены результаты испытаний опытного экземпляра разработанного сеялки для многорядного посева семян лука, в ходе которых была определена глубина заделки семян, ширина рядов в полосе, глубина поливных корзин.

Annotation. The article presents the results of testing a prototype of the developed seed drill for multi-row sowing of onion seeds, during which the depth of seed placement, row width in the strip, and the depth of watering baskets were determined.

Jahonda energiya-resurstejamkor va ish unumi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlab chiqish yetakchi o‘rinni egallamoqda. Dunyo miqyosida bugungi kunda 60 mln. gektar maydonga turli xil sabzavot ekinlari yetishtirilib, shu jumladan 4,5 mln gektar ya’ni 7,5 % maydonda piyoz yetishtirilishini hisobga olsak [1], piyoz ekini urug‘larini tasmali ko‘p qatorlab ekish uchun ish sifati yuqori hamda energiya-resurstejamkor qurilmalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ma’lumki, piyoz urug‘lari asosan tasmali yoppa usulda ekiladi. Bunda urug‘lar qatorlarga joylashtirilmasdan, har xil kenglikdagi tasma shaklida, har bir tasma ichida yoppasiga sochib ekiladi, ya’ni urug‘lar tasmada qatorlab ekilgandagidek ma’lum tartibda emas, tartibsiz joylashadi. Shuni aytish kerakki, tasmali yoppa usulda ekilgan urug‘lar bir xil chuqurlikka ko‘milmaydi. Natijada urug‘lar har xil muddatlarda unib chiqadi. Bu esa ko‘chatlarning har xil rivojlanishiga olib kelib, hosildorlikka salbiy ta’sir etishi mumkin. Tasmali usulda ekin maydonidan unumli foydalaniladi, maydon birligiga ko‘proq ko‘chat joylashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu imkoniyatdan to‘la foydalanish yo‘llaridan biri – tasmada urug‘larni bir necha qatorga joylashtirishdir. Bu usul tasmali ko‘p qatorlab ekish usuli, deb ataladi. Urug‘lar qatorlab ekilganda ularni bir xil chuqurlikka ko‘mish imkoniyati ta’minlanib, ko‘chatlarning yoppasiga bir vaqtda unib chiqishiga erishiladi [1].

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda, piyoz ekinlarini yetishtirishda ekishga tayyorlangan dalalarda agregatning bir o‘tishida sug‘orish egatlarini ochib, pushta hosil qiladigan va piyoz urug‘larini shu pushtaga tasma usulida bir necha qatorlab ekadigan seyalka (1-rasmga qarang) ishlab chiqildi [2].

Seyalka osish qurilmasi bilan jihozlangan rama, egatochkich, tayanch-yuritmali g‘ildirak, zanjirli uzatma, parallelogramm mexanizm, urug‘ bunkeri, urug‘ miqdorlagich, urug‘ o‘tkazgich, ekkich, konus to‘g‘inli prikatkalardan tashkil topgan.

Seyalka ramasi ikkita ko‘ndalang va ularni bir-biri bilan bog‘lovchi bo‘ylama bruslardan tashkil topgan bo‘lib, harakat yo‘nalishi bo‘yicha birinchi bo‘lib joylashgan ko‘ndalang brus egatochkich,harakat yo‘nalishi bo‘yicha birinchi bo‘lib joylashgan ko‘ndalang brus egatochkich, ikkinchi brus esa ekish seksiyalari bilan jihozlangan. Ekish seksiyalari brusga paralelogramm mexanizm qurilmasi orqali mahkamlangan.



1-rasm. Piyoz urug‘larini ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning ish jarayondagi ko‘rinishi

Piyoz urug‘larni tasmali ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning sinovlari Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining piyoz urug‘larini ekishga tayyorlangan dalalarida o‘tkazildi. Sinovlarni o‘tkazishdan oldin tuproqning namligi va qattiqligi GOST 20915-11 ga [3] binoan aniqlandi va 0-5, 5-10, 10-15 va 15-20 sm qatlamlarda mos ravishda namligi 13,4; 15,1; 17,4 va 18,6 % , zichligi esa 1,10; 1,14; 1,22 va 1,25 g/sm^3 ni tashkil etdi.

Sinovlarda seyalka TTZ-LS I 38 rusumli mini traktoriga agregatlanib, 5 va 7,5 km/soat harakat tezliklarida ishlatildi. Bunda O’z RH 63.06: 2001 [4] bo‘yicha urug‘larning ko‘milish chuqurligi, tasmadagi qatorlar kengligi, ikki pushtaga ekilgan urug‘ tasmalari orasida masofa va sug‘orish egatlarining chuqurligi aniqlandi va natijalari jadvalda keltirilgan.

Ishlab chiqilgan piyoz urug‘larini tasma usulda ko‘p qatorlab ekadigan seyalka sinovlarining natijalari

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati		
		Dastlabki talablar bo‘yicha	Sinov natijalari bo‘yicha	
1	Harakat tezligi, km/soat	5-8	5,2	7,6
2	Urug‘larning ko‘milish chuqurli, sm	1,5-2	1,9	1,7
3	Tasmadagi qatorlar kengligi, sm	10±1	10,2	9,6
4	Ikki pushtaga ekilgan urug‘ tasmalari orasida masofa, sm	70±2	69,3	70,4
5	Sug‘orish egatlarining chuqurligi, sm	10-15	10,9	13,2

Ulardan ko‘rinib turibdiki, har ikkala harakat tezligida ham piyoz urug‘larini tasma usulida ko‘p qatorlab ekadigan seyalkaning sifat ko‘rsatkichlari dastlabki talablarga to‘liq mos keladi va urug‘larni o‘rtacha ko‘milish chuqurligi 1,7; 1,9 sm, tasmadagi qatorlar kengligi 9,6; 10,2 sm, ikki pushtaga ekilgan urug‘ tasmalari orasidagi masofa 69,1; 70,4 sm, sug‘orish egatlarining chuqurligi 10,9; 13,2 sm ni tashkil etdi.

Xulosa

O‘tkazilgan sinovlarda ishlab chiqilgan piyoz urug‘larini tasmali ko‘p qatorlab ekadigan seyalka belgilangan texnologik jarayonni agrotexnika talablari darajasida ishonchli bajardi.

ADABIYOTLAR

1. Ibragimov A., Abduraxmanov A., Eshdavlatov A. Piyoz urug‘larini ekadigan seyalka// AGROILM. – Toshkent, 2019. – Maxsus son – № 61. – B. 78.

2. Ibragimov A., Karakhanov A., Abdurakhmanov A., Eshdavlatov A., Uteniyazov P., Khadzhiev A. Research results for a new onion seed drill // Agricultural machinery and technologies. – Moscow, 2020. – N 4. – C.12-16.

3. ГОСТ 20915-11. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы определения условий испытаний. – М.: 2013. – 22 с.

4. O’z RH 63.06: 2001. Испытания сельскохозяйственной техники. Машины посевные. Программа и методы испытаний. – Toshkent, 2001. – 47 б.

UO'T 631.333.8

ORGANIK O‘G‘ITLARNI LOKAL SOLADIGAN KOMBINATSIYALASHGAN O‘G‘ITLAGICHNING ENERGETIK KO‘RSATKICHLARINI ANIQLASH

Abduraxmanov A.A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.n., k.i.x.

Uteniyazov P.A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d.

Xadjiyev A.A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d.

Annotasiya. Maqolada poliz mahsulotlarini ekib yetishtirish uchun daladan bir o‘tishda organik o‘g‘itlarni tuproqqa lokal usulda solib, sug‘orish egatini ochadigan va ekish pushtalarini shakllantiradigan kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning energetik ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментов по определению энергетических показателей комбинированного удобрителя, предназначенного для локального внесения органических удобрений с одновременным формированием посевных гребней и нарезкой поливной борозды.

Annotation. The article presents the results of experiments to determine the energy performance of a combined fertiliser designed for local application of organic fertilisers with simultaneous formation of seed ridges and cutting of irrigation furrows.

Ma'lumki, organik o‘g‘itlar, shu jumladan, hayvonlar go‘ngi tarkibida juda ko‘p turdagi ozuqa moddalari va mikroelementlar (azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, temir, kobalt va b.) mavjud bo‘lib, bunday o‘g‘itlar o‘simliklarga yumshoq ta'sir qiladi, tuproqning fizik-mexanik xossalarini va "tuproq-o‘simlik" tizimida makro va mikroelementlarning aylanishini yaxshilaydi. Ekologik nuqtai-nazardan organik o‘g‘itlar xavfsiz hisoblanadi hamda yetishtirilgan hosil tarkibida nitratlar me'yorining mo‘tadil bo‘lishini ta'minlaydi [1, 2, 3, 4].

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida poliz mahsulotlarini ekib yetishtirish uchun organik o‘g‘itlarni tuproqqa lokal solish texnologiyasi [5] va uni amalga oshiradigan kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagich ishlab chiqilgan [6]. Bu texnologiyaga asosan kuzda shudgorlangan va tekislangan dalalarda belgilangan chuqurlikda egatlar ochiladi va ularga lokal usulda go‘ng solinib, ustidan tuproq bilan ko‘miladi va pushtalar hosil qilinadi. Muhimi – bu jarayonlarning hammasi kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning bir o‘tishida amalga oshiriladi. Bahorda mana shu o‘g‘itlangan pushtalar ustiga poliz ekinlarining urug‘lari ekiladi. Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning asosiy qismlari bunker, kurakchali barabanlar, gumbazbuzgich-maydalagichlar, o‘g‘ityo‘naltirgichlar, egatochgichlar, tayanch-yuritma g‘ildiraklar va yuritma mexanizmidan iborat.

Kombinatsiyalashgan agregatning asosiy ishchi organlarini harakatlantirib, organik o‘g‘itni (qoramol go‘ngi misolida) me'yorlab o‘tkazib berishga talab etiladigan quvvatni aniqlash uchun laboratoriya sharoitida K-505 rusumli ko‘chma o‘lchov komplektidan foydalanildi (1-rasm). Bu o‘lchov komplekti kuchlanishi 600 *V* gacha bo‘lgan, bir tekis va notekis zo‘riqishlar yuzaga keladigan bir fazali va uch fazali uch simli yoki uch fazali to‘rt simli o‘zgaruvchan tok zanjiridagi quvvatni aniqlashga mo‘ljallangan.

Eksperimentlarni o‘tkazish uchun kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagich 1 laboratoriya sharoitida tayanchlarga ko‘tarib qo‘yilib (2-rasm), ishchi organlarini harakatlantirish uchun

variator 2 orqali elektrodvigatel 3 ga, u esa o‘z navbatida K-505 o‘lchov komplekti 4 orqali elektr tarmog‘iga ulandi.



1-rasm. K-505 rusumidagi o‘lchov komplekti

Tajribalarda variatorning o‘zini, o‘g‘itlagichning kurakchali barabanlari va gumbazbuzgich-maydalagichlarini salt holatda (go‘ng solinmasdan, bo‘sh) hamda o‘g‘itni me’yorlab o‘tkazish jarayonida (yuklama bilan) aylantirishga talab qilinadigan quvvatlar aniqlandi. Tajribalar uch karra takrorlikda o‘tkazildi.

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning tarmoqdan oladigan umumiy quvvati quyidagi ifoda bo‘yicha hisoblandi:

$$P = P_a + P_в + P_c\,, \qquad (1)$$

bunda P-umumiy quvvat, W;

P_a, $P_в$, P_c -mos ravishda, A, B va C fazalardan olinadigan quvvat, W.

Har bir fazaning ish jarayonidagi va salt holatdagi quvvati quyidagi ifoda bilan aniqlandi:

$$P_f = i_v\, K_p, \qquad (2)$$

bunda i_v -vattmetrning ko‘rsatkichi, *daraja*;

K_p-o‘lchov komplektining doimiylik koeffitsienti, *W/daraja*.



1-o‘g‘itlagich; 2-variator; 3-elektrodvigatel; 4-K-505 o‘lchov komplekti

2-rasm. O‘g‘itlagichning ishchi organlarini aylantirishga sarflanadigan quvvatni aniqlash jarayoni

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning tortishga qarshiligini aniqlash uchun tenzometriya usulidan foydalanildi [7, 8]. Bunda agregatning tortishga qarshiligi dinamometrik bo‘g‘in va “Morion” o‘lchash asbobi yordamida hamda o‘g‘itlagich bilan agregatlangan MTZ-80X traktorini yordamchi traktor (Magnum) yordamida shatakka olish yo‘li bilan aniqlandi.

Tajribalar o‘tkazilishidan oldin va o‘tkazilgandan so‘ng dinamometrik bo‘g‘in 500 N interval bilan 0 dan 6000 N gacha bo‘lgan kuchlar ta’sir ettirilib, tarirovka qilindi. Tarirovka jarayonida olingan ma’lumotlar asosida tarirovka koeffitsienti hisoblab chiqildi. Tarirovkadagi

xatolik 2,3 % ni tashkil etdi.

Tajribalarda avval MTZ-80X traktorining o‘zi Magnum traktori yordamida shatakka olinib, uning tortishga qarshiligi aniqlandi (3-rasm). Keyin MTZ-80X traktori o‘g‘itlagich bilan agregatlanib, yana shatakka olindi va agregatning tortishga qarshiligi aniqlandi (4-rasm). Bunda “Morion” o‘lchash asbobining ko‘rsatkichi tarirovka koeffitsientiga ko‘paytirilib, qarshilikning *N* hisobidagi haqiqiy qiymati aniqlandi.

Tajriba vaqtida o‘g‘itlagichning oldingi egatochgichlari 10 cm, ortki egatochgich 20 cm chuqurlikga sozlandi, o‘g‘itni me’yorlaydigan ishchi organlari (kurakchali barabanlari va gumbazbuzgich-maydalagichlari) esa salt holatda ishladi, ya’ni o‘g‘it solish jarayoni bajarilmadi. Shu sababdan tajribalar vaqtida aniqlangan agregatning tortishga qarshiligidan traktorning tortishga qarshiligini ayirib tashlaganimizda kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning tortishga umumiy qarshiligi emas, balki egatlarni ochish va ishchi organlarini salt holatda aylantirish jarayonidagi tortishga qarshiligi aniqlandi.



3-rasm. MTZ-80X traktorining tortishga qarshiligini aniqlash jarayoni



4-rasm. Agregatning tortishga qarshiligini aniqlash jarayoni

O‘g‘itlagichning tortishga umumiy qarshiligi laboratoriyada aniqlangan ma’lumotlar bilan jamlanganda kelib chiqadi. Tenzometriyalash jarayonida agregatning harakatlanish tezligi 6,39 va 7,57 km/h ni tashkil etdi.

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning ishchi organlarini aylantirishga sarflanadigan quvvatni aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarda olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kombinatsiyalashgan o’g’itlagichning ishchi organlarini aylantirishga talab qilinadigan quvvat

Ishlash holati	Quvvat sarfi, *kW*	
	Jami	Sof
Variatorning o‘zini aylantirish	0,44	-
O‘g‘itlagich ishchi organlarini salt holatda aylantirish (yuklamasiz)	0,70	0,26
O‘g‘itlagich ishchi organlarini ish holatida aylantirish (yuklama bilan)	1,56	1,12

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, elektrodvigatel variatorning o‘zini aylantirish uchun 0,44 *kW*, kombinatsiyalashgan agregatning kurakchali barabani va gumbazbuzgich-maydalagichlarini go‘ng solmasdan, bo‘sh aylantirganda 0,70 *kW* hamda yuklama bilan ishlaganda, ya’ni go‘ngni me’yorlab o‘tkazish jarayonida 1,56 *kW* quvvat sarfladi. Demak, kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning kurakchali barabanlari va gumbazbuzgich-maydalagichlarining o‘zini aylantirishga 0,26 *kW* va qoramol go‘ngini me’yorlab o‘tkazib berishga 1,12 *kW* quvvat talab qilinadi.

Kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning dalada ishlayotganida tortishga qarshiligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajrabalarda olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

Jadvaldagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, MTZ-80X traktorining harakat tezligi 6,39 km/h bo‘lganda uning tortishga qarshiligi 1604,9 *N* ni, o‘g‘itlagich bilan agregatlanganda esa – 4276,1 *N* ni tashkil etdi. Harakat tezligi 7,57 km/h bo‘lganda esa bu ko‘rsatkichlar, mos ravishda, 1720,0 va 4711,7 *N* ni tashkil etdi. Demak, qurilmaning tortishga qarshiligi harakat tezligi 6,39 km/h bo‘lganda 2671,2 *N* ni, harakat tezligi 7,57 km/h bo‘lganda esa 2991,7 *N* ni tashkil etdi. Bu qarshilikni yengish uchun birinchi holatda 4,74 *kW* va ikkinchi holatda 6,29 *kW* quvvat talab etiladi.

2-jadval

O‘g‘itlagichning tortishga qarshiligi

Agregat tarkibi	Tortishga qarshiligi, *N*	
	6,39 km/h Tezlikda	7,57 km/h tezlikda
Traktorning o‘zi	1604,9	1720,0
Agregat holida	4276,1	4711,7
O‘g‘itlagichning o‘zi	2671,2	2991,7

1-jadval ma’lumotlaridan o‘g‘itlagichning kurakchali barabanlari va gumbazbuzgich-maydalagichlarining o‘zini aylantirishga sarflanadigan quvvat 0,26 *kW* ni tashkil etishini hisobga olsak, o‘g‘itlagichning egatlar ochish va pushtalar hosil qilishga talab etadigan quvvati, agregatning tezligiga bog‘liq holda, 4,48 va 6,03 *kW* ni tashkil etadi. Organik o‘g‘itni me’yorlab uzatish jarayoniga sarflanadigan quvvat esa 0,86 *kW* ni tashkil etadi. Demak, kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagich agregatining umumiy qarshiligi 6,39 km/h tezlikda ishlaganda 5,60 *kW* ni, 7,57 km/h tezlikda esa 7,15 *kW* ni tashkil etar ekan.

Xulosa

Poliz mahsulotlarini ekib yetishtirish uchun daladan bir o‘tishda organik o‘g‘itlarni tuproqqa lokal usulda solib, sug‘orish egatini ochadigan va ekish pushtalarini shakllantiradigan kombinatsiyalashgan o‘g‘itlagichning o‘g‘itni me’yorlab o‘tkazib beradigan ishchi organlarini ish jarayonida aylantirishga 1,12 *kW*, egatlar ochish va pushtalar shakllantirish jarayoniga, agregatning ish tezligi 6,39 km/h va 7,57 km/h bo‘lganda, mos ravishda, 4,48 va 6,03 *kW*, agregatni ishlatish uchun umumiy holda 5,60 va 7,15 *kW* quvvat talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Hitha Sh, Vinaya Ch, Linu M. Organic fertilizers as a route to controlled release of nutrients. Chapter 13// Controlled Release Fertilizers for Sustainable Agriculture, 2021. – pp. 231-245. doi: 10.1016/B978-0-12-819555-0.00013-3

2. Lal R. Soil organic matter content and crop yield// Journal of Soil and Water Conservation, 2020;(75): 27A–32A. doi: 10.2489/ jswc.75.2.27A

3. Zhou Z, Zhang S, Jiang N, et al. Effects of organic fertilizer incorporation practices on crops yield, soil quality, and soil fauna feeding activity in the wheat-maize rotation system// *Front. Environ. Sci.* 2022:(10):1058071. doi: 10.3389/fenvs.2022.1058071.

4. Miner GL, Delgado JA, Ippolito JA, et al. Assessing manure and inorganic nitrogen fertilization impacts on soil health, crop productivity, and crop quality in a continuous maize agroecosystem// Journal of Soil and Water Conservation, 2020:(75): pp.481-498. https://doi.org/10. 2489/jswc.2020.00148.

5. Утениязов П. Органик ўғитларни локал солиш технологияси// Агро илм. – Toshkent, 2016. – №1(39). – B.70-71.

6. Abduraxmanov A.A., Xadjiyev A.A., Uteniyazov P.A., Karaxanov A. Tuproqqa organik o'g'itlarni solish qurilmasi (Ustroystvo dlya vneseniya organicheskix udobreniy v pochvu). – FAP № 2697. – Rasmiy axborotnoma. – 23.05.2025. – № 5 (290).

7. Tst 63.03.2001. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы энергетической оценки. – Москва: Изд-во стандартов, 1989. – 59 с.

8. РД 10.4.1-89. Испытания сельскохозяйственной техники. Машины и орудия для глубокой обработки почвы. Программа и методы испытаний. – Москва, 1989. – 52 с.

UO‘T 631.333.356.46

ORGANIK O‘G‘ITLARNI LOKAL SOLADIGAN QURILMANING DISKLI EGATOCHGICH TOMONIDAN TUPROQ BO‘LAGINING KESILISHI VA ISHCHI SIRTIDAGI HARAKATINI TADQIQ ETISH

Ibragimov A.A.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. t.f.d., prof.,

Ramazanov B.B.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. t.f.f.d.

Ramazanov B.N.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti.

Annotasiya. Maqolada tuproq bo‘laklarining organik o‘g‘itlarni lokal soladigan qurilmaning diskli egatochgichi ishchi sirtidagi harakatini tadqiq etish bo‘yicha olib borilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты теоретических исследований по изучению движения почвенных частиц по рабочей поверхности дискового бороздореза устройства для локального внесения органических удобрений.


Annotation. The article presents the results of a theoretical study on the movement of soil particles along the working surface of a disk furrow cutter for local application of organic fertilizers.

Organik o‘g‘itlarni poliz ekinlari ekiladigan maydonlarga lokal usulda solishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalarining yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqish yo‘nalishida, jumladan, organik o‘g‘itlarni poliz ekinlari ekiladigan maydonlarga lokal usulda solib, ularni ko‘mish bilan bir vaqtda sug‘orish ariqlarini ochib va ekish pushtalarini hosil qilib ketadigan samarali texnika vositasini yaratish va ishchi qismlarning texnologik jarayonlarini asoslash, ularning tuproq va o‘g‘it bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonida resurstejamkorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan poliz ekinlari ekiladigan maydonlarda daladan bir o‘tishda egatlar ochib, ularga organik o‘g‘itlarni me’yorlab lokal usulda solib, ustini tuproq bilan ko‘mish jarayonida sug‘orish egatini ochib, ekish pushtalarini hosil qilib ketadigan ixcham va qulay qurilmani yaratish maqsadida QXMITIda poliz ekinlari ekiladigan maydonlarga organik o‘g‘itlarni lokal soladigan qurilma ishlab chiqilgan [1]. Ammo, uning o‘g‘itlash va sug‘orish egatlarini ochadigan ish organlarining turi, texnologik ish jarayonlari va parametrlarini asoslash, ularning tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonida resurstejamkorlikni ta’minlash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

O‘tkazilgan adabiyotlar tahlili asosida qurilmaning [2] organik o‘g‘itni solishga egatlarni olish uchun sferik disklar hamda solingan o‘g‘itni ko‘mish bilan bir vaqtda sug‘orish arig‘ini va ekish pushtalarini shakllantirish uchun ikki ag‘dargichli ishchi organ tanlab olindi [3].


Ushbu maqolada tuproq bo‘laklarining sferik diskli egatochgichlar ishchi sirtidagi harakati tadqiq etilgan.

Sferik diskli egatochgichlar (1-rasm) ish jarayonida tuproq palaxsalarini kesadi, ularni ish sirtlari bo‘ylab ko‘taradi va qarama-karshi tomonga uloqtirib ikkita o‘g‘itlash egatlarini va bitta pushta hosil qiladi [4, 5].



1-rasm. Diskli egatochgichlarning ish jarayoni

Diskli egatochgich tomonidan kesib olinayotgan palaxsa balandlagi δ, ko‘ndalang kesimining kengligi b va yuzi S (2-rasm) bilan xarakterlanadi.



2-rasm. Diskli egatochgich kesayotgan tuproq palaxsasining shakli va o‘lchamlari

Ularni quyidagi ifodalar bo‘yicha aniqlash mumkin [6]:

$$\delta = h; \tag{1}$$

$$b = 2\sqrt{\frac{h}{\cos\beta}\left(D - \frac{h}{\cos\beta}\right)}; \tag{2}$$

$$S = \left[\frac{D^2}{4}\arccos\left(1 - \frac{2h}{D\cos\beta}\right) - \left(\frac{D}{2} - \frac{h}{\cos\beta}\right)\sqrt{\frac{h}{\cos\beta}\left(D - \frac{h}{\cos\beta}\right)}\right]\sin\alpha\cos\beta \tag{3}$$

bunda D – sferik diskning diametri, m;

h – sferik diskli egatochgichning tuproqqa botish chuqurligi, m.

β – sferik diskli egatochgichning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °.

(1) – (3) ifodalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, diskli egatochgich tuproqdan kesib olinadigan palaxsaning shakli va o‘lchamlari uning diametri (radiusi), harakat yo‘nalishiga va tikka nisbatan o‘rnatilish burchaklari hamda tuproqqa botish chuqurligiga bog‘liq.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, sferik disk tuproqdan ko‘ndalang kesimi nov ko‘rinishida bo‘lgan palaxsani kesib oladi. Palaxsaning disk tig‘i kesgan qismi ellips ko‘rinishida bo‘lib, uni kuyidagi tenglama bo‘yicha ifodalash mumkin:


$$\frac{Z^2}{R_\partial^2 \sin^2 \alpha} + \frac{Y^2}{R_\partial^2 \sin^2 \beta} = 1, \quad (4)$$

bunda *X,U* – disk aylanish markazidan o‘tkazilgan koordinata o‘qlari;

R_d – disk radiusi, *m*;

β – diskning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi, °.

Tuproq bo‘laklarining sferik diskli egatochgichning ishchi sirtidagi harakatini. Sferik diskli egatochgichning ishchi sirtiga kelib tushgan tuproq bo‘laklari unda murakkab harakatda bo‘ladi. Tuproq bo‘laklari sferik diskli egatochgich bilan birga aylanma (ko‘chirma) va uning ishchi sirti bo‘ylab nisbiy harakatda bo‘ladi [7]. Sferik diskli egatochgich ishchi sirtining M_0 nuqtasi bilan uchrashgan tuproq bo‘lagi (3-rasm) ko‘chirma va nisbiy harakatlar traektoriyalari S_k va S_n ning yig‘indisi bo‘lgan S_a traektoriya bo‘ylab V_a absolyut tezlik bilan harakatlanib, ma’lum vaqtdan keyin M_1 nuqtaga ko‘chadi.



3-rasm. Tuproq bo‘lagini diskli egatochgichning ishchi sirti bo‘ylab harakatini tadqiq etishga doir sxema

Bunda tuproq bo‘lagining M_1 nuqtadagi absolyut tezligi uning shu nuqtadagi ko‘chirma V_k va nisbiy V_n tezliklarining geometrik yig‘indisiga teng bo‘ladi, ya’ni:

$$V_a = \sqrt{V_к^2 + V_н^2 + 2V_к V_н} \cos \varepsilon, \quad (5)$$

bunda ε – tuprok bo‘lagining ko‘chirma V_k va nisbiy V_n tezliklari orasidagi burchak.

Ko‘chirma tezlik quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi [8]:

$$V_к = \omega r, \quad (6)$$

bunda ω – egatochgichning burchak tezligi, *rad/s*;

r – egatochgichning aylanish o‘qidan qaralayotgan tuproq bo‘lagigacha bo‘lgan radial masofa, *m*.

Ma’lumki [6]

$$\omega = \frac{2V_n \cos \beta}{D}, \quad (7)$$

bunda V_n – egatochgichning ilgarilanma harakatdagi tezligi, *m/s*.

ω ning (7) ifoda bo‘yicha qiymatini (6) ga qo‘yib, V_k ni aniqlash uchun quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$V_к = \frac{2V_n r \cos \alpha}{D}. \quad (8)$$

V_n, ya’ni tuproq bo‘laklarining diskli egatochgichning ishchi sirti bo‘ylab nisbiy tezligini

aniqlash uchun ularning egatochgichning ishchi sirtidagi nisbiy harakatining differensial tenglamasi tuziladi va yechiladi [7].

Tuproq bo‘laklari egatochgichning ishchi sirtida va undan tushgandan keyin birgalikda harakatlanadi. Buni hisobga olgan holda ularni quyidagicha ifodalash mumkin [9]:

$$V_н^T = \kappa\left\{-\frac{1}{e^{2f\left[\arcsin\left(\frac{D}{2R}\right)-\varphi_0\right]}}\left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+\right.\right.$$

$$+2gR\frac{(1-2f^2)}{(1+4f^2)}\sin(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f}-\sin^2\varphi_0\right)\Bigg]+$$

$$+\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+2gR\frac{(1-2f^2)}{(1+4f^2)}\sin\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+$$

$$\left.+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left[\frac{D\sqrt{R^2-(0,5D)^2}}{fR^2}-\left(\frac{D}{2R}\right)^2\right]\right\}^{\frac{1}{2}}, \qquad (9)$$

va

$$V_a^T = \left\{(V_n\cos\beta)^2+\kappa^2\left\{-\frac{1}{e^{2f\left[\arcsin\left(\frac{D}{2R}\right)-\varphi_0\right]}}\left[\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+\right.\right.\right.$$

$$+2gR\frac{(1+4f^2)}{(1+4f^2)}\sin(\varphi_0+\alpha)\cos\tau+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left(\frac{\sin 2\varphi_0}{f}-\sin^2\varphi_0\right)\Bigg]+$$

$$+\frac{6fgR}{(1+4f^2)}\cos\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+2gR\frac{(1-2f^2)}{(1+4f^2)}\sin\left(\arcsin\frac{D}{2R}+\alpha\right)\cos\tau+$$

$$\left.\left.+4V_n^2\frac{R^2}{D^2}\cos^2\beta\left[\frac{D\sqrt{R^2-(0,5D)^2}}{fR^2}-\left(\frac{D}{2R}\right)^2\right]\right\}\right\}^{\frac{1}{2}}, \qquad (10)$$

(9) - (10) ifodalar disk ish sirtini istalgan nuqtasida joylashgan tuproq bo‘laklarini ko‘chirma, nisbiy va absolyut tezliklari qiymatini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa

Berilgan ish sharoitlari uchun tuproq bo‘laklarining sferik disk ishchi sirtidagi harakat tezliklari va demak, uning ish ko‘rsatkichlari agregatning tezligiga, disk sferasining radiusiga hamda diametriga va diskning harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagiga bog‘liq.

ADABIYOTLAR

1. Uteniyazov P.A. Organik o‘g‘itlarni poliz ekinlari ostiga soladigan texnika vositasining parametrlarini asoslash. Tex. fan. (PhD) ... dis. – Toshkent, 2020. – B. 173.

2. Qoraxonov A., Abduraxmanov A., Uteniyazov P. Poliz ekinlari ostiga organik o‘g‘itlarni lokal soladigan o‘g‘itlagich qurilma// Agro ilm. – Toshkent, 2019. – № 3 (59). –B. 99.

3. Ramazanov B.B. Organik o‘g‘itlarni lokal soladigan qurilmaning o‘g‘itlash va

sug‘orish egatlarini ochadigan ish organlarining turini tanlash bo‘yicha taqqoslov sinovlarining natijalari: Respublika ko‘p tarmoqli sammit materiallari to‘plami I - Toshkent; 2022. – B. 605-609.

4. Тўхтакўзиев А., Насритдинов А.А. Взаимодействие сферического диска с почвой// Вестник Российской академии сельскохозяйственных наук. – Москва, 2000. – № 6. – С. 76-77.

5. Киргизов Х.Т. Обоснование параметров рабочих органов для полосной обработки почвы под посев повторных кормовых культур: Автореф. дисс. … канд. техн. наук. – Янгиюль: ЎзМЭИ, 1999. – 16 с.

6. Нартов П.С. Дисковые почвообрабатывающие орудия. – Воронеж, 1972. – 182 с.

7. Ишмурадов Ш.У. Дискли плугнинг параметрларини асослаш. Тех. фан. (PhD) … дис. - Тошкент – 2019. – 152 б.

8. Бать М.И., Джанелидзе Г.Ю., Кельзон А.С. Теоретическая механика. – Москва: 1963. – 483 с.

9. Рудаков Г.М. Технологические основы механизации сева хлопчатника. – Ташкент: Фан, 1974. – 244 с.

УДК 632.98:631.348.45

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ И РЕСУРСОСБЕРЕЖЕНИЯ НАЗЕМНОГО ОПРЫСКИВАНИЯ ПРОПАШНЫХ КУЛЬТУР

Борисенко И.Б.
Волгоградский государственный аграрный университет, Россия. д.т.н., проф.

Мезникова М.В.
Волгоградский государственный аграрный университет, Россия.д.т.н., с.н.с.

Скрипкин Д.В.
Волгоградский государственный аграрный университет, Россия. к.т.н.

Аннотация. Ресурсосберегающая технология полосового опрыскивания позволяет достигать высоких показателей качества с учетом фаз развития и назначения рабочего раствора с сокращением затрат на обработку и погектарной нормы внесения, что делает технологию высокорентабельной и повышает прибыль.

Annotasiya. Yo‘l-yo‘l purkashning resurstejamkor texnologiyasi chopiq ekinlarining rivojlanish fazalari va purkash maqsadini hisobga olgan holda yuqori sifat ko‘rsatkichlariga erishish, ishlov berish xarajatlari va gektarbay qo‘llash me’yorini kamaytirish imkonini beradi, bu esa texnologiyani yuqori rentabelli qiladi va foydani oshiradi.

Annotation. Resource-saving strip spraying technology allows you to achieve high quality indicators, taking into account the phases of development and appointment of the working solution with a reduction in processing costs and the cross-section rate of application, which makes the technology highly profitable and increases profit.

Разработка технологии и системы машин под новую технологию – важная научная и производственная задача. Для южных районов России и регионов рискованного земледелия с недостатком влаги и малым содержанием гумуса хорошие результаты даёт применение полосовой технологии. Техника для осуществления данной технологии в основной своей массе импортная и крайне дорогостоящая. Поэтому разработка технических средств для выполнения технологических операций по полосовой технологии открывает перспективное направление производства, одновременно способствует импортозамещению. Однако, не все технологические операции встраиваются в подход полосового воздействия при применении полосовой технологии.

Наиболее распространенным способом наземного опрыскивания в России и за рубежом является сплошное опрыскивание, когда форсунки на штанге опрыскивателя расположены вертикально, что обеспечивает полное покрытие поверхности поля рабочим растворам. Кроме того, при вертикальном опрыскивании для достижения полного перекрытия факелов распыла от соседних форсунок штангу опрыскивателя поднимают гораздо выше над верхней частью растений, чем это в действительности нужно [1,2,4].

Для пропашных культур данный способ опрыскивания можно применять на операциях по гербицидной обработке до всходов, опустив штангу опрыскивателя на минимально возможную высоту. На операциях борьбы от вредителей и болезней, листовой подкормке, десикации сплошная обработка ведет к необоснованному расходу пестицидов, увеличению стоимости технологии и чрезмерному и неоправданному загрязнению окружающей среды. К тому же нет налаженного промышленного производства опрыскивателей для локального полосового опрыскивания строго по

полосам произрастания культурных растений с высоким качеством покрытия и распределения по объекту обработки. Поэтому совершенствование технологий опрыскивания пропашных культур является важной научно-технической задачей, одновременно с направлением повышения качественных показателей опрыскивания и снижения норм расхода растворов на единицу обрабатываемой площади без снижения нормы на объекте обработки, а также выполнение требований экологической безопасности. Учеными Волгоградского ГАУ разработана, запатентована и успешно применяется на полях Волгоградского региона новая технология полосового опрыскивания с боковым распылом рабочей жидкости [1-3].

Центральное место в новой технологии отводится точному воздействию на растение и среду его обитания (Патенты на изобретение РФ №2709762, 2769737, 2783606, 2785465). Данный подход, вместо сплошного опрыскивания поля, подразумевает его целевое нанесение соответствующими полосами по грядам или между ними, оставляя требуемое пространство нетронутым (рис. 1). Это позволяет значительно сократить общий объем используемого препарата, тем самым снижая потенциальный вред для окружающей среды [1].




Рисунок 1 – Распыл рабочего раствора при полосовом опрыскивании по фазам развития культуры (на примере картофеля)

Экономический и экологический эффект достигается перераспределением рабочего раствора с междурядья на объект воздействия и глубиною проникновения рабочего раствора в наземную вегетативную часть выращиваемой культуры с учетом фазы развития. Применяемое техническое решение позволяет сократить расстояние от распылителя до обрабатываемого объекта, что дополнительно повышает качественные показатели опрыскивания [3,4,5].

Способ полосового опрыскивания с боковым распылом выполняется путём распыления рабочего раствора над рядом культурных растений по ходу движения опрыскивателя. Для этого применяются щелевые плоскофакельные распылители, установленные под углом 45° к вертикальной плоскости и ориентированные друг к другу в поперечной плоскости [1-3,5].

Для оптимизации применения почвенных гербицидов при культивировании картофеля и других овощей на грядах, исследуется технология сплошного опрыскивания способом полосовой обработки на основе слияния двух потоков (патент РФ №2769737) рабочего раствора от бокового опрыскивания (патент РФ №2817070). Это позволяет добиться стабильной ширины обработки с учетом более допустимых перемещений штанги опрыскивателя по вертикали.

Данный технологический процесс нанесения почвенного гербицида по гребням обеспечивает равномерное покрытие раствором контуры гряд. Эта технология требует модификацию штанги опрыскивателя или применения специальных зажимов для использования с корпусами насадок для гибких шлангов, изменяющими расположение адаптеров форсунок (патент РФ №2797917). С этой целью установлены парные односторонние адаптеры, направленные друг к другу, с возможностью регулировки

расстояния между ними (рис. 2). Последующие парные адаптеры устанавливаются с продольным зеркальным смещением относительно оси штанги на величину S=100-120 мм. Такая установка парных адаптеров предотвращает слияние факелов распыла соседних форсунок в вертикально-продольной плоскости. Расстояние между распылителями определяется шириной обрабатываемой полосы с учетом допустимых поперечных отклонений опрыскивателя от продольной оси движения относительно обрабатываемых рядов растений. Технологический результат выражается в повышении равномерности распределении рабочего раствора в междурядьях и на поверхности гряд, по сравнению с использованием распылителей с вертикальным расположением.




Рисунок 2 – Распределение почвенного гербицида по гребням при инновационном способе опрыскивания

Экономическая эффективность от применения локального внесения удобрений и средств защиты пропашных культур способом полосового наземного опрыскивания на объект обработки намного выше, чем при их сплошном вертикальном внесении. Количество рабочего раствора, вносимого на единицу площади, снижается на 15-50% в зависимости от применяемого угла распыления форсунки и фазы вегетации культуры. Внесение удобрений и средств защиты растений с локализацией по абрису культурного растения позволяет выделить так называемые «условно чистые зоны» в межполосном пространстве, что благотворно воздействует на обитателей почвы, интенсивность естественных природных процессов, повышает общий уровень экологической обстановки. Как следствие, повышается экосистема всей площади и получаемой продукции.

Заключение

Предложена ресурсосберегающая технология ухода за посадками картофеля опрыскиванием, позволяющая проводить операции защиты и питания растений с высокими показателями качества с учетом фаз развития и назначения рабочего раствора. Применение разработанных технических решений для выполнения технологии полосового опрыскивания с боковым распылом рабочего раствора позволяет выполнять опрыскивание картофеля с сокращением эксплуатационных технических затрат на обработку и на препараты, не снижая рекомендованных норм внесения на объект обработки, что делает технологию высокорентабельной и повышает прибыль. С учетом принятой технологии возделывания, снижение затрат на выращивание картофеля составляет от 1000 и более руб/га.

ЛИТЕРАТУРА

1. Мезникова, М.В. Технологическое обоснование зоны покрытия рабочим раствором при полосовом опрыскивании пропашных культур / М.В. Мезникова, И.Б. Борисенко, Д.В. Скрипкин, Д.А. Соколов / Вестник аграрной науки Дона. - 2024. – Т.17, № 1 (65). – С. 56 – 64. DOI: 10.55618/20756704_2024_17_1_56-64 – EDN OSJKVC.

2. Борисенко, И. Б. Использование цементной пыли в замкнутом цикле производства промышленности в сельском хозяйстве / И. Б. Борисенко, М. В. Мезникова,

Е. И. Улыбина 3. Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса: Наука и высшее профессиональное образование. – 2024. – № 5(77). – С. 318-325. – DOI 10.32786/2071-9485-2024-05-36. – EDN PMFGPX.

4. Мезникова М. В., Борисенко И. Б., Скрипкин Д. В., Соколов Д. А. Технологические особенности полосового опрыскивания картофеля с применением ленточного способа по гребневой технологии. Известия НВ АУК. 2025. – 2(80). – 379-390. DOI: 10.32786/2071-9485-2025-02-40.

5. Borisenko, I. B. Strip tillage as an implementation of resource-saving approaches in areas of risky agriculture / I. B. Borisenko, M. V. Meznikova // E3S Web of Conferences Vol. 398, 01023 (2023) International Conference on Advances in Agrobusiness and Biotechnology Research (ABR 2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339801023 Published online22 June 2023

6. Мезникова, М.В. Влияние технологических параметров вертикального опрыскивания на обеспечение экологической безопасности при возделывании пропашных культур / М.В. Мезникова // Известия Нижневолжского агроуниверситетского комплекса: наука и высшее профессиональное образование. – 2022. – № 4 (68). – С. 502 – 514. DOI: https://doi.org/10.32786/2071-9485-2022-04-59

UO‘T 631.13.3

QO‘Y JUNIDAN ORGANIK O‘G‘IT SIFATIDA FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARINING AFZALLIKLARI

Alijanov Dj.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

Ne’matjanov A.E.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

Uralov S.V.
Registon ta’lim o‘quv markazi

Annotasiya. Maqolada Respublikada yengil sanoatda ishlatishga yaroqsiz qo‘y juni chiqindilari va hozirgi kunda mutlaqo ishlov berilmasdan tashlab yuborilayotgan dag‘al junlardan organik o‘g‘it sifatida foydalanish texnologiyalari yo’ritilgan. Tadqiqot ob’yekti sifatida qo‘y juni chiqindilari va dag’al junlar olingan.

Аннотация. В статье рассматриваются технологии использования отходов овечьей шерсти, непригодных для использования в легкой промышленности Республики, и грубой шерсти, которая в настоящее время выбрасывается без какой-либо обработки, в качестве органического удобрения. Объектом исследования являются отходы овечьей шерсти и грубая шерсть.

Annotation. The article examines the technologies for using sheep wool waste that is unsuitable for use in the Republic's light industry and coarse wool that is currently being discarded without any processing as an organic fertilizer. The object of the research is sheep wool waste and coarse wool.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Respublikada 2021-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra qo‘y va echkilar soni 22 mln 498 ming 600 boshni tashkil etadi va ularning 13,3 % fermer xo‘jaliklarida, 81,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,3 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi [1, 2].

Respublikada jun sanoati tezkor rivojlanishda, korxonalar soni oshmoqda, ishlab chiqarish hajmi kengaymoqda, eksport salohiyati sezilarli oshmoqda. Chorvashilik va qorako’l junidan foydalanish ham asta-sekin ko’tarilmoqda.

2025-yil 21-aprelda: Buxoro viloyatining Kogon tumanida qo‘y junini qayta ishlashga mo‘ljallangan “KOMTEKS PPOSH” nomli innovatsion klaster tashkil etilishi ma’lum bo‘ldi. Ushbu korxona aholidan jun sotib oladi, ip va adyol, choyshab ishlab chiqaradi. Navoiy viloyati, Tomdi tumani “Tomdi Karakul Breeding Cluster” 2024-yilda yuvilgan qo‘y junini Hindistonga eksport qilgan. Bu klasterning jun bo‘yicha amaliy faolligini ko‘rsatadi. Junni qayta ishlash klasterlari asosan cho‘l-yaylov resurslari yirik bo‘lgan hududlarda jamlangan: Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro, Qoraqalpog‘iston–yetakchi. Normativ-huquqiy baza klasterlarni barcha yaylovli hududlarda tashkil etishni ko‘zda tutadi, bu yonma-yon jun va terini qayta ishlash quvvatlari shakllanayotganini anglatadi.

Respublikada jami 175 ta investitsion loyiha rejalashtirilgan klasterlarda, jumladan, 55 ta junni qabul qilish va qayta ishlash zavodlari, 39 ta yem ishlab chiqarish, 8 ta terini qayta ishlash korxonalari mavjudligi ko‘zda tutilgan.

Lekin yuqorida qayd etilganlar va statistik ma’lumotlar bo’yicha Respublikada qo‘ylardan olinadigan junlarning 25-30 foizigina qayta ishlanadi. Qishloq joylarida ko‘pchilik hollarda, ayniqsa dag‘al junli qo‘ylar junlari tashlab yoki yoqib yuboriladi. Bu esa xo‘jaliklarga

iqtisodiy va ekologiyaga ham zarar keltiradi.

So'nggi vaqtlarda olib borilgan tadqiqotlar qo'y juni qishloq xo'jaligi uchun foydali bo'lgan nayob xususiyatlarga ega ekanligini aniqlagan. Ishlatilgan qo'y junlari qoldiqlaridan va ayniqsa ishlatilmay qolgan junlardan o'g'it sifatida foydalanish bo'yicha qator Yevropa davlatlari va qo'shni Qozog'iston va Qirg'izston davlarlarida ham ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda [3].

Shaxsiy xo'jaliklar va bog'bonlar uchun nafaqat yuqori hosildorlik, balki qo'llayotgan o'g'it materiallarining xavfsizligi ham muhim hisoblanadi. Kimyoviy o'g'itlardan qoshib o'z yeri va dehqonchiligi uchun kuyib-pichayotgan dehqonlar uchun qo'y junidan tayyorlangan tabiiy o'g'it ideal to'g'ri keladi.

Qo'y junlaridan o'g'it tayyorlash g'oyasi jun sanoati korxonalarida yaroqsiz bo'lgan jun qoldiqlarini utillashtirish muammosi tug'ilgandan so'ng paydo bo'lgan. Izlanishlar qo'y juni tarkibi azot, fosfor, kaliy va boshqa o'simliklar uchun foydali moddalarga ega ekanligini ko'rsatgan. Ushbu kashfiyotga asosan qo'y junidan o'g'it tayyorlash boshlangan va natijada u bog'bon va dehqonlarda ommaboplikga erishgan.

Qo'y junidan tayyorlangan o'g'it universal mahsulot bo'lib, u har xil turdagi o'simliklarga va o'stirish sharoitiga to'g'ri kelaberadi. Ulardan foydalanishdan maksimal foyda olish uchun o'g'itni to'g'ri tayyorlash va uni ekin dalasiga solishning optimal usulini tanlash muhim hisoblanadi.

Qo'y junidan o'g'it granulaga qayta ishlanadi yoki tabiiy sochma holatda qo'llaniladi. Ishlab chiqarish jarayonida uning tabiiy holati saqlanib qolishi va undagi to'yimli moddalarning asta-sekin chiqarilishi ta'minlanadi.

"Qishloq xo'jaligi texnika va texnologiyalari" kafedrasi xodimlari tomonidan qo'y junidan foydalanish texnologiyalari ishlab chiqildi. Ular: 1) granula ko'rinishida organik o'g'it tayyorlash texnologiyasi; 2) kompostlash texnologiyasi; 3) ekishdan oldin cho'l o'simliklari urug'lariga ishlov berish (drajelash). Granulalangan va kompostlangan o'g'it tayyorlash hamda o'simliklar urug'larini qo'y juni qo'shib drajelab ekish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda qo'y junini granulalash va o'simliklar urug'larini drajelash mashinalari konstruktiv-texnologik sxemalari ishlab chiqildi. Hozirgi kunda qo'y junidan tayyorlangan o'g'itning xususiyatlari va ekin dalalariga solganda samarasi to'g'risida va cho'l ozuqabop o'simliklari urug'larini drajelab ekish samaradorligi o'rganilmoqda [3].

Qo'y junidan o'g'it sifatida foydalanish va cho'l ozuqabop o'simliklari urug'larini drajelab ekish quyidagi ustunliklarni beradi [3]:

qo'y juni tuproqda sekin chiriydi (12 oygacha) va o'simliklarga uzoq vaqt to'yimli moddalarni mustahqam yetkazib turadi. Bu o'simliklarni tez-tez o'g'itlashni, ishch kuchi va logistikaga bo'lgan sarflarni kamaytiradi;

to'yimli moddalarning boy tarkibiga ega, jumladan, 10-12 % azot–o'simlik o'sishini rivojlantiradi, kaliy–mevalar sifatini yaxshilaydi, fosfor–ildiz tizimini mustahkamlaydi, oltingugurt–oqsilni sintez qilishga kerak bo'ladi va mikroelementlar tabiiy balanslashganligi junni ko'pchilik ekinlar uchun universal o'g'itga aylantiradi;

qo'y juni tolalari o'z og'irligidan 2-3 barabor ko'p namlikni shimib oladi va uni asta-sekin chiqaradi. Bu ayniqsa qurg'oqchilik iqlimli xududlar uchun muhim hisoblanadi;

qo'y juni tuproqni yumshatib aeratsiyani ko'taradi, tuproq strukturasini yaxshilaydi. Natijada o'simlik ildiz tizimi rivojlanishiga ta'sir etadi;

qo'y junidan tayyorlangan o'g'it chorvachilikdan chiqadigan chiqindini minimallashtiradi va ekologiyaga ta'sirini kamaytiradi va dehqonchilik uchun to'liq organik mahsulot hisoblanadi;

yerga solingan qo'y junidan mulcha sifatida bir qatlam o'g'it solish begona o'tlar o'sishini pasaytiradi va tuproqning qizib ketishining oldi olinadi;

qo‘y juni bilan drajelangan cho‘l ozuqabop o‘imliklari urug‘lari o‘lcham va shakli bir xilligi sababli ekilish xususiyati yaxshilanadi, kasallik va zararkunandalardan himoyalanadi, namlik uzoq vaqt ushlanib turadi, o‘simlik unib chiqishi va o‘sishi tezlashadi, aniq ekish mumkinligi sababli ekishda iqtisod qilinadi.

Xulosa

Qo‘y junidan tayyorlangan o‘g‘it an’anaviy o‘g‘itlar kamchiliklaridan xoli bo‘lib, o‘z ichiga ularning asosiy afzalliklarini olishi, ular ekologik toza, foydalanishda qulay, tuproq strukturasini yaxshilashi va uning namligini ushlab turishi yaxshilanadi.

Qo‘y juni bilan drajelangan cho‘l ozuqabop ekinlari (izen, keyreuk, teresken, saksovul va boshq.) urug‘larini ekish qulaylashadi va unib chiqishi yaxshilanadi, shamol erroziyasidan himoyalanishi, namlik va to‘yimli moddalar zahirasi ta’minlanadi.

Keyingi tadqiqotlarni qo‘y junini granulalash va o‘simliklar urug‘larini drajelash mashinalari konstruktiv-texnologik sxemalari asosida mashinalarni yaratish ustida davom ettirish kerak.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi statistik qo‘mitasi ma’lumotlari// №01/5-01-19-540, 2021 yil 13 fevral.

2. Yusupov Yu.B., Lerman S., Chertoviskiy A.S., Akbarov O.M. O‘zbekistonda chorvachilik: bugungi holat, muammolar va taraqqiyot istiqbollari// Agrar sektorni rivojlantirish tendensiyalari nuqtai-nazaridan tahlil. – Toshkent. Nasaf – 2010. – B. 154.

3. Alijanov D., Ne’matjanov A.E. Qo’y junidan organik o’g’it sifatida foydalanish// O’zbekiston agrar fani xabarnomasi, №3 (21) 2025. – B. 266-267.

UO‘T 631.311.634:64

ANOR TUPLARINI KO‘MADIGAN MASHINA SINOVLARINING NATIJALARI

Abdunazarov E.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. t.f.f.d.

Xamzayeva Sh.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. mustaqil izlanuvchi

Annotasiya. Maqolada ish sifati va unumini oshirish maqsadida yuqori quvvatli g‘ildirakli traktorlarga (CASE Puma, New Holland T7060, AXION) ishlab chiqilgan anor tuplarini ko‘madigan mashina tajriba nusxasining dala sinovlari natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты полевых испытаний экспериментального образца машины для укрывки кустов граната, разработанного к энергонасыщенным тракторам (CASE Puma, New Holland T7060, AXION) с целью повышения качества работы и производительности.

Annotation. The article presents the results of field tests of an experimental sample of a pomegranate bush covering machine developed for energy-rich tractors (CASE Puma, New Holland T7060, AXION) to improve work quality and productivity.

Respublikamiz tuproq-iqlim sharoitida anor tuplarini ko‘mishda qo‘llaniladigan energiya-material hajmdorligi nisbatan past, ish sifati va unumi yuqori bo‘lgan mashina Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan. Ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan anor tuplarini ko‘madigan mashina (keyingi o‘rinlarda ATKM) qo‘llanilganda bir o‘tishda anor tuplari va shoxlarining talab darajasida sifatli ko‘milishi ta’minlanadi va buning natijasida anor tuplarini tuproq bilan ko‘mishda mehnat, vaqt va yonilg‘i sarfi kamayadi, ish unumi va sifati ortadi [1-3].

1-rasmda tavsiya etilayotgan parametrlar asosida ishlab chiqilgan ATKMning traktorga agregatlangan hamda ish jarayonidagi ko‘rinishlari tasvirlangan.



a) *b*)

1-rasm. ATKMning traktorga agregatlangan (*a*) va ish jarayonidagi (*b*) ko‘rinishlari

Dastlabki talablar hamda texnik topshiriqlar asosida «BMKB-Agromash» AJ da hozirgi davrda keng qo‘llanilayotgan yuqori quvvatli 4-5 sinfdagi g‘ildirakli traktorlar (CASE PUMA 180, Magnum 8940, MX-255, NEW HOLLAND T7060, AXION-850) bilan agregatlash imkonini beradigan ATKMning tajribaviy nusxasi tayyorlandi. 1-jadvalda asoslangan parametrlar bilan ishlab chiqilgan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan ATKM ish organlarining o‘lchamlari keltirilgan [4].

1-jadval

Ishlab chiqilgan anor tuplarini ko‘madigan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan mashinaning parametrlari

№	Parametrlarning nomi	Belgilanishi	Qiymati
1.	Uyumlagich roliklarining soni, dona	n	6
2.	Uyumlagich yon devorining gorizontal tekislikda harakat yo‘nalishiga nisbatan joylashish burchagi, °	γ_u	25
3.	Uyumlagich yuqori yon devorining qamrash kengligi, cm	b_{yo}	50
4.	Uyumlagich old qismining kengligi, cm	A	86
5.	Uyumlagich orqa qismining kengligi, cm	b	70
6.	Uyumlagichning uzunligi, cm	L	100
7.	Uyumlagich roligining uzunligi, cm	l_r	50
8.	Uyumlagich roligining katta diametri, mm	D_r	88
9.	Uyumlagich roligining kichik diametri, mm	d_r	40

Ushbu mashina uyumlagich-yotqizgich, nov shaklidagi uzatgich, traktorga osish mexanizmlari, oxirgi tup yotqizgich, bir-biriga simmetrik joylashgan korpuslar hamda shibbalagichlardan tashkil topgan. Ish jarayonida uyumlagich-yotqizgich yordamida anor tuplarining shoxlari yotqiziladi, uyumlanadi va zichlanadi, so‘ng uyumlagich-yotqizgichlardan keyin joylashgan nov shaklidagi uzatgich orqali ular oxirgi yotqizgichga yo‘naltiriladi, yotqizgich anor tuplarini yer yuzasiga bosadi va korpuslar anor tuplari ustiga tuproqni uyumlab, ularni tuproqqa to‘liq ko‘milishini ta’minlaydi.

ATKMning dala sinovlari Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanining “Zulfiya Umarova” hamda Boyovut tumanida joylashgan “Usmonobod anorzori” fermer xo‘jaliklaridagi anorzorlarda 2023–2024 yillarda anor tuplarini ko‘mish davrida, ya’ni kuz faslining oktabr va noyabr oylarida o‘tkazildi.

Ishlab chiqilgan ATKMning dala sinovlarida uning quyidagi ish ko‘rsatkichlari aniqlandi: anor tupi tana qismining shikastlanish (kesilish, sinish va uzilish) darajalari; anor shoxlarining shikastlanish darajasi; ish unumi; yonilg‘i sarfi (2-jadval).

2-jadval

Ishlab chiqilgan uyumlagich-yotqizgich bilan jihozlangan ATKM dala sinovlarining natijalari

№	Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymati		
		Dastlabki talablar bo‘yicha	ATKM-1 (shartli)	
			5 km/h	7 km/h
1.	Agregatning harakat tezligi, km/h	5-7	5,1	6,8
2.	Anor tupi tana qismining kesilishi va ezilish darajasi, %	≤ 3	1,8	2,9
3.	Anor tupi tana qismining sinish darajasi, %	≤ 1,5	0,7	1,3
4.	Anor tupi tana qismining uzilish darajasi, %	≤ 1	0,3	0,6
5.	Anor shoxlarining shikastlanish darajasi, %	≤ 5	3,8	4,6
6.	Ish unumi, ha/h - asosiy ish vaqtidagi - ekspluatatsiya vaqtidagi	 2,0-3,2 1,4-2,2	 2,0 1,4	 2,8 1,9
7.	Yonilg‘i sarfi, kg/ha	≤ 22,5	16,8	18,7

ATKMning ish unumi va traktorning yonilg‘i sarfini aniqlash uchun maxsus xronometrik kuzatuvlar olib borilib, ekspluatatsion vaqt birligi ichida ko‘milgan anorzor maydoni hamda sarflangan yonilg‘i, cmena va ekspluatatsion vaqtdan foydalanish koeffitsientlari aniqlandi.

Xulosa

Agregatning 5 va 7 km/h harakat tezliklarida ishlab chiqilgan mashinaning sifat va energetik ko‘rsatkichlari unga qo‘yilgan talablarga to‘liq mos keladi.

ADABIYOTLAR

1. Imomqulov Q.B., Abdunazarov E.E., Xamzaeva Sh.M. Anor tuplarini ko‘mish va ochishda qo‘llaniladigan mashinalar// “Yuqori samarali qishloq xo‘jaligi mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovasion yechimlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari to‘plami. - Toshkent, 2022. – B. 238-242.

2. Abdunazarov E.E., Xamzayeva Sh. Anor tuplarini ko‘madigan mashina uyumlagichining parametrlari// Строительство и образование, 2024. – № 1 (3). – С. 139-143.

3. Boqijonovich I.Q. i dr. Anor tuplarini ko‘madigan mashina uyumlagichining konstruksiyasi// Механика и технология, 2022. – №. 8 (3). – С. 98-102.

UO‘T 631.674

TEJAMKOR SUG‘ORISH TIZIMLARI ELEMENTLARINING TADQIQOTI

Xudayarov Z.J.
Toshkent davlat agrar universiteti, t.f.d., dots.

Omonov D.S.
Toshkent davlat agrar universiteti.

Annotasiya. Maqolada tomchilatib sug‘orish quvurlarida bosim va suv sarfi taqsimotini aniqlashga qaratilgan matematik model keltirilgan. Emitter suv sarfini hisoblash uchun $aq_c^2-bq_c+c=0$ tenglamasi, quvurda bosim o‘zgarishini tahlil qilish uchun esa integral ko‘rinishdagi P(x) tenglamasi qo‘llanildi. Matematik model asosida bosim va suv sarfi o‘zgarishi grafiklari qurilib, quvur uzunligi, emitter intervali va bosim taqsimotining suvning yerda teng taqsimlanishiga ta’siri tahlil qilindi. Olingan natijalar tomchilatib sug‘orish tizimini optimal loyihalash, suv resurslarini tejash va suv taqsimlanishining bir xilligini oshirish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация. В статье представлена математическая модель, направленная на определение распределения давления и расхода воды в трубопроводах капельного орошения. Для расчета расхода воды эмиттера использовалось уравнение $aq_c^2-bq_c+c=0$, а для анализа изменения давления в трубопроводе - уравнение P(x) в интегральной форме. На основе математической модели построены графики изменения давления и расхода воды, проанализировано влияние длины трубопровода, интервала эмиттера и распределения давления на равномерное распределение воды в земле. Полученные результаты служат важной теоретической основой для оптимального проектирования системы капельного орошения, экономии водных ресурсов и повышения равномерности распределения воды.

Annotation. The article presents a mathematical model aimed at determining the pressure distribution and water flow rate in drip irrigation pipelines. The $aq_c^2-bq_c+c=0$ equation was used to calculate the emitter water flow rate, and the P(x) equation in integral form was used to analyze the pressure change in the pipeline. Based on the mathematical model, graphs of changes in water pressure and flow rate were constructed, and the influence of pipeline length, emitter interval, and pressure distribution on the uniform distribution of water in the ground was analyzed. The obtained results serve as an important theoretical basis for optimal design of drip irrigation systems, water conservation, and increasing water distribution evenness.

Hozirgi kunda suv resurslaridan samarali foydalanish qishloq xo‘jaligida eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tomchilatib sug‘orish tizimlari suvni tejash va energiya sarfini kamaytirishda yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, an’anaviy sug‘orish usullariga nisbatan 20–60 % gacha suv tejash imkonini beradi [1]. Bu tizimlarda suv sarfi va bosim o‘zgarishi emitterlar orqali suvning teng taqsimlanishi, quvurlar gidravlik samaradorligi va qishloq xo‘jaligidagi umumiy ish unumdorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Muallif tadqiqotlarida tomchilatib sug‘orishning suv-energetik balansini tahlil qilib, suv iste’molini kamaytirish va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatishgan. IJCESEN jurnalida 2025-yilda chop etilgan ishda emitterlar orasidagi masofa va ishlash bosimining bir xillikka ta’siri o‘rganilib, 150 kPa bosimda eng yuqori bir xillik (92 %)ga erishish mumkinligi aniqlangan [2]. S.Wang va boshqalar tomonidan bosimni arzon regulyatorlar yordamida optimallashtirish usuli taklif qilinib, tizimning umumiy investitsiya xarajatlari 35 % gacha kamaytirilishi isbotlangan [3]. Shuningdek, nasos ish rejimini modellashtirish orqali energiya va issiqxona gazlari chiqindisini

4,7 % gacha kamaytirish mumkinligini ko‘rsatishgan. Italiyada olib borilgan tajribalarda esa past bosim sharoitida suv berish vaqti 17-95 % gacha uzayishi aniqlangan, bu esa bosim nazoratining muhimligini isbotlaydi.

Mualliflar tadqiqotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bosim va suv sarfi o‘zgarishini to‘g‘ri modellashtirish va nazorat qilish orqali tomchilatib sug‘orish tizimlarining samaradorligini oshirish, suv va energiya sarfini kamaytirish, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish mumkin.

Bosim taqsimoti va quvur uzunligi noto‘g‘ri tanlansa, emitterlardan chiqadigan suv sarfi sezilarli farq qiladi, bu esa suvning yerda noteng taqsimlanishi va hosildorlikning pasayishiga olib keladi.

A.N. Kunapara bosim-suv chiqishi (pressure–discharge) munosabatini matematik modellashtirgan va uning asosida emitter chiqishi turli bosim sharoitlarida qanday o‘zgarishini tadqiq etgan, quvurga o‘rnatilgan tomchilatgichlar uchun bosim-suv chiqishi munosabatini quyidagicha empirik funksiya bilan ifodalashgan [4]:

$$Q = k_d P^x .$$

bunda Q – suv sarfi;

P – quvurdagi bosim;

k_d – proporsionallik koeffitsienti;

x – quvur uzunligidagi no‘qta.

Empirik ko‘rinishdagi bu tenglamaning k_d proporsionallik koeffitsientini har bir emitter turi uchun koeffitsientlarni tajribada aniqlashni talab qiladi.

S.A. Chougule quvur bo‘ylab ishqalanish va mahalliy qarshiliklar tufayli bosim yo‘qotishlarini hisoblagan [5]. U Darcy-Weisbach formulasini qo‘llab, boshlang‘ich bosimdan foydalangan holda quvur bo‘ylab bosimning qanday pasayayotganini tahlil qilgan va bosim taqsimotini integrallashtirishda quvur bo‘ylab bosimni qadamma-qadam hisoblaydi.

Bu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tomchilatib sug‘orish tizimini loyihalashda quvur uzunligi, bosim taqsimoti va emitter sarfini aniq hisoblash suv va energiya resurslarini tejash, suvning yerda teng taqsimlanishi va hosildorlikni oshirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar nafaqat ilmiy jihatdan, balki amaliyotda ham juda dolzarb hisoblanadi.

Tomchilatib sug‘orish tizimlari suvni tejash va o‘simliklarni maqsadli ravishda oziqlantirishda samarali usul hisoblanadi. Quvurdagi bosimning uzunlik bo‘yicha o‘zgarishini aniqlash suv taqsimoti va har bir chiqish teshigidan suv sarfini bir xil saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Quvurdagi bosim, tezlik va balandlik o‘rtasidagi bog‘lanish:

$$P + \frac{1}{2}\rho\vartheta^2 + \rho g z = const - h_{yuq} . \quad (1)$$

bunda P – quvur boshidagi bosim – P_0 = 0.1 MPa;

ρ – suv zichligi, kg/m³;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s²;

ϑ – oqim tezligi, m/s.

Bizning holatda balandlik o‘zgarishi yo‘q, faqat bosim va tezlik o‘zgaradi.

Quvurda bosimning uzunlik bo‘yicha o‘zgarishi Darsi–Veysbax tenglamasi asosida aniqlanadi:

$$\frac{dP(x)}{dx} = -f_D \cdot \frac{\rho}{2D} \cdot \vartheta(x)^2 , \quad (2)$$

bunda f_D – ishqalanish koeffitsienti;

$$\vartheta(x) = \frac{Q_x}{S}$$ quvurdagi tezlik;

$$S = \frac{\pi D^2}{4}$$ – kesim yuzasi.

Laminar oqimda ($\mathrm{Re} < 2000$) ishqalanish koeffitsienti quyidagi ifoda bilan aniqlanadi: $f_D = \frac{64}{R_e}$, bunda Re-Raynolds soni.

Oqim turbalent bo‘lsa ($\mathrm{Re} > 4000$) f_D Kolbruk–Uayt tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$\frac{1}{\sqrt{f_D}} = -2\log_{10}\left(\frac{3{,}7\varepsilon}{D} + \frac{2{,}51}{\mathrm{Re}\sqrt{f_D}}\right). \quad (3)$$

agar $\mathrm{Re} < 10^5$ bo‘lsa:

$$f_D \approx 0{,}316\,\mathrm{Re}^{-0{,}25}. \quad (4)$$

bunda ε – quvur devori g‘adur-budurligi (m).

Turli materiallardan tayyorlangan quvurlar uchun ishqalanish koeffitsienti 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli materiallardan yasalgan quvurlar uchun ishqalanish koeffitsientining qiymati

Quvur materiali	**ε (mm)**	**f_D (Re = 1500, D = 16 mm)**	**f_D (Re = 10^5, D = 16 mm)**
Polivinilxlorid (PVC)	0.0015 – 0.01	0.0427	0.01848 – 0.02082
Po‘lat (yangi)	0.045 – 0.09	0.0427	0.02706 – 0.03235
Yemirilgan po‘lat quvur	0.2 – 1.5	0.0427	0.04146 – 0.09829
Beton	0.3 – 3	0.0427	0.04786 – 0.14916

Suyuqlik sarfning uzunlik bo‘yicha o‘zgarishi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\frac{dQ(x)}{dx} = -\frac{q_c}{l_1}, \quad (5)$$

bunda q_c –quvur teshigidan oqayotgan suyuqlik miqdori;

l_1 – teshiklar orasidagi masofa.

(5) ni integrallab, quvur uzunligi bo‘yicha suyuqlik sarfining o‘zgarishini aniqlaymiz:

$$Q(x) = Q_0 - \frac{q_c}{l_1}x \quad (6)$$

bu yerda Q_0 – quvur boshidagi suyuqlik sarfi.

Quvurda suyuqlik bosimini o‘zgarishini Darsi-Veysbax tenglamasi orqali ifodalaymiz:

$$\frac{dP(x)}{dx} = -f_D \cdot \frac{\rho}{2D}\left(\frac{Q(x)}{S}\right)^2 = -f_D \cdot \frac{\rho}{2D}\left(\frac{Q_0 - \frac{q_c}{l_1}x}{S}\right)^2 \quad (7)$$

Quvur uzunligi bo‘yicha bosim o‘zgarishini integral ko‘rinishi quyidagi holatga keladi:

$$P(x) = P_0 - \int_0^x f_D \cdot \frac{\rho}{2D} \left(\frac{Q_0 - \frac{q_c}{l_1}\xi}{S} \right)^2 d\xi, \tag{8}$$

bunda ξ – integrallash o‘zgaruvchisi (bizda quvurdagi masofa);

$d\xi$ – shu masofaning juda kichik o‘zgarishi;

D – quvur diametri, m.

Konstantalarni chiqarib yuborib, qadamma-qadam integralni yechamiz:

$$P(x) = P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} \int_0^x \left(Q_0 - \frac{q_c}{l_1}\xi \right)^2 d\xi. \tag{9}$$

ichki kvadratni yozib chiqamiz:

$$\left(Q_0 - \frac{q_c}{l_1}\xi \right)^2 = Q_0^2 - 2Q_0 \frac{q_c}{l_1}\xi + \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 \xi^2. \tag{10}$$

har bir qismi bo‘yicha integral quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\int_0^x Q_0^2 d\xi = Q_0^2 x; \tag{11}$$

$$\int_0^x 2Q_0 \frac{q_c}{l_1}\xi d\xi = 2Q_0 \frac{q_c}{l_1} \frac{x^2}{2} = Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2; \tag{12}$$

$$\int_0^x \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 \xi^2 d\xi = \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 \frac{x^3}{3}. \tag{13}$$

(11), (12), (13) ni birlashtirib yozamiz:

$$\int_0^x \left(Q_0 - \frac{q_c}{l_1}\xi \right)^2 d\xi = Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 \frac{x^3}{3}. \tag{14}$$

yakuniy holatda quyidagi tenglamani olamiz:

$$P(x) = P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} \left[Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \frac{1}{3} \left(\frac{q_c}{l_1} \right)^2 x^3 \right]. \tag{15}$$

bu tenglama quvurdagi har bir nuqtada bosimni hisoblashga imkon beradi.

Suyuqlik sarfi quvurdagi suyuqlikning naporiga bog‘liq bo‘lib, quyidagicha aniqlanadi:

$$q_c = C_d S_1 \sqrt{2gH}, \tag{16}$$

bunda C_d – chiqish koeffitsienti (0.6–0.8 atrofida);

$H=\rho g P$ – quvurdagi napor, m;

P – suyuqlikning statik bosimi, Pa;

S_1 – tomchilatgich teshigining yuzasi, m^2.

Agar H ni P bosim orqali yozsak:

$$q_c = C_d S_1 \sqrt{\frac{2(P - P_{atm})}{\rho}}. \tag{17}$$

(17) tenglamaga (15) ni qo‘ysak:

$$q_c = C_d S_1 \sqrt{\frac{2P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2}\left[Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \frac{1}{3}\left(\frac{q_c}{l_1}\right)^2 x^3\right]}{\rho}}. \quad (18)$$

(18) tenglamani ikki tomonini ham kvadratga ko‘tarib, quyidagini hosil qilamiz:

$$q_c^2 = C_d^2 \cdot S_1^2 \frac{2P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2}\left[Q_0^2 x - Q_0 \frac{q_c}{l_1} x^2 + \frac{1}{3}\left(\frac{q_c}{l_1}\right)^2 x^3\right]}{\rho} \quad (19)$$

qulaylik uchun quyidagi belgilashlar kiritib:

$$K = \frac{C_d^2 \cdot S_1^2}{\rho}; \qquad A = 2P_0 - f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} Q_0^2 x;$$

$$B = f_D \cdot \frac{\rho}{2DS^2} Q_0 x^2; \qquad C = f_D \cdot \frac{\rho}{6DS^2} x^3. \quad (20)$$

(19) formulani quyidagi ko‘rinishda yozamiz:

$$q_c^2 = KA - KB\frac{q_c}{l_1} + KC\frac{q_c^2}{l_1^2}, \quad (21)$$

Natijada quvurning hohlagan nuqtasidagi teshikdan oqiyotgan suv sarfi quyidagi kvadrat tenglama bilan aniqlanadi.

$$\left(1 - \frac{KC}{l_1^2}\right) q_c^2 + \frac{KB}{l_1} q_c - KA = 0. \quad (22)$$

Quvur uzunligi bo‘yicha tomchilatkichlardan oqayotgan suv sarfi ushbu tenglama bilan aniqlanadi:

$$q_c = \frac{-\frac{KB}{l_1} \pm \sqrt{\left(\frac{KB}{l_1}\right)^2 + 4\left(1 - \frac{KC}{l_1^2}\right) KA}}{2\left(1 - \frac{KC}{l_1^2}\right)}. \quad (23)$$

(15) va (23) tenglamalardagi q_c va P(x) bir-biriga bog‘liq bo‘lgani sababli, ularni iterativ usul orqali yechiladi.

Iterativ yechishda boshlang‘ich taxmin qiymati sifatida $q_c^{(0)}$ tanlanadi. (15) tenglama orqali P(x) hisoblandi. Hisoblangan P(x) qiymati (23) tenglamaga qo‘yilib, yangi $q_c^{(1)}$ topildi. Xatolik $|q_c^{(1)}-q_c^{(0)}|$ aniqlandi, agar xatolik belgilangan chegaradan kichik bo‘lsa, yechim topilgan deb hisoblandi. Aks holda, $q_c^{(0)}=q_c^{(1)}$ qilib, 2-qadamdan takrorlandi.

Standartlashgan tomchilatgichlarda 0,5-1,0 mm ichki diametri tavsiya qilinadi. Agarda quvur qo‘lda teshilsa, unda 1,1-1,6 mm atrofidagi diametr hosil qilinishi mumkin [6, 7].


Tomchilatib sug‘orish tizimlari 0.10- 0.41 MPa bosimda ishlaydi. Ushbu qiymatda tomchilatgichlardagi o‘rtacha suv sarfi 2-jadvalda keltirilgan [8, 9].

2-jadval


Tomchilatgichlardagi o‘rtacha suv sarfi

№	Tomchilatgich turi	Suv sarfi (LPH)
1.	Hunter PC / inline emitter	≈ 1.35 LPH
2.	Hunter PC / inline emitter	≈ 2.35 LPH
3.	Hunter PC / inline emitter	≈ 3.75 LPH

Hisoblash natijalari (15) va (23)–tenglamalarni iterativ usulda yechish orqali aniqlandi. Har bir masofa nuqtasi uchun avvalgi qiymatdan boshlab, q_c suv sarfi va P(x) bosim qiymatlari yangilanib bordi. Iteratsiya jarayonida $\Delta q_c = q_{c,new} - q_c$ farq kattaligi tekshirilib, farq juda kichik bo‘lganda ($<10^{-7}$ m³/s) iteratsiya to‘xtatildi. Shu tarzda quvur bo‘ylab har bir nuqtada bosim va tomchilatgichning suv sarfi hisoblab chiqildi (1, 2-rasm).



1-rasm. Tomchilatgichlarda suv sarfining o‘zgarishi: *D*=16 mm



2-rasm. Quvurda suyuqlik bosimining o‘zgarishi: P_0 = 0,4 MPa

1-rasmda D=16 mm diametrili quvurda tomchilatgichlar suv sarfining uzunlik bo‘yicha o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, quvur boshiga yaqin nuqtalarda suv sarfi kattaroq bo‘lib, masofa oshishi bilan bosim pasayishi sababli suv sarfi sekinlik bilan kamayadi. Bu holat kichik diametrli quvurlarda gidravlik yo‘qotishlar katta bo‘lishi bilan izohlanadi.

20. E.E.Abdunazarov Anor tuplarini ko‘madigan mashina tup yotqizgichi bosim prujinasining bikirligini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri // Строительство и образование. 2025. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/anor-tuplarini-ko-madigan-mashina-tup-yotqizgichi-bosim-prujinasining-bikirligini-uning-ish-ko-rsatkichlariga-ta-siri (дата обращения: 20.09.2025).

UO‘T 631. 315. 4

ISH JARAYONIDA G‘O‘ZA QATOR ORALARIGA ISHLOV BERUVCHI TISHLI YUMSHATKICHGA TA’SIR ETUVCHI KUCHLARNI TADQIQ ETISH

Isakov Z.
Buxoro davlat texnika universiteti.

Annotasiya. Maqolada ish jarayonida g‘o‘za qator oralariga ishlov beruvchi tishli yumshatkichga ta’sir etuvchi kuchlarni tadqiq etish natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены результаты исследования сил, действующих на зубчатый валец, обрабатывающий хлопок между рядами, в процессе работы.

Annotation. The article presents the results of a study on the forces acting on a toothed roller that processes cotton between rows during operation.

So‘nggi yillarda dunyo miqyosida agrar sohada tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning markazida esa innovatsion texnologiyalardan foydalanish turadi. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i hisoblanadi va uni modernizatsiya qilish, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish va ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega [1].

Jahonda energiyatejamkor va ish unumi yuqori g‘o‘za qator oralariga ishlov beradigan texnik vositalar va qurollarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miqyosida 910 million gektardan ortiq qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan maydon mavjudligi va shundan 34 million gektarda g‘o‘za yetishtirilishi”ni hisobga olsak, sug‘orish ishlari amalga oshirilgandan keyin g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beradigan, ish unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor qurollarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan g‘o‘za yetishtiriladigan maydonlarda g‘o‘za qator oralariga ishlov beradigan tishli yumshatkich qurilmadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda chopiq ekinlari ekiladigan maydonlarda ko‘chatlarga kam shikast yetkazgan holda to‘liq o‘sib rivojlanishini ta’minlashga imkon yaratadigan g‘o‘za qator oralariga ishlov beruvchi energiyatejamkor texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan qurollarining yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.


Respublikamizda paxtachiliknining barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga yangicha yondoshuv orqali g‘o‘za qator oralariga ishlov beradigan, ish sifati va unumi yuqori energiyatejamkor qurollarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida ish unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash..” vazifalari belgilab berilgan [2].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda biz tomonimidan g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beruvchi tishli yumshatkichning parametrlarini asoslash borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, ish jarayonida g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beruvchi tishli yumshatkichga ta’sir etuvchi kuchlar o‘rganildi.

Ish jarayonida tishli yumshatkichga quyidagi kuchlar ta’sir etadi (rasmga qarang) [3].

$G = mg$ – og‘irlik kuchi, N;

Q – bosim prujinalarining taranglik kuchi, N;



Ish jarayonida tishli yumshatkichga ta’sir etuvchi kuchlar

$\sum R_b$ – tuproq tomonidan yumshatkich tishlariga ta’sir etuvchi gorizontal reaksiya kuchlarining teng ta’sir etuvchisi, N;

$\sum R_t$ – tuproq tomonidan yumshatkich tishlariga ta’sir etuvchi tik reaksiya kuchlarining teng ta’sir etuvchisi, N;

R_x – yumshatkichga qo‘yilgan tortish kuchining bo‘ylama tashkil etuvchisi, N;

R_z – yumshatkichga qo‘yilgan tortish kuchining tik tashkil etuvchisi, N.

Rasmda keltirilgan hisobiy sxemadan foydalanib tishli yumshatkichning muvozanat tenglamalarini tuzamiz [4]. Ular quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

$$\sum X = P_x - \sum R_b = 0; \quad (1)$$

$$\sum Z = P_Z - mg - Q + \sum R_t = 0; \quad (2)$$

$$\sum M_0 = mgl_1 + Ql_2 - \left(\sum R_b\right)l_3 - \left(\sum R_Z\right)l_4 = 0, \quad (3)$$

bunda m – tishli yumshatkichning massasi, kg;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2;

l_1, l_2 – mos ravishda mg, va Q kuchlarning “O” sharnirga nisbatan yelkalari;

l_3, l_4 – mos ravishda $\sum R_b$ va $\sum R_t$, kuchlarning “O” sharnirga nisbatan yelkalari.

(1)–(3) tenglamalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, yumshatkichning belgilangan chuqurlikka botib bir tekis yurishi asosan uning bosim prujinalarining taranglik kuchini to‘g‘ri tanlash hisobiga ta’minlanadi.

Tishli yumshatkichga bosim prujinalarining taranglik kuchi (3) tenglamadan foydalanib aniqlaymiz. Buning uchun uni Q ga nisbatan yechamiz [5-7].

$$Q = \frac{\left(\sum R_b\right)l_3 + \left(\sum R_t\right)l_4 - mgl_1}{l_2}. \quad (4)$$

Bu ifodadagi $\sum R_b$, $\sum R_t$, l_1, l_2, l_3, l_4 larni quyidagicha ifodalab olamiz

$$\sum R_b = \sum R_{tq}; \quad (5)$$

$$\sum R_t = q \cdot n; \quad (6)$$

$$l_1 = l_4 = 0{,}5L \quad (7)$$

va

$$l_2 = L. \quad (8)$$

Bularni hisobga olganda

$$Q = \frac{2R_{tq}l_3 + \left[\left(qn_t\right) - mg\right]L}{2L}. \quad (9)$$

(9) ifodaga R_{tq}, q, n va L ni yuqorida aniqlangan qiymatlarni qo‘yib va ishlab chiqilgan konstruksiya bo‘yicha m=12 kg, l_3=0,08 m hamda g=9,81 m/s^2 qabul qilib, prujinalar tomonidan tishli yumshatkichga beriladigan bosim kuchi 134,7 N bo‘lishi lozimligini aniqlaymiz.

Xulosa

Yuqorida o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar bo‘yicha shuni ta’kidlash mumkinki, g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov beruvchi tishli yumshatkich prujinalari tomonidan unga beriladigan bosim kuchi 134,7 N bo‘lishi, ish jarayonida g‘o‘za qator oralariga sifatli ishlov berishni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» gi PF-5853-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 31 iyuldagi «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi PQ-4410-son qarori.

3. Kalimbetov, B., Kalymbetov, B., Kenzhibayeva, G., Karmanov, D., Tukhtakuziyev, A., & Kablan, B. (2019). Justification parameters of the ripper tooth of combined unit for minimum tillage. EurAsian Journal of BioSciences, 13(1), 341-347.

4. Tukhtakuziev A. Ensuring the Uniformity of Tillage Depth //Agricultural machinery and technologies. – 2019. – Т. 13. – №. 3. – С. 34-38.

5. Imomkulov K. B., Abdunazarov E. E. The results of the experiments conducted on the selection of the type of working body of the machine for burying pomegranate bushes //Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве. – 2020. – С. 65-69.

6. Abdunazarov, Elbek Elmurodovich and Abdullayev, Kamol Kxakimovich and Babaev,Narimon Otabayevich, 20220518727, English, Journal article, Iran, 2008-4161 2008-3645, 15, (1), Ahvaz, Jundishapur Journal of Microbiology, (4354–4362), Ahvaz Jundishapur University of Medical Sciences, Ensure the stability of the processing depth of machine for hiding pomegranate bushes., (2022)

7. E.E.Abdunazarov Anor tuplarini ko‘madigan mashina tup yotqizgichi bosim prujinasining bikirligini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri // Строительство и образование. 2025. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/anor-tuplarini-ko-madigan-mashina-tup-yotqizgichi-bosim-prujinasining-bikirligini-uning-ish-ko-rsatkichlariga-ta-siri (дата обращения: 20.09.2025).

УДК 519.23:004.4.

ПОСТРОЕНИЕ РЕГРЕССИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ВТОРОГО И ТРЕТЬЕГО ПОРЯДКА ПО РЕЗУЛЬТАТАМ АКТИВНОГО МНОГОФАКТОРНОГО ЭКСПЕРИМЕНТА

Субанбаев А.Д.
Научно-исследовательски институт механизации сельского хозяйства.

Сухов Е.М.
Научно-исследовательски институт механизации сельского хозяйства.

Аннотация. В статье рассматривается разработка программного обеспечения для построения регрессионных моделей второго и третьего порядка по результатам активного многофакторного эксперимента. Программный продукт реализован на основе взаимодействия Microsoft Excel и языка Python, что позволяет объединить удобный интерфейс ввода и обработки данных с современными средствами статистического анализа и визуализации. Для проверки воспроизводимости эксперимента использованы критерии Кохрена и Бартлета, для проверки значимости коэффициентов – критерий Стьюдента, а для оценки адекватности моделей – критерий Фишера. В случае неадекватности моделей второго порядка предложен алгоритм построения регрессионной модели третьего порядка с применением регуляризационных методов (ElasticNet), что позволило избежать проблемы мультиколлинеарности и переопределённых систем. Разработаны программные продукты planexp2 и planexp3, обеспечивающие автоматизацию расчетов и построение 3D-графиков.

Annotasiya. Maqolada faol ko‘p omilli tajriba natijalari bo‘yicha ikkinchi va uchinchi tartibli regression modellarni qurish uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish ko‘rib chiqilgan. Dasturiy mahsulot Microsoft Excel va Python tilining o‘zaro ta’siri asosida amalga oshirilgan bo‘lib, ma’lumotlarni kiritish va qayta ishlashning qulay interfeysini zamonaviy statistik tahlil va vizualizatsiya vositalari bilan birlashtirish imkonini beradi. Eksperimentning takrorlanuvchanligini tekshirish uchun Koxren va Bartlet mezonlaridan, koeffitsiyentlarning ahamiyatliligini tekshirish uchun Styudent mezonidan, modellarning adekvatligini baholash uchun Fisher mezonidan foydalanildi. Ikkinchi tartibli modellarning nomuvofiqligi holatida regulyarizatsiya usullarini (ElasticNet) qo‘llagan holda uchinchi tartibli regression modelni qurish algoritmi taklif etildi, bu multikollinearlik va qayta aniqlangan tizimlar muammosidan qochish imkonini berdi. Hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va 3D grafiklarni qurishni ta’minlaydigan planexp2 va planexp3 dasturiy mahsulotlari ishlab chiqilgan.

Annotation. The article discusses the development of software for constructing second- and third-order regression models based on the results of an active multifactor experiment. The software product is implemented on the basis of interaction between Microsoft Excel and the Python language, which allows combining a convenient interface for data input and processing with modern means of statistical analysis and visualisation. Cochran's and Bartlett's criteria were used to verify the reproducibility of the experiment, Student's criterion was used to verify the significance of the coefficients, and Fisher's criterion was used to assess the adequacy of the models. In the case of inadequacy of second-order models, an algorithm for constructing a third-order regression model using regularisation methods (ElasticNet) was proposed, which made it possible to avoid the problem of multicollinearity and overdetermined systems. The software

products planexp2 and planexp3 have been developed to automate calculations and construct 3D graphs.

Математическое планирование экспериментов является одним из ключевых инструментов при моделировании сельскохозяйственных машин и агрегатов. В Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства (НИИМСХ, Узбекистан) данные методы применяются на протяжении многих лет и доказали свою эффективность.

Современное развитие вычислительной техники позволяет совершенствовать программные средства, используемые для планирования и обработки экспериментов. На практике возникает необходимость построения регрессионных моделей более высокой сложности (третьего порядка), так как модели второго порядка не всегда адекватно описывают результаты.

Целью настоящей работы является разработка алгоритмов и программного обеспечения для построения регрессионных моделей второго и третьего порядка на основе активного многофакторного эксперимента, включая реализацию статистических критериев проверки гипотез и построение интерактивных 3D-графиков.

Методы

Алгоритмы статистической обработки

- Проверка воспроизводимости эксперимента: критерий Кохрена (равночисленные наблюдения) и критерий Бартлета (неравночисленные наблюдения).
- Оценка значимости коэффициентов модели: критерий Стьюдента.
- Проверка адекватности модели: критерий Фишера.

Все проверки проводились при уровне значимости 0,05 (доверительная вероятность 95%).

Программная реализация

Разработанный программный продукт основан на интеграции Microsoft Excel (Visual Basic for Applications) и Python.

- Excel обеспечивает интерфейс для ввода и хранения данных.
- Python применяется для анализа данных и построения графиков с использованием библиотеки Plotly.

Используемые библиотеки Python

- openpyxl – работа с Excel-файлами (.xlsx);
- pandas – анализ и обработка табличных данных, построение корреляционных матриц;
- numpy – численные вычисления, работа с массивами;
- scikit-learn – регуляризационные методы (ElasticNet);
- statsmodels – регрессионный анализ и статистические тесты;
- scipy – проверка статистических гипотез.

Алгоритм построения модели третьего порядка

1. Исключение признаков (базисных функций) третьей степени, совпадающих с признаками второй степени на основе коэффициентов корреляции (|r|=1).
2. Группировка совпадающих признаков на основе коэффициентов корреляции (|r|=1) в единый признак.
3. Применение регуляризационного метода ElasticNet (L1+L2) для дальнейшего отбора признаков.
4. Стандартный регрессионный анализ с отбрасыванием незначимых признаков (по критерию Стьюдента).

Результаты

1. Разработана программа planexp2, реализующая построение моделей второго

порядка. На неё в 2023 году получено свидетельство о регистрации за № DGU 27277.

2. Показано, что в ряде случаев модели второго порядка оказываются неадекватными, что связано с выбором интервалов варьирования факторов.

3. Разработан алгоритм построения моделей третьего порядка с применением методов регуляризации и реализована программа planexp3, в которой частично использован код planexp2.

4. Реализована возможность построения интерактивных 3D-графиков в формате HTML, доступных для просмотра на мобильных устройствах. Пользователь может изменять ракурс отображения и сохранять графики в формате PNG.

5. Проведена апробация на данных из предыдущих исследований, подтверждающая работоспособность предложенного подхода.

Обсуждение

Использование моделей второго порядка обеспечивает достаточно точное описание экспериментальных данных во многих случаях, однако при исследовании сложных процессов наблюдается их неадекватность. Требуется, либо повторить эксперимент с меньшими диапазонами варьирования по одному, нескольким или всем факторам, либо использовать более сложные математические модели. Первый вариант требует дополнительных трудовых, финансовых и временных затрат. Применение моделей третьего порядка позволяет повысить точность моделирования, избегая дополнительных затрат, но связано с ростом числа признаков и риском мультиколлинеарности.

Предложенный алгоритм упрощения признаков и использование ElasticNet позволяют снизить размерность задачи и обеспечить возможность построения адекватной регрессионной модели третьего порядка. Это расширяет область применения метода планирования экспериментов в агротехнических исследованиях.

Заключение

- Разработаны программы planexp2 и planexp3 для построения регрессионных моделей второго и третьего порядка.
- Реализованы алгоритмы проверки статистических гипотез с использованием критериев Кохрена, Бартлета, Стьюдента и Фишера.
- Внедрены методы регуляризации для построения моделей третьего порядка, что позволило устранить проблему мультиколлинеарности.
- Реализован инструмент построения интерактивных 3D-графиков.
- Полученные результаты могут быть использованы при моделировании сельскохозяйственных машин и агрегатов, а также в смежных областях инженерных исследований.

ЛИТЕРАТУРА

1. Аугамбаев М., Иванов А., Терехов Ю. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993. – 336 с.

2. Бондарчук С.С., Бондарчук И.С. Статобработка экспериментальных данных в MSExcel: учебное пособие. – Томск: Изд-во Томского гос. пед. ун-та, 2018. – 433 с.

3. Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturning rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi Guvohnoma. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi. № DGU 27277. Ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana 07.09.2023 y.

4. Plotly Python Graphing Library. URL: https://plotly.com/python/

5. openpyxl - A Python library to read/write Excel 2010 xlsx/xlsm files. URL: https://openpyxl.readthedocs.io

6. pandas documentation. URL: https://pandas.pydata.org/docs/

7. NumPy Documentation. URL: https://numpy.org/doc/

8. ElasticNet – scikit-learn 1.7.2 documentation. URL: https://scikit-learn.org/stable/modules/generated/sklearn.linear_model.ElasticNet.html
9. statsmodels 0.14.4 . URL: https://www.statsmodels.org
10. Hypothesis tests – SciPy v1.16.2 Manual. URL: https://docs.scipy.org/doc/scipy/tutorial/stats/hypothesis_tests.html

UO‘T 631.362.322

MAYDA URUG‘LI QISHLOQ XO‘JALIK EKINLARI UCHUN RESURSTEJAMKOR DON TOZALASH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH ASOSLARI

Ravshanov Sh.U.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.n., k.i.x.

Sherov D.X.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Choriyeva D.N.
Qarshi davlat texnika universiteti.

Annotasiya. Maqolada keng qo‘llanishda bo‘lgan don tozalash mashinalarining tuzilishi va texnologik ish jarayonlari tahlili keltirilgan va kichik fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun ixcham va resurstejamkor don tozalash qurilmasini ishlab chiqishning dolzarbligi asoslangan.

Аннотация. В статье представлен анализ конструкции и технологических процессов широко используемых зерноочистительных машин и обоснована актуальность разработки компактного и ресурсосберегающего зерноочистительного устройства для мелких фермерских и дехканских хозяйств.

Annotation. The article provides an analysis of the structure and technological processes of widely used grain cleaning machines and substantiates the relevance of developing a compact and resource-saving grain cleaning device for small farms and dehkan farms.

Maqolada keng qo‘llanishda bo‘lgan donni dastlabki tozalash mashinalarining tuzilishi va texnologik ish jarayonlari tahlili va o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan. Tahlillar asosida kichik fermer va dehqon xo‘jaliklari uchun ixcham va resurstejamkor don tozalash qurilmasini ishlab chiqishning dolzarbligi asoslangan.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini isloh qilish yo‘nalishida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy etish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Bundan tashqari, sohaga investitsiyalarni jalb etish, resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni zamonaviy texnika bilan ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda [1,2].

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb muammoga aylanib borayotganligi va mayda urug‘li qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini yig‘ishtirishning energiya va resurstejamkor texnologiyasi va texnika vositalarini qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Shuning bilan birga, ekinlar hosilini yig‘ishtirishda ish sifatini oshirish hamda resurslarni tejash o‘z navbatida kam metall va energiya sarfiga ega mashinalarni amaliyotga keng joriy etishni taqozo etadi. Ushbu yo‘nalishda, ya’ni mayda urug‘li qishloq xo‘jalik ekinlari donini ajratib olishning resurstejamkor texnologiyalari va ularni amalga oshiradigan texnika vositalari yaratish, ularning yangi ilmiy-texnikaviy asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha ko‘plab maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Urug‘larni tozalash ekin urug‘laridan begona, ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlashni o‘z ichiga oladi. Begona o‘t urug‘lari, toshlar, somon, kesaklar, hasharotlar qoldiqlari yoki boshqa ekin urug‘lari kabi elementlarning mavjudligi mahsulot sifatini pasaytirishi, hatto inson va hayvonlarning sog‘lig‘iga ham ta’sir qilishi mumkin. Masalan, talablar darajasida tozalanmagan urug‘lar ekish sifatining va hosilning pasayishiga hamda ishlab chiqarish

xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, tozalangan urug‘lar birlik mahsulot hajmiga kamroq saqlash joyini talab qiladi.


Vazifasiga ko‘ra don tozalash mashinalari uchta asosiy guruhga bo‘linadi: donli aralashmalarni dastlabki tozalagichlar; urug‘lik ekish materiallari va oziq-ovqat donini olish uchun saralash mashinalari; maxsus mashinalar (elektromagnit tozalagichlar, pnevmatik saralash stollari va boshqalar).

Birinchi guruhga havo va elakli tozalagichdan yoki faqat bitta havo tozalagichdan iborat bo‘lgan mashinalar kiradi. Bu mashinalar yordamida don birlamchi tozalanadi.

Ikkinchi guruhga donga havo oqimi bilan, elaklarda va triyerlarda ishlov beriladigan mashinalar kiradi. Bu mashinalar murakkab yoki kombinatsiyalashgan mashinalar deb ataladi. Ular donni qayta tozalab, saralaydilar. Bu guruhga universal triyerlar va triyer bloklari ham kiradi.

Maxsus mashinalar mayda urug‘li ekinlarning (kunjut, zig‘ir, beda) sirti silliq bo‘lgan urug‘larini begona o‘tlarning qiyin ajraladigan, sirti g‘adir-budur urug‘laridan tozalashga mo‘ljallangan.

Biz ushbu tadqiqotimizda donni dastlabki tozalash mashinalariga e’tibor qaratamiz. Donni dastlabki tozalash mashinalari tuzilishiga ko‘ra statsionar va mobil hamda ishlash prinsipiga ko‘ra havo-elakli, aerodinamik, barabanli don tozalagichlar, fotoseparatorlar va vibro-separatorlarga tasniflanadi (1-rasm).




1-rasm. Donni dastlabki tozalash mashinalarining tasnifi

Havo-elakli (kombinirlashgan), ya’ni tekis tebranuvchi elaklar va pnevmatik tizimdan iborat mashinalar don tozalash mashinalarining qariyb 90 foizini tashkil etadi. Havo-elakli mashinaning tozalash printsipi donlarni o‘lchamlari bo‘yicha saralashga asoslangan. Buning uchun tirqishli yoki dumaloq teshikli elaklardan foydalaniladi. Bu turdagi mashinalar donlarni aralashmalardan tozalash va o‘lchamlari bo‘yicha saralashda qo‘llaniladi.

Elak-havo don tozalagichlari donni yuqori darajada tozalash qobiliyati, turli o‘lchamdagi urug‘li ekinlarga moslanishi va ishonchli hamda soda tuzilishi bilan ajralib turadi.

Umuman olganda, havo-elakli turdagi barcha donni tozalash mashinalari yengil va chang aralashmalarini ajratish uchun pnevmatik tizimlar bilan jihozlangan. Yassi tebranuvchi elakli ko‘plab ma’lum havo-elakli mashinalaridan OVS-25, OVP - 20A, ZD-10.000, MPO-50S, VRM-70 (Rossiya), PETKUS (Germaniya), “Westrup” (Daniya), “Buhler-Schmidt-Seeger” (Shveysariya), JCR (Chexiya), MUZ - 4 (Belarus) va boshqalar eng keng tarqalgan [3-15].

OVS-25 mashinasida ikkita (yuqorigi va pastki) parallel ishlaydigan elakli stanlar mavjud. Qabul kamerasi donni teng ikki qismga ajratadi. Uning bir qismi yuqorigi, ikkinchi qismi pastki elaklarda tozalanadi. Yuqorigi va pastki stanlarning tuzilishi bir xil. Stanga to‘rtta: B1, B2, C va D elaklar o‘rnatilgan (2-rasm) [5].




2-rasm. OVS-25 mashinasining texnologik sxemasi

Elaklar ramaga vertikal osmalarda prujinalar yordamida osib qo‘yilgan va har bir elakli stan asosiy ekssentrik valdan harakat oladigan shatunlar yordamida tebranma harakatga keltiriladi. Stanlar qarama-qarshi tomonga tebranadi, shu tufayli stanlar ishlayotganda hosil bo‘ladigan inersiya kuchlari muvozanatlashadi. Elaklar donni fraksiyalarga ajratadi, ularni chiqarish uchun qabul qilgichlar va lotoklar o‘rnatilgan.

Ushbu konstruksiyalarning kamchiligi shundaki, don aralashmasining yuqori elak yuzasi bo‘ylab taqsimlanishi bir tekisda sodir bo‘lmaydi, uning ifloslanishi yuqori darajada bo‘lsa, aralashmalarni tozalash qiyinlashadi, bu esa texnologik jarayonni og‘irlashtiradi va mashinaning ish unumini pasaytiradi.

JCR havo-elakli saralagich (3-rasm) elaklardagi materialni ushbu elaklardan o‘tayotgan havo oqimi yordamida aniq saralaydi va tozalaydi. Og‘ir fraksiyalar elakdan o‘tadi, yengil fraksiyalar esa muallaq holatda yirik aralashmali elakda harakatlanadi. Separator harakatini vibratsion dvigatellar jufti ta’minlaydi. Mashina bir-birining ustiga joylashtirilgan ikki qator elak bilan jihozlangan bo‘lib, har bir qator o‘z navbatida uchta elakdan iborat [10].




3-rasm. JCR havo-elakli saralagichi texnologik sxemasi (Chexiya)

Elaklarning bunday joylashuvi materialni elak orqali uchta chiqindi fraksiyasiga va elaklardan chiqadigan ikkita fraksiyaga ajratish imkonini beradi. Saralanadigan materialga mos ravishda elaklarni to‘g‘ri tanlash va o‘tayotgan havo oqimini aniq rostlash qayta ishlanadigan materialning o‘lchami va solishtirma og‘irligi bo‘yicha aniq saralashning kafolati hisoblanadi. Materialning mashinadan o‘tish tezligi sozlanishi mumkin. Ajratiladigan fraksiyalarni tanlash qabul qilinayotgan xom ashyoning sifatiga, qo‘llanilgan elaklarga va o‘tayotgan havo miqdoriga bog‘liq.

Biroq, JCR havo-elakli saralagich yordamida qayta ishlanadigan materialni tozalash jarayonida eng yuqori sifatga erishish uchun dastlab yaxshi tozalanishi kerak. Mayda urug‘lar va ekish materiallarini tozalashda JCR saralagichini JGT pnevmatik saralash stoli bilan to‘ldirish tavsiya etiladi.

MUZ-4 universal don tozalash mashinasi (4-rasm) klassik havo-elakli separator bo‘lib, o‘zining ixchamligi tufayli mavjud urug‘lik va don tozalash liniyalarida samarali qo‘llanilishi mumkin [11].




4-rasm. Havo-elakli separator MUZ-4 va texnologik sxemasi (Belarus)

Mashina donni mayda va yirik aralashmalardan tozalash uchun ikki qavatli bitta elakli stanga, chang, yengil aralashmalar va mayda donlarni tozalash uchun donning “kirish” va “chiqish” qismida kanallarga ega aspiratsion kallakka, aspiratsion chiqindilarni yig‘ish va chiqarish uchun 2 ta shnekka ega. MUZ-8 va MUZ-16 mashinalaridagi kabi barcha ishchi organlarni harakatga keltirish bitta elektrodvigateldan tasmali uzatmalar orqali amalga oshiriladi, elaklar esa harorat va namlik o‘zgarishlariga chidamli maxsus yog‘ochdan tayyorlanadi.

PETKUS universal tozalagichlarining elakli sistemasi (5-rasm) bir-biriga qarab tebranuvchi ikkita elakli stanlardan iborat. Pastki elakli stan 2 ta elakli yuzadan iborat bo‘lib, ular almashtiriladigan nov va mahsulot oqimini bo‘lgich yordamida mayda yoki yirik aralashmalarni ajratib olishi mumkin [16].

Tozalanadigan mahsulotni uzatish rezinalashtirilgan profilli valigi va o‘zi sozlanadigan klapani bo‘lgan qabul qilish bunkeri orqali amalga oshiriladi. Dastlabki pnevmoseparatorda changsimon zarrachalar elaklar bilan tozalashdan oldin ajratib olinadi. Asosiy pnevmoseparator donni jadal tozalash uchun rostlanuvchi kiritish to‘smaqopqoqli ikki kanalli separator ko‘rinishida bajarilgan. Yengil aralashmalarni ajratish uchun ikkala separator ham havo oqimining tezligini boshqarish uchun boshqariladigan to‘sqichlar bilan jihozlangan.



1-ta’minlash qurilmasi; 2-yukli zaslonka; 3-val; 4-birinchi aspiratsiya kanali; 5,17-bo‘shatish shneki; 6-qirg‘ichli transportyor-tozalagich; 7,9,10-yuqori, o‘rta va pastki elaklar; 8-oqim bo‘lgich; 11,12-o‘tish joyining chiqish va qo‘shimcha elakning chiqish novi; 13-pastki elakdan chiqish; 14-zaslonka-dozator; 15,16-o‘rta va yuqori elaklardan chiqish novlari; 18,19-aspiratsiya kanallaridagi havo oqimi tezligini rostlash zaslonkalari; 20-ikkinchi aspiratsiya kanali.

---> – donli aralashma; -x-> – yirik aralashmalar; - -> – havo oqimi; -//-> – yengil aralashmali havo oqimi; -/- > – yengil aralashmalar; -•-> – mayda aralashmalar; → - tozalangan don

5-rasm. PETKUS U-100-20GF seriyasidagi mashinaning texnologik sxemasi

Ajralgan zarrachalar ikkita cho‘ktirish kamerasida cho‘ktiriladi va to‘kish shneklari yordamida tashqariga chiqariladi.

Ushbu mashinaning kamchiligi shundaki, donni yuqori elak tekisligiga uzatishda unda yirik mexanik aralashmalar bo‘lib qolishi, elaklarning ko‘p yeyilishi, don materialini tozalash sifati pasayishi va transportyor-tozalagichning ishdan chiqishi, shuningdek, cho‘zinchoq teshikli elaklarda suli, arpa kabi urug‘larni tozalashda ularning teshikning uzun tomoniga ko‘ndalang harakatlanishi natijasida ularning o‘tishi yomonlashishi mumkin.

Ushbu mashinalarning keng qo‘llanilishi ish sifati bo‘yicha nisbatan maqbul xususiyatlariga bog‘liq, ammo konstruksiyasi va xavfsizlik nuqtai nazaridan ular zamonaviy talablarga javob bermaydi, ularning talab etadigan quvvati 3,5 dan 13 kVt gacha, bir tonna o‘tkazish qobiliyati uchun konstruktiv massasi 35-98 kg ni tashkil etib, ko‘p resurs talab qiladi. Ular shovqin va changning ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bular orasida MPO-50S statsionar mashinasi turi bo‘yicha pnevmoseparatsiya mashinasiga yaqin. Yuqori ish unumi va past tebranish darajasiga ega bo‘lishi bilan u resurslarni tejashning zamonaviy talablariga javob bermaydi, bundan tashqari, u juda qimmat.

Havo-elakli don tozalash mashinalarining konstruksiyalari va ishlash jarayonini tahlil qilish natijasida ularning quyidagi rivojlanish tendensiyalari aniqlandi:

- elaklarning maydonini, ventilyatorlarning unumdorligini oshirish, zarrachalarning uchish tezligi va o‘lchamlari bo‘yicha tozalashning fraksion texnologiyasini qo‘llash, dag‘al aralashmalardan tozalash uchun qo‘shimcha yassi yoki silindrsimon elakdan (skelperatordan) foydalanish hisobiga unumdorlikni oshirish;

– dastlabki (elakgacha) va asosiy (elakdan keyingi) tozalashning texnologik jarayoni va ishchi organlari, faol turdagi ta’minlovchi qurilmalar, pnevmosaralash kanallari (PSK) ni takomillashtirish orqali donni tozalash sifatini yaxshilash;

– funksional imkoniyatlarni kengaytirish - dastlabki va birlamchi tozalash uchun don tozalash mashinalarini ishlab chiqish.

Fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirishda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi nisbatan kichikligi tufayli yanchish uskunalarini sotib olish ko‘pincha samarasiz bo‘ladi. Chunki urug‘larni tozalash uskunalari ko‘pincha kichik xo‘jaliklar uchun juda qimmatlik qiladi. Urug‘larni tozalash tamoyillarini va o‘rtacha ish qobiliyatlarini tushungan holda nisbatan arzon qurilmalarni loyihalash mumkin, ko‘p hollarda bu qurilmalar va qimmatbaho uskunalarning ish ko‘rsatkichlarini bir-biri bilan taqqoslasa bo‘ladi.

Urug‘larni tozalashning ko‘plab turli xil texnologiyalari mavjud bo‘lsa-da, ular kunjut kabi mayda ekinlar bilan, ayniqsa kichik fermerlar yoki kam xarajatli tizimlar uchun mavjud bo‘lgan sharoitlarda qanchalik yaxshi ishlashi haqida kam izlanishlar olib borilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, mayda urug‘li qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini ajratish va tozalab olishni amalga oshiradigan kichiuk o‘lchamli qurilmani ishlab chiqish, uning texnologik ish jarayoni hamda don tozalash ishchi organlari parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

Xulosa

Mavjud don tozalash mashinalarining qariyb 90 foizi nisbatan soddaroq konstruksiyali tekis tebranuvchi elaklar va pnevmatik tizimga ega. Ushbu mashinalarning keng qo‘llanilishi ish sifati bo‘yicha nisbatan maqbul xususiyatlariga bog‘liq, ammo ular yuqori quvvat va ko‘p resurs talab etadi, ya’ni bir tonna o‘tkazish qobiliyati uchun konstruktiv massasi 35-98 kg ni tashkil etadi.

Fermer, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida mahsulot yetishtirishda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi nisbatan kichikligi tufayli yanchish uskunalarini sotib olish ko‘pincha samarasiz bo‘ladi va mavjud uskunalar ko‘pincha kichik xo‘jaliklar uchun juda qimmatlik qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mayda urug‘li qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini ajratish va tozalab olishni amalga oshiradigan kichik o‘lchamli resurstejamkor qurilmani ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. “O’zbekiston Respublikasi qis’hloq xo’jaligini rivojlantiris’hning 2020-2030 yillarga mo’ljallangan strategiyasi” to’g‘risidagi PF-5853-son Farmoni.

2. “Qis’hloq xo’jaligi mas’hinasozligini jadal rivojlantiris’h, agrar sektorni qis’hloq xo’jaligi texnikalari bilan ta’minlas’hni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlas’hga oid chora-tadbirlar to’g‘risida”gi 2019-yil 31- iyuldagi PQ-4410-son Qarori.

3. https://seedcleaner.yeu/wp-content/uploads/2024/07/BERENYI-S-800-SPECIAL-INOX-technical-data-s’heet.pdf

4. ООО “Воронежагротехсервис”, Очистители вороха стационарный ОВС-25С. Паспорт и инструкция по обслуживанию. 2023.

5. http://www.zernosus’hilki.com/info/archive1/zernoochistitelnosus’hilnie-kompleksi.html

6. Тарасенко А.П. Современные машины для послеуборочной обработки зерна и семян. М.: Колос, 2008. 232 с.

7. Бурков А.И., Сичугов Н.П. Зерноочистительные машины. Конструкция, исследование, расчёт и испытание. Киров: НИИСХ Северо-Востока, 2000. 261 с.

8. В.Дринча и др., «Предварительная очистка зерна: задачи и машины». Перфест АгроТехнологии, октябре – ноябрь 2010, стр.25-29

9. https://jk-machinery.ru/mas’hiny/jcr-vozdus’hno-sitove-sortirovs’hchiki/

10. https://by.polymya.com/by/catalog/separatory-zernoochistitelne-mas’hiny/vozdus’hno-res’hetne-separatory-muz/muz-4/

11. ООО “Воронежагротехсервис”. Воздушно-решётная машина ВРМ- 70. Паспорт и инструкция по обслуживанию. 2019

12. Бурков А.И. Разработка и совершенствование пневмосистем зерноочистительных машин. Киров: ФГБНУ «НИИСХ Северо-Востока», 2016. 380 с.

13. Westrup A/S [Yelektron resurs]. http://www.westrup.com/Products/

14. Buhler Schmidt-Seeger, GmbH [Yelektron resurs]. http://www.buhlergroup.com/yeurope/ru/

15.https://www.petkus.com/ru/produkcija/sortirovka/ochistiteli/detaljakh/s’how/product/2147?chas’h=4b165b6ac3f555f5be07c33aa490ba47

UO‘T 631.313.1

CHO‘L HUDUDLARIDAGI OZUQABOP O‘SIMLIKLARINI SIFATLI YIG‘ISHTIRISHNI MEXANIZATSIYALASH JARAYONIGA CHO‘L MIKRORELYEFNING TA’SIRI

Kurambayev B.R.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.n., k.i.x.

Annotasiya. Maqolada cho‘l hududlaridagi ozuqabop o‘simliklarni yig‘ishtirishni mexanizatsiyalash jarayoniga cho‘l mikrorelyefning ta’sirining tahlili keltirilgan.

Аннотация. В статье приведен анализ влияния пустынного микрорельефа на процесс механизации уборки кормовых растений в пустынных районах.

Annotation. The article analyses the influence of desert microrelief on the process of mechanising the harvesting of fodder plants in desert areas.

Tabiiy yaylovlarga xos o‘ta muhim noyob xususiyat ulardagi o‘simliklarning har yili qayta tiklanishi va tegishli ozuqa zahirasi to‘plashidir. Biroq keyingi yillarda qurg‘oqchilik va cho‘llanish butun dunyo miqyosida tez sur’atlar bilan ortib bormoqda. Yaylov chorvachiligi Respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlovchi muhim sohalardan biridir. Jumladan cho‘l va adir yaylovlari qorako‘lchilik, tuyachilik, echkichilikda yil davomida foydalaniladi va chorva mollarining ozuqaga bo‘lgan yillik ehtiyojining 95 foizi ushbu yaylovlar hisobidan qondiriladi [1].

Mamlakatimiz cho‘l yaylovlarining katta qismini (9-10 mln.ga) qumli cho‘llar tashkil qiladi. Qizilqum cho‘li qorako‘lchilikni, echkichilikni, tuyachilikni rivojlantirishning katta potensialiga ega bo‘lib, o‘ziga xos tuproq-iqlim va o‘simlik qoplamiga ega. Qumli cho‘lda efemer, efemeroidlar, yarim buta va buta o‘simliklar keng tarqalgan. O‘simlik dunyosining boshqa cho‘l yaylovlariga nisbatan boyligi, yilning istalgan mavsumida yaylovda ozuqaning mavjudligi qumli cho‘l yaylovlarining ahamiyatini yanada oshiradi. Qumning namlikni juda yaxshi singdirishi, fizik bug‘lanishning kamligi o‘simliklar uchun qulay sharoit tug‘diradi. Shu bois, qumli cho‘l yaylovlarining hosildorligi boshqa cho‘l yaylov tiplariga nisbatan ancha barqaror, ya’ni turli yillarda quruq yaylov ozuqasi massasi gektaridan 1,7-2,4 sentnerni tashkil qiladi [2].

O‘zbekistonda 32 mln gektarni tashkil etadigan cho‘l va yarim cho‘l hududlaridan 17,5 mln gektar atrofidagi qurg‘oqchil tabiiy yaylovlar chorvachilik uchun ajratilgan bo‘lib, uning deyarli barcha hududlarida katta hajmda degradatsiyaga uchragan maydonlar mavjud. Cho‘l yaylovlarining 40 foizida turli darajadagi yaylovlar degradatsiyasi yuzaga kelgan va ularning o‘rtacha hosildorligi 20-30% foizga kamaygan. Degradatsiyaga uchragan va birinchi navbatda yaxshilanishi kerak bo‘lgan yaylovlar respublikamizda 8 mln. gektarga yaqin maydonni tashkil qiladi [3].

O‘zbekiston hududining 20 mln. gektarga yaqin qismini egallagan cho‘l mintaqasi o‘ta qurg‘oqchil bo‘lib, yagona suv manbai bo‘lgan atmosfera yog‘in-sochini miqdori turli yillarda 80-340 mm dan ortmaydi va shu bois bu maydonlar dehqonchilik yuritish talablariga to‘la javob bermaydi. Shunga qaramasdan, cho‘l hududlarini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun o‘zlashtirish katta ahamiyatga ega.

So‘ngi yillarda iqlim o‘zgarishi, surunkasiga ob-havoning qurg‘oqchil kelishi ham yaylovlar hosildorligining keskin kamayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Ilmiy ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda O‘zbekiston qorako‘lchilik yaylovlarining qariyb 40 % ida turli darajadagi inqiroz yuz bergan. Yaylovlar inqirozi tufayli hozirgi kunda hosildorlik o‘rtacha 2,5 s/ha dan 1,8 s/ha ga, yoki 21 % ga pasaygan. Kuchli inqirozga uchragan yaylov massivlarida o‘simliklar

xilma-xilligi 5-6 turdan ortmaydi [4,5].


Cho‘l va yarim cho‘l (arid) yaylovlari va pichanzorlarida ko‘p turdagi va sondagi chorva hayvonlari boqiladi. Bularning ichida qoraqo‘l qo‘ylar eng qimmatli bo‘lib, ular jun va shifobaxsh go‘sht mahsulotlaridan tashqari, jahon bozorida hali ham talab yuqori bo‘lgan qorako‘l terilarini beradi.

Qorako‘lchilik mahsulotlari turlarini ko‘payishi mavjud yaylovlarni kengaytirish va tiklash tadbirlarini intensiv ravishda olib borish, yaylovlarda ozuqa ishlab chiqarishning keskin o‘sishini taqazo etadi. Shuningdek, arid yaylovlari va pichanzorlar nafaqat chorvachilik, balki yovvoyi jonzotlar yashashi hamda mintaqada yashovchi qishloq aholisining katta qismi uchun daromad manbai bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tabiiy yaylovlar murakkab relyefli sirtidagi hosilni ildiziga zarar yetkazmasdan va to‘liq o‘rib-yig‘ishtirib oladigan mashinalar mavjud emas. Shu sababli tabiiy yaylovlardagi oziqabop yem-xashak o‘simliklari ketmonda chopish usuli bilan qo‘lda yig‘ib olinmoqda. Bu ko‘p vaqt talab qiladigan, samarasiz va eng muhimi, ekologik jihatdan xavfli usul bo‘lib, cho‘l o‘simliklari turlarining yo‘qolishiga va yaylovlarning degradatsiyasiga olib kelmoqda.


Ozuqabop o‘simliklarni yig‘ishtiradigan o‘rgichlar ishlaydigan qumli cho‘lning relyefi boshqa qishloq xo‘jaligi mashinalari ishlaydigan tekis maydonlar relyefidan keskin farq qilishi bilan ajralib turadi. Ana shu sababdan ham ularni cho‘l sharoitida qo‘llashdan olinadigan natija tekis maydonlarda olingan natijadan katta farq qiladi. Ya’ni, uning ishi sifat ko‘rsatkichlari qumli cho‘l yaylovlarida pasayib ketagan.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijariga ko‘ra, tabiiy qumli cho‘l yaylovlardagi profilning shamol yo‘nalishi va unga perpendikulyar yo‘nalishdagi ko‘rinishi aks ettirilgan grafiklar 1 va 2-rasmda keltirildi.



Y- ordinata o‘qi bo‘ylab qumli cho‘l yaylovlari yuzasi notekisligining vertikal o‘q bo‘ylab o‘zgarishining o‘rtacha qiymati; X- obsissa o‘qi bo‘ylab 4 m uzunlikdagi profili olingan.

1-rasm. Qumli cho‘l yaylovlarining (shamol yo‘nalishi bo‘ylab) yuzasining umumiy ko‘rinishi




Y- ordinata o‘qi bo‘ylab qumli cho‘l yaylovlari yuzasi notekisligining vertikal o‘q bo‘ylab o‘zgarishining o‘rtacha qiymati; X- obsissa o‘qi bo‘ylab 4m uzunlikdagi profili olingan.

2-rasm. Qumli cho‘l yaylovlarining (shamol yo‘nalishiga ko‘ndalang yo‘nalishdagi) yuzasining umumiy ko‘rinishi

1 va 2 – rasmlardagi grafiklar taxlili shuni ko‘rsatadiki, uzunligi 4 m bo‘lgan masofadagi cho‘l yuzasining notekisligidagi farq ikkala yo‘nalishda ham taxminan bir xil natijani, ya’ni eng past nuqtasi bilan eng yuqorida joylashgan nuqtalari orasidagi farq taxminan 20-25 cm ekanligini ko‘rish mumkin. Demak, yem-xashak o‘rgichlarning yig‘ishtiradigan o’rgichlarning pichog‘ini qaysi nuqtaga nisbatan o‘rnatish orqali yem-xashak o‘simliklarini o‘rish to‘liqligini baholash mumkin bo‘ladi. Agarda qumli cho‘ldagi hosilni o‘rish to‘liqligi darajasini oshirish uchun

pichoqni eng pastda joylashgan nuqtasiga joylashtirsak, biz kutayotgan yaxshi natijani olish mumkin. Shunga mos ravishda yig‘ishtirilgan massa tarkibidagi qum zarralarining miqdori maksimal darajaga yetadi. Bu yig‘ishtirilgan massaning ifloslanish darajasining ortib ketishiga va degradatsiyaning kuchayib ketishiga olib keladi. Ifloslanish darajasi zootexnik talablar darajasiga javob bermaydi va uni talab darajasiga keltirish uchun qayta elaklardan o‘tkazib tozalash kerak bo‘ladi. Bu esa ortiqcha sarf xarajat talab qiladi. Eng yomoni, pichoqlar qum zarralari orasidagi o‘simlik ildizlarini ham yig‘ishtirib ketganligi uchun cho‘l o‘simliklarining sonining kamayib ketishiga, degradatsiyaning oshib ketishiga olib keladi. Pichoqlarni eng yuqorida joylashgan nuqtasiga sozlanganda yig‘ishtirilgan massaning tozaligi zootexnik talablarga javob beradi, biroq hosil yig‘ishtirishning to‘liqlik darajasi kamayib ketishiga olib keladi.

KPP-3 markali rotorli o‘rgich-maydalagichning qumli yaylovlarda pichan yig‘ishtirish jarayoni aks ettirilgan sxema 3-rasmda keltirilgan. Ushbu o’rgich maydalagich traktorga osma shaklda agregatlanib, tayanch g‘ildiraklari 2 yordamida qumli cho‘l yuzasi bo‘ylab harakatlanadi. Traktorning quvvat olish validan harakatga keltirilgan rotorli baraban pichoqlarining aylanma harakati yordamida cho‘ldagi yem-xashak o‘simliklarini o‘rib maydalaydi va yig‘ishtirilgan massa ushbu pichoqlarning aylanma harakatidan hosil bo‘lgan havo oqimi yordamida yig‘ishtirilgan massa o‘rgich-to‘plagichning bunkeriga yo‘naltiriladi. Ushbu jarayonning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o’rgich maydalagich qum yuzasi bo‘ylab harakatlanganda tayanch g‘ildiraklari 2 qum yuzasining buylama profilini takrorlaydi. Rotorli baraban pichoqlari rotorning o‘qiga parallel bo‘lgan tekislikda joylashtirilganligi sababli, yaylov yuzasining murakkab profilidagi o‘simliklarning faqat ma’lum qismini yig‘ishtiradi.



H_{min} - pichoq tig‘i bilan cho‘l yuzasi orasidagi minimal masofa; H_{max} - pichoq tig‘i bilan cho‘l yuzasi orasidagi maksimal masofa. 1-rotor, 2-tayanch g‘ildiraklar, 3-tabiiy yaylovning ko‘ndalang profili, 4-pichoqlar joylashgan tekislik.

3- rasm. Qumli yaylovlarda o’rgich-maydalagichning ish jarayoni

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida yem-xashak yig‘ishtiradigan mashinalar bo‘yicha tadqiqot ishlari ilgari ham olib borilgan. Jumladan Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va davom etmoqda. Yem-xashak yig‘ishtirishga mo‘ljallangan mashina va agregatlarning soni va turi butun dunyo bo‘yicha juda ko‘p bo‘lib, ushbu mashinalarning hammasi ham relyefi tekis maydonlardagi har qanday yem-xashaklarni a’lo darajada yig‘ishtiradi. Cho‘l va yarim cho‘l (arid) yaylovlari va pichanzorlarining relyefi o‘nqir-cho‘nqirlardan tashkil topganligi uchun ushbu yaylovlarning sirtini to‘liq nusxalab harakatlanib, ulardagi yem-xashak o‘simliklarni ildiziga zarar yetkazmasdan yig‘ishtiradigan mashinalar mavjud emas. Shuning uchun ham yaylov notekisligining balandligi bo‘yicha har qanday o‘rish moslamasini sozlash muammosiga yechim topish juda murakkab vazifalardan hisoblanadi. Chunki notekislikning baland qismiga H_{max} (3-rasm) sozlansa hosilni yig‘ishtirishi to‘liqligi

pasayib ketadi. Chuqurroq joylashgan o‘simliklarning bir qismi qolib ketadi. Eng past nuqtasiga H_{min} sozlansa, hosilni yig‘ishtirish to‘liqligi oshadi va shunga mos ravishda yig‘ishtirilgan yem-xashak tarkibidagi qum zarralarining miqdori oshib ketadi, ifloslanish darajasining ko‘payib ketishiga sababchi bo‘ladi. Undan tashqari tabiiy yaylovlardagi pichanlarning ildiziga yetkazilgan zarar hisobiga yaylovlardagi o‘simliklar sonining kamayishiga va ayrim turlarining yo‘qolishiga sababchi bo‘ladi va oqibatda yaylovlarning degradatsiyasiga kuchayishiga olib keladi.

Xulosa

Tabiiy cho‘llardagi ozuqabop o‘simliklarni yem-xashakga yig‘ishtirishda yaylovlar relyefining murakkab shakli tekis maydonlardagi pichanlarni yig‘ishtirishda qo‘llaniladigan eng zamonaviy mashinalarning ham samaradorligi past bo‘lishiga olib keladi. Ilmiy tadqiqotlarni co‘l em-xashak ekinlarining ildiziga zarar etkazmasdan o‘rib oladigan mashinalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. https://ru.wikipedia.org/wiki/Pustinya

2. https://carececo.org/main/news/obzor-problema-opustynivaniya-na-globalnom-i-regionalnom-urovnyakh/.

3. Rabbimov A.A., Boboqulov A. R., Muqimov N.A., T. // Qorako‘l va Zomin tumanlarining cho‘l va yarim cho‘l yaylovlarini yaxshilashga oid tavsiyalar Toshkent, 2017.-24 b.

4. Maxmudov M.M. Qorako‘lchilik yaylovlarining hozirgi holati va istiqboli fitomeliorantlarni tanlashning asosiy kriteriylari. // Cho‘l-yaylov chorvachiligini rivojlantirish muammolari. Samarqand, 2005, 187-189b.

5. Rafikov A.A. Geoekologicheskiy monitoring pustin zbekistana i razrabotka strategii borbi s opustinivanim. //Byulleten GKNT RUz., 1997, 3-4, s 48-53.

УДК 631.352

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ТРАНСПОРТИРОВКИ СКОШЕННОЙ МАССЫ ПО ТРУБОПРОВОДУ ПУСТЫННОЙ КОСИЛКИ-КОПНИТЕЛЯ КПП-3

Хазиев С.А.
Научно-исследовательский институт механизации сельского хозяйства. PhD

Горлова И.Г.
Ташкентский государственный аграрный университет. к.т.н., доц.

Хаджиев А.А.
Научно-исследовательский институт механизации сельского хозяйства. PhD.

Аннотация. В статье приведены обоснованные результаты расчётов по определению процесса эффективного транспортирования скошенной измельченной массы пустынно-кормовых растений с деградированных аридных пастбищ по трубопроводу пустынной косилки-копнителя КПП-3. На основании полученных данных было определено эффективность экспериментальной пустынной косилки-копнителя КПП-3.

Annotasiya. Maqolada degradatsiyaga uchragan arid yaylovlardan cho‘l ozuqabop o‘simliklarning o‘rilgan maydalangan massasini KPP-3 cho‘l o‘rgich-to‘plagich quvuri orqali tashishning samarali jarayonini aniqlash bo‘yicha asoslangan hisoblash natijalari keltirilgan. Olingan ma’lumotlar asosida KPP-3 tajriba cho‘l o‘rgich-to‘plagichining samaradorligi aniqlangan.

Annotation. The article presents the justified results of calculations to determine the efficient process of transporting the chopped, crushed mass of desert fodder plants from degraded arid pastures through the pipeline of the KPP-3 desert mower-harvester. Based on the obtained data, the effectiveness of the experimental KPP-3 desert mower-harvester was determined.

Основной кормовой базой каракулеводства и аридного животноводства республики является кормовая растительность естественных пастбищ, где животные содержатся практически круглый год, а также не исключается необходимость заготовки страховых и переходящих запасов сена на не выпасной период и на засушливые годы, которые повторяются раз в 3-4 года. Важность страхового запаса сена определяется тем, что от его наличия может зависеть судьба поголовья животных (рис.1).



Рис.1. Содержание каракульских овец на естественных пастбищах

Заготовкой запаса сена предусматривается, на одну овце голову в количестве до 3-х центнеров на год, кроме того, следует дополнительно иметь зимний запас сена объёмом 20-30 % [1]. Как уже отмечалось ранее, проблема заготовки сена не может быть решена за счёт естественных сенокосов и площадей артезианского орошения ввиду их незначительности. Следовательно, в виду практического отсутствия сенокосов и дефицита кормов в поливной зоне в обозримой перспективе сено будет заготавливаться с естественных пастбищ, с высоким урожаем кормовых растений. Специфика естественных пастбищ не позволяет использовать на заготовке сена традиционные приёмы и комплексы машин, применяемые в других зонах, главными факторами которых, являются низкая урожайность трав, кочковатый микрорельеф и абразивная среда пастбищ [2]. Заготовка сена с естественных пастбищ должна включать в себя скашивание пустынно-кормовых растений с накоплением скашиваемого сена и выгрузку накопленной массы в валок для последующей её транспортировки в складские помещения.

Пустынная косилка-копнитель КПП-3 (рис. 2) наиболее полно отвечает требованиям заготовки сена с естественных пустынных пастбищ и обеспечивает тем самым срез стеблей растений, частичное измельчение, сбор и выгрузку скошенного сена в виде копны, удобной для последующей уборки [3].

Пустынная косилка-копнитель КПП-3 состоит из трубы дефлектора 1, бункера 2 с сетчатой задней стенкой, ходовые колёса 3, роторного барабана 4, шарнирно закрепленных бил 5, режущих ножей 6, гидроцилиндра 7, редуктора 8 состоящая из пары конических шестерён карданного вала 9 и обгонной муфты 10.




Рис. 2. Конструкторско-технологическая схема пустынного косилка-копнителя КПП-3 в агрегате с трактором

Технологический процесс работы пустынной косилки-копнителя КПП-3 заключается в следующем: при движении по полю трактора с прицепной косилкой, закрепленные режущие ножи 6 к шарнирно-подвешенным билам 5 роторного барабана 4 вращаются по ходу движения машины, срезают стебли растений и швыряют их по трубе дефлектора 1 в бункер 2 с сетчатой задней стенкой, за счёт энергии швырка и воздушного потока, создаваемым роторным барабаном 4, сквозь которую удаляется абразивная пыль.

M.T.Ebaid tadqiqotlari natijasida elakning qiyalik burchagi, elakning tebranishi va havo tezligi tozalashda donning tozaligi va umumiy yo‘qotilishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar ekanligini aniqladi. Havoning tezligi, elakning qiyalik burchagi va elakning tebranishi oshishi hisobiga tozalik oshdi. Umumiy yo‘qotishlar havo tezligi, elakning qiyalik burchagi va tebranishning ortishi hisobiga ko‘paygan [13].

Abd El_Tawwab va boshqalar elakning qiyaligi separatsiya samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil ekanligi haqidagi xulosaga kelishgan. Ularning tadqiqotlarida separatsiya samaradorligi kichik yurish uzunligida elakning qiyaligi oshishi bilan sezilarli darajada oshdi va katta yurish uzunligida esa kamaydi [14].

Salwa S. Hanna va boshqalar fenxel urug‘ini begona aralashmalardan tozalash qurilmasini ishlab chiqishgan. Mashina urug‘larni uchta alohida tuynukdan chiquvchi uch toifaga bo‘ladi. Urug‘larning maksimal tozaligi birinchi, ikkinchi va uchinchi navlar uchun mos ravishda 99,15, 98,74 va 83,65 % ni tashkil etib, krivoshipning aylanish tezligi 250 min^{-1}, amplitudasi 20 mm, elakning qiyalik burchagi $8,5^0$ va havo tezligi 2,7 m/s bo‘lganda olingan [15].

Ayat B. EL-Sayed va boshqalar kunjut va qashqarbeda urug‘lari ayrim fizik-mexanik xossalarining tozalash agregatining samaradorligiga ta’sirini o‘rganishgan va urug‘larning xususiyatlari ularni tozalash sifatiga ta’sir qiladi degan xulosaga kelishgan. Optimal ko‘rsatkich kunjut va qashqarbeda urug‘larining 12 % namligida, elakning dumaloq shakldagi teshik diametri 3 mm, elakning qiyalik burchagi 3^0 va tebranish tezligi 2,26 m/s bo‘lganda kuzatilgan [16].

Ramadas Narayanan va boshqalarning tadqiqotlarida kunjut va kalonji urug‘larini tozalovchi Kimseed Cleaner MK3 qurilmasining samaradorligi o‘rganilgan bo‘lib, bunda tebranish chastotasi va havo oqimi tezligining tozalash samaradorligi hamda unumdorligiga ta’siri alohida e’tiborga olingan. Natijalar har bir ekin turi uchun qurilma sozlamalarini moslashtirishning muhimligini ko‘rsatib, ikkala parametr ham begona aralashmalarning ajralishi va urug‘larning yo‘qolishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Kunjutni ikki bosqichda tozalash yirik va mayda aralashmalardan samarali tozalash uchun tavsiya etiladi. Birinchi bosqichda tebranish chastotasi 390-420 min^{-1} va havo oqimi tezligi 1,25-1,5 m/s, ikkinchi bosqichda esa 315-330 min^{-1} va havo oqimi tezligi 1,75-2,0 m/s bo‘lganda eng yaxshi natijalar olingan. Silkitish chastotasi va havo sarfining oshishi tozalash samaradorligi oshgan; ammo, ularning yuqori qiymatlari urug‘larning yo‘qotilishini ko‘paytirgan, bu esa urug‘larni ajratib olish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, keyingi tadqiqotlar uzatish tezligi, elak qiyaligining tozalash darajasiga ta’sirini o‘rganishi kerak degan xulosaga kelingan [17].

V.Yu.Revenko, S.S. Frolov va A.N.Tkachenkolar Melin duragay kungaboqar urug‘larini tozalashda kichik hajmli urug‘ tozalash mashinasining eng samarali konstruktiv yechimlari va maqbul kinematik ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari natijasida elakning qiyalik burchagi 7-9° oralig‘ida, tebranishlar chastotasi 300-700 min^{-1}, amplitudasi 4-7 mm, elakning uzunligi 750-850 mm va kengligi 330-350 mm bo‘lishi kerak degan xulosaga kelishgan [18].

Shunday qilib, o‘tkazilgan tadqiqotlar bo‘yicha tahlillar natijalariga ko‘ra donni elak yordamida tozalash samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- urug‘lar va boshqa o‘simlik materiallarining fizik-mexanik xususiyatlari: tozalash, saralash va boshqa texnologik jarayonlarning samaradorligini belgilaydi;
- elak teshiklari o‘lchami: mayda teshikli elak mayda aralashmalarni, yirik teshikli elak esa yirik aralashmalarni ajratadi, bu esa yakuniy mahsulot tarkibiga ta’sir qiladi;
- elakning qiyalik burchagi: qiyalik burchagining o‘zgarishi materialning elak bo‘ylab harakatlanish tezligiga va natijada ajratish samaradorligiga ta’sir qiladi;
- elakning harakat tezligi va silkitish chastotasi: tezlikni oshirish ish unumdorligini oshirishi mumkin, lekin bu tozalash sifatiga ham ta’sir qilishi mumkin, chunki harakat tezligi tozalashga ta’sir qiluvchi "sakrashlar"ni keltirib chiqarishi mumkin.

Tadqiqotlarning asosiy qismi quyidagilarga qaratilgan:

- elak parametrlarini maqbullashtirish: sifatli donning yo‘qotilishini kamaytirish va aralashmalarni maksimal darajada ajratib olish uchun elak parametrlarining maqbul nisbatini aniqlash;
- turli xil don va aralashmalar bilan ishlay oladigan yanada samarali yangi turdagi yechimlarni ishlab chiqish;
- elak parametrlarining urug‘lik don, oziq-ovqat ehtiyojlari uchun don, yirik va mayda aralashmalar kabi muayyan fraksiyalarni ajratib olishga ta’sirini aniqlash;
- don va chiqindilarni tozalashning fraksiyalarga ajratish va aralashmalardan tozalash kabi yanada samarali yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, havo-elakli don tozalash mashinalarining tuzilishi va ishlash jarayonini, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish orqali ularning rivojlanishidagi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- tozalash elaklarining ishchi maydonini, ventilyatorlarning unumdorligini oshirish, donlarning muallaq turish tezligi va o‘lchamlari bo‘yicha tozalashning fraksion texnologiyasini qo‘llash, dag‘al aralashmalardan tozalash uchun qo‘shimcha elakdan foydalanish hisobiga ish

unumini oshirish;

- dastlabki va asosiy tozalashning texnologik jarayoni va ishchi qismlarini takomillashtirish orqali donni tozalash sifatini yaxshilash;

- funksional imkoniyatlarni kengaytirish - dastlabki va birlamchi tozalash uchun don tozalash mashinalarini, shuningdek, dastlabki va birlamchi tozalashni bajarish uchun universal don tozalash mashinalarini ishlab chiqish;

- chastota o‘zgartirgich yordamida ventilyatorning aylanish chastotasini o‘zgartirish orqali havo oqimining tezligini boshqarish.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar tahlillari natijalariga ko‘ra, donni elak yordamida tozalash samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida urug‘lar va boshqa o‘simlik materiallarining fizik-mexanik xususiyatlari, elak teshiklari o‘lchami, elakning qiyalik burchagi, elakning o‘lchamlari, kinematik parametrlari va havo oqimi tezligini ko‘rsatish mumkin. Tadqiqotlarning asosiy qismi donning yo‘qotilishini kamaytirish va aralashmalarni maksimal darajada ajratib olish uchun elak parametrlarining maqbul nisbatini aniqlash, turli xil don va aralashmalar bilan ishlay oladigan yanada samarali yangi turdagi yechimlarni ishlab chiqish, donni tozalashda yanada samarali yangi texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR

1. Дринча В.М. Исследование сепарации семян и разработка машинных технологий их подготовки. Воронеж: изд-во НПО «МОДЕК», 2006. 384 с.

2. Ермолев Ю.И. Перспективы развития технологий и технических средств очистки зерна // Инновация, экология и ресурсосберегающие технологии (ИнЕРТ-2012): труди X Международного научно-технического форума. Ростов н/Д: ИС ДГТУ, 2012. С. 235-245.

3. Сичугов Н.П., Сичугов Ю.В., Исупов В.И. Механизация послеуборочной обработки зерна и семян трав. Киров: ФГУ ИП «Вятка», 2003. 368 с.

4. М.К.Харитонов И др. Повышение эффективности работы решётной очистки зерноочистительных машин. Вестник Воронежского государственного аграрного университета. – 2020. – № 1 (64), стр.19-27

5. А.Ю.Головин и др. Анализ работы плоского решета, совершающего колебания в горизонтальной плоскости. Тракторы и сельхозмашины. № 4, 2020, стр. 27-34

6. В.А.Патрин ва А.В.Патрин. Энергодинамика плоских колеблющихся решет сортировальных машин. Вестник НГАУ. № 2 (31) 2014. стр.153-157

7. K.Astanakulov, S.Mannabova. Research and Defining Parameters and Indicators of the Longitudinal-Transverse Oscillation Sieve Grain Cleaning Mashine. AMERICAN Journal of Engineering, Mechanics and Architecture. Volume 01, Issue 08, 2023 ISSN (E): 2993-2637. rr.51-55

8. K.D.Astanakulov, Y.Z.Karimov va G.Fozilov. Design of a grain cleaning machine for small farms. AMA, Agricultural Mechanization in Asia, Africa and Latin America. ISSN: 0084-5841, pp.37-40

9. Mohamed Abu Ali, Eid Abd El-Rahman, Gamal El-Deen Nasr. Design and assessment of a small-scale machine for cleaning wheat grains. Acta Technologica Agriculturae 1/2022. pp.13-19

10. Abayineh Awgichew. Performance evaluation of grain and chaff separation and cleaning machine. International Journal of Scientific and Research Publications, Volume 7, Issue 7, July 2017, ISSN 2250-3153 pp.379-389

11. Yayock E. S., J. Shebayan and B. J. Bature. Development of a Grain Cleaning Machine for Sorghum and Millet. International Journal of Engineering Science Invention

(IJESI). 2020. vol. 9. pg. 35-42.

12. W.J.Zamdayu. Development and Performance Evaluation of a Motorized Millet Thresher. International Journal of Advances in Engineering and Management (IJAEM) Volume 3, Issue 11 Nov 2021, pp: 151-156

13. Ebaid M. T. 2005. Effect of physical properties of wheat on cleaner performance. Misr. J. Ag. Eng., 22(1):127-144.

14. Abd El – I. M.Tawwab, M. A. Baiomy and S.El-Khawaga.2007. Design and fabrication of a local rice separating machine. J. Agric.Sci. Mansoura Univ.,32 (7) :5355-5368

15. Salwa S. Hanna, Shaaban M. Ahmed, Nasser M. El_Ashmawy. Selection of the main factors affecting cleaning and grading fennel seeds at inclined sieve oscillation. Misr J. Ag. Eng., April 2010, 27 (2): 628 – 643

16. Elsayed, A.; Abd EL-Wahab, M.; Hanan, M.; Abd Allah, W. Performance cleaning unit for sesame and clover seeds affecting some physical and mechanical properties. Agric. Eng. Int. CIGR J. 2023, 25, 296–311.

17. Ramadas Narayanan et al. Adaptation of Grain Cleaning Equipment for Kalonji and Sesame Seeds. AgriEngineering 2025, 7, 179

18. Ревенко В.Ю., Фралов С.С. и Ткаченко А.Н. Селекционная малогабаритная семяочистительная машина // Масличные культуры. 2019. Вип. 2 (178), С. 81-88.

UO‘T 631.363:621.51

PAXTA TERISH MASHINALARI PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDA HAVO OQIMINI BARQARORLASHTIRISH

Ganjayev Sh.
M.T.O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti.

Shixnazarov D.
«Xonqa Na’muna Avtoustoz» MChJ.

Annotasiya. Maqolada vertikal shpindelli paxta terish mashinalarining havo transport tizimi uzatuvchi quvurlaridagi havo oqimini barqarorlashtirish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены рекомендации по стабилизации воздушного потока в передающих трубах воздушной транспортной системы вертикально-шпиндельных хлопкоуборочных машин.

Annotation. The article presents recommendations for stabilizing the airflow in the conveying pipes of the air transport system of vertical-spindle cotton harvesters.

Paxta terish mashinalarida pnevmotransport tizimi paxtani samarali va sifatli yig‘ishda muhim rol o'ynaydi. Tizimning uzatuvchi quvurlari konstruksiyasi va parametrlari havo oqimining barqarorligi va energiya sarfini belgilaydi. Shuning uchun yarim osma paxta terish mashinalari pnevmotransport tizimlarni ratsional konstruktsiyasini ishlab chiqish hamda uning parametrlarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb masalalardan biridir [1]. Paxta terish mashinalarida, paxtani bunkerga uzatish tizimi (pnevmotransport) ventilyator yordamida havoni so‘rish, haydash va ejeksiya jarayonlari hisobiga bajariladi. Yuqoridagi jarayonlar o‘zlarining yutuq va kamchiliklariga ega. 1-rasmda (a) keltirilgan MX-2,4 mashinasida pnevmotransport tizimi boshqalariga qaraganda asosan energiya sarfi kamligi bilan ajralib turadi. Bunda ejeksion (b) turdagi pnevmotransportga nisbatan 2-3 barobar kam quvvat talab etildi [1, 2]. Lekin bu jarayonda chigit shikastlanshi yuqoridagilarga nisbatan 3-4 % ga va paxtaning ifloslanishi 1,5 barobarga yuqori. Ayniqsa terilgan paxtani apparat qabul kamerasidan ventilyatorga uzatuvchi quvurlar konstruksiyasi murakkab va ularni tayyorlashda texnologik uskunalardan foydalaniladi. Ejeksiya turidagi tizimni haydash tizimli pnevmotransportdan farqi shundaki, ejeksiyalangan havo oqimi apparatning qabul kamerasiga xizmat qilmaydi. Faqat yig‘ilgan paxtani quvurlar orqali bunkerga transportirovka qiladi va buning uchun katta quvvat talab etiladi. Ejeksiya tizimi keyingi vaqtda ishlab chiqarilayotgan “John Deere” va “Case” paxta terish mashinalarining hamma modellarida qo‘llanilgan [1, 3].



a) b)

a) So‘ruvchi turdagi pnvemotransport tizimi bilan jihozlangan yarim tirkama MX-2,4 paxta terish mashinasi

b) Ejeksion turdagi pnvemotransport tizimi bilan jihozlangan John Deere CP690 kombayni

1-rasm. Turli konstruksiyadagi pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinalari

Vertikal shpindelli paxta terish mashinalari quvvat sarfi va chigit shikastlanishining kamligi va tannarxining pastligi jihatidan gorizontal shpindelli mashinalardan ustun hisoblanadi. Ammo bu turdagi mashinalarning pnevmotransport tizimi uzatuvchi quvurlaridagi havo oqimining bir xil emasligi jihatidan, bu borada ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi. Ushbu ilmiy ishda yuqoridagi muammoga nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida muayyan yechim taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqotlar natijalari [1-4] asosida ø 180 mm va ø 200 mm bo‘lgan gofrali quvurlar (2-rasmda keltirilgan) MX-1,8ГВ va MX-2,4 mashinalariga o‘rnatilib, mashinalar davlat sinovlaridan o‘tkazildi. Sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu quvurlardagi havo oqimi tezligi turlicha bo‘lib bu bir qator muammolarga sabab bo‘ladi. Jumladan, oqim tezligi past bo‘lgan quvurda paxtaning yerga to‘kilishi kuzatilsa, oqim tezligi yuqori bo‘lgan quvurda esa chigit shikastlani yuzaga keladi. Shu sababli oqim tezligini barqarorlashtirish masalasi dolzarb muammo hisoblanadi.



2-rasm. Gofrali quvur

2-rasmda keltirilgan turli xil diametrdagi quvurlarni takomillashtirilgan ventilyator bilan jihozlangan MX-1,8 mashinasining pvevmotransport tizimiga o‘rnatildi hamda tajribalar natijasida 4 ta uzatuvchi quvurdagi oqim tezliklarining bir xilligi ta’minlandi (3-rasm). Bu bir xillikka havo to‘plagichdagi oqim tezligini hisobga olgan holda, uzatuvchi quvurlarni turli xil (180 mm va 200 mm) diametrda o‘rnatish hisobiga erishildi.



3-rasm. Paxta terish mashinasi pnevmotransport tizimiga turli o‘lchamdagi quvurlarni o‘rnatish jarayoni

Xulosa

Tadqiqot va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, vertikal shpindelli paxta terish mashinalari pnevmotransport tizimiga turli xil diametrdagi quvurlarni o‘rnatish orqali uzatuvchi

quvurlaridagi oqim tezligini barqarorlashtirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. A.A.Rizaev, M.K.Normatov, and etc. On the quality of the harvested cotton and the energy efficiency of the air transport system of the cotton-picking machines. AGRITECH-VIII 2023 E3S Web of Conferences 390, 06044 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339006044

2. Йўлдашев А.Т. Научно-технические решения пневмотранспортной системы хлопкоуборочной машины со сменными уборочными аппаратами. Дис. док. Тех. наук. - Ташкент. 2022 г. – С. 177.

3. Матчанов Р.Д. Хлопкоуборочные машины 1929 – 2010 годы. Ташкент. Fan va texnologiyalar, 2011, – 352 с.

4. “Paxta terish mashinasida paxtani tashish uchun markazdan qochma ventilyator”, FAP 2530 raqamli patent. №1, 2024.

5. Отчет о НИР AL – 210202547 «Разработка и создание энергосберегающей универсальной пневмотранспортной системы для многорядных хлопкоуборочных машин». Ташкент. ИМиСС АН РУз. 2023г. – 144 с.

UO‘T 631.361.022

YERYONG‘OQ DONINI DUKKAKDAN AJRATUVCHI BARABANLARNING ISH UNUMI VA ULAR ISHIGA SARFLANADIGAN QUVVATNING NAZARIY TADQIQI

Egamnazarov G‘.G‘.
Jizzax politexnika instituti, t.f.n., dots.


Annotasiya. Mazkur maqolada yeryong‘oq donini dukkaklaridan ajratuvchi qurilma barabanlarini takomillashtirish haqida so‘z yuritilib, bunda barabanlarning ish unumi va ular ishiga sarflanadigan quvvatning miqdori nazariy tadqiqotlar asosida hisoblab topilgan.

Аннотация. В данной статье речь идет об усовершенствовании барабанов устройства для отделения зерна арахиса от бобов, при этом производительность барабанов и количество энергии, затрачиваемой на их работу, рассчитаны на основе теоретических исследований.

Annotation. This article discusses the improvement of the drums of the device for separating peanuts from pods, with the productivity of the drums and the amount of energy consumed for their operation calculated based on theoretical research.

Amaldagi yeryong‘oq dukkaklarini chaqib, undan urug‘larini ajratib olish qurilmalari tayyorlanishi jarayonida ularning ishchi qismlari asosan konstruktorlik yo‘llari bilan yaratilgan bo‘lib, o‘lchamlari ilmiy jihatidan yetarlicha asoslanmagan. Shu sababli takomillashtirilayotgan yeryong‘oq dukkaklarini chaqish qurilmasi barabanlari parametrlarini nazariy va eksperimental yo‘llar bilan asoslash takomillashtirilgan qurilma konstruksiyasi asosida amalga oshirilgan. Bunda yeryong‘oq dukkaklarini chaqish va urug‘larini ajratib oluvchi barabanli chaqish qurilmasida jarayonlar dukkaklarning chaqilish to‘laligini oshirish hamda urug‘larning shikastlanish darajasini kamaytirish yo‘li bilan texnik jihatdan yaroqli urug‘larni ajratib olish va saralashga yo‘naltiriladi.

1–rasmda yeryong‘oq dukkaklarini chaqish barabanlarining texnologik sxemasi tasvirlangan bo‘lib, u dukkaklar to‘planadigan bunker 1, uning pastki qismida joylashtirilgan ta’minlovchi baraban 3 hamda dukkaklarni chaquvchi barabanlar 4 qismlardan tashkil topgan.



1–bunker; 2–dukkaklar; 3–ta’minlovchi baraban; 4–chaquvchi barabanlar

1–rasm. Yeryong‘oq dukkaklarini chaqish barabanlarining texnologik sxemasi

Barabanlarda dukkaklarning chaqilishi quyidagicha amalga oshiriladi: bunker 1 ichidagi

dukkaklar 2 pastki qismda joylashgan ta'minlovchi baraban 3 yordamida chaquvchi barabanlar 4 ga uzatiladi. Ta'minlovchi baraban chaquvchi barabanlarga dukkaklarni bir maromda uzatilishini ta'minlaydi. Chunki chaquvchi barabanlarda dukkaklarning me'yordan ko'p bo'lishi texnologik jarayonning buzilishiga olib keladi va dukkaklar chaquvchi barabanlar orasiga juft-juft bo'lib kirib ketishi oqibatida urug'larning shikastlanishini ko'payishi kuzatiladi.

Dukkaklar chaquvchi barabanlarga kelib tushgach, chaqilish jarayoni boshlanadi. Bu yerda uchta chaquvchi barabanlar o'rnatilgan bo'lib, ular ikkita chaqish zonasini tashkil etadi. Yuqorida joylashgan ikkita barabanlar tashkil etgan birinchi chaqish zonasida, katta o'lchamli dukkaklar chaqilib o'tsa, pastdagi ikkinchi va uchinchi barabanlar tashkil etgan ikkinchi chaqish zonasida, kichik o'lchamdagi dukkaklar chaqilib o'tib, shu yerning o'zida chaqilish jarayoni yakunlanadi. Bunda barabanlar ramadagi pazlar yordamida bir-biriga nisbatan siljitilib, ular orasidagi tirqish o'zgartiriladi. Dukkaklarning chaqilishi bilan birga ularning po'choqlaridan ajralishini osonlashtirish va barabanlarning orasiga dukkaklarni tortib ketishini yaxshilash maqsadida, chaquvchi barabanlarning ishchi sirtlari riflli qilib tayyorlanib, ular bir-biriga nisbatan turli xil tezliklarda aylanadi. Chaqilgan aralashma chaquvchi barabanlar ostida joylashgan elak-ajratgichga kelib tushadi va shu yerning o'zida urug'lar alohida, po'choqlar alohida qilib saralanadi.

Respublikamizda hozirga qada yeryong'oq dukkaklarini chaqish jarayonini ilmiy jihatdan tadqiq etish bilan r yetarli darajada shug'ullanilmaganligi va tegishli ma'lumotlarning kamligi, dukkaklarni chaqish jarayoni ko'proq uning fizik-mexanik xossalariga bog'liqligi hamda boshqa urug'lardan farq qilishini hisobga olib, yeryong'oqni chaqish va urug'larni shikastlantirmasdan ajratib olish jarayoniga chaquvchi barabanlar ish unumi va baraban ishiga sarflanadigan quvvatni nazariy jihatdan tadqiq etish lozim.

Chaqish qurilmasi barabanlarining ish unumi umumiy ko'rinishda barabanlar orasidagi tirqish ko'ndalang kesim yuzi F bilan materialning shu tirqishdan o'rtacha o'tish $V_{o`r}$ tezligi ko'paytmasi shaklida ifodalanadi

$$Q = FV_{o`r}\rho, \qquad (1)$$

bunda ρ – dukkaklar zichliligi, kg/m^3.

Bundan barabanlar orasidagi tirqishning ko'ndalang kesim yuzi quyidagiga teng bo'ladi:

$$F = 2\delta B, \qquad (2)$$

bunda B – barabanlar uzunligi, m

(2) ifodani hisobga olganda (1) ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Q = 2\delta B V_{o`r}\rho. \qquad (2, a)$$

Oxirgi ifodadan ko'rinib turibdiki, chaqish qurilmasi barabanlarining ish unumi barabanlar orasidagi tirqish kengligiga, dukkaklarning tirqishdan o'tish tezligi hamda ularning zichligiga bog'liq ekan. Ushbu kattaliklarning qiymatlarini to'g'ri tanlab, yeryong'oq dukkaklarini chaqish qurilmasi barabanlarining ish unumini nazariy jihatdan aniqlash mumkin.

Jarayonni o'rganishda yeryong'oq dukkaklari o'lchamlarining, ya'ni uzunligi, eni va qalinligining turlicha bo'lishini, hattoki, ulardagi urug'lar soni va kattaliklari ham turlicha bo'lishini inobatga olish kerak bo'ladi. Dukkaklarni chaqish jarayonini nazariy jihatdan tadqiq etishda uning barabanlar orasiga uzunasiga yoki tikkasiga tushishini, dukkaklar va ulardagi urug'larning ko'ndalang kesimi doira shaklida ekanligini hisobga olib, dukkaklarning sxematik ko'rinishini doira shaklida deb qabul qilamiz.

Ma'lumki, barabanlar orasidan o'tish paytida dukkakga N_1, N_2 normal kuchlar va T_1, T_2 ishqalanish kuchlari hamda og'irlik kuchi G ta'sir etadi (2-rasm).

2–rasmda tasvirlangan sxemaga asosan, barabanlar texnologik jarayonni bajarish uchun talab etadigan quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$E = \omega FR \tag{3}$$

yoki

$$E = \omega fNR \tag{4}$$

bunda *N, f* – yeryong‘oq dukkaklarini ezilishidan barabanning ishchi sirtida hosil bo‘ladigan normal va ishqalanish kuchlari, N;

ω – barabanning burchak tezlanishi, rad/s;

R – barabanning radiusi, m.

N ni qiymatini topish uchun baraban ishchi sirtining yeryong‘oq dukkaklari bilan kontaktda bo‘lib turgan qismidan $ds=VRd\alpha$ elementar yuzani ajratamiz (bunda *B*–barabanning uzunligi, m). Bu elementar yuzaga ta’sir etuvchi normal kuch [65]


$$dN = q_0 BR^2(\cos\alpha - \cos\alpha_0)d\alpha, \tag{5}$$

bunda q_0 – yeryong‘oq dukkaklarini hajmiy ezilish koeffitsienti, N/m^3.

Bu ifodani *0* dan α_0 gacha oraliqda integrallaymiz

$$N = q_0 BR^2 \int_0^{\alpha_0} (\cos\alpha - \cos\alpha_0)d\alpha = q_0 BR^2(\sin\alpha_0 - \alpha_0\cos\alpha_0). \tag{6}$$

2 - rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib, α_0, $cos\alpha_0$ va $sin\ \alpha_0$ larni *R, r* va δ lar orqali ifodalaymiz



2–rasm. Barabanlarning dukkaklarga ta’sir etish sxemasi

$$\sin\alpha_0 = \frac{\sqrt{(R+r)^2-(R+\delta)^2}}{R+r}\ ;\ (7)\ \ \cos\alpha_0 = \frac{R+\delta}{R+r};\ (8)\ \ \alpha_0 = \arccos\frac{R+\delta}{R+r}. \tag{9}$$

$sin\alpha_0$, $cos\alpha_0$ va α_0 larni bu qiymatlarini (6) ifodaga qo‘yib quyidagiga ega bo‘lamiz

$$N = q_0 BR^2\left(\frac{\sqrt{(R+r)^2-(R+\delta)^2}}{R+r} - \frac{R+\delta}{R+r}\arccos\frac{R+\delta}{R+r}\right). \tag{10}$$

N ning bu qiymatini (6) ifodaga olib borib qo‘yamiz

$$E = q_0\omega fBR^3\left(\frac{\sqrt{(R+r)^2-(R+\delta)^2}}{R+r} - \frac{R+\delta}{R+r}\arccos\frac{R+\delta}{R+r}\right). \tag{11}$$

Bu ifoda tahlilidan ko‘rinib turibdiki, chaquvchi barabanlar ishiga sarflanadigan quvvat yeryong‘oqning fizik-mexanik xossalari (q_0,f), uning radiusi *(r)* hamda barabanlarning uzunligi


(B), radiusi *(R)*, burchak tezligi *(ω)* va barabanlar orasidagi tirqish *(δ)* kattaligiga bog‘liq ekan.

Salt yurishga talab qilinadigan quvvatni hisobga olgan holda (11) ifodani quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin

$$E = E_C + q_0 \omega f B R^3 \left(\frac{\sqrt{(R+r)^2 - (R+\delta)^2}}{R+r} - \frac{R+\delta}{R+r} \arccos \frac{R+\delta}{R+r} \right), \qquad (11, \text{a})$$

bunda Ec– baraban vali podshipniklaridagi ishqalanish kuchlarini hisobga oluvchi koeffitsient (jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bo‘yicha E_c=0,00235D).

q_0=6H/sm^3, ω=12,56 s^{-1}, f=0,65 va V=80 sm deb qabul qilinib (11) ifoda bo‘yicha E ni R, r va δ ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafiklari quyida tasvirlangan.



a) b) c)

3-rasm. Barabanlar oladigan quvvat *E* ni barabanlar radiusi *R* (a), baraban ishchi sirti rifllari radiusi *r* (b) va barabanlar orasidagi tirqish *δ* (c) larga bog‘liq ravishda o‘zgarishi

Bu grafiklardan ko‘rinib turibdiki R va r larni ortishi hamda δ ni kamayishi talab qilinadigan quvvatni ortishiga olib kelar ekan.

Chaqish zonasida ikki juft baraban mavjudligini hisobga olgan holda (8) ifoda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$E_y = n_b E_C + q_0(\omega_1 + \omega_2) f B R^3 \left[\left(\frac{\sqrt{(R+r)^2 - (R+\delta_1)^2}}{R+r} + \frac{\sqrt{(R+r)^2 - (R+\delta_2)^2}}{R+r} \right) - \left(\frac{R+\delta_1}{R+r} \arccos \frac{R+\delta_1}{R+r} + \frac{R+\delta_2}{R+r} \arccos \frac{R+\delta_2}{R+r} \right) \right]. \qquad (9)$$

bunda n_b – barabanlar soni, dona.

q_0, f, V, R larning yuqorida keltirilgan qiymatlarini (9) ifodaga qo‘yib, chaquvchi barabanlarni elektrodvigateldan oladigan quvvati E_y=0,62 kVt ekanligi aniqlandi.

Xulosa

Yeryong‘oq chaqish qurilmasi barabanlarining ish unumi barabanlar diametri, eni, aylanishlar soni, rifllari radiusi, ular orasidagi tirqishning kengligi, hamda dukkaklarning shu tirqishdan o‘tish tezligiga bog‘liq bo‘lib, uning maksimal oladigan quvvati 0,62 kVt ni tashkil etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyuldagi “Qishloq xo‘jaligida mashinasozlik sohasida ilmiy-texnikaviy bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3117-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 26.01.2009 y. № PQ-1047 qarori. – Toshkent: “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2009, 5-son, 34-modda.

3. Лутиков И.Е. Арахис, его значение и возделывание. – М.:Изд–во с/х. литературы, 1949. – 29 с.

4. Лущител-сортировщик арахиса ЛА-0.5. uzbmkb-agromash @mail.ru.

5. Н.А.Кавалев. Прикладная механика. “Высшая школа”, Москва-1982 й.

6. Г.Г.Эгамназаров, Х.Х.Игамбердиев, А.М.Соатов, Н.Т.Набиходжаева. Устройства для отделения от шелухи арахиса. Материалы конференции «Актуальные вопросы развития аграрной науки в современных экономических условиях». 2015.

UO‘T 631.31.634.1.

YERYONG‘OQ HOSILINI KOVLASH MASHINASI

Imomqulov U.
Namangan davlat texnika universiteti.

Mirzaabdullayev M.
Namangan davlat texnika universiteti.

Usmonov I.
Qo‘qon davlat universiteti.

Annotasiya. Maqolada yeryong‘oq hosilini yig‘ishtirishning mavjud usullari, jumladan to‘liq pishib yetilgan hosilni yig‘ishtirib olish imkonini beradigan yeryong‘oq kovlash mashinasining tuzilishi va ishlash prinsipi keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены существующие способы уборки арахиса, а также устройство и принцип работы арахисоуборочной машины, используемой для уборки полностью созревшего урожая.

Annotation. The article presents the existing methods of harvesting peanuts, as well as the structure and operating principle of a peanut harvester used for harvesting fully ripened produce.

Ma’lumki keyingi yillarda Respublikamizning dehqon va fermer xo‘jaliklarida 35,0 ming gektardan ortiq maydonlarda yeryong‘oq etishtirilmoqda. Yeryong‘oqni yetishtirishda uni ekish, qator oralariga ishlov berish, oziqlantirish va kimyoviy dorilar bilan ishlov berish kabi ko‘plab agrotexnik tadbirlar mexanizatsiyalashgan bo‘lib, texnika vositalari tomonidan amalga oshiriladi. Ammo etishtirilgan yeryong‘oq hosilini yig‘ishtirib olish asosan g‘o‘zapoya yig‘ishtirish qurilmasi bilan qo‘l mehnati orqali amalga oshirilib kelinmoqda.

1 tonna yeryong‘oqni yig‘ib olish uchun 6 kishi/kuni sarf qilinib, poyasini ildiz qismi bilan sug‘urib olish uchun 150 N dan kam bo‘lmagan kuch kerak bo‘ladi. Yeryong‘oq etishtirishda eng sermehnat jarayon uni yig‘ishtirib olishdir. Ya’ni hosilni yig‘ishtirib olish jarayonining kechikishi va sifatini buzilishi hamda tayyor mahsulot tannarxini oshishiga olib kelmoqda [1,2].

Yeryong‘oq hosilini muddatidan oldin yig‘ib olinganda hosildorlik va urug‘ tarkibidagi yog‘ hamda oqsil moddalari pasayadi. Kechiktirib yig‘ilganda esa ginofor mo‘rt bo‘lib qolishi oqibatida hosilning bir qismi tuproq ostida qolib ketadi va hosilni katta qismi yo‘qotiladi. Shu sababdan yeryong‘oq hosilini issiq va quruq kunlarda yig‘ib olish tavsiya etiladi. Bu vaqt sentyabrning ohiri oktyabrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Hosil pishib yetilganda o‘simlik barglari sarg‘ayadi. Urug‘lari yetilganda yong‘oq qobig‘i to‘rlanadi. Qobiqning ichki tomoni qorayadi. Hosilni pishib yetilganiga to‘la ishonch hosil qilish uchun daladan diagonal bo‘ylab, yurilib bir nechta o‘simlik kovlab olinadi va yetilgan yong‘oqlarning foiz miqdori aniqlanadi. Yong‘oqlarning 70-75% yetilganda hosilni yig‘ib olishga kirishiladi [3].

Hozir kunda yeryong‘oq hosilini ko‘p funksiyali mashinalarda hamda oddiy kovlagichlarda yig‘ishtirib olinmoqda. Ko‘p funksiyali mashina dehqon va fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan yeryong‘oqni qulay sharoitda tez va sifatli nobud qilmasdan yig‘ishtirib olish imkonini beradi. Mashina bir o‘tishda qator oralarining kengligi 60-70 sm bo‘lgan ikkita qatordagi yeryong‘oqni kovlaydi, dukkaklarini poyalaridan ajratib bunkerga, poyalarni esa dala yuzasiga tashlaydi. Lekin yeryong‘oqlar tarkibidagi namlik 35-60% bo‘lganda, shabada aylanadigan usti yopiq binolarda 8-10 sm qalinlikda yoyib quritish va vaqti-vaqti bilan joyida


aylantirib, aralashtirib turishni talab etadi. Bu esa yana qo‘shimcha qo‘l mehnatini talab etib, yig‘ishtirilgan hosilning tannarxini oshishiga olib keladi.

1-Rasmda yeryong‘oq hosilini kovlosh mashinasining konstruktiv sxemasi keltirilgan.

Yeryong‘oq hosilini kovlosh mashinasi kovlogich panja (1), ustun (2), yetakchi yulduzchalar (3), val (4), shkif (5), tasmali uzatma (6), reduktor (7), umumiy rama (8) poya siqadigan zanjirli uzatma (9), rostlagich (10), yetaklanuvchi yulduzchalar (11), dala g‘ildiragi (12), poya yo‘naltirgichlar (13) dan tashkil topgan.

Yeryong‘oq hosilini kovlash mashinasi ishlash prinsipi quyidagicha: birinchi navbatda mashinani rostlagich (10) yordamida dala g‘ildiragi (12) kovlash chuqurligiga qarab dala yuziga nisbatan rostlanadi. Kovlagich panja (1) yeryong‘oq poyasini hosili bilan yerdan ajratadi. Reduktor (7) traktorning quvvat olish vali (QOV) dan olgan aylanma harakatini tasmali uzatmalar (6) ga uzatadi. Yerdan ajralgan yeryong‘oq poyasi hosili bilan yetakchi yulduzchalarning qarama-qarshi aylanma harakati hisobiga zanjirli uzatma (9) ularni siqib yuqoriga yo‘naltiradi. Ikki qatordan kelayotgan poyalar yo‘naltirgich (13) orqali o‘rta jo‘yakga tashlanadi.

Ko‘p funksiyali mashina bilan bir o‘tishda hosili to‘liq pishib yetilgan yeryong‘oqlarni yig‘ishtirib olish imkoni mavjud bo‘lib, aks holda bu usul yeryong‘oq hosildorligi hamda uning sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.



1-kovlogich panja; 2-ustun; 3-yetakchi yulduzchalar; 4-val; 5-shkif; 6-tasmali uzatma; 7-reduktor; 8-umumiy rama; 9-poya siqadigan zanjirli uzatma; 10-rostlagich; 11-yetaklanuvchi yulduzchalar; 12-dala g‘ildiragi; 13-poya yo‘naltirgichlar.

1-rasm. Yeryong‘oq hosilini kovlosh mashinasini konstruktiv sxemasi

Xulosa

Respublikamizda etishtirilgan yeryong‘oq hosilini yig‘ishtirib olish asosan oddiy kovlagichlarda kovlanib, qo‘l mehnati orqali amalga oshirilib kelinmoqda, bu esa hosilni yig‘ishtirib olish jarayonining kechikishi va mahsulot sifatining pasayishi hamda tannarxining oshishiga olib kelmoqda. Shuning bilan birga, yeryong‘oq hosildorligi hamda mahsulot sifati pasayishining oldini olish uchun ko‘p funksiyali mashinalardan faqatgina hosili to‘liq pishib yetilgan maydonlardagina foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Imomqulov U., Mirzaabdullayev M. Yeryong‘oq hosilini yig‘ishtirish texnologiyasining o‘ziga xosligi/Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari// Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. – Gulbahor, 2024. – B. 373-375.

2. Қўйчиев О.Р. Ерёнғоқ ковлагичнинг технологик иш жараёнини тадқиқ этиш ва параметрларини асослаш. Тех. Фан. Номзоди Автореф − Ташкент. 2011. –Б. -24.

3. Мансуров, М. Т., Абдулхаев, Х. Ғ., Нишонов, Ф. А., Хожиев, Б. Р. /Ерёнғоқ йиғиштириш машинасининг конструкцияси. //Механика ва технология илмий журнали, (2021). (4), 39.

UO‘T 631.314.

KICHIK FERMER VA TOMORQA XO‘JALIKLARIDA POLIZ EKINLARINI YETISHTIRISH UCHUN KOMBINATSIYALASHGAN PLYONKA TO‘SHAGICH QURILMASINI ISHLAB CHIQISH

Xoliqov B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. t.f.f.d.

Nigmatjonov S.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. tayanch doktorant

Sodiqov X.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. tayanch doktorant

Ashirov V.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.tayanch doktorant

Mamadjanov S.
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali.t.f.n., dots.

Annotasiya. Ushbu maqolada plyonka bilan birgalikda tomchilatib sug‘orish shlanglarini to‘shaydigan kombinatsiyalashgan qurilmaning konstruktiv sxemasi va tajribaviy nusxasini ishlab chiqish hamda u bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Аннотация. В данной статье приведены конструктивная схема и опытный образец комбинированного устройства для укладки шлангов капельного орошения вместе с пленкой, а также результаты проведенных исследований по нему.


Annotation. This article presents a structural diagram and a prototype of a combined device for laying drip irrigation hoses with film, as well as the results of research conducted on it.

Jahonda har yili o‘rtacha 2,8-2,9 mln. ha maydonda poliz mahsulotlari yetishtirilib, shundan 70 foizi tarvuz, 20 foizi qovun va 10 foizi qovoqni tashkil etadi. Respublikamizda poliz mahsulotlari 65 ming ha dan ortiq maydonlarda yetishtirilishini e’tiborga olgan holda aholi iste’moli uchun yiliga 40-50 kg ni tashkil etadi [1-4]. Shu jihatdan poliz ekinlarini yetishtirish va ulardan yuqori hosil olishda ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy texnika vositalarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa polizchilikda suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish orqali suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [5-6].

Hozirgi kunda dehqonlar dalalarda poliz ekilgan qator oralarida namlikni saqlab qolish hamda suvdan samarali foydalanish maqsadida poliz ko‘chatlarini ekishdan oldin an’anaviy usulda, ya’ni tekis dalaga pushta olinishi, unga plyonka to‘shash va ko‘chat ekish ishlari qo‘l kuchi yordamida amalga oshirib kelinmoqda. Bu esa ish sifati va samaradorligini kamayishiga hamda ortiqcha mehnat sarfini ortishiga olib keladi.

Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda polizchilikda ish unumi va mexanizatsiyalash darajasini oshirish hamda suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llash uchun ushbu yo‘nalishda ilgari olib borilgan tadqiqotlar, poliz ekinlarini mahalliy sharoitda ekish usullari va o‘tkaziladigan agrotexnik tadbirlar tahlil etildi [7-12]. O‘tkazilgan tahlilar va nazariy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, poliz ekiladigan dalalarda (qovun va tarvuz) bir o‘tishda plyonka bilan birgalikda tomchilatib sug‘orish shlanglarini to‘shaydigan kombinatsiyalashgan qurilmaning konstruktiv

sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. Kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagichning konstruktiv sxemasi

Kombinatsiyalashgan qurilma rama *1*, pastki va yuqorigi osish qurilmalari *2* va *3*, pushta ochgich *4*, elastik quvurlar bobinasi *5*, polietilen plyonkani tutib turuvchi baraban *6*, tomchilatib sug‘orish shlanglari *7*, polietilen plyonka *8*, ikkita yon ramalarni ko‘ndalang holatda belgilangan o‘lchamlarda mahkam tutib turuvchi xomut *9*, plyonka va tomchilatib sug‘orish shlanglarini bir tekisda to‘shalishini ta’minlaydigan yo‘naltiruvchi baraban *10*, g‘ildirak *11*, pushta yopgich-ko‘mgich *12* lardan iborat.

Bir o‘tishda plyonka bilan birgalikda tomchilatib sug‘orish shlanglarini to‘shaydigan kombinatsiyalashgan qurilmaning konstruktiv sxemasi asosida uning tajribaviy nusxasi MM-7 raqamli innovatsion “Xonadonbay” loyihasi doirasida ishlab chiqildi (2-rasm). Ushbu kombinatsiyalashgan qurilmaning agrotexnik talablarga mosligi va ishonchli ishlashini tekshirish maqsadida laboratoriya-dala tajribalari o‘tkazildi. Tajribalar kichik fermer va tomorqa xo‘jaliklarida hamda Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutning tajriba xo‘jaligining dalalarida sinovlardan o‘tkazildi.

Kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasi 15 hp li tajribaviy baland klirensga ega kichik o‘lchamli traktorga agregatlanib o‘tkazildi (2-rasm). Plyonka to‘shagichning texnologik ish jarayoni quyidagicha kechadi, ya’ni tekis dala yuzasiga poliz ekinlari urug‘ va ko‘chatlarini kombinatsiyalashgan qurilma yordamida amalga oshirish uchun plyonka va tomchilatib sug‘orish shlanglari ikki qatorli etib tasma shaklida to‘shaydi. Shu bilan birgalikda yo‘naltiruvchi baraban plyonka va tomchilatib sug‘orish shlanglarini bir tekisda to‘shalishini ta’minlaydi, yakunda esa ko‘mgichlar yordamida pushta yuzasiga to‘shalgan plyonkaning ikki cheti ko‘mib ketiladi [13-14].



a) *b*)

2-rasm. Kichik o‘lchamli tajribaviy traktor va kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasining orqa (*a*) va yon (*b*) tarafdan ko‘rinishlari

Kichik o‘lchamli traktor va kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasidan iborat agregatning harakat tezligini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlar o‘tkazildi [15-16]. Tajribalarda olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Sinovlarda

ishlab chiqilgan kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va uning jiddiy kamchiliklari kuzatilmadi.

1-jadval

Kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasining dala sinovlari natijalari

Ko‘rsatkichlarning nomi	Ko‘rsatkichlarning qiymatlari		
	Dastlabki talablar bo‘yicha	Sinov natijalari bo‘yicha	
Harakat tezligi, km/h	5,4-7,2	5,4	7,2
Tuproqning uvalanish darajasi %, qo‘yidagi o‘lchamlar (mm) bo‘yicha fraksiyalar >50 50-25 <25	 <5 - >80	 4,6 12,6 81,0	 4,0 11,2 84,2
Plyonkani to‘shash to‘liqligi, %	95	96,1	97,2
Pushtalarning balandligi,	Ishlov berilmasdan oldin	Ishlov berilgandan so‘ng	
$M_{o‘r}$, sm ±σ, sm	18,5 1,4	16,3 1,2	17,1 1,6

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasining ish ko‘rsatkichlari va unga qo‘yilgan dastlabki talablarga to‘la javob berdi. Agregatning 5,4 va 7,2 km/h ish tezliklarida tuproqning uvalanish darajasi (25 mm kichik bo‘lgan fraksiyalar miqdori) 81–84,2 foiz, plyonkani to‘shash to‘liqligi esa 96,1–97,2 foizni tashkil etdi.

Taklif etilayotgan yangi texnologiyadan foydalanilganda, avvalo suvni tejash va pushtalarda namlikni saqlash, mehnat va boshqa xarajatlar sarfini kamaytirishga erishiladi. Poliz ekinlarini sug‘orishda esa plyonka ostiga to‘shalgan tomchilatuvchi shlanglar yordamida amalga oshiriladi. Bundan tashqari ko‘chatlarning ildizlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mineral o‘g‘itlarni suv bilan aralashtirilgan holda oziqlantirish mumkin.

Xulosa

Sinovlarda poliz mahsulotlarini yetishtiruvchi kichik fermer va tomorqa xo‘jaliklarining yer maydonlarida bir o‘tishda plyonka va uning ostidan tomchilatib sug‘orish shlanglarini to‘shaydigan kombinatsiyalashgan qurilmaning ish ko‘rsatkichlari va unga qo‘yilgan dastlabki talablarga hamda belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi. Agregatning 5,4 va 7,2 km/h ish tezliklarida tuproqning uvalanish darajasi (25 mm kichik bo‘lgan fraksiyalar miqdori) 81–84,2 foiz, plyonkani to‘shash to‘liqligi esa 96,1–97,2 foizni tashkil etdi. Taklif etilayotgan yangi texnologiya, avvalo suvni tejash va pushtalarda namlikni saqlash, mehnat va boshqa xarajatlar sarfini kamaytirishga erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. https://www.nrcs.usda.gov
2. Sa’dullaev A.S., Amanova M.F. Xorazm iqlim-sharoitida ertangi tarvuz yetishtirish usullari // “O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi” ilmiy-amaliy jurnal. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 37-39.
3. Mamatov S.A. Tomchilatib sug‘orish tizimi / SANIIRI. MChJ «Mehridaryo», Toshkent, 2012 - 79 b.
4. https://yuz.uz/uz/news
5. https://lex.uz/uz/docs/6600390
6. https://lex.uz/docs/6734972

7. https://patenton.ru/patent/ SU1773338.
8. https://patenton.ru/patent/SU1660629A1.
9. https://patents.su/3-1777709-plenkoukladchik.html.
10. https://patents.su/3-1777709-plenkoukladchik.html.
11. https://patents.google.com/patent/CN201022263Y/en.
12. https://patents.google.com/patent/CN103918635A/zh.
13. Norchaev D.R., Nigmatjonov S.A., Xoliqov B.A. Kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich mashinasi pushta olgich parametrlarini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’siri// Qishloq xo'jaligi, atrof-muhit va barqaror rivojlanish milliy konferensiyasi. Science Box. Tom 9 - B. 8-11-b.
14. Norchaev D.R. Sodiqov H.U. Kombinatsiyalashgan plyonka to‘shagich qurilmasining plyonkani dala yuzasiga yotqig‘ib ketadigan g‘ildirak parametrlarini asoslash. “Development of Specialized Higher Education and Science in the Conditions of Globalization: Problems and Opportunities” International Scientific Conference Conference proceedings. "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University Section III. April 9-10, 2025, Tashkent, Uzbekistan. – B.125-156-b.
15. ГОСТ 20915-11. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы определения условый испытаний. –Москва: Стандартинформ, 2013.–23 с.
16. Испытания сельскохозяйственной техники. Методы расчета экономической эффективности испытываемой сельскохозяйственной техники. РД Уз 63.03-98 // Издание официальное. – Ташкент, 1998. – 49 с.

UO‘T 631.3

KICHIK TEXNIK VOSITALAR BILAN TUPROQQA ISHLOV BERILGANDA AGREGATLARGA TUPROQ FIZIK-MEXANIK XOSSALARINING TA’SIRI

Xudaykuliyev R.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. t.f.n, k.i.x.

Turdaliyev Z.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti. tayanch doktorant

Annotasiya. Mazkur maqolada kichik texnik vositalar yordamida tuproqqa ishlov berish jarayonining tuproq fizik-mexanik xossalariga, xususan, agregat tuzilishiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Tuproq zichligi, g‘ovaklik darajasi, suvga chidamliligi va qattiqligi kabi asosiy ko‘rsatkichlar kichik quvvatli texnik vositalar (motokultivator, minitraktor) bilan ishlov berishdan keyingi holati bo‘yicha tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние процесса обработки почвы малыми техническими средствами на физико-механические свойства почвы, в частности, на структуру агрегата. Основные показатели, такие как плотность сетки, степень пористости, водостойкость и твердость, были проанализированы по состоянию после обработки маломощными техническими средствами (мотокультиватор, минитрактор).

Annotation. This article analyzes the impact of turf treatment using small technical means on the physical and mechanical properties of the turf, particularly the structure of the aggregate. The main indicators, such as mesh density, porosity, water resistance, and hardness, were analyzed after treatment with low-power technical means (motor cultivators, mini-tractors).

Qishloq xo‘jaligida **kichik mexanizatsiya vositalari** (mini-traktorlar, motokultivatorlar, tuproq yumshatkichlar va hokazo)dan foydalanish tamorqa yerlari, kichik maydonli issiqxonalar va fermer xo‘jaliklari uchun samarali hisoblanadi. Bunday texnik vositalarning samaradorligi ko‘p jihatdan tuproqning **fizik-mexanik xossalari**ga bog‘liq bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida yerga ishlov berish jarayonining samaradorligi, asosan, foydalanilayotgan texnik vositalarning konstruktiv va energetik xususiyatlariga hamda tuproqning fizik-mexanik xossalariga bog‘liq. Kichik texnik vositalar - ayniqsa, yengil va o‘rta massali motokultivatorlar, minitraktorlar va ular bilan agregatlanadigan yumshatgich, kultivator, borona singari moslamalar - individual dehqonchilik, fermer xo‘jaliklari va kichik ko‘lamli yer maydonlarida keng qo‘llaniladi.

Tuproqqa ishlov berish – bu tuproq zarrachalarining mexanik, fizik va kimyoviy omillar ta’sirida birikib, nisbatan barqaror shakl hosil qilgan komplekslaridir. Agregat tuzilishi tuproqning suv o‘tkazuvchanligi, havo almashinuvi, ildizlar o‘sishi, issiqlik rejimi kabi ko‘plab agrobiologik xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu maqolada kichik texnik vositalar bilan ishlov berilganda tuproqqa agregatlarining fizik-mexanik holatiga ko‘rsatilgan ta’sirlar tahlil qilinadi.

Tuproqning asosiy fizik-mexanik xossalari.

- Tuproq zichligi (ρ) – quruq tuproqning birlik hajmdagi massasi, g/sm³ bilan o‘lchanadi.
- Haqiqiy zichlik (ρ_h) – tuproq zarrachalarining zichligi.
- G‘ovaklik (poroznost, P) – tuproqning umumiy hajmidagi bo‘shliqlar foizi:

$$P = \left(1 - \frac{\rho}{\rho h}\right) \cdot 100\% \quad (1)$$

- Namlik (W) – tuproqdagi suv miqdori (%).
- Qattiqlik (penetrometr ko‘rsatkichi, MPa) – ishlovga qarshilik darajasi.
- Agregat tuzilishituproq zarrachalarining aglomeratsiyalashgan yiriklik darajasi (mm, %).

Kichik texnik vositalar turlari va ularning ishlash printsiplari.

Motokultivatorlar. Motokultivatorlar 5–12 ot kuchi (hp) oralig‘ida bo‘lgan dvigatellarga ega. Ular quyidagi moslamalar bilan ishlatiladi:

- Frezalar
- Yumshatgichlar
- O‘simlik qator oralari uchun kultivatorlar

Minitraktorlar. Bunday texnikalar 12–24 hp oralig‘ida bo‘lib, orqaga yoki oldinga ulangan agregatlar bilan ishlatiladi. Ishlov chuqurligi 8–20 cm oralig‘ida bo‘ladi. Ular tuproq qatlamini ag‘darishsiz yumshatadi yoki kesadi.

1-jadval

Agregatlarning turlari va ularning ahamiyati

Agregat yirikligi (mm)	Tuproq sifati bo‘yicha ahamiyati
>10 mm	Qattiq, ishlov talab qiladi
5–10 mm	Yaxshi, biroq ko‘proq bo‘lsa – zararlidir
1–5 mm	Optimal, o‘simlik uchun foydali
<1 mm	Chang holati, nosamarador

2-jadval

Kichik texnik vositalarning tuproqqa ta’siri

Texnika turi	Ishlov chuqurligi (cm)	Zichlik (g/cm³)	Agregat (>5 mm)	Agregat (1–5 mm)	Chang (<1 mm)
Frezali motokultivator	10	1.25	20%	65%	15%
Minitraktor + kultivator	15	1.30	28%	60%	12%
Qo‘lda ishlov	10	1.20	15%	68%	17%

- Frezali ishlovda agregatlarning mayda (<5 mm) foizi yuqori, bu ekinlar uchun qulay.
- Minitraktor nisbatan qo‘polroq struktura hosil qiladi, ammo tezroq va chuqurroq ishlov beradi.
- Qo‘lda ishlov eng nozik struktura beradi, ammo mehnat hajmi katta.

Agregat barqarorligi va suvga chidamliligi.

Agregatning suvga chidamliligi - uni yomg‘ir yoki sug‘orish ta’sirida parchalanishga qarshiligidir. Ushbu xususiyat stabil agregat miqdori orqali baholanadi:

$$WSA = \frac{\text{Suvga chidamli agregatlar massasi}}{\text{Umumiy agregat massasi}} \cdot 100\% \quad (2)$$

3-jadval

Ishlov usullarining WSA ko‘rsatkichiga ta’siri

Ishlov usuli	WSA (%)
Freza	70%
Kultivator	60%
Qo‘l ishlovi	75%

Energiya sarfi va agregat sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Texnik vositalarning agregat sifati va energiya sarfi o‘rtasida kompromiss mavjud:

- Yuqori tezlik – kamroq sifatli, ammo tez ishlov.
- Sekin harakat – sifatli, lekin ko‘proq yoqilg‘isi gaz.

Formulasi:

$$E = F \cdot d \quad (3)$$

bunda: E – energiya sarfi (J);
F – kuch (N);
d – harakat masofasi (m);

Tuproqqa ishlov berishda agregatga ta’sir etuvchi qarshilik kuchi umumiy holda

quyidagicha ifodalanadi:

$$R = k \cdot A \cdot (c+\sigma \cdot \tan\varphi) \quad (4)$$

bunda: R – ishchi organga ta’sir etuvchi qarshilik kuchi (N);
k – tajriba koeffitsienti,
A – ishchi organ sirt maydoni (m²);
c – tuproq yopishqoqligi (Pa);
σ – tuproqning vertikal bosimi (Pa);
φ – ichki ishqalanish burchagi (°).

Foydalanilgan parametrlar:

k = 1.2, A = 0.03 m²


Tuproq zichligi ρ = 1400 kg/m³, chuqurlik h = 0.15 m → σ ≈ 2060.1 Pa

Ko‘rib chiqilgan yopishqoqlik (c) qiymatlari: [1000, 3000, 5000] Pa Ichki ishqalanish burchagi φ = 10°–35° oralig‘ida o‘zgaradi.


4-jadval

Hisoblangan qiymatlar jadvali


φ,°	σ, Pa	R, N, c=1000Pa	R, N, c=3000Pa	R, N, c=5000Pa
10.0	2060.1	49.08	121.08	193.08
15.0	2060.1	55.87	127.87	199.87
20.0	2060.1	62.99	134.99	206.99
25.0	2060.1	70.58	142.58	214.58
30.0	2060.1	78.82	150.82	222.82
35.0	2060.1	87.93	159.93	231.93



1-rasm. Qarshilik kuchining ichki ishqalanish burchagiga bog‘liqligi grafigi



2-rasm. Qarshilik kuchining yopishqoqlikka bog‘liqligi (φ=25°)



3-rasm. Qarshilik kuchining vertikal bosim σ ga bog‘liqligi (φ=25°, c=3000 Pa)

Xulosa

Kichik texnik vositalar bilan ishlov berilgan tuproq strukturasining fizik-mexanik xossalari sezilarli darajada o‘zgaradi. Ayniqsa, frezali ishlovlar agregat yirikligini kamaytirib, hosildorlik uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, energetik samaradorlik va tuproqning barqaror agregat strukturasi o‘rtasida balans saqlash muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Бараев А.И., Ромашин И.А. Механизация и электрификация сельского хозяйства. // М.: Колос, 2016. - 432 с.

1. Тошболтаев М., Ким Э. Замонавий техника воситаларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш омиллари: тавсия ва таклифлар. // Т.: Фан, 2001. -72 б.

2. Турсунов А.Т., Ҳамраев С.Т. Қишлоқ хўжалигини механизациялаш. — Т.: Ўқитувчи, 2020. - 368 б.

3. Абдуллаев А., Арипов Т. Тупроқшунослик асослари. // Т.: “Ўзбекистон”, 2018. - 284 б.

4. Хван В.А., Сапожников И.А. Техника для обработки почвы: Учебное пособие. // М.: Колос, 2021. - 296 с.

5. Хасанова Ш.Х. Влияние способов обработки почвы на водопрочные агрегаты. // Агрофизический вестник. 2021. - №4. С. 28-34.

6. Soil Science Society of America. Methods of Soil Analysis. Part 1: Physical and Mineralogical Methods. // Madison, Wisconsin, USA: SSSA Book Series, 2018. 740 p.

7. Montgomery D.R. Dirt: The Erosion of Civilizations. // Berkeley: University of California Press, 2012. 295 pp.

8. ГОСТ 26213-91. Почвы. Методы лабораторного определения агрегатного состава. // М.: Госстандарт СССР, 1991.

9. FAO. Conservation Agriculture for Cmallholders in Asia and the Pacific. RAP Publication 2017/19. Bangkok: FAO, 2017. 112 pp.

UO‘T 631.372

TOMORQA XO‘JALIKLARI UCHUN KICHIK O‘LCHAMLI SABZAVOTCHILIK TRAKTORINI ISHLAB CHIQISH BO‘YICHA O‘TKAZILGAN TADQIQOTLARNING NATIJALARI

Kambarov B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institute, t.f.d., dots.

Ashirov V.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada tomorqa xo‘jaliklari uchun kichik o‘lchamli sabzavotchilik traktorini ishlab chiqish hamda uning boshqaruvchanlik ko‘rsatkichlarini dala tajribalarida o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.


Аннотация. В стате приведены результаты исследований по разработке малогабаритного овощеводческого трактора для приусадебных хозяйств и изучению его управляемости в полевых экспериментах.

Annotation. The article presents the results of research on developing a small-sized vegetable tractor for household farms and studying its controllability in field experiments.

Hozirda qo‘llanilib kelinayotgan yengil, o‘rta va og‘ir turdagi ikki o‘qli kichik o‘lchamdagi traktorlarning afzalligi va kamchiliklarini e’tiborga olgan holda ularning klirensini kamligi (300 mm atrofida) va g‘ildiraklari orasidagi masofasi (koleyasi) unib o‘sgan sabzavot ekinlari qator oralariga mos kelmasligi bois, ularga avaylab ishlov berish uchun yetarli darajada qanoatlantira olmaydi [1]. Shuning uchun turli kenglikdagi qator oralariga sabzavot ekinlarining urug‘lari va ko‘chatlarini ekish va ularga ishlov berishda klirensi baland, g‘ildiraklar oralig‘ining kengligi (koleya) esa rostlanadigan bo‘lishi maqsadga muvofiq [2].

Hozirda sabzavotchilik ekinlari asosan 60 va 70 cm, ayrim joylarda esa 80 cm li qator oralariga ekilishi va ishlov berilishi uchun kichik o‘lchamli traktorni oldingi va orqa ko‘priklarining koleyasi 1200, 1400 va 1600 mm bo‘lishi lozim. Kichik o‘lchamli traktorni sabzavotchilik va tomorqa xo‘jaliklari maydonlarida ishlatishdagi (agrotexnik) imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida uning qatorlar oralariga mos tushaolishi hamda sabzavotlar ko‘chatlarini shikastlanishini kamaytiradigan g‘ildiraklar koleyasi va agrotexnik tirqishini (klirensi) belgilangan talablar doirasida bo‘lishini ta’minlay oladigan oldingi va orqa ko‘priklarning takomillashtirilgan nusxasini yaratishga doir tadqiqotlar olib borildi. O‘tkazilgan tahlilar, nazariy tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, kichik o‘lchamli sabzavotchilik traktoriga o‘rnatiladigan oldingi va orqa ko‘priklarning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi (1-rasm) [3, 4].

Kichik o‘lchamli sabzavotchilik traktorining tajribaviy nusxasi (2-rasm) va texnik tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Traktorning umumiy ko‘rinishlari

Tajribaviy traktorning oldingi ko‘prigi nofaol bo‘lib, g‘ildiraklar orasidagi masofani (koleyani) turli kengliklarda o‘zgartirish uchun teshiklardan, orqa yetakchi ko‘prigining chap va o‘ng yon taraflari ikkita zanjirli reduktordan iborat (2-rasm).



a)



b)

2-rasm. Kichik o‘lchamli tajribaviy traktorining old (*a*) va yon (*b*) tarafdan ko‘rinishlari

Oldingi va orqa ko‘priklarning tajribviy nusxalari SINTXO 150 (Xitoy) rusumli kichik o‘lchamli traktorga o‘rnatildi (2-rasm). Tajribaviy traktor 1 silindrli, suyuqlik bilan sovutiladigan, dvigatelning quvvati – 11 kW (15 hp), tirsakli valning nominal aylanishlar soni – 2200 rpm bo‘lgan CC 195 rusumli dvigateldan iborat.

1-jadval

Kichik o‘lchamli tajribaviy traktorning qisqacha texnik tavsifi

T/r	Ko‘rsatkichlarning nomlanishi va o‘lchov birligi	Ko‘rsatkichlar qiymati
1	G‘ildirak formulasi	4K2
2	Tortish sinfi (kN)	0,2 (2)
3	Tezligi, km/h: – ishchi / – transport	2–7 / 15
4	Bo‘ylama bazasi, mm	1310
5	O‘rnatilgan shinalar: oldiga / orqasiga	4.00-12 / 7.50-16
6	Koleyasi (ko‘priklar bo‘yicha, rostlanadigan), mm:	
	– oldingi	1200-1400
	– orqa	1200, 1400
	o‘rnatilgan: oldingi /orqa	1400 /1400
7	Agrotexnik tirqishi (ko‘priklar bo‘yicha), mm:	
	– oldingi / – orqa	580 / 600
8	Yo‘l tirqishi, mm	485
9	Yo‘naltiruvchi g‘ildiraklarni gorizontal tekislikdagi burilish burchaklari, °:	
	– tashqi / – ichki	35 / 50
10	Eng kichik burilish radiusi, m	1,9–2,2
11	Ekspluatatsion massasi, kg	840
12	Dvigatelning nominal quvvati, hp	15
13	Ko‘ndalang turg‘unligi, °	36
14	Traktor massalar markazining bo‘ylama koordinatasi, mm	597,14

Kapot ostida 10 litrli yonilg‘i baki mavjud, dvigatelni o‘t oldirish uchun mexanik startyor orqali yurgizib yuborish mumkin, dvigateldagi burovchi momentni shkivli maxovik orqali uzatmalar qutisiga harakatni uzatish tasmalar orqali amalga oshirilgan. Uzatmalar qutisi – mexanik, past va yuqori tezliklarda harakatlanish pog‘onalariga, ya’ni oldinga 6 ta, orqaga 1 ta uzatmalardan iborat. Ilashish muftasi friksion diskli, tormoz uzatmasi esa kolodkali bo‘lib ular oyoq tepkisining richagi bilan bog‘langan. Traktorning orqa tarafida uch nuqtali osma o‘rnatilgan va unga kichik o‘lchamli mashinalarni agregatlash mumkin.

Traktor transmissiyasi quyidagicha ishlaydi: quvvati 15 hp li dvigatel validagi burovchi moment ponasimon tasmali uzatma orqali tezliklar qutisining birinchi vali (I) ga uzatiladi. So‘ngra burovchi moment qo‘shilgan tezlikka ko‘ra tishli uzatmalar orqali birinchi val (I) dan ikkinchi val (II) ga, ikkinchidan uchinchi (III) valga, uchinchidan to‘rtinchi (IV) valga, to‘rtinchidan (V) beshinchi valga uzatiladi. Beshinchi valdan tishli uzatmalar Z_{14}=13 va Z_{15}=61 dan iborat differensialga uzatiladi. Differensialdan satellitlar Z_{16}=12 va konussimon Z_{17}=20 shesternyalarga uzatilayotgan burovchi moment reduktorning yarim o‘qlarida joylashgan yulduzchalar orqali uzatishlar soni 1:1 ga teng bo‘lgan zanjirli uzatmaga so‘ngra orqa g‘ildiraklar o‘rnatilgan vallarga uzatiladi.

Loyiha doirasida issiqxonalar, aholi tomorqa xo‘jaliklari yer maydonlarida ishlatish uchun kichik o‘lchamli traktorining laboratoriya-dala sinovlari o‘tkazildi (3-rasm).

Kichik o‘lchamli traktorning boshqaruvchanligi mexanizator tomonidan boshqarish qurilmalari yordamida o‘simliklar qator oralarining belgilangan traektoriyasiga moslasha olishini tushuniladi. Traktor yaxshi boshqaruvchan bo‘lganda ishlov beriladigan qatorlar traektoriyasiga mos holda haraklanishi lozim va buning natijasida minimal himoya oralig‘i ta’minlangan holatlarda ekinlarga shikast yetkazilmaydi.

Tajribalar tuprog‘ining namligi 16-18 foiz bo‘lgan baqlajon ekilgan maydonda olib borildi. Dala tajribalarini o‘tkazish uchun traktor va orqa osmaga taqib ishlatiladigan kultivatoridan tashkil topgan agregatdan foydalanildi. Bunda kultivator ramasiga agregatning boshqaruvchanlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun tik kesuvchi nazorat pichoqlari (3 dona) o‘rnatildi. Qator oralariga ishlov berish va begona o‘tlardan tozalash maqsadida universal o‘qyoysimon panjalar (3 dona) bilan butlandi (3-rasm).



3-rasm. Kichik o‘lchamli traktor va kultivatordan tashkil topgan agregat bilan qator oralariga ishlov berish

Dala tajribalarini o‘tkazishdan oldin baqlajon nihollarini kesilishi, ko‘milib qolishini oldini olish uchun tik pichoqlar baqlajon tuplariga nisbatan 10 cm, universal o‘qyoysimon panjalar esa qatorning o‘rtasiga o‘rnatildi. Barcha ishchi organlarning ishlov berish chuqurligi 8-10 cm etib belgilandi va ularni sozlash ishlari sinov dalasida olib borildi.

Tajribalar qator oralig‘i 70 cm kenglikda baqlajon ekilgan maydonida me’yoriy hujjatlar (GOST 7057-2001, GOST 1114-84, GOST 26025-83, GOST 20915-2011, O’zDSt 3090:2016), sabzavotchilik uchun ishlab chiqilgan traktor va mashinalarga doir dastlabki talablarga muvofiq o‘tkazildi.

Agregatning harakat tezligi 0,7 m/s (2,52 km/h) ni tashkil etdi.

O‘lchash ishlari bazaviy chiziqqa nisbatan quyidagi ish organlari bo‘yicha o‘tkazildi:

– chapdan birinchi pichoq – (1);

– chapdan ikkinchi pichoq – (2);

– chapdan uchinchi pichoq – (3);

O‘lchash ishlari 50 cm li qadam bilan olib borildi. Olingan natijalar 1-jadvalga keltirilgan.

1-jadval

Kichik o‘lchamli traktor va kultivatordan iborat agregatning boshqaruvchanlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar nomi, belgilanishi va o‘lchov birligi	Kultivator seksiyalari		
	№1 chapdan birinchi pichoq	№2 chapdan ikkinchi pichoq	№3 chapdan uchinchi pichoq
Himoya oralig‘ining o‘rtacha kvadratik chetlanishi, $\pm\sigma$, cm	2,43	1,24	1,85
$\pm2\sigma$, cm	4,86	2,48	3,70
$\pm3\sigma$, cm	7,29	3,72	5,55

1-jadvalga asosan tajribaviy sabzavotchilik traktori va chopiq kultivatoridan iborat agregatning baqlajon qator oralariga ishlov berish jarayonidagi boshqaruvchanlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha quyidagilar aniqlandi:

– agregat o‘rta o‘qiga nisbatan uzoqlikdagi ishchi organlar uchun himoya oralig‘ini o‘rtacha kvadratik chetlanishining birmuncha ortishi kuzatildi;

– kultivator ishchi organlari himoya oralig‘ini o‘rtacha kvadratik chetlanishining kattaligi $\sigma=\pm(1,24\text{-}2,43)$ cm ni tashkil etdi.

Tomorqa xo‘jaliklari uchun tajribaviy traktorni joriy etilganda kichik maydonlarni haydash, tuproqni ekishga tayyorlash, ekish, qator oralariga ishlov berish, o‘simliklar zararkunandalariga qarshi kurashish, hosilni yig‘ishtirish va tashish ishlarida kichik tomorqa xo‘jaliklarining asosiy dastyori sifatida foydalaniladi. Bundan tashqari ochiq maydonlarda 2-3 marotaba va yopiq maydonlardagi issiqhonalarda esa 4-5 marotaba sabzavotlar ekiladigan tuproqlarni tayyorlashdan tortib to yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirib olish, tashish ishlarini qisqa muddatlarda bajarilishiga erishiladi hamda ish unumini 1,5-1,7 barobarga ortishiga olib keladi.

Xulosa

Tomorqa xo‘jaliklarida foydalaniladigan kichik o‘lchamli traktor turli kenglikdagi qator oralariga sabzavot ekinlarining urug‘lari va ko‘chatlarini ekish, ularga avaylab ishlov berish uchun klirensi baland, g‘ildiraklar koleyasi esa rostlanadigan bo‘lishi maqsadga muvofiq. Tajribaviy sabzavotchilik traktori va chopiq kultivatoridan iborat agregatning o‘rta o‘qiga nisbatan uzoqlikdagi ishchi organlar uchun himoya oralig‘ini o‘rtacha kvadratik chetlanishining birmuncha ortishi kuzatilib, kultivator ishchi organlari himoya oralig‘ini o‘rtacha kvadratik chetlanishining kattaligi $\sigma=\pm(1,24\text{-}2,43)$ cm ni tashkil etdi.

Kichik o‘lchamli traktorni tomorqa xo‘jaliklariga joriy etish orqali dehqonlarning

yumushi birmuncha kamayadi, ekinlardan mo‘l hosil olinishiga erishiladi. Ushbu traktordan issiqxonalar, kichik tomorqa xo‘jaliklarida barcha turdagi ekinlarni yetishirishda foydalanilish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ashirov V.R. Kichik o‘lchamli sabzavotchilik traktorlarining o‘ziga xos xususiyatlari // Zarafshon vohasini kompleks innovatsion rivojlantirish yutuqlari, muammolari va istiqbollari mavzusidagi IV-Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Navoi, 2023. – B. 245-246.

2. Гамалеев П.П. Обоснование параметров малогабаритного трактора в составе сельскохозяйственных агрегатов: Автореф. дис. …канд. техн. наук. – Барнаул, 1999. – 22 с.

3. Kambarov B.A., Ashirov V.R. Tomorqalar uchun kichik o‘lchamli sabzavotchilik traktorini ishlab chiqish // Innovatsion yechimlar: qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoatida barqaror rivojlanish mavzusidagi V-Xalqaro ilmiy-texnik anjuman to‘plami. –Toshkent: ToshDTU, 2025. – B. 49-51.

4. Kambarov B., Ashirov V. Tomorqa xo‘jaliklari uchun kichik o‘lchamli sabzavotchilik traktori //Agro-ilm. – Toshkent, 2025. – №4(114). – B. 146-147.

UO‘T 631.3(575.1)

AGROKLASTERLARDA ZAMONAVIY QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINALARI VA TA’MIRLASH – TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH BAZALARINING RATSIONAL TURLARI, TARKIBLARI VA MIQDORLARINI ANIQLASH

Artikbayev B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d., k.i.x.

Annotasiya. Maqolada Respublikamiz agroklasterlari ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan texnika parki va TXK bazasining tarkibiy va miqdoriy ko‘rsatkichlarini asoslashga doir ilmiy-tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Natijada agroklasterlaridagi zamonaviy ish unumi yuqori traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalariga TXK punktlarini tashkil etish orqali klasterlar balansidagi texnika vositalarini yil davomida buzilmasdan ishlash imkoni yaratiladi.

Аннотация. В статье приведены результаты научных исследований, направленных на обоснование состава и количественных показателей парка техники и баз технического обслуживания (ТО) для нужд агрокластеров нашей Республики. В результате показано, что организация пунктов технического обслуживания для современных высокопроизводительных тракторов и сельскохозяйственных машин в агрокластерах позволяет обеспечит бесперебойную работу техники, находящейся на балансе кластеров, в течение всего года.

Annotation. The article presents the results of scientific research aimed at substantiating the structural and quantitative indicators of the machinery fleet and technical service bases necessary for the production needs of agroclusters in our Republic. As a result, it is demonstrated that establishing technical service points for modern, high-performance tractors and agricultural machinery within agroclusters enables uninterrupted operation of the machinery throughout the year, ensuring their continuous functionality within the cluster’s balance.

Jahon amaliyotida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi asosiy sub’yekt hisoblanadigan agroklasterlar va fermer xo‘jaliklari o‘zining xususiy mashina parki, ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish punktlari yoki ko‘chma ustaxonalariga ega. O‘zbekiston fermerlari hozirda agroklasterlar doirasida mahsulot yetishtirmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligining ahamiyatini hisobga olsak, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi sub’yektlarni me’yorlardagi texnika vositalari bilan butlash, texnik xizmat ko‘rsatish (TXK) punktlarini tashkil etish, qishloq xo‘jaligi texnikalarini soz holatda ushlab turish orqali agrotexnik tadbirlarni optimal muddatlarda bajarish tizimini amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “…qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash” [1], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 aprelda tasdiqlangan “Qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlari, global mintaqaviy va hududiy muammolarining ilmiy yechimlarini tadqiq qilish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturi”da “Paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik, meva-sabzavotchilik va sholichilik klasterlarining yuqori ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini ta’minlaydigan qishloq xo‘jaligi mashinalari va ta’mirlash-texnik xizmat ko‘rsatish ob’ektlarining ratsional tarkiblari va miqdorlarini asoslashning hisobiy modellari va dasturlarini ishlab chiqish” [2] vazifalari alohida belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan “Ish unumi yuqori bo‘lgan qishloq

xo‘jaligi texnikalaridan keng foydalanish”da agroklasterlarning modellarini yaratish, agrotexnik mavsumning davomiyligi va mashinalarning o‘rtacha ish unumi mezonlari asosida model klasterlarning xususiy parkini shakllantirish, TXK punktlarini tanlash va ularni zarur texnologik qurilmalar bilan jihozlash orqali balansdagi texnika vositalarining ish unumini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda bugungi kungacha o‘tkazilgan tadqiqotlar davomida shakllantirilgan g‘oyalar, takliflar va tavsiyalar asosida traktor va qishloq xo‘jaligi mashinalariga TXK tizimida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanib kelinmoqda [3]. Ammo ularda agroklasterlarning yer maydonlari bo‘yicha hududiy va bosh modellarini yaratish, model klasterlar ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan mashinalar va mexanizatorlarning ratsional sonlarini asoslash, mashinalarning ish qobiliyatini ta’minlaydigan TXK punktlarini tashkil etish masalalari o‘rganilmagan.

2020-2025 – yillar mobaynida Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti “Mashina-texnologiyalar tizimi va mashina-traktor parkidan foydalanish” laboratoriyasida bajarilgan tadqiqotlarda mamlakatimizda jami 95 ta paxta-to‘qimachilik (jami yer maydoni 907870 ha), 147 ta g‘allachilik (834942 ha), 41 ta sholichilik (40841 ha) va 146 ta sabzavotchilik (117500 ha) klasterlari faoliyat yuritayotganligi, hududlar bo‘yicha agroklasterlar soni va nomlari, ular hisobidagi texnika vositalarining rusumlari va miqdorlari keltirilgan [4-8]. Ushbu ma’lumotlardan Respublika hududlari bo‘yicha model agroklasterlar xizmat doirasidagi ekin maydonlarining ratsional qiymatlarini aniqlashda dastlabki manba sifatida foydalanildi.

Tadqiqotlarning maqsadi agroklasterlar ishlab chiqarishi uchun talab etiladigan qishloq xo‘jaligi mashinalarining ratsional sonlarini asoslash va ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish bazasini tashkil etish orqali mashina parkining butlanish to‘liqligini oshirish va sozligini ta’minlashdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida monografik kuzatuv, axborotlar sintezi va tahlili, qiyosiy tahlil qoidalari, matematik statistika, diskret va iqtisodiy matematika, optimallash hamda qishloq xo‘jaligi texnikalarini ishlatish, tiklash va ta’mirlash fanlaridagi usullardan foydalanildi.

***Tadqiqotlarning eng muhim ilmiy yangiliklari*:** 1000 gektar ekin maydoni uchun talab etiladigan texnikalar tarkiblari va miqdorlarini agrotexnik mavsumlar davomiyligi va mashinalarning o‘rtacha ish unumi kabi mezonlarga tayangan holda aniqlashning nisbatan sodda usuli ishlab chiqildi; mavjud klasterlarning bosh, hududiy va umumiy modellari klasterlar yer maydonlari bo‘yicha respublika hududlari kesimida guruhlash asosida ishlab chiqildi; bosh modelning texnikalar va mexanizatorlarga bo‘lgan talabini yil davomida foydalaniladigan traktorlar sonlari asosida hisoblash usuli ishlab chiqildi; bosh model klaster balansida turishi lozim bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikalari sonlaridan kelib chiqib, ularga texnik xizmat ko‘rsatuvchi punktlarning namunaviy loyihalari tanlandi.

Tadqiqotlarda eng muhim olingan natijalar:

- klasterlar ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan mashinalarning ratsional tarkibi va sonlarini aniqlashning taklif etilgan me’yoriy va iqtisodiy-matematik usullari, optimallash algoritmlari, keng qamrovli yangi mashinalarni bazaviy (amaldagi)larga keltirish koeffitsientlari va TXK punktlarini tanlash tamoyillari masalaning ilmiy asoslarini tashkil qildi va bir qator amaliy natijalarni olish imkonini berdi;

- TXK punktlarining kuchi bilan bitta haydov agregati va bitta paxta terish mashinasining buzilishlarini oldini olish hisobiga klaster oladigan samarani aniqlash hamda g‘allachilik klasterlari bosh modelining ko‘chma ustaxonaga bo‘lgan extiyojini o‘rim mavsumida u tomonidan xizmat ko‘rsatishga sarflangan xarajatlarning minimumi mezoni asosida aniqlash metodikalari ishlab chiqildi;

Respublika hududlari bo‘yicha paxta-to‘qimachilik klaster (PTK)lari paxta

maydonlarining ratsional statistik parametrlari, o‘rtacha 1000 gektar paxta maydoni uchun talab etiladigan texnika vositalari sonlarini aniqlashning me’yoriy koeffitsientlari, ratsional paxta maydoniga ega bo‘lgan PTK uchun talab etiladigan texnika vositalari va ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish bazalarining tarkiblari; servis markaz tarkibidagi ko‘chma ustaxonaning ratsional sonini hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi sub’yektlar uchun zarur bo‘lgan MTP tarkibi va miqdorlarini aniqlash; biriktirilgan yer maydonida paxta, g‘alla, sholi, sabzavot yetishtirish uchun talab etiladigan texnika vositalarining tarkiblari va sonlarini aniqlashning hisobiy metodi, qishloq xo‘jaligi mashinalariga dalada servis ko‘rsatuvchi ko‘chma ustaxonaning ratsional sonini aniqlash va ta’mirlash sexining texnologik loyihasi, qurilma va uskunalar tarkibini tanlashga doir ilmiy natijalar va tavsiyalar “O‘zAgroservis” AJ, “Yuqori Chirchiq Agroservis MTP” MChJ, “Do‘stlik Agroservis MTP” MCHJ, “TCT CLUSTER” MCHJ, “TCT RICE” MChJ, “MUHAMMADALI HAMKOR BIZNES” MCHJ amaliyotiga joriy etildi.

Xulosa

Respublikamiz agroklasterlaridagi zamonaviy ish unumi yuqori traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalariga TXK punktlarini tashkil etish orqali klasterlar balansidagi texnika vositalarini yil davomida buzilmasdan ishlash imkoni yaratiladi. Paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik, sholichilik, sabzavotchilik klasterlari mashina tractor parkining tarkibi va TXK bazasini asoslash bo‘yicha olingan natijalardan boshqa yo‘nalishlardagi agroklasterlarda shu kabi masalalarni yechishda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 - yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 aprelda tasdiqlangan “Qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlari, global mintaqaviy va hududiy muammolarining ilmiy yechimlarini tadqiq qilish bo‘yicha 2022-2026 - yillarga mo‘ljallangan dastur”i.

3. Toshboltayev M. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mashina-traktor agregatlaridan foydalanish darajasini oshirishning nazariy-metodologik asoslari. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2016. – 604 b.

4. M.Toshboltayev, M.Djiyanov. Paxta-to‘qimachilik klasterlari uchun mashinalar va texnik xizmat ko‘rsatish punktlari tarkiblarini asoslash. (Monografiya). – T.:“Navro’z”,2021,90

5. M.T.Toshboltayev, B.P. Artikbayev, T.T. Xamraqulov. G‘allachilik klasterlari uchun mashinalar va ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish bazasi tarkiblarini asoslash. Monografiya. – T.: “PUBLISHING HIGH FUTURE” OK nashriyoti**,** 2025. – 131 b.

6. M.Toshboltayev, B.Egamnazarov, B.Artikbaev. Sholichilik klasterlari uchun mashinalar va ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish bazasi tarkiblarini asoslash. (Monografiya). – T.: “Sabrina Art Mediya” MCHJ, 2023, – 112 b.

7. Artikbayev B., Mirzabdullayev X. Sabzavotchilik klasterlarining xususiy mashina parki va ta’mirlash-xizmat ko‘rsatish bazasini asoslash tamoyillari // Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari: Xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. – QXMITI, Gulbahor: 26-sentabr, 2024. – B. 448-451.

8. Artikbayev B., Mirzabdullayev X. Sabzavotchilik klasterlari bosh modeli uchun talab etiladigan texnika vositalarining tarkiblari va sonlarini asoslash // “Respublikamizda iqlim o‘zgarish sharoitida chorvachilik sohasini rivojlantirish istiqbollari*”* mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. 21-fevral 2025. – Toshkent: SamDVMCHBUTF. – B. 327-333.

UO‘T 631.3 (575.1)

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI AMUDARYO TUMANIDAGI AGROKLASTERLAR UNIVERSAL SERVIS MARKAZINING RATSIONAL JOYLASHISH URNINI ANIQLASH

Primbetov A.Yu.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institute, tayanch doktorant

Orinbayeva S.M.
Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute, PhD.

Annotasiya. Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi janubiy hududidagi tumanlaridagi (Amudaryo tumani misolida) agroklasterlarning qishloq xo‘jaligi mashinalarga hizmat ko‘rsatish servis markazini ratsional joylashish o‘rnini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты исследований по определению рационального расположения сервисного центра обслуживания сельскохозяйственных машин агрокластеров в районах южного региона Республики Каракалпакстан (на примере Амударьинского района).

Annotation. The article presents the results of research on determining the rational location of a service centre for agricultural machinery in agroclusters in the southern region of the Republic of Karakalpakstan (using the Amudarya district as an example).

Respublikamizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi sub’yektlar balansidagi qishloq xo‘jaligi texnikalaridan yil davomida samarali foydalanishni ta’minlash muammolariga doir ilmiy-amaliy va innovatsion tadqiqotlar bajarilib kelinmoqda [1, 2]. Ushbu tadqiqotlar davomida shakllantirilgan g‘oyalar, takliflar va tavsiyalar traktor va qishloq xo‘jaligi mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatish tizimida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilmoqda. Ammo Qoraqalpog‘istonning janubiy hududlaridagi faoliyat yuritayotgan paxta-to‘qimachilik, g‘allachilik va sabzavotchilik klasterlarining texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha hududiy universal servis markazlarini tashkil etish masalalari o‘rganilmagan [3].

Shu jihatdan hozirgi kunda Qoraqalpog‘iston Respublikasining janubiy hududidagi faoliyat yuritayotgan agroklasterlarda ishlab chiqarish yo‘nalishlariga mos mashinalarning ratsional parklari va ularga texnik xizmat ko‘rsatuvchi universal servis markazlarini barpo qilish zarur hisoblanadi [4].

Yuqorida ta’kidlaganlardan kelib chiqib Qoraqalpog‘iston Respublikasi janubiy hududlaridagi agroklasterlar uchun univarsal servis markazini ratsional joylashish o‘rnini qo‘yidagicha aniqlaymiz.

Texnik servis ko‘rsatish tizimining muhim ko‘rsatkichi – bu nosoz mashinalarga xizmat ko‘rsatish vaqtidir. U avvalo tizimdagi har bir xizmat ko‘rsatish ustaxona ishini xarakterlaydi. Xizmat ko‘rsatish davomiyligi buzilishlar turiga (oddiy, murakkab), asboblarning holati va imkoniyatlariga bog‘liqdir. Masalan, qishloq xo‘jaligi mashinasidagi bitta nosozlikni bartaraf etishga sarflangan vaqt buzilgan mashinaning turgan joyi, nosozlikning turi, ob-havo sharoiti, kunning vaqti, ko‘chma ustaxona mexaniklarining mahorati va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Demak, xizmat ko‘rsatish vaqti – bu quyidagi tarqalish qonuni bilan o‘zgaradigan tasodifiy miqdordir:

$$F(t) = P(t < \bar{\tau}), \quad (1)$$

bunda $F(t)$ – xizmat ko‘rsatish t vaqtining oldindan belgilab qo‘yilgan qandaydir $\bar{\tau}$ vaqtdan kichik bo‘lish ehtimoli.

Xizmat ko‘rsatish t vaqti doimo musbat qiymatlarga ega bo‘lgani uchun bu vaqtning tarqalish funksiyasi $F(t)$ ham doimo musbat va uning qiymati 1 dan katta bo‘lmaydi. Xizmat ko‘rsatish vaqti tarqalish funksiyasining konkret ko‘rinishi nosoz mashinalarni tuzatishga sarflangan vaqt qiymatlariga statistik ishlov berish natijalaridan aniqlanadi.

Xizmat ko‘rsatish vaqtining tarqalish funksiyasini texnik servis tizimiga kirayotgan talablar oqimining tarqalish funksiyasidan farqlash uchun B (t) simvol bilan belgilaymiz. Talablar oqimi eksponensial qonun bilan o‘zgarganda bu funksiyaning ko‘rinishi:

$$B(t) = 1 - e^{-\mu t}. \quad (2)$$

(2)-ifodadan μ – xizmat ko‘rsatish intensivligi yoki bir birlik vaqt ichida qondirilgan talablar soni bo‘lib, quyidagicha aniqlanadi [5]:

$$\mu = \frac{1}{\bar{t}}, \quad (3)$$

bu yerda $\bar{t}_y$- mashinadagi bitta nosozlikni bartaraf etishga ko‘chma ustaxona tomonidan sarflangan umumiy vaqt.

Ma’lumki, daladagi mashinada sodir bo‘lgan nosozlikni uning operatori ham, MTP ko‘chma ustaxonasining mexanigi ham bartaraf eta olmasa MTP dispetcheri bu haqda servis markazi dispetcheriga xabar beradi. Bunga ma’lum bir vaqt sarflanadi. Mazkur vaqtni operatorning talabi mashina buzilganidan boshlab, to servis markazi dispetcheriga tushgunigacha ketgan vaqt deb ataymiz va t_T simvol bilan belgilaymiz [6, 7].

Servis markazi dispetcheri operatorning talabini qabul qilib olganidan so‘ng, bu talabni eng avvalo, ayni paytda o‘sha mashina turgan tuman hududida bo‘lgan servis markaz ko‘chma ustaxonasining mexanigiga yetkazadi. Mexanik nosoz mashina oldiga yetib boradi va uni tuzatadi. Tuzatish uchun yangi ehtiyot qismlar talab etilsa va ular ustaxona mashinasi zahirasida bo‘lmasa, mexanik servis markazi omborxonasiga kelib ketishga majbur bo‘ladi.

Nosozlik ro‘y bergan tuman va uning atrofida servis markazi ko‘chma ustaxonalari bo‘lmasa yoki band bo‘lganda, dispetcher servis markazidan bo‘sh ko‘chma ustaxonani yuboradi. Mazkur ustaxona mexanigi operator talabida ko‘rsatilgan ehtiyot qismlar yoki ta’mirlash materiallarini markaziy ombordan oladi va tuman markazidan OFY markaziga qarab jo‘naydi. Bu tadbirlarni bajarishga muayyan vaqt ketadi. Mazkur vaqtni servis markazi ko‘chma ustaxonasining tuman servis markazidan nosoz mashina oldiga jo‘nashga tayyorgarlik ko‘rish va OFY markaziga yetib borish uchun sarflangan vaqt deb ataymiz va t_j bilan belgilaymiz.

Servis markazi ko‘chma ustaxonasi mexanigi OFY MTPga yetib keladi, nosoz mashinani tekshirib chiqqan MTP mexanigi bilan suhbatlashib, nosozlik turiga va mashina to‘xtab turgan manzilga yana bir bor aniqlik kiritadi. Keyin mashina to‘xtab turgan dalaga jo‘naydi. Bularga ma’lum vaqt ketadi. Mazkur vaqtni servis markazi ko‘chma ustaxonasining OFY markazidan daladagi nosoz mashina oldiga yetib borish uchun sarflangan vaqt deb ataymiz va t_{ye} bilan belgilaymiz.

Servis markazi mexanigi dalaga yetib kelgach, nosoz mashina operatori bilan birgalikda buzilgan uzel yoki agregatni tekshiradi va ulardagi nosozlikni dalaning o‘zida bartaraf qiladi. Bunga ketgan vaqtni mashinadagi nosozlikni bartaraf etish uchun servis markazi mexanigi tomonidan joyida sarflangan mehnat vaqti deb ataymiz va t_n bilan belgilaymiz.

t_T, t_j, t_{ye} va t_n vaqtlarning yig‘indisi bitta mashinada sodir bo‘lgan bitta nosozlikni bartaraf etish uchun servis markazi ko‘chma ustaxonasi tomonidan sarflangan umumiy t_u vaqtni ifodalaydi:

$$t_u = t_T + t_j + t_{ye} + t_n. \quad (4)$$

Servis markazi ko‘chma ustaxonasi mexanigi tomonidan OFY MTPning zamonaviy mashinalarida mavsum davomida sodir bo‘lgan nosozliklarning N tasi bartaraf etilsa, t_T, t_j, t_{ye}, t_n vaqtlarning har biriga tabiiyki, N tadan qiymat mos keladi. Sarflangan vaqtlarning o‘rtacha

qiymatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\bar{t}_T = \frac{\sum_{i=1}^{N} t_{Ti}}{N}, \qquad \bar{t}_j = \frac{\sum_{i=1}^{N} t_{ji}}{N}, \qquad \bar{t}_{ye} = \frac{\sum_{i=1}^{N} t_{yei}}{N}, \qquad \bar{t}_n = \frac{\sum_{i=1}^{N} t_{ni}}{N}, \tag{5}$$

(5)-ifodadan foydalanib, bitta mashinada sodir bo‘lgan bitta nosozlikni bartaraf etish uchun servis markazining ko‘chma ustaxonasi mexanigi tomonidan sarflangan umumiy o‘rtacha vaqt $\bar{t}_u$ qiymatini aniqlash formulasini yozamiz:

$$\bar{t}_u = \bar{t}_T + \bar{t}_j + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n. \tag{6}$$

t_j vaqtga berilgan tarifdan $\bar{t}_j = \frac{\bar{L}_u}{\bar{V}_u}$ tenglik o‘rinli ekanligi ko‘rinadi. Bu yerda $\bar{L}_u$ –servis avtomashinasining tuman servis markazidan OFY MTPga borish va servis markaziga qaytib kelishda bosib o‘tgan umumiy o‘rtacha yo‘li; $\bar{V}_u$ –servis avtomashinasining borish va kelishdagi o‘rtacha harakat tezligi.

Demak, $\bar{L}_u = 2\bar{L}$ deyish mumkin ($\bar{L}$ –servis avtomashinasining bir tomonga bosib o‘tgan o‘rtacha yo‘li). Buni hisobga olsak,

$$\bar{t}_j = \frac{2\bar{L}}{\bar{V}_u}. \tag{7}$$

7- ifodani 6-ifodaga qo‘ysak,

$$\bar{t}_u = \bar{t}_T + \frac{2\bar{L}}{\bar{V}_u} + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n. \tag{8}$$

8-ifodadan foydalanib servis markazi yoki punktlarining ratsional parametrlarini aniqlash imkoniyatini beradigan analitik ifodalarni chiqarish mumkin.

1–hol. Servis markazi ko‘rsatadigan servis tadbirlari samarali bo‘lishi uchun quyidagi tengsizlik o‘rinli bo‘lishi lozim:

$$\bar{t}_u \le \bar{T}_u, \tag{9}$$

bu yerda $\bar{T}_u$ –bitta mashinadagi bitta nosozlikni bartaraf etishga sarflanadigan umumiy o‘rtacha vaqtning ratsional qiymati.

8 va 9-ifodalardan

$$\bar{t}_T + \frac{2\bar{L}}{\bar{V}_u} + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n \le \bar{T}_u, \quad \text{bundan} \quad \bar{L} \le 0{,}5\bar{V}_u\left[\bar{T}_u - \left(\bar{t}_T + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n\right)\right]. \tag{10}$$

Ta’rif: bitta mashinadagi bitta nosozlikni bartaraf etishga sarflanadigan umumiy o‘rtacha vaqt ratsional qiymatga teng yoki undan kichik bo‘lishi uchun servis markazi bilan OFY MTPlari orasidagi o‘rtacha yo‘l masofasi ratsional va joriy vaqtlar ayirmasi bilan servis avtomashinasining o‘rtacha tezligi ko‘paytmasining yarmiga teng yoki undan kichik bo‘lishi kerak.

2–hol. Bitta mashinadagi bitta nosozlikni bartaraf etishga sarflanadigan umumiy o‘rtacha vaqt $\bar{t}_u$ ruxsat etiladigan eng katta vaqt $[T_u]$ qiymatiga teng yoki undan kichik bo‘lishi lozim, ya’ni

$$\bar{t}_u \le [T_u]. \tag{11}$$

Bu holda $\bar{t}_T + \frac{2\bar{L}}{\bar{V}_u} + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n \le [T_u]$ yoki $\bar{L} \le 0{,}5\bar{V}_u\left\{[T_u] - \left(\bar{t}_T + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n\right)\right\}$. (12)

Ta’rif: bitta mashinadagi bitta nosozlikni bartaraf etishga sarflanadigan umumiy o‘rtacha vaqt ruxsat etiladigan eng katta vaqtga teng yoki undan kichik bo‘lishi uchun servis markazi bilan OFY MTPlari orasidagi o‘rtacha yo‘l masofasi ruxsat etiladigan va joriy vaqtlar ayirmasi bilan servis avtomashinasining o‘rtacha tezligi ko‘paytmasining yarmiga teng yoki undan kichik

bo‘lishi kerak.

3–hol. Dala ishlari mavsumi avjiga chiqqan davrda buzilib qolgan mashina tuzatishga navbat kutmasligi lozim. Aks holda mashina ado etayotgan agrotadbir sifatili bajarilmaydi. Mazkur talabni quyidagi tengsizlik qanoatlantiradi:

$$\bar{t}_u < \bar{\tau}, \tag{13}$$

bu yerda $\bar{\tau}$ –xududning aniq agrotadbirda (shudgorlash yoki g‘alla o‘rimida) qatnashayotgan mashinalarida ketma-ket sodir bo‘lgan ikkita nosozlik orasidagi vaqt qiymatining matematik kutilishi.

$$\bar{t}_T + \frac{2\bar{L}}{\bar{V}_u} + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n < \bar{\tau}, \text{ bu holda } \quad \bar{L} < 0{,}5\bar{V}_u[\bar{\tau} - (\bar{t}_T + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n)]. \tag{14}$$

Ta’rif: bitta mashinadagi bitta nosozlikni bartaraf etishga sarflanadigan umumiy o‘rtacha vaqt mashinlarda ketma-ket sodir bo‘lgan ikkita nosozlik orasidagi vaqt qiymatining matematik kutilishidan kichik bo‘lishi uchun servis markazi bilan OFY MTPlari orasidagi o‘rtacha yo‘l masofasi ta’kidlangan matematik kutilish va joriy vaqtlar ayirmasi bilan servis avtomashinasining o‘rtacha tezligi ko‘paytmasining yarmidan kichik bo‘lishi kerak.

4–hol. 14-ifoda ma’noga ega bo‘lishi uchun $\bar{\tau} - (\bar{t}_T + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n) > 0$ tengsizlik bajarilishi lozim. Bundan

$$\bar{t}_n < \bar{\tau} - (\bar{t}_T + \bar{t}_{ye}). \tag{15}$$

Ta’rif: servis avtomashinasining mexanigi dalada buzilib qolgan bitta mashinadagi bitta nosozlikni joyida bartaraf etishi uchun ko‘pi bilan mashinalarda ketma-ket sodir bo‘lgan ikkita nosozlik orasidagi vaqt qiymatining matematik kutilishi va operatorning talabi servis markazga tushguncha ketgan hamda servis avtomashinasining OFY markazidan nosoz mashina oldiga yetib borishga sarflagan vaqtlari yig‘indisi orasidagi ayirmaga teng kattalikdagi vaqt sarflashga haqlidir, xolos.

15-tengsizlik bajarilganda buzilgan mashinalar tuzatish uchun navbat kutmaydi. Servis markazining ratsional joylashish o‘rnini aniqlash uchun (12) tengsizlik muhimdir. 12-tengsizlikdagi $\bar{L}$ kattalik – bu ko‘chma ustaxonaning xizmat ko‘rsatish radiusidir, ya’ni

$$R_s < 0{,}5\bar{V}_u \left\{[T_u] - (\bar{t}_T + \bar{t}_{ye} + \bar{t}_n)\right\}. \tag{16}$$

Adabiyotladan ma’lum bo‘lgan xronometrik tadqiqotlardan $\bar{t}_T = 0{,}17$ soat, $\bar{t}_{ye} = 0{,}49$ soat, $\bar{t}_n = 0{,}88$ soat larni qabul qilamiz [5].

Bir qator xorijiy davlatlardagi dilerlik puntlarida bitta zamonaviy texnika vositasidagi bitta nosozlikni bartaraf etish uchun ko‘pi bilan 3 soat vaqt sarflashga ruxsat etiladi, ya’ni $\bar{t}_u = [\bar{T}_u] \le 3$ soat. Bu holda 16-ifodadan topamiz:

$$R_s \le 0{,}5 \cdot 55 \left[3 - (0{,}17 + 0{,}49 + 0{,}88)\right] \text{ yoki } \quad R_s \le 40 \text{ km}.$$

O‘tkazilgan hisoblashlardan servis markazlari parametrlarini hisoblashda $R_s = 40$ km deb qabul qilamiz.

Tadqiqot natijalari. Qoraqalpog‘istonning janubiy hududidagi barcha servis iste’molchilari (fermer xo‘jaliklari, agroklasterlar, “Agroservis MTP” va boshqalar) balansidagi har hil turdagi murakkab mashinalar (masalan: traktorlar, g‘alla va ozuqa kombaynlari, paxta terish mashinalari, pnevmatik seyalkalar)ga texnik xizmat ko‘rsatuvchi universal servis markazining ratsional joylashish o‘rinlarini quyidagi tartibda aniqlaymiz [5].

1) hisob-kitobni Qoraqalpog‘istoning janubiy hududidagi Amudaryo tumani uchun bajaramiz;


2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining ma’lumotlariga ko‘ra

Amudaryo tumanidagi jami qishloq xo‘jaligi texnikalarining sonlarini yozib olamiz. Hududdagi klasterlar bo‘yicha - 70 dona. Tumanning ma’muriy kartasidagi barcha OFYlarning geografik m_1 – m_{15} markazlarini (tumanning “og‘irlik markazini”) belgilaymiz (1-rasm).

Geografik markazi quyidagi OFYda yoki uning atrofida joylashadi.

m_1 – Durman OFY, m_2 – Xolimbek OFY, m_3 – Buzyon OFY, m_4 – Qilichbay OFY, m_5 – Xitoy OFY, m_6 – Qo‘sh Ko‘pir OFY, m_7 – O‘rtaqal’a OFY, m_8 – Bobur OFY, m_9 – Oq-oltin OFY, m_{10} – Amir Temur OFY, m_{11} – To‘lqin OFY,m_{12} – Chaykul OFY, m_{13} – Qanli OFY, m_{14} – Qipchoq OFY, m_{15} – Nazarxan OFY.

Amudaryo tumanining m_1 - m_{15}, nuqtalarning koordinatalari (x_1, u_1) dan (x_{15}, u_{15})gacha qiymatlarini 1-rasmdagi kartadan 1:25 000 (1 cm = 2,5 km) masshtabni hisobga olgan holda o‘lchab aniqlaymiz.



1-rasm. Amudaryo tumani geografik markazlarining x_10u_1 koordinatasi sistemasiga nisbatan joylashish o‘rni

OFYlar kesimida texnika vositalarining sonlari m_1 – m_{15} va OFYlar markazlari koordinatalarining aniqlangan qiymatlarini 1-jadvalga kiritamiz.

1-jadval

Amudaryo tumanidagi OFYlardagi qishloq xo‘jaligi texnikalarining sonlari va OFY markazlarining koordinatalari


OFYlar	m_i, dona	x_i, mm	u_i, mm
Durmon	6	68	38
Xolimbek	3	33	67
Buzyop	5	118	58
Qilichboy	4	67	65
Xitoy	6	90	89
Qo‘shko‘pir	4	120	82
O‘rtaqal’a	4	70	104

Bobur	6	116	118
Oq-oltin	7	116	146
Amir Temur	4	67	155
To‘lqin	4	92	177
Chayko‘l	4	72	178
Qangli	6	48	215
Qipchoq	4	135	445
Nazarxan	3	12	550

1-jadvaldagi raqamlardan foydalanib X_S va Y_S koordinatalar qiymatlarini hisoblab topamiz:

$$X_c = \left(\sum_{i=1}^{15} X_i\right) : 70 = (6\cdot 68 + 3\cdot 33 + 5\cdot 118 + 4\cdot 67 + 6\cdot 90 + 4\cdot 120 +$$
$$+4\cdot 70 + 6\cdot 116 + 7\cdot 116 + 4\cdot 67 + 4\cdot 92 + 4\cdot 72 + 6\cdot 48 + 4\cdot 135 + 3\cdot 12) :$$
$$: (6+3+5+4+6+4+4+6+7+4+4+4+6+4+3) = (408+99+$$
$$+590+268+540+480+280+696+812+268+368+288+288+$$
$$+540+36) : 70 = 5961 : 70 = 85{,}15 \approx 85mm.$$
$$Y_c = \left(\sum_{i=1}^{15} Y_i\right) : 70 = (6\cdot 38 + 3\cdot 67 + 5\cdot 58 + 4\cdot 65 + 6\cdot 89 + 4\cdot 82 + 4\cdot 104 +$$
$$+6\cdot 118 + 7\cdot 146 + 4\cdot 155 + 4\cdot 177 + 4\cdot 178 + 6\cdot 215 + 4\cdot 445 + 3\cdot 550) :$$
$$: (6+3+5+4+6+4+4+6+7+4+4+4+6+4+3) = (228+201+290+$$
$$+260+534+328+416+708+1022+620+708+712+1290+1780+1650) :$$
$$: 70 = 10747 : 70 = 153{,}52 \approx 154mm.$$

Servis markazining aniqlangan koordinatalar nuqtasi bilan OFYlarning geografik markazlari orasidagi masofalar kilometr hisobida 2-rasmda keltirilgan. Rasmdan ma’lum bo‘lyaptiki, m_1 – m_{15} OFYlari va servis markazining orasidagi masofalar 5-27 km diapazonda ya’ni R_s = 40 km radiusli doira ichkarisida yotadi.



2-rasm. Universal servis markazining joylashish o‘rni va tumanning geografik markazlari orasidagi masofalar

m_1 – Durman OFY – 27 km;
m_2 – Xolimbek OFY – 24 km;
m_3 – Buzyon OFY – 22 km;
m_4 – Qilichbay OFY – 21 km;
m_5 – Xitoy OFY – 15 km;
m_6 – Ko‘sh Kupir OFY – 18 km;
m_7 – Urtaqal’a OFY – 14 km;
m_8 – Bobur OFY – 10 km;
m_9 – Oq-oltin OFY – 5 km;
m_{10} – Amir Temur OFY – 7 km;
m_{11} – Tulqin OFY - 2.5 km;
m_{12} – Chaykul OFY – 6 km;
m_{13} – Qanli OFY – 15 km;
m_{14} – Qipchoq OFY – 12 km;
m_{15} – Nazarxan OFY – 21 km;

Demak, mazkur tumanning servis markazini tashkil etish va uni Amudaryo tumani To‘lqin OFYda joylashtirish kutilgan samarani beradi.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqat natijalari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Amudaryo tumanidagi agroklaster, fermer xo‘jaliklarida mavjud texnikalarning hamda OFY sonlariga bog‘liq holda universal servis markazining ratsional joylashish o‘rnini To‘lqin OFYda joylashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi, sababi ushbu o‘rinda joylashganida tumandagi barcha agroklaster va fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini 40 km radius ichida qamrab olinadi.

ADABIYOTLAR

1. Toshboltayev M., Rustamov R., Qobulov M. Qishloq xo‘jaligida hududiy firmaviy texnik servis tizimi. – Toshkent: Fan, 2007. – 182 b.

2. Toshboltayev M., Seytimbetova Z. Universal servis markazining ratsional joylashish va funksiyalash parametrlarini asoslash. Monografiya. -T.: “Fan va texnologiya”. 2019. – 150 b.

3. Artiqbayev.B.P., Primbetov.A.Yu. Qoraqalpogistonning janubiy hududida joylashgan agroklasterlar uchun mashinalar tarkibi va hududiy texnik servis tizimini asoslashga doir // Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash. Ilim va innovatsiya: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ma’ruzalar to‘plami. 1- qism. 25-26 – aprel 2024. – Farg‘ona: Farg‘ona politexnika instituti. – 2024. – B. 69 - 72.

4. Artiqbayev.B.P., Primbetov.A.Yu., Orinbayeva.S.M. Qoraqalpog‘iston Respublikasining Janubiy xududida joylashgan agroklasterlar uchun texnik xizmat ko‘rsatuvchi servis markazlarini joylashish orinlarini aniqlash // Yuqori samarali qishloq mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. – 2024. – Gulbahor: QXMITI. – 2024. – B. 451 -458.

5. Toshboltayev M., Rustamov R., Seytimbetova Z. Qishloq xo‘jalik mashinalariga firmaviy texnik servis ko‘rsatish tizimining matematik va statistik modellari. – Toshkent: Fan, 2011. – 156 b.

6. Toshboltayev M., Rustamov R., Kabulov M., Seytimbetova Z. Firmaviy texnik servis markazi ko‘chma ustaxonasining matematik modellarini asoslash // Qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. 1- qism. 25-26 – noyabr 2009. – Toshkent: TIMI. – 2009. – B.13 -16.

7. Toshboltayev M., Rustamov R., Kabulov M., Seytimbetova Z. Servis markazi va tuman mashina – traktor parklari orasidagi masofa qiymatini optimallashtirish modellari //Qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash muammolari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma’ruzalar to‘plami. 1- qism. 25-26 – noyabr 2009 y. – Toshkent: TIMI. – 2009 y. – B. 60-63.

UO‘T 621.182.56:7.025.2:62-233.27

QISHLOQ XO‘JALIK TEXNIKASI DUMALASH PODSHIPNIGI ELEMENTLARI VA ABRAZIV ZARRACHA ORASIDAGI ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI NAZARIY BAHOLASH

Shoobidov Sh.A.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, t.f.d., prof.

Mirzayev Q.Q.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, t.f.d.

Mamasobirov U.M.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Jumaboyev B.R.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

Annotasiya. Maqolada dumalash podshipniklarining ichki, tashqi halqalari, shariklari va abraziv zarrachalar o‘rtasidagi ishqalanish koeffitsiyenti yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi abraziv zarrachaning eng katta o‘lchamiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi bo‘yicha nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Ishqalanish koeffitsiyentining ortishi yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi abraziv zarrachalarning eng katta o‘lchamining ortishiga olib kelishi aniqlangan.

Аннотация. В статье приведены результаты теоретических исследований по существенную влиянию коэффициента трения между внутренним и наружным кольцами, шариками и абразивными частицами подшипников качения на наибольший размер абразивной частицы, участвующей в процессе изнашивания. Установлено, что увеличение коэффициента трения приводит к увеличению наибольшего размера абразивной частицы, участвующей в процессе изнашивания.

Annotation. The article presents the results of theoretical studies on the significant influence of the friction coefficient between the inner and outer rings, balls and abrasive particles of rolling bearings on the largest size of an abrasive particle participating in the wear process. It is established that an increase in the friction coefficient leads to an increase in the largest size of an abrasive particle participating in the wear process.

Ma’lumki, mashina agregatlarining dumalash podshipniklari yuqori yuklamada, katta aylanishlar chastotasida va yuqori konsentratsiyaga ega bo‘lgan abrazivli muhitda ishlaydi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, ishlatish sharoitida 79,4% dumalash podshipniklari abraziv yeyilish natijasida ishdan chiqadi.

Abraziv yeyilish natijasida podshipniklarning barcha elementlari jadal yeyiladi, ularning geometrik shakli va o‘lchamlari o‘zgaradi. Bu o‘z navbatida podshipnikdagi radial va o‘q bo‘yicha yo‘nalgan tirqishlarning me’yor darajasidan oshib ketishi va podshipniklarning yaroqsiz holatga kelishini tezlashtiradi [1, 2, 4-7]. Abraziv yeyilish ko‘proq tuproq va chang kirib qolishidan yetarli darajada himoya qilinmagan ko‘mir transportyorlarining, qishloq xo‘jalik mashinalarining va boshqa yuqori changlik sharoitda foydalaniladigan mashina agregatlarining podshipniklarida kuzatilgan.

Ishqalanish va yeyilishning molekulyar-mexanik nazariyasiga muvofiq abraziv muhitda ishlovchi mashina detallarining ishqalanish sirtlarining qayta deformatsiyalanishi natijasida ularning yeyilishi sodir bo‘ladi [1-5]. Bunda yeyilish tezligi moydagi abraziv zarrachaning miqdoriga, o‘lchamiga, mustahkamligiga, ishqalanish sirti materialining mexanik xususiyatlari

(qattiqligi, nisbiy uzayish koeffitsienti)ga, tutashuv sirtlarining geometrik, kinematik va dinamik parametrlariga bog‘liq.

Dumalash podshipnigi elementlarining yeyilishi quyidagicha sodir bo‘ladi. Shar shakliga ega bo‘lgan abraziv zarracha ishqalanish sirtlarining ponasimon tirqishiga kirib, ishqalanish kuchi ta’sirida tutashuv sirti tomon siljiy boshlaydi, bunda abraziv zarrachaga ta’sir etuvchi siquvchi normal yuklamaning miqdori oshib boradi va u yuklamaning ortishiga bog‘liq bo‘lgan holda ishqalanish sirtiga botish chuqurligi ham ortib boradi. Abraziv zarracha ishqalanish sirtiga ma’lum chuqurlikka botganda normal yuklamaning yanada oshuvi abraziv zarrachani bo‘laklanib ketishiga olib keladi. I.V. Kragelskiyning ta’kidlashicha, abraziv zarrachaning ponasimon tirqishda qayta bo‘laklanishi 7 martagacha sodir bo‘lishi mumkin [1, 4, 6, 7].

Shunday qilib, abraziv zarracha ponasimon tirqishda bo‘laklanib ketgunga qadar uni ishqalanish sirtlarida siljish bilan birgalikda ularga ta’sir etuvchi normal kuch bilan dastlab elastik, so‘ng esa plastik deformatsiyalaydi. Ishqalanishning molekulyar-mexanik nazariyasiga muvofiq [2, 5, 6], ishqalanish sirtining abraziv zarrachalar bilan yeyilishi deformatsiyalangan sirtni bir necha marta qayta deformatsiyalanishi natijasida yeyilish mahsulotlari hosil bo‘ladi. Shu nuqtai-nazardan elastik deformatsiyalanish zonasida yeyilish mahsulotlarining ajralib chiqish sikllari soni plastik deformatsiyaga qaraganda juda katta, shuning uchun ham elastik deformatsiya natijasida sodir bo‘lgan yeyilishni hisobga olmaymiz.

Abraziv zarracha tomonidan ishqalanish sirtining deformatsiyalanishi, uni ishqalanish sirtiga o‘rnashib qolish ehtimoliga, uning qiymatlari esa ishqalanish sirti materialining qattiqligiga bog‘liq.

Dumalash podshipniklarining ichki, tashqi halqalari, shariklari va abraziv zarrachalar o‘rtasidagi ishqalanish koeffitsiyenti yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi abraziv zarrachaning eng katta o‘lchamiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ishqalanish koeffitsiyentining ortishi yeyilish jarayonida ishtirok etuvchi abraziv zarrachalarning eng katta o‘lchamining ortishiga olib keladi
[2, 3, 8]. Ushbu muammoni yechishda tishli uzatmalar uchun A.Irgashev tomonidan taklif etilgan ketma-ketlikdan foydalanamiz.

Ichki halqa ishqalanish yuzasiga yopishgan abraziv zarrachalarning umumiy hajmini aniqlaymiz:

$$V = 0{,}0548 d_{o'r} \varepsilon_k \beta_i^{ich} d_{sh} \left[d_{1k} + d_{sh} \left(1 - \cos \beta_i^{ich} \right) \right]. \quad (1)$$

Ichki halqa novi sirtida joylashgan abraziv zarrachalarning umumiy soni

$$n_{um} = \frac{0{,}1047 \varepsilon_k}{d_{eh}^2} \beta_i^{ich} d_{sh} \left[d_{1k} + d_{sh} \left(1 - \cos \beta_i^{sh} \right) \right] \quad (2)$$

Dumalash podshipnigidan normal ishlatish sharoitida foydalanilganda, moylovchi materialga tushgan abraziv zarracha moyning to‘liq hajmi bo‘yicha tekis tarqalishiga asoslanib, podshipnik ichki (tashqi) halqasi novining aylanasi (n_{xi}) va qamrov yoyi (n_{yoi}) uzunligi bo‘yicha joylashgan abraziv zarrachalar miqdorini aniqlash uchun quyidagi tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\begin{cases} n_{xi} \cdot n_{yoi} = n_{um}, \\ \dfrac{n_{xi}}{n_{yoi}} = \dfrac{l_{ichi}}{l_{yoi}}, \end{cases} \quad (3)$$

bunda, l_{ichi}, l_{yoi} - podshipnik ichki halqasi novi bilan sharik tutashuv yoyining uzunligi. Tenglamalar sistemasi (3)ni n_{xi} va n_{yoi} ga nisbatan yechib quyidagilarni hosil qilamiz:

$$n_{xi} = \frac{4{,}34 \varepsilon_k^{1/2}}{d_{o'r}} \left[d_{ichi} + d_{sh} \left(1 - \cos \beta_i^{ich} \right) \right], \quad (4)$$

$$n_{yoi} = \frac{0{,}24\varepsilon_k^{1/2}}{d_{o'r}} \beta_i^{ich} d_{sh}. \quad (5)$$

bunda ε_k -moydagi faol abraziv zarrachalarning miqdori.

Abraziv zarrachaning elastik tutashuv zonasida ponasimon tirqishdagi yo‘lining uzunligi:

$$s_{ui}^{ich} = \left(\frac{d_{ichi} h_{kr}}{2} - h_{kr}^2 \right)^{1/2}.$$

Designing efficient biomass supply chains is a highly complex process. Biomass production is seasonal and location-specific, directly influenced by biophysical, climatic, and socio-economic environments. Therefore, the availability of biomass can vary across periods, years, and locations. Furthermore, in most cases, biomass is highly perishable, and pre-processing and storage can be crucial stages for the quality of the final products. Different pre-treatment and conversion technologies can be used to process different types of biomass to produce various final bio-based products. The quantity and quality of the final bio-based products produced depend not only on the technology but also on the scale of conversion. Important sources of biomass are product residues and waste from the food industry; in other words, one man's waste is another man's raw material. Decisions in other industries (e.g., agriculture, food processing) can affect the availability and quality of biomass, which can have direct consequences on machine downtime and available resources. To design an efficient biomass supply chain, all these decisions must be optimized simultaneously, taking into account all these specific characteristics of biomass supply chains. The aim of much research is to increase the economic and environmental efficiency of existing biomass supply chains using different optimization models.

As a result, the use of existing pre-treatment, conversion, and storage facilities in the value chain can be optimized. In optimization models, economic and environmental outcomes should be quantitatively assessed before implementation. Such an assessment requires advanced decision support models. Many models have been developed to optimize decisions in the biomass supply chain (e.g., [8-15]), but there are very few studies that focus on the optimal use of existing equipment and resources.

Increasing Efficiency in Biomass Supply Chains

Studies focused on increasing efficiency in biomass supply chains. Biomass is not only used as a resource for bioenergy production; it is also used for the production of other bio-based products such as food, feed, bioplastics, and chemicals [16]. Due to the global scarcity of agricultural land and the increasing demand for bio-based products, biomass use must be optimized to its full potential. One way to achieve this is to redesign biomass supply chains to improve their economic and environmental performance. Redesigning a biomass supply chain is a complex process. First and foremost, the biomass supply chain for bioenergy production consists of five general system components: (I) biomass harvesting and collection, (II) pre-treatment, (III) storage, (IV) transportation, and (V) energy. It is necessary to determine where,

when, and how these interrelated processes take place. Therefore, systematic thinking is required from a supply chain management perspective. It plays an important role in the management of bio-based production processes [5].

Secondly, a wide variety of bio-based products can be produced from various types of biomass with different treatment technologies, which adds further complexity to the biomass supply chain. In addition to specially cultivated new non-food crops and residues from traditional food crops, there are also tertiary residues, known as post-consumer biomass products, that can be used to produce bio-based products [17]. The system becomes highly complex due to the wide variety of biomass inputs, pretreatments, processing options, and bio-based product outputs. Thirdly, the availability of biomass feedstocks depends on the harvest season of the crop [10]. Seasonality leads to intermittent use of the equipment required for biomass processing. [18]. If biomass processing is carried out throughout the year to avoid low-capacity utilization, large amounts of biomass must be stored for long periods, resulting in significant storage costs. This further increases the complexity of biomass processing planning.

The reviewed literature addresses the question of how biomass supply chains can be organized cost-effectively to collect, process, and transport existing biomass to a specific biorefinery facility [19-22]. As noted by Iakovou et al. [22], one of the most significant bottlenecks in increasing biomass utilization is the cost of logistics operations. In their work, they refer specifically to biomass use for energy production. However, such a bottleneck issue can be considered valid for any other biorefinery output as well.

Hong et al. [23] Address the topic of sustainable biomass supply chains from a supply chain management perspective. In this study, sustainable biomass supply chains or supply chain networks are considered as an operational management method and optimization approach to reduce environmental impacts and production costs throughout the entire life cycle of biological products, from raw materials to the final product. Hong, How, and Lam [23] emphasized that a sustainable biomass supply chain should not only focus on efficient transportation but also on conserving the mass and energy used in processes and the possibility of utilizing multiple biomass sources. In the same study, the concept of industrial symbiosis is discussed in conjunction with a multi-purpose network synthesis of environmental, technical, economic, safety, and social factors.

Lautala et al. [24] introduced the concept of advanced feedstock supply systems, namely versatile pre-treatment depots capable of utilizing multiple types of biomass. Typical pre-processing operations in such storage facilities may include particle size reduction, moisture reduction, densification and blending, partial pre-processing, and even separation into intermediate products such as oil, sugar or coal. Biomass emerges from these facilities as a commodity feedstock with a stable, dense, fluid, and well-defined material specification.

Similarly, Eranki et al. [25] introduce the concept of advanced regional biomass processing depots. Using an advanced model, it produces intermediate products and outputs beyond biochemical and thermochemical biofuel production, including higher-value animal feeds, nutraceuticals, and biocomposite materials, thereby leveraging the capital and expertise of these established industries. Furthermore, Eranki, Bals, and Dale [25] proposed a specialised or enhanced model: facilities utilising specialised technologies primarily dependent on regional feedstock availability and biomass characteristics, as well as facilities based on synergies between these technologies. Considering the characteristics of regional biomass availability and technology synergies, these two enhanced models may be considered similar.

A similar approach has been developed by Bals and Dale [26]: local biomass processing depots. To overcome the challenges posed by biomass as a bulky, heterogeneous, difficult-to-transport and perishable product, they propose establishing a network of regional or local

biomass processing depots. The biomass supplied to the depots can be homogenized, processed, and concentrated at the rural (local) level before being sent to a biorefinery to be converted into final bio-products such as fuels and chemicals. Campbell [27] defines his model as a concept for processing regionally specific biomass flows into concentrated, stable and transportable products. Campbell defined the following functions for a model: (i) purchasing biomass from farmers/growers, (ii) short-term storage, (iii) separation and cleaning, (iv) biomass pre-treatment, and (v) concentration (e.g., palletisation).

In another study, alternative options and configurations for biomass supply systems for the US cellulosic biofuel industry were investigated [28, 29]. The authors concluded that decentralized biomass processing plants or depots may be necessary to achieve lower raw material costs while ensuring the required quantity and quality. There are two types of storage facilities. The primary function of a standard storage facility is to improve raw material stability (for storage), bulk density (for transport), and flowability (for consistent feed rates) while reducing material losses. In contrast, a quality storage facility actively addresses raw material quality elements specific to its target market. It produces advanced feedstock (with lower contamination levels) or even process intermediates, thereby reducing pre-treatment requirements at the customer's facility. Different pre-treatment steps (thermal/chemical pre-treatment) are possible in advanced storage facilities to meet demand in the final markets.

We introduce the Annevelink [30] biomass depot as a logistics concept where different types of biomass from various supply sectors are collected in one place for pre-processing. In the biomass sector, biomass suppliers and collectors collaborate with bio-based processing industries to organize efficient regional biomass collection. Where necessary, biomass undergoes pre-processing into a specific bio-material for further bio-based industrial processing. The function of the biomass depot is to improve the biomass (residues) value chain. To achieve this, the biomass depot has various technical/operational tasks related to the sustainable collection of multiple streams, regional buffering, pre-processing and concentration, and transport to market sales points.

The regional agricultural chamber of Styria (Landwirtschaftskammer Steiermark) in Austria has established the “Biomassehof” as a regional service centre for solid biofuels [31]. The Biomassehof was jointly developed by a group of farmers in 2011 as part of the Biomass Trade Centre project (2009–2011). This group of farmers is responsible for operations related to the processing of woody biomass and its conversion into solid biofuel. The centre's objective is to supply locally grown woody biomass to the bioenergy market and to guarantee the quality standards of both products and services in the market.

In addition to the aforementioned European studies, there are also noteworthy studies in the United States. For example, Perlack et al. [32] conducted an in-depth analysis of biomass resources in the US context, while Langholtz et al. [33] discussed the benefits of CO_2 emissions avoided by replacing fossil fuels with biofuels. Furthermore, Lautala, Hilliard, Webb, Busch, Hess, Roni, Hilbert, Handler, Bittencourt, and Valente [24] developed a biofuel infrastructure, logistics, and transportation model to calculate the optimal locations for multiple biorefineries.

Based on previous research, this article has been prepared to take a step towards developing models that optimise resource use in a biomass supply chain. One of the most important links in the supply chain is considering the necessary investment cost and 10-year depreciation period before purchasing a machine. If the size of the business's land exceeds 100 hectares, the decision to purchase machinery should be made by assessing the economic value of the pruned residues.

Pruning: pruning refers to the act of removing the top or unwanted branches of fruit trees. It is usually carried out annually or every two years by farmers to maintain the desired tree

shape and structure, remove diseased, dead or dying branches, and increase the productivity of fruit trees. Agricultural pruning refers to the branches cut during pruning activities.




Figure 1. Main logistics operations in supply chains

Biomass Harvesting: Logistical activities during the harvesting phase include preparing harvesting equipment/machinery and collecting (harvesting) the biomass. Pruning and harvesting activities can be integrated with chipping or baling. Chipping is the process of converting pruned wood into wood chips that can be used as solid biomass fuel.

Storage: The storage of biomass is one of the main challenges in biomass logistics and handling, as it is related to seasonal variability and the cost of logistics operations. Biomass storage should be positioned and designed in a way that can increase overall system efficiency. It is recommended that pruned biomass be used within 6-12 months, which leads to a reduction in greenhouse gas (GHG) emissions associated with long-term storage.

Biomass Transport Activities: Biomass transport includes primary (on-farm) haulage and main haulage from the farm to the required destination (storage or power plant). Primary transport involves moving collected and/or crushed biomass to on-site storage or roadside locations. Suitable vehicles can be determined based on the average distance, biomass density, vehicle capacity and speed, and vehicle availability. On-farm transport is usually carried out by tractors. Transport to intermediate storage and/or a power plant site is mainly carried out by lorries.

Biomass Pre-Treatment Activities: Biomass pre-treatment, processing and treatment, drying and cleaning, separation, blending, grading and increasing bulk density (processing into wood chips and bales); crushing; palletization and pyrolysis. Pre-treatment significantly affects the logistical performance of biomass energy chains.

Conceptual equivalent of influential people in the biomass procurement process.

In this study has demonstrated that the biomass supply chain offers economic, social, and environmental benefits, as well as opportunities to enhance the implementation and sustainability of the system. If fruit plantation residues are collected appropriately and converted into biofuel, they can serve as a significant energy source. Although the amount varies for different fruit trees and locations, the potential pre-harvest pruning amount is estimated at 1-3 tons per hectare (50% moisture content). The one-way transport distance between the orchard and the power plant is calculated to be 2-60 km. Whether the biomass consists of stems, branches, or roots entails additional transport costs. All equipment used in the supply chain is rented by the orchard

owners. Orchard residues are generally provided to traders free of charge. A loss of 10-18% has been observed during the process from the orchard to the power plant.




Figure 2. Conceptual equivalent of influential people in the biomass procurement process

Conclusion

This study, major actors such as farmers, traders, and transporters; service providers (for processes such as chipping and baling); relevant experts; and end users of biomass have been identified as the target audience. The supply chain, from pruning fruit trees to the final consumption, has been addressed with a focus on harvesting, storage, and transport activities. It is intended to serve as a dataset for policymakers, decision-makers, subject matter experts, and researchers.

REFERENCES

1. Lambin, E.F.; Meyfroidt, P. Global land use change, economic globalization, and the looming land scarcity. Proc. Natl. Acad. Sci. USA 2011, 108, 3465–3472.
2. Jones, G.A.; Warner, K.J. The 21st century population-energy-climate nexus. Energy Policy 2016, 93, 206–212.
3. Shafiee, S.; Topal, E. When will fossil fuel reserves be diminished Energy Policy 2009, 37, 181–189.
4. Bolin, B.; Jäger, J.; Döös, B.R. The Greenhouse Effect, Climatic Change, and Ecosystems; John Wiley & Sons Ltd.: Stockholm, Sweden, 1985
5. Mafakheri, F.; Nasiri, F. Modeling of biomass-to-energy supply chain operations: Applications, challenges and research directions. Energy Policy 2014, 67, 116–126.
6. McKendry, P. Energy production from biomass (part 1): Overview of biomass. Bioresour. Technol. 2002, 83, 37–46.
7. Ba, B.H.; Prins, C.; Prodhon, C. Models for optimization and performance evaluation of biomass supply chains: An Operations Research perspective. Renew. Energy 2016, 87, 977–989.
8. Atashbar, N.Z.; Labadie, N.; Prins, C. Modeling and optimization of biomass supply chains: A review and a critical look. IFAC PapersOnLine 2016, 49, 604–615.
9. Cambero, C.; Sowlati, T. Assessment and optimization of forest biomass supply chains from economic, social and environmental perspectives—A review of literature. Renew. Sustain. Energy Rev. 2014, 36, 62–73.
10. De Meyer, A.; Cattrysse, D.; Rasinmäki, J.; Van Orshoven, J. Methods to optimise the design and management of biomass-for-bioenergy supply chains: A review. Renew. Sustain.

Energy Rev. 2014, 31, 657–670.

11. Gargalo, C.L.; Carvalho, A.; Gernaey, K.V.; Sin, G. Optimal design and planning of glycerol-based biorefinery supply chains under uncertainty. Ind. Eng. Chem. Res. 2017, 56, 11870–11893.

12. Lee, M.; Cho, S.; Kim, J. A comprehensive model for design and analysis of bioethanol production and supply strategies from lignocellulosic biomass. Renew. Energy 2017, 112, 247–259.

13. Paulo, H.; Barbosa-Póvoa, A.P.F.; Relvas, S. Modeling integrated biorefinery supply chains. In Computer Aided Chemical Engineering; Elsevier: Amsterdam, The Netherlands, 2013; Volume 32, pp. 79–84.

14. Roni, M.S.; Thompson, D.N.; Hartley, D.S. Distributed biomass supply chain cost optimization to evaluate multiple feedstocks for a biorefinery. Appl. Energy 2019, 254, 113660.

15. Zhu, X.; Yao, Q. Logistics system design for biomass-to-bioenergy industry with multiple types of feedstocks. Bioresour. Technol. 2011,102, 10936–10945.

16. Annevelink, E.; Staritsky, I.; Krajnc, N.; Lammens, T.; Gonzalez, D.S.; Lenz, K.; Kühner, S.; Anttila, P.; Prinz, R.; Leduc, S. S2biom Survey of Logistical Concepts. 2016. Available online: https://scanr.enseignementsup-recherche.gouv.fr/publication/hal-01594510.

17. CIRCE. Summary of the Regional Situation, Biomass Resources and Priority Areas of Action in Spain; CIRCE-Research Centre for Energy Resources and Consumption: Zaragoza, Spain, 2014; Available online: https://www.sucellog.eu/images/Publications_and_Reports/D3.2a_Regional_situation_Resources_and_priority_areas_in_Spain_web.pdf

18. Balaman, Ş.Y.; Matopoulos, A.; Wright, D.G.; Scott, J. Integrated optimization of sustainable supply chains and transportation networks for multi technology bio-based production: A decision support system based on fuzzy ε-constraint method.J. Clean. Prod. 2018,172, 2594–2617.

19. Leão, R.R.d.C.C.; Hamacher, S.; Oliveira, F. Optimization of biodiesel supply chains based on small farmers: A case study in Brazil. Bioresour. Technol. 2011, 102, 8958–8963.

20. Panteli, A.; Giarola, S.; Shah, N. Supply chain mixed integer linear program model integrating a biorefining technology superstructure. Ind. Eng. Chem. Res. 2018, 57, 9849–9865.

21. Pérez-Fortes, M.; Laínez-Aguirre, J.M.; Arranz-Piera, P.; Velo, E.; Puigjaner, L. Design of regional and sustainable bio-based networks for electricity generation using a multi-objective MILP approach. Energy 2012, 44, 79–95

22. Iakovou, E.; Karagiannidis, A.; Vlachos, D.; Toka, A.; Malamakis, A. Waste biomass-to-energy supply chain management: A critical synthesis. Waste Manag. 2010, 30, 1860–1870.

23. Hong, B.H.; How, B.S.; Lam, H.L. Overview of sustainable biomass supply chain: From concept to modelling. Clean Technol. Environ. Policy 2016, 18, 2173–2194.

24. Lautala, P.T.; Hilliard, M.R.; Webb, E.; Busch, I.; Hess, J.R.; Roni, M.S.; Hilbert, J.; Handler, R.M.; Bittencourt, R.; Valente, A. Opportunities and challenges in the design and analysis of biomass supply chains. Environ. Manag. 2015, 56, 1397–1415.

25. Eranki, P.L.; Bals, B.D.; Dale, B.E. Advanced regional biomass processing depots: A key to the logistical challenges of the cellulosic biofuel industry. Biofuels Bioprod. Biorefining 2011, 5, 621–630.

26. Bals, B.D.; Dale, B.E. Developing a model for assessing biomass processing technologies within a local biomass processing depot. Bioresour. Technol. 2012, 106, 161–169.

27. Campbell, T. Local biomass processing depots for improved feedstock logistics and economics. In Proceedings of the the Idaho National Laboratory Biomass Workshop, Idaho Falls, ID, USA, 23 August 2011.

28. Lamers, P.; Roni, M.S.; Tumuluru, J.S.; Jacobson, J.J.; Cafferty, K.G.; Hansen, J.K.; Kenney, K.; Teymouri, F.; Bals, B. Techno-economic analysis of decentralized biomass processing depots. Bioresour. Technol. 2015, 194, 205–213.

29. Lamers, P.; Tan, E.C.; Searcy, E.M.; Scarlata, C.J.; Cafferty, K.G.; Jacobson, J.J. Strategic supply system design—A holistic evaluation of operational and production cost for a biorefinery supply chain. Biofuels Bioprod. Biorefining 2015, 9, 648–660.

30. Annevelink, E.; van Gogh, J.B.; van Dam, J.E.G.; van den Oever, M.J.A.; Bartels, P. Opportunities for the Implementation of the Biomass Yard Concept in the Greenport Betuwse Bloem (in Dutch); Report No. 1478; Wageningen Food & Biobased Research: Wageningen, The Netherlands, 2014; Available online:https://edepot.wur.nl/274587.

31. Loibnegger, T.; Metschina, C.; Solar, T. Regionale Biomassehöfe, 3 Schritte zu Einer Erfolgreichen Projectrealisierung; Landwirtschaftskammer Steiermark: Graz, Austria, 2010; Available online: http://www.google.nl/url?sa=t&rct=j&q=&esrc=s&source=web&cd=&ved=2ahUKEwiRta3g_5TtAhViMewKHQZQAAUQFjAAegQIAxAC&url=http%3A%2F%2Fwww.biomasstradecentre2.eu%2Fscripts%2Fdownload.php%3Ffile%3D%2Fdata%2Fpdf_vsebine%2Fliterature%2FBLTC_Biomasseh__fe.pdf&usg=AOvVaw1bEqM3mS5-NEYfsg0ylJkt

32. Perlack, R.D.; Eaton, L.M.; Turhollow, A.F., Jr.; Langholtz, M.H.; Brandt, C.C.; Downing, M.E.; Graham, R.L.; Wright, L.L.; Kavkewitz, J.M.; Shamey, A.M. US Billion-Ton Update: Biomass Supply for a Bioenergy and Bioproducts Industry; U.S. Department of Energy: Oak Ridge, TN, USA, 2011.

33. Langholtz, M.; Busch, I.; Kasturi, A.; Hilliard, M.R.; McFarlane, J.; Tsouris, C.; Mukherjee, S.; Omitaomu, O.A.; Kotikot, S.M.; Allen-Dumas, M.R. The Economic Accessibility of CO2 Sequestration through Bioenergy with Carbon Capture and Storage (BECCS) in the US. Land 2020, 9, 299.

UO‘T 621.43-72: 621.89

TRAKTORLAR MOTOR MOYINING RESURS TEJOVCHI XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

Igamberdiyev A.A.
Toshkent davlat texnika universiteti.

Hikmatilloyev A.A.
Toshkent davlat texnika universiteti.

Annotasiya. Maqolada traktorlarda qo‘llaniladigan motor moylarining resurs va energiya tejamkorlik xususiyatlarini baholash usuli taklif etilgan. Usul an’anaviy stend sinovlariga nisbatan soddaligi va amaliyotda qo‘llash imkoniyati bilan ajralib turadi. Moylarning qovushqoqlik-harorat ko‘rsatkichlari real ekspluatatsiya sharoitida aniqlanib, regressiya tenglamalari orqali ularning qoldiq resursi va energiya samaradorligi baholangan.

Аннотация. В статье предложен метод оценки ресурсо-и энергосберегающих свойств моторных масел, применяемых на тракторах. Метод отличается своей простотой и практическим применением по сравнению с традиционными стендовыми испытаниями. Определены вязкостно-температурные показатели масел в реальных условиях эксплуатации и оценены их остаточный ресурс и энергоэффективность с помощью уравнений регрессии.

Annotation. The article proposes a method for assessing the resource- and energy-saving properties of motor oils used in tractors. The method differs from traditional bench tests in its simplicity and practical application. The viscosity-temperature indicators of oils under real operating conditions were determined, and their residual life and energy efficiency were evaluated using regression equations.

Ma’lumki, kinematitk juftlarning bir biri bilan ishqalanishdagi yo‘qotishlar ko‘p jihatdan moyning qovushqoqligiga bog‘liq. Moyning qovushqoqligi nafaqat haroratga, balki motor detallari va mexanizmlarning ishlash rejimlariga, ya’ni moyning ishqalanish detallari yuzalarida moylash plyonkasi ichidagi qatlamlarining harakat tezligiga qarab o‘zgaradi.

Maxsus ishlab chiqariladigan energiya tejamkor motor moylari qalinlashtiruvchi qo‘shilmalar va ishqalanish modifikatorlari bilan ta’minlangan.

Hozirgi vaqtda yonilg‘i sarfini tejashga katta ahamiyat berilmoqda, shuning uchun yonilg‘ining yonishi natijasida hosil bo‘ladigan chiqindi gazlaridan ajralib chiqayotgan zararli va zaharli moddalarning chiqarilishini kamaytirish, shuning uchun motor moyining energiya tejamkor xossalarini baholash, foydalanishga tavsiya etiladigan moylarning ahamiyati juda katta [1-4].

Ushbu ilmiy tadqiqot issiq iqlim sharoitida ishlatiladigan traktorlar motor moyining energiya tejamkor xossalarini aniqlash usulini ishlab chiqishga bag‘ishlangan, bu usul boshqa qo‘llanilayotgan motor moylari uchun ham universal bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, motor moyning energiya tejamkorlik xossalarini aniqlash usuli, tadqiq qilinayotgan motor moylarida motorning stend sinovlari orqali amalga oshiriladi, bu usulda ishqalanishdan kelib chiqadigan mexanik yo‘qotishlar ham aniqlanadi. Ushbu jarayon mehnat talab qiladi va katta moddiy va mehnat xarajatlarini talab etadi.

Biz tomondan ishlab chiqilgan motor moylarining energiya tejamkor xossalarini baholash usuli nisbatan yetarli darajada sodda foydalanish uchun qulaydir. Bu usul bir qator traktorlarni haqiqiy ekspluatatsiya sharoitida o‘tkazilgan tajribalarga asoslangan. Usulning mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Traktorlarni tajriba sinovlari orqali 20°C dan 100°C gacha bo‘lgan haroratlar oralig‘ida motor moyining qovushqoqlik xossalarini aniqlash uchun o‘lchovlari o‘rnatiladi, motor moyining qovushqoqlik xossalari har 20°C oralig‘ida aniqlanadi va motor moylarining qovushqoqlik-harorat xossalarini ko‘rsatadigan grafik egri chiziqlari (1-rasmga qaralsin) quriladi (20°C dan 100°C gacha – dvigatel karteridagi motor moyining ish harorati shartli chegarasi).

2. Olingan grafik ma’lumotlar Microsoft excel dasturi yordamida statistik qayta ishlanib, bu esa tadqiq qilinayotgan (M10DM, M14DM va Texaco) va etalon (ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilgan) moylar uchun regressiya tenglamalarini aniqlash imkonini beradi.

$$Y^{e}tap = C_1t^3 + C_2t^2 + C_3t + C_4 = -0,0002t^3 + 0,0779t^2 - 8,6381t + 341,8 \quad (1)$$

$$Y^{(im(}M10DM)) = C_1t^3 + C_2t^2 + C_3t + C_4 = -0,0004t^3 + 0,1091t^2 - 9,8173t + 304,13 \quad (2)$$

$$Y^{(im(}M14DM)) = C_1t^3 + C_2t^2 + C_3t + C_4 = -0,0004t^3 + 0,109t^2 - 10,516t + 358,6 \quad (3)$$

$$Y^{(im(}Texaco)) = C_1t^3 + C_2t^2 + C_3t + C_4 = -0,0005t^3 + 0,1271t^2 - 11,522t + 362,13 \quad (4)$$

3. Ushbu bog’lanishlarni t_{20} dan t_{100} gacha integratsiya qilib, quyidagi ifodalarni olamiz:

- Etalon moy uchun:

$$U^{etal} = \int_{20}^{100}(-0,0002t^3 + 0,0779t^2 - 8,6381t + 341,8)dt; \quad (5)$$

- M10DM moyi uchun:

$$U^{im(M10DM)} = \int_{20}^{100}(-0,0004t^3 + 0,1091t^2 - 9,8173t + 304,13)dt; \quad (6)$$


- M14DM moyi uchun:

$$U^{im(M14DM)} = \int_{20}^{100}(-0,0004t^3 + 0,109t^2 - 10,516t + 358,6)dt; \quad (7)$$

- Texaco moyi uchun:

$$U^{im(Texaco)} = \int_{20}^{100}(-0,0005t^3 + 0,1271t^2 - 11,522t + 362,13)dt. \quad (8)$$

4. 20°C dan 100°C gacha bo‘lgan qurilgan grafikdagi egri chiziq kesimida *(Y = f(t))* funksiyasini ifodalovchi motor moylarining qoldiq resursini aniqlash uchun maydonni hisoblaymiz.



1-Rasm. Tadqiq qilinayotgan moylarning qovushqoqlik-harorat xossalari

Dastur ushbu bog‘lanishni quyidagi ko‘rinishda chiqaradi:

$$U(S_i) = X, \quad (9)$$

bunda X – mos keluvchi bog‘lanishlar *Y = f(t)* ni integratsiya qilish orqali qurilgan grafikdagi topilgan yegri chiziq ostidagi maydon.

5. Tadqiq etilgan motor moylarining energiya tejamkor xossalari koeffitsientini quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$K_{es} = \frac{S_u^{im}}{S_u^{em}} - 1 \quad (10)$$

Bunda $S_u^{im}/\ S_u^{em}$ = 1, to K_{es}= 0, ya’ni tadqiq etilayotgan motor moylarining energiya tejovchi xossalari etalon motor moyi bilan bir xil.

Agar $S_y^{im}/\ S_y^{yem} > 1$, bo‘lsa, unda $K_{yes} > 0$ yoki, $S_y^{im}/\ S_y^{yem} < 1$, to $K_{yes} < 0$ bu yesa tadqiq etilayotgan motor moyining etalon moyidan ko‘proq yoki kamroq energiya tejamkor xossalari borligini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan energiya tejamkor xossalarni baholash jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

$U^{etal} = 6659$; $U^{im\ (M10DM)} = 3299$;
$U^{im\ (M14DM)} = 4269$; $U^{im\ (Texaco)} = 5212$.

Shu bilan, quyidagi natijalarni olish mumkin:

$$K_{eS}^{M14DM} = \frac{4269}{6659} - 1 = 0,64 - 1 = -0,36$$

$$K_{eS}^{M14DM} = \frac{3299}{6659} - 1 = 0,50 - 1 = -0,50$$

$$K_{eS}^{M14DM} = \frac{5212}{6659} - 1 = 0,78 - 1 = -0,22$$

Xulosa

Traktorlarda qo‘llaniladigan motor moylarining energiya tejamkor xossalarini baholash uchun taklif etilgan usul an’anaviy stend sinovlariga nisbatan soddaligi va amaliyotda qo‘llash imkoniyati bilan ajralib turadi. Motor moylarining qovushqoqlik-harorat xossalari real ekspluatatsiya sharoitida aniqlanib, ular bo‘yicha qurilgan regressiya tenglamalari orqali moylarning qoldiq resursi va energiya samaradorligi aniqlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra:

Etalon moy bilan solishtirilganda M10DM moyining energiya tejamkorlik koeffitsienti 0,50; M14DM moyiniki 0,36; Texaco moyiniki esa 0,22 ni tashkil etgani qayd etildi.

Bu ko‘rsatkichlar Texaco moyining qovushqoqlik-harorat barqarorligi va energiya tejamkorlik jihatidan yuqoriroq ekanligini, lekin uning resursi etalon moyga nisbatan 22 % ga qisqarishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan baholash usuli issiq iqlim sharoitida ekspluatatsiya qilinadigan traktor motor moylarining energiya tejamkor xossalarini tezkor va aniq aniqlash imkonini beradi hamda amaliyotda qo‘llash uchun samarali metod sifatida tavsiya etilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Alimova, Z., & Shamansurov, B. (2022). Oxidation of motor oils during operation engines in military equipment. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(8), 97–103.

2. Alimova, Z. X., Abdurazaqov, A. A., & Ashurov, O. F. (2023). O‘ZBEKISTON IQLIM SHAROITINI MOTOR MOYLARINING ISHLASH JARAYONIGA TA’SIRI. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali.

3. Игамбердиев А.А. “Экспериментальные испытания фильтрующих элементов, изготовленных из металлического порошка” - практические аспекты развития науки и.., 2023

4. Игамбердиев А.А. “Анализ основных свойств масел и влияние их на эксплуатационные показатели двигателя” Mashinasozlikda materialshunoslik, payvandlab ishlab chiqarish, materiallar olish va ishlov berishning innovatsion texnologiyalarining dolzarb muammolari-2024 respublika ilmiy-texnik anjumani materiallar to‘plami 2024-yil 16 - 17 oktyabr.

UO‘T 631.3:620.92

MASHINALARDAGI BUZILISHLAR EHTIMOLI VA O‘Z VAQTIDA KO‘RSATILGAN TEXNIK XIZMATNING AHAMIYATI

Xudaykuliyev R.R.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot instituti, t.f.n., k.i.x.

Urinov A.P. M.T.
O'rozboev nomidagi Mehanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti

Kupaysinova X.A. M.T.
O'rozboev nomidagi Mehanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti

Annotasiya. Maqolada qishloq xo‘jaligi mashinalarining buzilish ehtimoli va ularga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan.

Аннотация. В статье анализируется вероятность поломок сельскохозяйственных машин и влияние своевременного технического обслуживания на экономическую эффективность.

Annotation. The article analyzes the probability of failures of agricultural machinery and the impact of timely maintenance on economic efficiency.

Rivojlangan davlatlardagi “Qishloq xo‘jaligi mashinalari tizimi”ga kiritilgan texnikalarga buzilishlar ehtimolidan kelib chiqib ko‘rsatiladigan texnik xizmatlarni tahlil qilganimizda o‘z vaqtida ko‘rsatilgan texnik xizmat natijasida erishiladigan iqtisodiy samaradorlik sof foydaning kattagina qismini tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari qator mamlakatlarning asosiy iqtisodiy samaradorligi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga sotishdan olinadi. Shu jumladan O‘zbekistonda ham qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan maxsulotlarni sotishdan hosil bo‘ladigan daromadlar mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shadi.

O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi tizimida 2021-yildan boshlab katta o‘zgarishlar ro‘y berishiga turtki bo‘lgan topshiriq Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan qishloq xo‘jaligida klaster xo‘jaliklarini tashkil etishni yanada jadallashtirish bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalardir. Ushbu jarayonni amalga oshirilishi soha mutaxassislari zimmasiga katta mas’uliyatlar yukladi.

Bundan asosiy maqsad qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarni joyida qayta ishlash orqali yangi ish o‘rinlarini barpo etish va qo‘shimcha daromad olish imkonini yaratish ekanligini anglab olish qiyin emas. Demak qishloq xo‘jaligidagi sof foydani oshirishimiz uchun tizimdagi barcha imkoniyatlardan to‘laligicha foydalanishimiz talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan ekinlarni o‘z vaqtida ekish, parvarishlash va hosilni nes-nobud qilmasdan yig‘ishtirib olish sohada mavjud bo‘lgan texnikalar bazasining soni va sifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Mavjud texnikalarni mavsum oldidan shay holatga olib kelish uchun o‘z vaqtida o‘tkaziladigan texnik xizmatlar ularning benuqson ishlashini ta’minlaydi, mavsumni sifatli o‘tkazishga zamin yaratadi va sof foydaning yuksalishiga xizmat qiladi [1].

Qishloq xo‘jaligida texnik xizmat ko‘rsatish tizimini zamon talablari asosida rivojlantirish hozirgi kundagi muhim vazifalardan biridir.

Bu jarayonda texnikalardan yechilgan tarkibiy qismlarni saqlashni tashkil qilish, texnikani yangidan butkul yig‘ish, hisobdan chiqarilgan texnikalarni qisimlarga ajratish,

nuqsonlash, mashina traktor agregatlarini butlash va sozlash kabi qator ishlar amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari texnikalariga ko‘rsatilgan texnik xizmat ishlab chiqarishni boshqarish tizimining asosini tashkil etadi va uni tashkil etish darajasi, asosan, ishlab chiqarishda ishlatiladigan texnika va texnologiyalar samaradorligini belgilaydi [2].

Hozirgi zamon dehqonchilik-sanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi uni yanada mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va avtomatlashtirishdan iborat.

Bu yo‘nalishning asosini albatta mashinalar tizimi tashkil etadi.

Traktorlar, mashina traktor agregatlari, avtomobillar va boshqa qishloq xo‘jalik mashinalari foydalanish chog‘ida turli ko‘rinishdagi tashqi ta’sirlarga uchraydi. Natijada loyihalash va tayyorlash jarayonida kiritilgan ishonchlilik, chidamlilik, barqaror ishlash, ta’mirga yaroqlilik hamda saqlanuvchanlik ko‘rsatkichlari pasayadi. Bunga mashinalar detallarida turli xil nuqsonlar paydo bo‘lishi va ularning yoyilishi sabab bo‘ladi [3].

Qishloq xo‘jalik mashinalarinalarida ro‘y beradigan tasodifiy buzilishlar ehtimollarini misol tariqasida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Mashinalarda ro‘y beradigan tasodifiy buzilishlar ehtimollarini qo‘shish teoremasi foydalanilgan adabiyotlarda kuyidagicha ifodalangan.

Birgalikda bo‘lmagan ikkita buzulishdan qaysinisi bo‘lsa ham birining ro‘y berish ehtimoli shu buzilishlar ehtimollarining yig‘indisiga teng.

$$Q(A+B)=q(A)+q(B) \quad (1)$$

bunda: A va V - ikki xil ko‘rinishdagi buzilishlar ehtimolini bildiradi.

Endi yuqoridagi buzilishlar ehtimolini aniqlash uchun quyidagi belgilanishlarni kiritamiz:
N_u - dalada ishlayotgan bir tur va bir rusumdagi mashinalarning jami soni;
n_1 (t) - A ko‘rinishdagi buzilishga qulaylik tug‘diradigan natijalar soni;
n_2 (t) - V ko‘rinishdagi buzilishga qulaylik tug‘diradigan natijalar soni.

Smena davomida mashinalarda A yoki V buzilish ro‘y berishiga qulaylik tug‘diradigan natijalar sonini 〖n〗_1 (t) + n_2 (t) ga teng deb olamiz.

Demak,

$$Q(A+B)=(n_1(t)+n_2(t))/Ny=(n_1(t))/Ny+(n_2(t))/Ny \quad (2)$$

(n_1 (t))/Ny=q(A) va (n_2 (t))/Ny=q(B) ekanligi ma’lum. Bularni (2) - tenglamaga qo‘ysak:

$$Q(A+B)=Q(A)+(B)$$

Bundan mashinalarda ro‘y beradigan tasodifiy buzilishlar ehtimollarini ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin. Mashinalardagi ikkita erkli buzilishning birgalikda ro‘y berish ehtimoli shu buzilishlarning ehtimollarini ko‘paytmasiga teng:

$$Q(AB)=Q(A)\cdot Q(B) \quad (3)$$

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelindi-ki, qishloq xo‘jalik mashinalaridagi tasodifiy buzulishlarni keltirib chiqmasligi uchun o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rasatish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish zarur. Shundagina qishloq xo‘jalik mashinalari tizimida foydalanilayotgan texnikalarning benuqson ishlashini va rivojlanishini ta’minlagan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Igamberdiev A., Aliqulov S. Traktorlar va qishloq xo‘jaligi mashinalaridan foydalanish, texnik servis. – Toshkent 2020. – 350 b.

2. Rogovsev V., Puzankov A., Oldfild V. Ustroystvo i ekspluatatsiya avtotransportnых sredstv uchebnых voditelya. Moskva: Transport, 1989 – 300 s.

3. Toshboltaev M., Rustamov R., Seytimbetova Z. Qishloq xo‘jalik mashinalariga firmaviy texnik servis ko‘rsatish tizimining matematik va statistik modellari. – Toshkent 2011.

UO‘T 631.372.5

G‘ALLA KOMBAYNLARIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH VA TA’MIRLASH TARTIBLARI

Rustamov R.
Namangan davlat taxnika universiteti, t.f.d. prof.

Boymaxanov K.
M.Auezov nomidagi janubiy Qozag‘iston universiteti, t.f.n. prof.

Ibragimov D.
Namangan davlat taxnika universiteti, tayanch doktorant

Xolmirzayev I.
Namangan davlat taxnika universiteti, tayanch doktorant.

Annotasiya. Maqolada g‘alla kombaynlarini ishlatish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash tartiblari bo‘yicha kombayn operatorlari, agroklaster va fermer xo‘jaliklari rahbarlari va muhandis-texnik xodimlar uchun ko‘rsatmalar berilgan.

Аннотация. В статье приведены инструкции для операторов комбайнов, руководителей агрокластеров и фермерских хозяйств, а также инженерно-технического персонала по эксплуатации, техническому обслуживанию и ремонту зерноуборочных комбайнов.

Annotation. The article provides instructions for combine operators, heads of agro-clusters and farms, and engineering and technical personnel on the procedures for operating, maintaining, and repairing grain harvesters.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida hozirgi payitda “CASE NEW HOLLAND”va “Class” kompaniyalarining g‘alla kombaynlaridan g‘alla mavsumlarida foydalanilmoqda. G‘alla kombaynlari yotib qolgan bug‘doy poyalarini tikkalaydi, o‘radi, boshoqlarni yanchib donlarni ajratib oladi, donli aralashmani elaklaydi, toza donni bunkerga joylaydi, somonni esa uyumlangan yoki toylangan holda dalaga tashlab ketadi.

G‘alla o‘rimi mavsumi respublikada 20-25 kunni tashkil etadi. Mavsum bundan ortib ketsa, boshoqlardagi donning ko‘p qismi o‘z-o‘zidan to‘kilib ketadi. Kombayn ishlaganda motovilo, hatto g‘ildiraklar ham donni urib tushiradi. Natijada don hosildorligi gektar hisobiga 5-10 sentnergacha yo‘qotiladi.

Yuqoridagi sabablarga ko‘ra tumanlardagi agroklaterlar va fermer xo‘jaliklari rahbarlari g‘alla kombaynlarini o‘rim davrida 15-20 soat ilatishga harakat qiladilar. Kombaynlar 2 smenada uzluksiz ishlaganda ularda ko‘plab yedirilish va to‘satdan sinish nosozliklari paydo bo‘ladi [1].

Kombayn operatorlari, muhandis-texniklar, ko‘chma ustaxona mexaniklari va chilangarlar bu jarayonlarda don nobudgarchiligiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida kombaynning har bir qismini va detalini talablar darajasida ta’mirlab ishga tayyorlashga alohida mas’uliyat bilan yondashadilar.

Kombaynlarning texnik qarovlarini o‘tkazish

Har kuni ish boshlashdan oldin kombaynning jatkasi va dvigatel o‘rnatilgan maydonchasi poyalar, somon bo‘laklari va qipiqlardan tozalanishi kerak. Zarur holatlarda ular yuviladi.

Dvigatelning havo filtrini har kuni bir marta, zarurat bo‘lsa ikki-uch marta changdan tozalash darkor.

Kundalik texnik qarovda kombaynning moylanadigan qismlari tegishli turdagi solidol

moylari bilan yog‘lanadi.




G‘alla o‘rish kombaynlari

Dvigateldagi moy sathi va sovutish suyuqligi ham kunda tekshirib ko‘rilib, zarur bo‘lsa me’yoriga yetkazib quyiladi.

Kombaynning aylanuvchi qismlari, tasmali va zanjirli uzatmalarini har kuni ko‘zdan kechirish ham foydalidir.

Murakkab nosozliklarni tuzatish maxsus servis markazlarida amalga oshiriladi [3].

Kombaynlarda uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari

Ish vaqtida kombaynlarning texnologik o‘lchamlari va ish rejimlari o‘rilayotgan ekining holati va dala sharoitiga mos kelmay qolsa, qismlarda ayrim nosozliklar yuzaga keladi. Bunday paytda kombayinchi muhandis yoki texniklarning yordamsiz ham ushbu kamchiliklarni aniqlashi va bartaraf etishi mumkin.

Quyidagi jadvalda kombaynlarda uchraydigan nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari keltirilgan.

1-jadval

T/r	Nosozliklar	Nosozlik sabablari	Bartaraf etish yo‘llari
1	**2**	**3**	**4**
1.	Motovilo poyalarni oldiga tashlayapti	Motoviloning aylanish tezligi katta	Motoviloning aylanish tezligini kamaytirilsin
2.	Motovilo boshoqdagi donni to‘kyapti	a) Motoviloning tezligi yuqori; b) Motoviloning qirqish apparatiga nisbatan turish holati buzilgan; v) Motovilo barmoqlarining vaziyati buzilgan	a) Aylanish tezligini kamaytirilsin; b) Poyalar baland bo‘lganda motoviloni qirqish apparatiga nisbatan 5-10 sm oldinga surish kerak; v) Barmoqlarni 16^0 burchak ostida oldiga qaratib o‘rnatish kerak
3.	Poyalar qirqilmay qolyapti	a) Segmentlar ishdan chiqqan, barmoq tig‘lari o‘tmas holatga kelgan; b) O‘rish apparatining sozligi buzilgan	a) Ishdan chiqgan segment-larni almashtirish, barmoqlarni tekislash lozim; b) O‘rish apparati pichog‘ining chetki holatida segment va barmoq o‘qining ustma-ust tushishini ta’minlash kerak

4.	Poyalar notekis qirqilmoqda	a) Kombayn harakat tezligi yuqori; b) Jatkaning yer relefiga nisbatan holati buzilgan	a) Harakat tezligi pasaytirilsin; b) Jatkani ko‘ndalang va bo‘ylama tekisliklarda sozlansin
5.	Motovilo qirqilgan boshoqlarni yerga to‘kyapti	a) Motovilo yuqoriga o‘rnatilgan; b) Qirqish apparati baland o‘rnatilgan; v) Poyalar yoppasiga yotib qolgan dalalarda kombaynning harakatlanish yo‘nalishi to‘g‘ri tanlanmagan	a) Motoviloni pastga tushirilsin; b) Qirqish balandligini pasaytirilsin; v) Boshoqlarni yotish holatiga qarab kombaynning yurish yo‘lini tanlansin, qirqish apparatiga tup ko‘targichlarni o‘rnatilsin
6.	Jatka shnegi donli massa bilan tiqilmoqda	a) Jatka bilan shnek orasidagi tirqish tor; b) Harakat tezligi katta; v) Harakat uzatuvchi tasmalar tarangligi bo‘shashgan	a) Tirqish kengaytirilsin; b) Tezlik kamaytirilsin; v) Tasmalar tarangligi oshirilsin
7.	Yanchish barabaniga poyalar tiqilyapti	a) Tasmalar tarangligi bo‘shashgan; b) Yurish tezligi katta	a) Tasmalar tarangligi oshirilsin; b) Yurish tezligi pasaytirilsin
8.	Yanchish barabani boshoqni to‘liq yanchmayapti	a) Barabanning aylanish tezligi past yoki yanchish tirqishi katta; b) Yurish tezligi katta	a) Baraban aylanish tezligi oshirilsin yoki tirqish kamaytirilsin; b) Yurish tezligi kamaytirilsin
9.	Yanchish barabani donga shikast yetkazyapti	a) Barabanning tezligi katta; b) Yurish tezligi past	a) Baraban tezligi pasaytirilsin; b) Tezlik oshirilsin
10.	Yanchish barabani boshoqni to‘liq yancha olmayapti	a) Tirqish buzilgan; b) Baraban tishlari yeyilgan	a) Tirqish sozlansin; b) Ishdan chiqqan tishlar almashtirilsin
11.	Yanchilgan donni bunkerga uzatuvchi shnek va elevator tiqilayapti	a) Saqlovchi muftadagi prujinalar sozlanmagan; b) Kojuxdagi shnekning texnik holati buzilgan v) O‘rilayotgan g‘alla massasining namligi yuqori	a) Saqlovchi muftani sozlang; b) Kojux va shnek tekshirilsin va sozlansin; v) Begona o‘tlarni bartaraf etish yoki xosil to‘liq pishgan dalani tanlash kerak.
12.	Bunkerdagi donning ifloslanishi yuqori	a) Elaklardagi tirqishlar katta ochilgan; b) Ventilyatorning aylanish tezligi past	a) Elaklardagi tirqishlar toraytirilsin; b) Ventilyatorning aylanish tezligini oshirilsin

Tuman “Agroservis MTP”, agroklasterlar, “CASE”, “CLASS” kompaniyalarining servis markazlari va fermer xo‘jaliklari mashina saroylarida kapital yoki joriy ta’mirdan chiqarilgan g‘alla kombaynlari agroispeksiya qoshidagi maxsus komissiyalar tomonidan qabul qilib olinadi. Bu jarayonda quyidagi uzel va detallarning sifati tekshiriladi va baholanadi [4].

Zanjirlar va tasmalar. Zanjir plastinalari va vtulkalarida ezilgan joylar va yoriqlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Zanjir qadami KI-6814 asbobi va ShS-II-400-01 shtangensirkul bilan o‘lchanadi, qadam oshib ketgan bo‘lsa, zanjirdan bir yoki ikki zveno olib tashlanadi, bu ham naf bermasa, yangisiga almashtiriladi. Ponasimon, tekis va tishli tasmalarda yoriqlar,

qatlamlarga ajralgan kordlar, shishlar, burmalar bo‘lmasligi kerak. Sirtlari yaltirab yedirilib ketgan, iplari ochilib qolgan va taranglashga zahirasi qolmagan (ortiqcha cho‘zilib ketgan) tasmalar almashtiriladi.

Yulduzchalar va shkivlar. Yulduzcha tishlarida singan, ezilgan va hajmiy yeyilgan joylar bo‘lmasligi kerak. Tishlari singan yulduzchalar almashtirilsin. Tishlarning yeyilish darajasi kalibrlar va shablonlar yordamida baholansin. Agar kalibr ikki yonma yon tish orasiga erkin kirib borsa, bunday yulduzchani almashtirish zarur. Shkivlarda singan va qattiq deformatsiyalangan bortlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shkiv yoki yulduzchani qo‘lda u yoki bu tomonga keskin aylantiring. Shponkali birikmada tirqish kengligini va shponkalar qirralarini tekshiring, tirqish kattalashgan holda ariqchalarga suyuq metall qoplab uni toraytirish lozim bo‘ladi.

Podshipnikli birikmalar va vallar. Podshipnik korpusi va zichlagichi tekshirilsin. Korpusda yoriqlar bo‘lmasligi kerak. Zichlagichdan moy sizib chiqayotgan bo‘lsa, podshipnikni oching, separatorlar, soqqalar, aylanish yo‘llarini ko‘zdan kechiring. Agar metall sirtida charchaganlik rangi, yoriqlar, yedirishlar, ishchi yuzalarni ezilishi topilsa, podshipnik almashadi. Agar bu detallar soz bo‘lsa, faqat moyni qo‘yib yuboradigan zichlagichgina almashtiriladi. Podshipnik vtulkasi tortilgan, valga mahkam shplintlangan bo‘lishi lozim.

Valni aylantiring. U yengil, qadalishlarsiz harakatlanishi kerak. Valning uchiga o‘rnatilgan shkiv yoki yulduzchani ikki qo‘llab keskin ko‘taring. Podshipnikli birikmada tirqish sezilsa, uning qiymatini KI-1871.02 moslama yordamida o‘lchang. Bu qiymat ruxsat etilganidan oshmasligi darkor.

Shkiv bortlarining yonlama tepishi indikator bilan o‘lchanadi. Uning qiymati 1-3 mm dan oshmasin. Agar oshsa, shkivni yechib olib, valning tepishi tekshirilsin. Val egilgan bo‘lsa to‘g‘rilansin, tepish bunda ham yo‘qolmasa, shkiv almashtirilsin.

Saqlovchi muftalar. Boshoq, don va yuklash shneklari, orqa kontryuritmasi, motovilo, qiya kamera va jatka shnegidagi saqlovchi muftalar xrapoviklarining texnik holatini tekshiring. Detallari singan, yedirilgan va ezilgan muftalar ta’mirlanadi. Saqlovchi muftani tekshirish uchun val tormozlanadi, shkiv yoki yulduzchaga maxsus OPR-484-20 richagli moslama yordamida 10-25 kgk.m qiymatli maksimal aylantiruvchi moment beriladi. Bunda shkiv yoki yulduzcha aylanib ketsa, mufta detallari tekshiruvdan o‘tkaziladi, aniqlangan nosozliklar bartaraf etiladi.

Qirqish apparati va uzatmasi. Detallarni tekshiring. Ularda, ayniqsa segment pichoqlarda sinishlar, yoriqlar bo‘lmasligi kerak. Pichoq suyanchig‘ining kengligi eng kamida 17 mm bo‘lishi lozim. Barmoq vkladishi va pichoq kallagi orasidagi tirqish kengligi 3,25 mm dan katta bo‘lsa, brusdagi qistirmalar sonini kamaytirish bilan toraytiriladi. Pichoqning tebranish qadami 72,5 mm dan katta yoki kichik bo‘lsa uzatma rostlanadi.

Shatun va krivoship vali podshipniklaridagi tirqish kengligi 0,2 mm, koromisloda 0,8 mm, kardanli val vilkasida 0,3 mm dan oshmasligi zarur. Bu ishlarni malakali mexanik bajaradi.

Motovilo. Trubalar, plankalar, tortqilar, yoylar, podshipniklar, diskalar deformatsiyasiz va yoriqlarsiz bo‘lishi darkor. Aylanish variatori pastki shkivining gupchagi va silindri orasidagi tirqish 0,5 mm dan, yetaklovchi disk gupchagi va sapfasi orasidagi tirqish 0,7 mm dan oshmasligi kerak. Bu qiymatlar indikator bilan o‘lchanadi.

Jatka shnegi. Vintsimon lenta, kojuxlar, barmoqlar g‘ilofi deformatsiyalanganda, barmoqlar, vtulkalar, mahkamlovchi detallar singanda shnek qayta ta’mirlanadi. Barmoqlar g‘ilof teshiklariga erkin kirib chiqishi kerak, o‘qi atrofida aylanishi mumkin emas. G‘ilof sirti va shnek trubasi orasidagi tirqish kengligi 0,7 mm dan oshganda g‘ilof yangilansin.

Qiya kamera. Taglik list oraliq shitogi, yuqori va pastki qopqoqlar yorilganda va uzilganda, zanjir yo‘naltirgichlari yeyilganda kamera ta’mirlanadi. Shkiv, yulduzcha, zanjirlar, podshipniklar, plankalar, prujinalardagi nuqsonlar bartaraf etiladi.

Yanchish apparati. Don savag‘ichlar, ularni baraban (rotor) disklariga mahkamlovchi boltlar, barcha biterlar va shitoklar tekshirilsin. Savag‘ich qovurg‘alarining balandligi 6 mm dan kam bo‘lmasligi lozim. Savag‘ichlar mahkamligini bolg‘a bilan yengil urib tekshiring. Qaltiroq ovoz boltlarni bo‘shaganidan dalolatdir. Baraban valiga harakat beruvchi shkiv gupchagidagi shponkali birikmada tirqish sezilmasligi lozim. Baraban (rotor) ramaga to‘g‘ri o‘rnatilishi kerak. Agar baraban savag‘ichlari bilan baraban ostligi (deka) plankalari orasidagi tirqishlar birday bo‘lsa, bu talab bajarilgan hisoblanadi [5].

Baraban ostligining turli plankalari va prutoklari uzilgan va qattiq egilganda, yo‘naltiruvchi shitoklar va osish mexanizmi ekssentrigi korpuslari yedirilganda deka qo‘shimcha ta’mirga yuboriladi.

Don tozalash mexanizmlari. Tebranma doska, somonsilkitgich, yuqori va pastki g‘alvirlar, barmoqlar, yuqoridagi g‘alvir uzaytirgichi, ventilyator, tebrantiruvchi vallar detallarining texnik holati tekshiriladi. Qadalib ishlayotgan podshipniklar, singan yoki ezilgan jalyuzalar, barmoqlar, egilgan uzaytirgichlar almashtirilsin.

Tebranma doska, somonsilkitgich va g‘alvirlar ish jarayonida bir-biriga va rama korpusiga tegmasdan ishlashi kerak.

Shneklar, elevatorlar. Vintsimon lentalar va kojuxalar uzilganda yoki ezilganda, vallar egilganda shneklar ta’mirlanadi. Korpuslari ezilgan, yorilgan, doskalari yedirilgan elevatorlar nosoz deb baholanadi.Elevator zanjiri va yulduzchasi tekshirilsin. Rezina qirg‘ichlarda uchgan va titilgan joylar bo‘lmasligi kerak. Kojuxi teshilgan, yorilgan, parraklari singan ventilyator ta’mirlanadi yoki almashtiriladi. Parraklar va kojux orasidagi tirqish bir xil bo‘lishi lozim. Eng asosiysi, shnek va elevatorlardan don va boshoq to‘kilmasligi darkor.

Yurish qismi. Variator gupchaklari orasidagi tirqish kengligi 0,5 mm dan kattalashsa u ta’mirlanadi. Uzatmalar bir-biriga qiyin qo‘shilsa yoki o‘z-o‘zidan ajralsa, ilashish muftasi siltov bilan ulansa yoki shataksirasa, korpusda yoriqlar bo‘lsa uzatma qutisi va mufta ta’mirga tortiladi. Tishlari singan yoki yedirilgan shesternyalar nosoz deb topiladi. Harakat davomida tormoz barabanlari o‘z-o‘zidan qizib ketaversa yoki kombayn zarb bilan to‘xtasa g‘ildiraklar tormozlarini ta’mirlash talab etiladi. Payvand choklarida yoriqlar paydo bo‘lgan, kronshteynlari uzilgan, differensial va bort reduktorlari korpuslari darz ketgan, shesternyalari yedirilgan orqa va old ko‘priklar ta’mirlanadi.

Gidravlik sistema. Shlang va quvurlardan suyuqlik tomchilasa birikmalar tortilsin, shunda ham to‘xtamasa, almashtirilsin. Moy taqsimlagich va gidrotsilindrlar ravon qo‘shilishi va ajrashi lozim. Jatka 4 sekund ichida tepaga ko‘tarilishi kerak.

Taqsimlagich dastagi prujina ta’sirida ishchi holatdan neytral holatga avtomatik ravishda qaytishi darkor. Dastakka qo‘yiladigan eng katta kuch – 6 kgk. Agar gidrobachokda moy ko‘piklasa gidrotsilindrlar shtuserlari gaykalari 1,5–2 oborotga bo‘shatiladi va sistemadan havo chiqarib yuboriladi [4].

Barcha nasoslarning sozligi KI–4200 stendda tekshiriladi. Zarur bo‘lsa yeyilgan tarkibiy qismlar yangilariga almashadi.

Xulosa

G‘alla kombaynlarini talablar darajasida ta’mirlash va qabul qilish poyalarni toza o‘rish, boshoqdagi donlarni shikastlamay yanchib olish, ish unumini ta’minlash, o‘rim mavsumini qisqa muddatlarda yakunlash garovidir.

ADABIYOTLAR

1. Toshboltaev M, Rustamov R., Qobulov M. Qishloq xo‘jaligida hududiy firmaviy texnik servis sistemasi.–Toshkent: Fan, 2007. –B. 81–87.

2. Toshboltaev M., Rustamov R.M., Seytimbetova Z. Qishloq xo‘jaligi mashinalariga

FTS ko‘rsatish kompleks tizimini shakllantirish // AGRO ILM. – Toshkent, 2009. –№2. – B.63-64.

3. Toshboltaev M., Ashurov F., Hakimov A., Muhammadiev A. G‘alla o‘rimi mavsumini tejamli va samarali o‘tkazish yuzasidan kombaynchilar uchun qo‘llanma–Qarshi: Qashqadaryo viloyat matbuot boshqarmasining viloyat bosmaxonasi, 1999. –24 b.

4. Toshboltaev M., Qobulov M. Texnika xizmati: tezlik va sifat //O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. –Toshkent, 2006. –№10 –B.34.

5. Toshboltaev M. Mashina-traktor agregatlari ish unumini oshirishning nazariy va amaliy prinsiplari. – T.: «Spektrum Media Group», 2015. – 88 b.

5. R.M.Rustamov, D.X.Ibragimov, I.A.Xolmirzayev Xorijiy qishloq xo‘jaligi mashinalariga xizmat ko‘rsatish markazlarining samaradorligini oshirishning dasturiy mahsulotini yaratish// «Raqamli hayot va ijtimoiy fanlarning barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi o‘rni va ahamiyati: dolzarb muammolar va istiqbol» xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, ilmiy-maqola va tezislar to‘plami. 43-47 betlar.

6. R.M.Rustamov D.X.Ibragimov, Z. Seytimbetova B. Egamnazarov, Z. Sarkarova Methodology Of Development Of Technical And Economic Model Of Agricultural Machinery Dealer Point. Nat. Volatiles & Essent. Oils, 2021; 8(4):

8. R.M.Rustamov, D.X.Ibragimov, I.A.Xolmirzayev Namangan viloyatida “Claas” kompaniyasi texnikalariga ko‘rsatilayotgan firmaviy texnik servis sistemasi holatining tahlili// QXMITI “Yuqori samarali qishloq xo‘jaligi mashinalarini yaratish va texnik vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik konferensiya. Gulbahor-2022. 443-447 betlar.

UO‘T 631.372.5:004.9

QISHLOQ XO‘JALIGI MASHINALARIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DASTURIY MAHSULOTLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARGA DOIR TADQIQOTLAR TAHLILI

Rustamov R.
Namangan davlat taxnika universiteti, t.f.d. prof.

Boymaxanov K.
M.Auezov nomidagi janubiy Qozag‘iston universiteti, t.f.n. prof.

Ibragimov D.
Namangan davlat taxnika universiteti, tayanch doktorant

Xolmirzayev I.
Namangan davlat taxnika universiteti, tayanch doktorant.

Annotasiya. Maqolada Qishloq ho‘jaligi mashinalariga texnik hizmat ko‘rsatish markazlarining samaradorligini oshirish uchun dasturiy mahsulotlar, raqamli tehnologiyalar asosida ko‘rsatilayotgan hizmatlar bajargan ishlari tahlil qilingan holda taklif etilayotgan dastur haqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация. В статье представлена информация о предлагаемой программе для повышения эффективности центров технического обслуживания сельскохозяйственной техники с анализом программных продуктов, работ, выполняемых услугами, предоставляемыми на основе цифровых технологий, с анализом работ, выполняемых услугами, предоставляемыми на основе цифровых технологий, с предоставлением информации о предлагаемой программе.

Annotation. The article provides information on the proposed program, analyzing the work performed by software products, services provided based on digital technologies, and analyzing the work performed by services provided based on digital technologies to improve the efficiency of agricultural machinery service centers.

Dunyoning ko‘pgina davlatlarida traktor va qishloq xo‘jaligi mashinalariga firmaviy texnik servis (FTS) ko‘rsatish ishlari ularni ishlab chiqarayotgan firmalar va mashinasozlik korxonalarining dilerlari tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

2021-yil 28-dekabr kuni Qishloq xo‘jaligi vazirligi agrar sohani raqamlashtirish doirasida ishlab chiqilgan dastur va tizimlar bo‘yicha ma’lumotlarni e’lon qildi. Unda "Joriy yil oxirigacha Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni raqamlashtirish markazi tomonidan 5 ta axborot, jumladan, qishloq xo‘jaligi yerlarini ajratish uchun mo‘ljallangan “E-IJARA TANLOV" tizimi, ArcGIS dasturiy mahsuloti bazasidagi geoaxborot tizimi, “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini subsidiyalash” yagona axborot tizimi, “Import qilingan qishloq xo‘jaligi texnikalari hisobi” tizimi bosqichma bosqich ishga tushirilishi ko‘zda tutilgan.

O‘zbekistonda agroklasterlar, fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi boshqa sub’ektlarni yuqori unumli texnika vositalari bilan ta’minlash va ularga FTS ko‘rsatish sifati va ish unumini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu sohada, jumladan «Case New Holland» (AQSh) va «Claas» (Germaniya) kompaniyalaridan import qilingan va mazkur kompaniyalar ishtirokida respublikamizda tashkil etilgan mashinasozlik zavodlarida ishlab chiqarilayotgan texnika vositalariga «O‘zKeysservice» va «O‘zClaasservice»

qo‘shma korxonalarining viloyat servis markazlari tomonidan FTS ko‘rsatishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Agrosanoat majmuasida mashinalarni ekspluatatsiya qilish va TXK muammolarini hal qilish ustida xorijiy olimlar A.S.Apatenko, N.S.Sevryugina, S.K.Toygambaev, I.Golubev, N.P.Mishurov, Yu.V.Kataev, M.N.Kostomaxin, K.G.Sovin va N.A.Petrishev, R. G. Berdnikova, A. M. Krikov, A. G. Fedorov, I. K. Yakovlev, G.Luttenburg, K.Bartelxaymer, D.Beverungen, G.V.Redreev, A.V.Klochkov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikamizning M.Toshboltaev, Sh.Yo‘ldoshev, R.Matchanov, T.Xudoyberdiev, Sh.Shoobidov, Q.Sharipov, K.Nuriev, M. Abralov, A. Ergashev, K.Qosimov, A.Usmonov, I.Ashirbekov, E. Farmonov, S. Aliqulov , M. Jiyanov va boshqa olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda asosiy e’tibor ta’mirlash-texnik servis korxonalarida ishlab chiqarishni tashkillashtirish va rejalashtirish, traktor va qishloq xo‘jaligi mashinalariga raqamli (davriy) texnik xizmat ko‘rsatish, ularni joriy va butkul ta’mirlash, yeyilgan detallarni qayta tiklash, yonilg‘i-moylash materiallaridan unumli foydalanish, mashinalarni saqlash texnologiyalarini takomillashtirish kabi masalalarga qaratilgan.

Biroq texnik xizmat ko‘rsatish sohasida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilganiga qaramay, QXMlariga TXni takomillashtirish vazifasi dolzarbligicha qolmoqda. Ishlarning sifatini oshirish, shu jumladan, operatsiyalar va yo‘riqnomalarni bajarish bo‘yicha tavsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish zarur. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi agentligida QXMlariga texnik xizmati uchun kompleks raqamli maxsulotni ishlab chiqish bilan bog‘liq masalalar ham hal etilmagan .

Shu sababli traktor, kombayn va qishloq xo‘jaligi mashinalariga (QXM) ega SMlari, agrorklasterlar va ta’mirlash korxonalari sharoitida TXKni tashkil etish masalasi muhandislikning dolzarb muammosi hisoblanadi. Ushbu vazifani hal qilish uchun statsionar va mobil xizmat ko‘rsatish vositalari, malakali xodimlar, texnik va texnologik hujjatlar, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va maxsus dasturiy ta’minot zarur.

Temiryazov nomidagi Rossiya Agrar davlat Universiteti MXA olimlari A.S.Apatenko, N.S.Sevryugina, S.K.Toygambaev, I.Golubev, N.P.Mishurovlar qishloq xo‘jaligi texnikasining telemetriya va monitoring tizimlari bilan shug‘ullanishgan (6, 22, 78, 101). Telemetriya va monitoring tizimlarining asosiy vazifasi ish vaqtini tahlil qilish asosida texnologik jarayonni optimallashtirish, ma’lumotlarni yig‘ish, hisobga olish va hujjatlashtirish sozlamalariga tuzatishlar kiritish, mashinalarining ekspluatatsion ishonchliligini oshirish orqali erishish mumkin bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasi parkining unumdorligini oshirishdan iborat bo‘lgan.

Federal agromuhandislik ilmiy markazi (FIM,Rossiya) olimlari Yu.V.Kataev, M.N.Kostomaxin, K.G.Sovin va N.A.Petrishevlar energiya bilan to‘yingan texnikalarga texnik xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, qishloq xo‘jaligi texnikalari dvigatellarida nosozliklarni bashoratlash, MESlarga texnik xizmat ko‘rsatishda kontaktsiz diagnostika tizimlaridan foydalanish ustida ish olib bormoqdalar.

Ya.A.Lasars traktor va mexanizatorlarga bo‘lgan talabni aniqlashda chiziqli dasturlash va tarmoqli modellashtirishni yagona sistemaga birlashtirishni, mashinaga bo‘lgan talabni aniqlashning quyidagi tartibini taklif etgan: 1) chiziqli dasturlash yordamida talabdagi mashinalar sonini hisoblash; 2) tarmoqli modellashtirish va hisoblash vositalaridan foydalanib mashinalar soniga aniqlik kiritish.

L.V.Pogoreliy tomonidan qand lavlagi yig‘adigan mashinalar turlarini optimallash metodi va uni elektron hisoblash mashinasida realizatsiyalash algoritmi ishlab chiqilgan. Lekin metod ham, algoritm ham o‘ta murakkab – amaliyotchi muhandis tomonidan o‘zlashtirilishi qiyin[1].

I.V.Korolkov mashinalar sonini hisoblashda ularning puxtaligini va ishonchliligini hisobga olishning ehtimoliy-matematik apparatini ishlab chiqqan. Biroq bu apparat tasodifiylikka liq to‘la.

Mashinalarni tanlashning A.N.Repetov tomonidan taklif etilgan taqribiy-guruhiy metodi zaminida konkret xo‘jalikdagi energetika vositalari sonini hisoblash algoritmi yotadi. Bu ma’lum narsa.

M.G.Rudenko qishloq xo‘jaligi mashinalari sistemasini EHM larda asoslash tamoyillarini bayon etgan. Ammo bu tamoyillar g‘allachilik mashinalariga tegishli emas.

Novosibirsk davlat agrar universiteti va Sibir qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti olimlari traktor va yuk avtomobillariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun axborot ta’minotining kompleks tizimini takomillashtirdi. Ushbu loyihani amalga oshirishda R. G. Berdnikova (NGAU), A. M. Krikov (SiBiMe), N. M. Ivanov (SiBiMe), A. G. Fedorov (Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiyasi qo‘shinlari generali I. K. Yakovlev nomidagi Novosibirsk harbiy instituti) va A.Ye. Nemsev (SiBiMe) ishtirok etdilar.

Germaniyanng Padernborn universitetida G.Luttenburg, K.Bartelxaymer va D.Beverungenlar tomonidan qishloq xo‘jaligi texnikasi detallarining xizmat ko‘rsatilgandan keyingi ma’lumotlar asosida buzilishini bashorat qilish usuli yaratilgan. U xo‘jalik bazasida dala ishlari mavsumida ehtiyot qismlar yetishmovchiligining oldini olish va ishlab chiqilgan grafik bo‘yicha texnik xizmat ko‘rsatishga yordam beradigan profilaktik xizmatni tashkil etish imkonini beradi.

G.V.Redreev rahbarligida “P.A.Stolipin nomidagi OMGAU” OTM FGBOUda raqamli yechimlar asosida AGTda texnik xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash va texnik servisni tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

A.V.Klochkov va boshqalarning (adabiyot yoziladi) kitobida EZ-Guide 500 navigatorli EZ-Steer AgGPS burg‘ilash qurilmasining traktor harakatini avtomatik boshqaruvga avtopilot haqida ma’lumot berilgan[1].

Avtopilotlash parallel haydashdan shunisi bilan farq qiladiki, belgilangan traektoriyadan chetga chiqishlar GPS-priyomnik orqali qabul qilinadi, maxsus qurilmalar orqali bevosita yurish qismini boshqarish tizimiga kiritiladi, bu esa mexanizatorning aralashuvisiz marshrut bo‘ylab harakatlanishning maksimal aniqligini (chetga chiqish 2 sm chegarasida) ta’minlaydi[2]. Odatda avtopilot parallel haydash qurilmasi, kontroller va traktor gidravlikasiga ulanadigan ijrochi mexanizmdan iborat bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, avtomatik haydash tizimlaridan foydalanilganda, mexanizatorning e’tiborini faqat texnologik jarayonga qaratish orqali ish tezligini 13-20% ga oshirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. EZ-Guide 500 navigatorli EZ-Steer AgGPS burg‘ilash

Qurilmasining traktor harakatini avtomatik boshqaruvi avtopilot haqida ma’lumot berilgan. Ya’ni qishloq xo‘jaligidagi tuproqning namligi, qattiqligi, ekinlarning holati bo‘yicha aniq ma’lumotlar keltirilgan.

Elektron qurilmalarda hodisalar monitoringi tuproq, bort va sun’iy yo‘ldosh masofaviy zondlash tizimlaridan tortib sensorli tarmoqlar va havo, tuproq, suv va organizmlardan to‘g‘ridan to‘g‘ri

namunalar olish. Ular turli sensorlar va uskunalardan foydalanishni o‘z ichiga olishi mumkin (2-rasm): ob-havo radari 1, sun’iy yo‘ldosh 2, samolyot 5, uchuvchisiz uchish apparati (UUA, dron) 4, atmosfera Lidar 5, sensor tarmoqlari 6, radiometr7, kiritiladigan moddalardan namuna olish moslamasi 8, ob-havo uskunasi 9,10, yer osti 11 va yer usti suvlari sathi monitorlari 12, avtomatik suv namuna olish moslamasi 13, o‘simliklarning mobil optik sensori 14, joylashuvni aniqlash tizimi 15, tuproq sensorlari (tuproq namligi 16, suv potensiali 17), barg maydoni sensori 18. gaz almashinuvi sensori 19. dan iborat.



2-rasm. Sensorlar tizimidan foydalanish orqali atrofni masofadan kuzatish


So‘nggi paytlarda dronlardan dala holati to‘g‘risida ma’lumot olishning eng tezkor vositasi sifatida foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda (3-rasm).



3-rasm. Makkajo‘xori ekinlari holatini nazorat qilish uchun datchikli dron

Uzoqlashtirilgan elektron komponentlar o‘rtasida ma’lumotlarni uzatish uchun uyali va simsiz aloqadan foydalanish mumkin (sensorlar, ma’lumotlar registratorlari, uyali modemlar, simsiz uzatkichlar va qabul qilgichlar).

Azotli o‘g‘itlarni tabaqalashtirilgan holda qo‘llash uchun donli ekinlar poyasining elastiklik datchigiga ega bo‘lgan skanerlash uskunasidan (Srop-Meter tizimi) foydalanish keng tarqalgan bo‘lib, u poya bo‘ylab harakatlanadigan gorizontal shtanganing vertikal holatdan og‘ishi bo‘yicha o‘lchanadi va bort kompyuteri orqali dozator bilan sinxronlashtiriladi. o’g’itlash mashinasining apparati yordamida amalga oshiriladi (4-rasm).



Srop-Meterni jihozlash va ma’lumotlarni qayd etish sxemasi
4-rasmda Tuproqqa chuqur ishlov berish va ekinlarni ekish chuqurligini ko‘rsatuvchi qurilma keltirilgan

RuSetTM agregatlarni boshqarish tizimi (John Deere GmbH & So KG). Ayrim tuproqqa ishlov berish asboblarining sozlanish chuqurligi va boshqa parametrlari, odatda, traktorning gidrosistemasi orqali yoki ayrim hollarda elektr yordamida rostlanadi. John Deere TruSetTM texnologiyasi traktor kabinasidagi ISOBUS boshqaruv blokidan to‘pning barcha ishchi organlarini boshqaradigan va sozlaydigan birinchi to‘pni boshqarish tizimi hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. Mashina traktor agregatini boshqarish uchun John Deere TruSetTM elektron tizimlar pulti

U.G‘oipovning dissertatsiya ishida tebranuvchi – ajratuvchi mexanizmning maqbul parametrlarining aniqlashning algoritmi va dasturiy vositasini yaratgan.

K.S.Xaydarovning dissertatsiya ishida tuproqqa ishlov berish mashinalarining ishlov berish chuqurligini o‘lchaydigan qurilmani yaratadi. Bunda ma’lumotlarni uzatish tezligi RF24_1MBPS, uzatish quvvati RF24_HIGH etib belgilanadi. Ma’lumotlarni uzatish va qabul qilish qurilmalari uchun dasturiy ta’minot Arduino platformasi asosida yaratishgan.

AQShning Case New Holland va Germaniyaning Claas kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi texnikalarida hozirda 1S buhgalteriya dasturidan foydalanilmoqda. Dasturning asosiy vazifalari respublika bo‘ylab joylashgan omborlarda qanday ehtiyot qismlar borligini, hisob-kitob amallarini, narxlari va ishlatilgan ehtiyot qismlar haqida ma’lumotlarni olishdan iborat.

Xorijiy mashinalarda (haydov agregatlari, g‘alla kombaynlarida) sodir bo‘lgan nosozliklarni bartaraf etish bo‘yicha viloyatlar SMga yuborilgan talablar oqimi va bu talablarni qondirish yuzasidan Markaz tomonidan bajarilgan tuzatish ishlari xronometraj qilinadi, buzilish va tuzatishga doir tasodifiy sonlar to‘plamlariga dastur yordamida ishlov beriladi va ularning o‘zgarish qonuniyatlari, matematik kutilish, o‘rtakvadratik chetlanish, variatsiya koeffitsenti, matematik kutilishning yuqorigi va pastki chegaralari kabi statistik parametrlari hisoblab topiladi[3].

Xorijiy mashinalarda yuzaga kelgan talablar oqimi va SM tomonidan bajarilgan tuzatishlarning statistik parametrlarini hisoblash imkonini beradigan dasturiy maxsulot yaratiladi. Dastur SM amaliyotiga joriy etiladi. Ular tomonidan ko‘rsatilayotgan FTS ning tezkorligi va

sifati oshadi, xarajatlar kamayadi. Natijada agroklaster, fermer xo‘jaligi kabi buyurtmachilar ishlab chiqarishining rentabelligi ko‘tariladi[4].

Galdagi muhim vazifa - Servis markazlarini zamonaviy ta’mirlash va TXK asbob-uskunalari hamda ko‘chma ustaxonalar, malakali muhandis, texnik va chilangarlar bilan to‘la butlash, texnikalarni to‘g‘ri ishlatish va ta’mirlash, ularga talablar darajasida TXK bo‘yicha mexanizator, muhandis va texniklar uchun dasturiy maxsulotni yaratishdir.

Dasturda iste’molchi (Agroklasterlar, “Agrotexservis” MChJ) o‘zlariga kerakli ehtiyot qismlarni tanlab oladi. Yetkazib berish va ta’mirlash xizmatlarini tanlab olishlari mumkin. Servis markazlari yuborilgan ba’za ma’lumotlariga ko‘ra maxsulotlarni yetkazib berish yoki ta’mirlash ishlarini bajaradi[5]. Dastur iste’molchi uchun eng yaqin va eng arzon xizmat turlarini taklif etadi:

- Eng ko‘p talab etilayotgan ehtiyot qismlar zaruriyati bo‘yicha statistik ma’lumotlar ishlab chiqiladi;
- Texnika vositalarining turlari bo‘yicha buzilish holatlarini ko‘rsatuvchi statistik ma’lumotlar ishlab chiqiladi;
- Ko‘chma ustaxonalar, servis markazlari tomonidan bartaraf etilgan nosozliklar agregatlar kesimidagi statistik ma’lumotlar ishlab chiqiladi;
- Yuqoridagi barcha statistik ma’lumotlar, tumanlar va viloyatlar kesimida ishlab chiqiladi;
- Bu orqali qaysi hududlarda va qancha masofada servis markazlarini tashkil etish statistikasini ishlab chiqiladi.

Yuqoridagilardan tashqari dastur bazasida ehtiyot qismlarni almashgan vaqti, yaroqlilik muddati, qancha vaqt ishlashi mumkinligi, kelasi mavsumda qaysi detalga ehtiyoj bor yoki yo‘qligi to‘g‘risida statistik ma’lumotlarni aniqlab beradi.

ADABİYOTLAR

1. А.В.Клочков, П.М.Новиский, В.Г. Ковалов, В.В. Гусаров. Электронные системы и устройства сельскохозяйственных машин. Минск-2019.
2. Л.В.Погорелый. Сельскохозяйственная техника и технологии будущего. — Киев: Урожай, 1988.
3. R.Rustamov. Zamonaviy qishloq xo‘jaligi mashinalariga hududiy firmaviy texnik servis ko‘rsatish tizimini takomillashtirish. Dissertatsiya ishi. – Toshkent, 2017.
4. Toshboltaev M., Rustamov R., Qobulov M. Qishloq xo‘jaligida hududiy firmaviy texnik servis sistemasi. – Toshkent, 2007. –182 s.
5. Xolmirzayev I.A. Xorijiy qishloq xo‘jaligi mashinalariga firmaviy xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishning raqamli xizmat ko‘rsatishini yaratish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Namangan, 2024. -381 bet.

UO‘T 631.358:633.51.

G‘ALLA O‘RISH-TASHISH GURUHIDA KOMBAYNLAR VA TRANSPORT VOSITALARINING TARKIBINI ASOSLASH

Kambarov B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.n., dots.

Razikov N.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institute, tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada g‘alla hosilini o‘z vaqtida va sifatli yig‘ishtirib olishda o‘rish-tashish guruhining samarali ishlashini ta’minlash uchun kombayn va transport vositalarining maqbul tarkibini asoslashga doir tadqiqot natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований по обоснованию оптимального состава комбайнов и транспортных средств для обеспечения эффективной работы уборочно-транспортной группы при своевременной и качественной уборке зерна.

Annotation. The article presents research results on substantiating the optimal composition of combines and vehicles to ensure the efficient operation of the harvesting and transport group during the timely and high-quality grain harvest.

Hozirgi paytda g‘alla hosilini o‘z vaqtida yig‘ib olish va tashish ishlarida transport vositalari (TV)dan samarali foydalanishni tashkil etish muhim hisoblanadi. Dalalarda ishlatilayotgan g‘alla kombaynlarining ish unumini oshirishda va yig‘ishtirib olingan donni transport vositalarida tashishni tashkil etish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonidir [1].

Ayniqsa g‘allani yig‘ishtirib olish muddatlarining qisqaligi va bu davrda tashilishi lozim bo‘lgan don miqdorining ko‘pligi tufayli o‘rish-tashish agregatlarining ishini to‘g‘ri tashkil etishni taqozo etadi. Transport vositalariga bo‘lgan talabga ta’sir etuvchi asosiy omillar dalalardagi bug‘doyning hosildorligi, yig‘ib olinadigan g‘alla, kombaynning ish unumi va bunkerlarining hajmi, xo‘jalikda mavjud bo‘lgan avtomobil va ag‘darma tirkamalarning turi, dalaning don hirmonlardan uzoqligi, yo‘l qoplamalarining turi hisoblanadi. Donni eng yaxshi agrotexnik muddatlarda kam nobudgarchilik bilan yig‘ib olishda transport vositalari muhim ahamiyatga ega. Transport vositalari va kombaynlardan samarali foydalanishda g‘alla o‘rish-tashish guruhlari tomonidan oqilona tashkil etilishi lozim [2-4].

O‘tkazilgan tahlillar va tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Toshkent viloyati Bekobod tumanining katta maydonlarida, ya’ni 15700 ha g‘alla yetishtirilishini e’tiborga olgan holda ushbu hudud tanlandi. Dala sharoitida CLAAS Dominator-130, NEW Holland TC 5.90 va CASE 2366 rusumli kombaynlar hamda g‘alla o‘rish-tashish guruhida transport vositalaridan foydalanish samaradorligi oshirish maqsadida hisob-kitob ishlari olib borildi.

Transport vositasining o‘rtacha turib qolish vaqti $t_t \to 0$ intilganda undan undan foydalanish yanada samarali bo‘ladi. Quyida misol tariqasida Toshkent viloyati Bekobod tumanidagi “Shomurodov Davlat fayz” fermer xo‘jaligining 22 ha maydoni tanlanib, g‘alla hosildorligi 7 t/ha uchun quyidagicha hisob-kitob ishlari amalga oshirildi. Xo‘jaliklarda ishlatilayotgan g‘alla kombaynlari bo‘yicha dastlabki ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

G‘alla o‘rish-tashish guruhida kombaynlar va transport vositalarining tarkibini hisoblashga doir dastlabki ma’lumotlar

Ko‘rsatkichlarning nomlanishi,	G‘alla kombaynlarining rusumi

belgilanishi va o‘lchov birligi	CLAAS Dominator-130	NEW Holland TC 5.90	CASE 2366
Hosildorlik, *H*, t/ha	7,0	7,0	7,0
Kombaynlar soni, N_{ks}, ta	2	2	2
Smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti, τ	0,8	0,8	0,8
Kombaynning konstruktiv qamrov kengligi, B_{kk}, m	4,0	5,2	5,5
Kombaynning g‘allani o‘tkazuvchanlik qobiliyati, q_y, kg/s	3	5	6-7
Kombayn bunkerining sig‘imi, V_b, m^3	3,2	5,2	6,0

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida g‘allani o‘rish-tashish guruhiga lozim bo‘lgan transport vositalar sonini aniqlash maqsadida quyidagi ketma-ketlikda bajarish tartibining sxemasi (1-rasmga qarang) va o‘tkazilgan hisob-kitob natijalari esa 2-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. O‘rish-tashish guruhi tarkibidagi transport vositasining ratsional sonini hisoblash ketma-ketligi

1.1. Kombaynning ishchi qamrov kengligi B_{ki} quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$B_{ki} = B_{kk} \cdot \beta_k = 4 \cdot 0{,}95 = 3{,}8 \text{ m},$$

bunda B_{kk} –kombaynning konstruktiv qamrov kengligi, m (1-jadvaldan olinadi); β_k – konstruktiv qamrov kengligidan foydalanish koeffitsienti, β_k =0,95.

Kombaynning ishchi tezligi v_{ki}:

$$v_{ki} = \frac{36 q_y K_{ko}}{B_{ki} H (1+\delta_n)} = \frac{36 \cdot 3 \cdot 1{,}0}{3{,}8 \cdot 7 \cdot (1+0{,}9)} = \frac{108}{50{,}5} = 2{,}1 \text{ km/h},$$

bunda q_y –kombaynning g‘allani o‘tkazuvchanlik qobiliyati, kg/s; K_{ko} – g‘allani o‘tkazuvchanlik qobiliyatini kamaytiradigan omil, K_{ko}=1,0; H – maydondagi g‘allaning hosildorligi (1-jadval); δ_n – asosiy va qo‘shimcha olinadigan g‘alla hosiliga nisbati, δ_n=0,9.

Shu tartibda yuqoridagi keltirilib o‘tilgan ifodalar orqali qolgan g‘alla kombaynlarining ishchi qamrov kengligi B_{ki} va tezlik v_{ki} larini aniqlaymiz. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadvaldan hisoblangan kombaynning ishchi tezlik v_{ki} larning qiymatlari o‘zaro taqqoslanib ulardan eng katta yoki eng kichigi tanlanadi.

1.2. G‘alla o‘rish kombaynining smenadagi 1 soatlik ish unumi W_{ky}:

$$W_{ky} = 0.1 \cdot B_{ki} \cdot v_{ki} \cdot \tau \cdot H = 0{,}1 \cdot 3{,}8 \cdot 2{,}1 \cdot 0{,}8 \cdot 7{,}0 = 4{,}5 \text{ t/h},$$

bunda τ –smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti (1-jadval); H – g‘allaning hosildorligi, t/ha (1-jadval).

1.3. Kombayn bunkerining to‘lish vaqti t_b:

$$t_b = \frac{60 \cdot V_{bh} \cdot \rho_{g'} \cdot \lambda}{W_{ky}} = \frac{60 \cdot 3{,}2 \cdot 0{,}78 \cdot 0{,}9}{4{,}5} = 29{,}6 \text{ min},$$

bunda V_b – bunkerning hajmi, m^3 (1–jadval); $\rho_{g'}$ – g‘allaning zichligi, $\rho_{g'}$=0,78 t/m^3; λ – bunker hajmidan foydalanish koeffitsienti, λ = 0,9.

1.4. Transport vositasi kuzovining to‘lish vaqti $t_{to'l}$:

$$t_{to'l} = t_{bto'k} \cdot n_b + t_{o'tish}(n_b - 1),$$

bunda $t_{bto'k}$ – bir bunkerni to‘kish vaqti, $t_{bto'k}$=3-4 min; $t_{o'tish}$ – transport vositasini birinchi kombayndan ikkinchisiga o‘tishga ketgan vaqt, min, $t_{o'tish}$=2 min; n_b – bitta transport vositasini to‘ldirishga ketadigan bunkerlar soni, ta.

Bunkerlar soni n_b quyidagicha aniqlanadi:

$$n_b = \frac{V_{kuz}}{V_b} = \frac{10}{3{,}2} = 3{,}1$$

n_b ning qiymatini butun songa yaxlitlab n_b =3 deb olamiz.

bunda V_{kuz} – transport vositasi kuzovining hajmi, m^3, (1-jadval).

Olingan natijalarni e’tiborga olgan holda, 1.4 bandda keltirilgan ifodaga asosan transport vositasi kuzovining to‘lish vaqti $t_{to'l}$:

$$t_{to'l} = 4 \cdot 3 + 2(3-1) = 16 \text{ min}.$$

1.5. Quyidagi ifoda orqali transport vositasining harakatlanish vaqti t_{har}:

$$t_{har} = 60 \frac{2 \cdot l_{tash}}{v_{tex}} = 60 \frac{2 \cdot 30}{25} = 144 \text{ min}.$$

bunda l_{tash} – g‘alla tashiladigan masofa, l_{tash}=30 km; v_{tex} – transport vositasining o‘rtacha texnik tezligi, v_{tex}=25 km/h.

1.6. Transport vositasining sikl vaqti t_{ts}:

$$t_{ts} = t_{to'l} + t_{har} + t_{to'k} + t_{tt} = 16+144+6+5 = 171 \text{ min},$$

bunda $t_{bo'sh}$ – transport vositasini bo‘shatish vaqti, min; $t_{to'k}$=3-6 min; t_{tt} – transport vositasinining taroziga tortish va hujjatlarni rasmiylashtirishda turib qolish vaqti, t_{tt}=4-5 min.

1.7. G‘alla o‘rish kombayniga kerak bo‘ladigan transport vositalarining soni n_t:

$$n_t = \frac{t_{ts} N_{ks}}{(t_b + t_{tkuz}) n_b} = \frac{171 \cdot 2}{(29,6+4)\cdot 3} = \frac{342}{100,8} = 3,4,$$

n_t ning qiymatini butun songa yaxlitlab n_b=4 deb olamiz,

bunda N_{ks} – kombaynlarning soni, ta (1-jadval);

t_b – kombayn bunkerining to‘lish vaqti, min;

t_{tkuz} – transport vositasi kuzovining to‘lish vaqti, min;

n_b – bitta transport vositasiga bo‘shatiladigan bunkerlar soni, ta.

1.8. Transport vositasining haqiqiy siklini o‘rtacha vaqti t'_{ts}:

$$t'_{ts} = \frac{n_t (t_b + t_{bto'k}) n_b}{N_{ks}} = \frac{4\cdot(29,6+4)\cdot 3}{2} = \frac{403,4}{2} = 201,7 \text{ min}.$$

1.9. Transport vositasiga g‘allani yuklashdagi o‘rtacha turib qolish vaqti t'_{tv}:

$$t'_{tv} = t'_{ts} - t_{ts} = 201,7 - 171 = 30,7 \text{ min}.$$

Hisoblashlarda g‘alla kombaynlarning konstruktiv va ishchi parametrlari, bunkerning hajmi, hosildorlik darajasiga hamda transport vositalarining yuk ko‘tarish sig‘imi va harakat tezligiga ham bog‘lik ekan. Transport vositalarining turib qolish vaqtini kamaytirish orqali g‘alla o‘rish-tashish guruhidagi bajarilayotgan jarayonning umumiy ish unumini oshirishga olib keladi.

2-jadval

Kombaynlar va transport vositalarining tarkibi va ish unumining qiymatlari

Ko‘rsatkichlarning nomlanishi, belgilanishi va o‘lchov birligi	G‘alla kombaynlarining rusumi		
	CLAAS Dominator-130	NEW Holland TC 5.90	CASE 2366
Kombaynning ishchi qamrov kengligi, B_{ki}, m	3,8	4,9	5,2
G‘alla o‘rish kombaynining eng katta ishchi tezligi, v_{ki}, km/h	2,1	2,7	3,6
G‘alla o‘rish kombaynining smenadagi 1 h lik ish unumi, W_{ky}, h/t	4,5	7,5	10,6
Kombayn bunkerining to‘lish vaqti, t_b, min	29,6	29,0	23,8
Bunkerlar soni, n_b, ta	3	2	1
Transport vositasi kuzovining to‘lish vaqti, $t_{to'l}$, min	16	10	10
Transport vositasining harakatlanish vaqti, t_{har}, min	144	144	144
Transport vositasining sikl vaqti, t_{ts}, min	171	165	165

G‘alla o‘rish kombayniga kerak bo‘ladigan transport vositalarining soni, n_t, ta	4	5	6
Transport vositasining haqiqiy siklini o‘rtacha vaqti, t'_{ts}, min	201,7	165,0	166,8
Transport vositasiga g‘allani yuklashdagi o‘rtacha turib qolish vaqti, t'_{tv}, min	30,7	–	2

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, transport vositalari va kombaynlar orasidagi maqbul nisbat ta’minlanmaganda ularning turib qolish vaqtlarining ortishiga hamda bajarilayotgan ish jarayonning samaradorligini pasayishiga olib keladi. Hisoblashlarga ko‘ra, bir xil dala sharoiti va hosildorlik darajasida CASE 2366 kombayni va kuzovining sig‘imi 10 t bo‘lgan avtomobili ishtirokidagi o‘rish-tashish guruhida eng qisqa turib qolish vaqtiga ega bo‘lmoqda.

Olingan natijalar asosida dalalardan g‘alla yig‘ishtirib olishda transport xizmatini to‘g‘ri tashkil etishda transport vositalari sonini va turini ilmiy asoslangan holda tanlash zarurligi isbotlandi.

Shunday qilib, kombayn va transport vositalaridan iborat guruhlardagi muvofiqlashtirilgan holda foydalanish daladagi g‘allalarni o‘z vaqtida yig‘ib olish jarayonining samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Аставьев В.Л., Султанов И.И. Обоснование транспортного обеспечения на уборочных работах //Вестник науки и образования. – Москва, 2018. – № 15(51). Часть 1. – С. 24-29.

2. ГОСТ 17460-72 «Транспортно-производственные процессы в механизированном сельскохозяйственном производстве: классификация, оценка и методы расчета» от 01.01.1973. – М.: Издательство стандартов, 1973. – 83 с.

3. Долгодворов Г.М., Долматов Э.В. Уборочно-транспортные группы на уборке зерновых. – М.: «Колос», 1977. – 128 с.

4. Трубилин Е.И., Виневский Е.И., Припоров Е.В. Современные проблемы науки и производства в агроинженерии практикум. – Краснодар: КубГАУ, 2020. – С. 57-64.

УДК 68.01.39

АНАЛИЗ ТЕХНИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ ЖАМБЫЛСКОЙ ОБЛАСТИ

Утемуратов, Ж.Ж.
ТОО «НПЦ Агроинженерии», г. Алматы, Казахстан

Усманов, А.С.
ТОО «НПЦ Агроинженерии», г. Алматы, Казахстан

Калымбетов Б.Е.
ЮКИУ им. М.Ауэзова, г. Шымкент, Казахстан

Ерниязов С.К.
ТОО «НПЦ Агроинженерии», г. Алматы, Казахстан

Аннотация. В Послании Президента РК К.Токаева народу Казахстана поставлена задача, увеличить в ближайшие годы производительность труда в сельском хозяйстве в 3 раза по сравнению с 2020 г. Производительность труда в сельском хозяйстве определяется в значительной мере качественным и количественным составом МТП в агроформированиях и в целом по республике, а также использованием водо-, энерго- и ресурсосберегающих технологий, позволяющих увеличить урожайность сельскохозяйственных культур и продуктивность животных.

В аналитическом обзоре проведен анализ текущей ситуации в агроформированиях Жамбылской области: собрана и оценена состав хозяйствующих субъектов в аграрном секторе; структура сельскохозяйственных угодий в составе земель сельскохозяйственного назначения; общая земельная площадь хозяйствующих субъектов; доля распределения земель по категориям в разрезе областей и сельскохозяйственных угодий по землепользователям; определены средние размеры площади хозяйствующих субъектов по областям, средние размеры посевных площадей в агроформированиях, посевные площади основных сельскохозяйственных культур и наличия основных видов сельскохозяйственной техники по региону. Кроме того, определены доля КХ и ФХ в структуре сельскохозяйственных угодий и пашни с посевной площадью.

Из анализа следует, что в большинство районов Жамбылской области производят растениеводческой продукции в небольших агроформированиях, значительная часть которых имеют площадь пашни до 50 га.

Основными показателями полей, характеризующими природно-производственные условия работы машинно-тракторного агрегата, являются показатели, связанные с землеустройством и природными условиями.

Annotasiya. Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Q.To‘qayevning Qozog‘iston xalqiga Murojaatnomasida kelgusi yillarda qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini 2020-yilga nisbatan 3 baravar oshirish vazifasi qo‘yilgan. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi asosan agrotuzilmalardagi va umuman respublika bo‘yicha mashinalar-traktorlar parkining sifat va miqdoriy tarkibi, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish imkonini beradigan suv, energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalardan foydalanish bilan belgilanadi.

Tahliliy sharhda Jambil viloyati agrotarkiblaridagi mavjud holat tahlil qilindi: agrar sohadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar tarkibi; qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar

tarkibidagi qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibi; xo‘jalik yurituvchi subyektlarning umumiy yer maydoni; viloyatlar kesimida yerlarni toifalar bo‘yicha taqsimlash va yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi yerlari ulushi; viloyatlar bo‘yicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar maydonining o‘rtacha o‘lchamlari, agrotarkiblardagi ekin maydonlarining o‘rtacha o‘lchamlari, hudud bo‘yicha asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining ekin maydonlari va qishloq xo‘jaligi texnikasining asosiy turlari mavjudligi aniqlandi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi yerlari va ekin maydoni bilan haydaladigan yerlar tarkibida QX va FX ulushi aniqlandi.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, Jambil viloyatining aksariyat tumanlarida dehqonchilik mahsulotlari kichik agrotuzilmalarda yetishtiriladi, ularning katta qismi 50 gektargacha haydaladigan yer maydoniga ega.

Mashina-traktor agregati ishining tabiiy-ishlab chiqarish sharoitlarini tavsiflovchi dalalarning asosiy ko‘rsatkichlari yer tuzish va tabiiy sharoitlar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlardir.

Annotation. In the Message of the President of the Republic of Kazakhstan K.Tokayev The people of Kazakhstan have been tasked with increasing labor productivity in agriculture by 3 times in the coming years compared to 2020. Labor productivity in agriculture is largely determined by the qualitative and quantitative composition of agricultural enterprises in agricultural formations and in the republic as a whole, as well as the use of water, energy, and resource-saving technologies that increase crop yields and animal productivity.

The analytical review analyzes the current situation in the agricultural formations of the Southeastern region of Kazakhstan: the composition of business entities in the agricultural sector is collected and evaluated; the structure of agricultural land as part of agricultural land; the total land area of business entities; the share of land distribution by category in the context of regions and agricultural land by land users; the average size of the area of business entities is determined by region, the average size of the acreage in agricultural formations, the acreage of the main crops and the availability of the main types of agricultural machinery in the region. In addition, the share of agricultural farms and farms in the structure of agricultural land and arable land with acreage has been determined.

The analysis shows that in most areas of the Southeastern region, more than half of crop production is produced in small agricultural enterprises, a significant part of which have an area of arable land of up to 50 hectares.

The main indicators of fields that characterize the natural and industrial working conditions of a machine and tractor unit are indicators related to land management and natural conditions.

В настоящее время парк основных сельскохозяйственных машин в Жамбылской области составляет 40…60% от нормативной потребности. При этом более 70% машин выработали свой ресурс и подлежат списанию. Более 80% прицепных и навесных машин завозится по импорту, из них более 50% не адаптированы почвенно-климатическим условиям региона, не соответствует требованиям рекомендуемых технологии как следствие не обеспечивают требованиям качества работ. Количества списанных машин в несколько раз превышает их ввод. В результате, уровень ежегодного обновления парка машин снизился с 10…12,5% до 1…4,5%. Техническому оснащению агроформирований препятствует постоянный рост цен на сельскохозяйственную технику, ГСМ, минеральные удобрения, запасные части и прочие расходы.

В целом, состояние МТП неудовлетворительное и при существующих объемах приобретения новой техники его полное обновление практически невозможно. Одной из основных причин, препятствующих дальнейшему развитию АПК области является неудовлетворительное состояние технического обеспечения отрасли.

Исследования, направленные на прогнозирование технологического и

технического развития АПК с учетом анализа мирового опыта в данной сфере относятся к приоритетным направлениям–выявлению и структурированию технологической проблематики в приоритетных отраслях АПК и технологическому прогнозированию их развития.

Материалы и методы исследования

Работа выполнена применительно к условиям Жамбылской области. Использованы статистические данные МСХ РК, МПС РК, Агентства по статистике РК, Комитета по управлению земельными ресурсами [2].

Методы исследования – информационный поиск, изучение и системный анализ по техническому обеспечению АПК, методы технико-экономического анализа, эксплуатации сельскохозяйственной техники, системные подходы, обработка и обобщение материалов и др.

Сельскохозяйственная продукция Жамбылской области производится в пяти категориях сельскохозяйственных предприятий (СХП): в крестьянских (КХ) и фермерских (ФХ) хозяйствах; в товариществах ограниченной ответственности (ТОО) и акционерных обществах (АО); в производственных кооперативах (ПК); в негосударственных сельскохозяйственных организациях (НГСХО) и в государственных сельскохозяйственных организациях (ГСХО).

На рисунке 1 приведено распределение земель по категориям в разрезе Жамбылской области. Территория агрозоны составляет 11938,2 тыс. га (12,1% площади Юго-Восточного региона республики), из них: общая площадь земель сельскохозяйственного назначения – 4661,6 тыс. га (39% площади) Жамбылской области, в т.ч., земли населённых пунктов–842,2 тыс.га. (7,1%); земли промышленности, транспорта, связи, обороны и иного не сельскохозяйственного назначения–176,2 тыс.га (1,5%); земли особо охраняемых природных территорий–11,6 тыс.га (0,1%); земли лесного фонда– 4429,1 тыс.га (37,1%), земли водного фонда – 356,3 тыс.га (3%); земли запаса – 1461,2 тыс.га (12,2%).



Рисунок 1 – Распределение земель по категориям в разрезе Жамбылской области

На рисунке 2 приведен состав земель сельскохозяйственного назначения по видам угодий в разрезе Жамбылской области. Общая площадь земель сельскохозяйственного назначения составляет 4661,6 тыс.га или 13,8% общей площади по Юго-Восточному региону страны, из них сельскохозяйственных угодий–4528,1 тыс.га, в т.ч. по угодьям: пашня–781,5 тыс.га (17,3%); многолетние насаждения–3,8 тыс.га (0,1%); сенокосы–129,2 тыс.га (2,9%); пастбища–3613,6 тыс.га (79,8%).

В Жамбылской области, где находится общая посевная площадь 232,4 тыс.га орошаемых (поливных) земель или 12,7% площади Юго-Востока республики, занимаются овощеводством, свекловодством, садоводством и др. На поливных землях преобладает мелкоконтурность, возделываются главным образом пропашные культуры.



Рисунок 2 – Структура состава земель сельскохозяйственного назначения по видам угодий

В результате проведенных реформ в АПК на Юго-Восточном регионе в т.ч. Жамбылской области образованы агроформирования различных форм хозяйствования: (СХП), включающие КХ и ФХ; ТОО и АО; ПК; НГСХО и ГСХО. Общая площадь земли хозяйствующих субъектов Жамбылской области составляют 4660,8 тыс.га, в т.ч. КХ и ФХ – 3390,5 тыс.га или 72,7% площади региона, ХТ и АО – 849 тыс.га; ПК – 88,6 тыс.га; другие НГСХО и ГСХО соответственно 135,5 тыс.га и 197,2 тыс.га (рисунок 3).




Рисунок 3 – Общая земельная площадь хозяйствующих субъектов Жамбылской области

Общее число агроформирований Жамбылской области составляет – 18990 ед.; При этом здесь преобладают КХ и ФХ – 18587 ед. (97,9% к численности агроформирований по республике), ТОО и АО – 235 ед.(1,2%); ПК – 28 ед.(0,2%); НГСХО и ГСХО организации соответственно по 65 ед. (0,34%), (рисунок 4).




Рисунок 4 – Общее число агроформирований Жамбылской области

Средний размер площади сельскохозяйственных угодий составляет: КХ и ФХ – 182,4 га; ТОО и АО – 3613 га; ПК – 2332 га; НГСХО – 2085 га; ГСХО – 3034 га рисунок 5). В среднем по Жамбылской области – 245,4 га.




Рисунок 5 – Средние размеры посевных площадей в агроформированиях Жамбылской области

Следует отметить, что в республике продолжается процесс формирования хозяйствующих субъектов аграрного сектора. Наряду с образованием новых субъектов хозяйствования, происходит распад и реорганизация ранее созданных [3].

Таким образом, в Жамбылской области основная часть КХ и ФХ может иметь посевную площадь до 50 га. Следует отметить, что в целом по республике 87,1% КХ и ФХ имеют площадь пашни до 50 га.

Проведенный в ходе земельной реформы процесс реформирования крупных землепользований с выделением большого количества мелких земельных участков для организации КХ, ФХ и других форм хозяйствования, выполняя положительную функцию по становлению реального собственника на земле, выявил целый ряд недостатков, негативно сказывающихся на уровне эффективности сельскохозяйственного производства, проведении мероприятий по организации рационального использования и охраны земель. В результате некоторые хозяйствующие субъекты оказываются неспособными осуществлять свою хозяйственную деятельность.

В Жамбылской области возделываются зерновые и зернобобовые культуры на богаре и на орошаемых землях, масличные, кормовые и овощебахчевые культуры [4].

Зерновые и бобовые культуры включают пшеницу (озимую и яровую), кукурузу на зерно, ячмень (озимый и яровой), рожь, овес, сорго, гречиху, просо, смесь колосовых, бобовые культуры: горох, фасоль, прочие бобовые. В данный перечень не включены зерновые и бобовые культуры на зеленый корм, сено, силос для получения гранул и брикетов на корм скоту и птице, посевы вики и виковых смесей на сено.

К масличным культурам относятся бобы соевые, орехи земляные, семена подсолнечника, сафлора, рапса, горчицы, и др.; к кормовым культурам: кормовые (свекла кормовая), бахчевые, кукуруза на корм, однолетние и многолетние травы на сено, зеленый корм, сенаж, силос, травяная мука для получения гранул и брикетов на корм скоту и птице.

В рисунке 6 представлена посевная площадь основных сельскохозяйственных культур в разрезе Жамбылской области. Наибольшая площадь посева составляет:

- зерновые и зернобобовые культур всего 366,1 тыс.га (58%), в т.ч. пшеница – 165,2 тыс.га (45,1%), ячмень – 187,7 тыс.га (51,3%) и кукуруза на зерно – 13,2 тыс.га (3,6%);
- кормовые культуры – 177,7 тыс.га (28%);
- масличные культуры всего 34,3 тыс.га (5%) из них подсолнечник – 2 тыс.га (5,8%), соя – 1,3 тыс.га (3,8%) и сафлор 31 тыс.га (90,4%);
- сахарная свекла – 11,3 тыс.га (2%);
- картофель – 6,7 тыс.га (1%);
- овощи – 29,47 тыс.га (5%);

- бахчевые – 5,4 тыс.га (1%) ;

Всего 630,9 тыс.га посевной площади сельскохозяйственных культур.




Рисунок 6 – Посевная площадь основных сельскохозяйственных культур

Данные по наличию основных видов сельскохозяйственной техники в Жамбылской области составляют: тракторов - 4534 ед., зерноуборочных комбайнов – 766 ед. кукурузоуборочных комбайнов – 8 ед., свеклоуборочные комбайны – 37 ед., кормоуборочные комбайны – 172 ед. (), картофелеуборочных комбайнов – 2 ед. (5,3%), сеялок – 740 ед., посевные комплексы – 6 ед., плугов – 4001 ед., культиваторов – 551 ед., плоскорезы – 175 ед., опрыскивателей – 167 ед., жаток – 62 ед., прицепы – 1735 ед., пресс-подборщики – 529 ед., протравители семян - 75 ед. Следует отметить, что практически вся техника имеет большой износ: трактора с возрастом 10 лет и более составляет около 85%, зерноуборочные комбайны более 65%, сеялки 90%, плуги – 92%. Следовательно, МТП требует скорейшего обновления. Однако небольшие хозяйства не в состоянии приобретать современную высокопроизводительную дорогую технику. Для этих хозяйств необходима универсальная недорогая техника [5].

Структура тракторного парка по тяговым классам тракторов Жамбылской области представлена на рисунке 7




Рисунок 7 – Структура тракторного парка по тяговым классам

Заключение

- Определено, что в Жамбылской области, средняя посевная площадь КХ и ФХ составляет – 182,4 га; средняя посевная площадь в ТОО и АО - от 434,5 га до 3612,8 га.

- Из анализа группировки хозяйств по наличию пашни видно, что в целом по Жамбылской области КХ и ФХ имеют площади пашни до 50 га. составляет 74,3% (по республике 77,1%).

- Собраны исходные данные для разработки Системы технологий и машин для

комплексной механизации растениеводства и нормативов потребности сельскохозяйственной техники для выполнения механизированных полевых работ в Жамбылской области.

ЛИТЕРАТУРА

1. Сводный аналитический отчет о состоянии и использовании земель РК за 2023 г. - Астана, 2024. - 315 с.

2. Сельское, лесное и рыбное хозяйство в РК (2019-2023 гг.). – Астана, 2024. – 152 с.

3. Усманов А.С., Голиков В.А., Рзалиев А.С. Состояние технического обеспечения АПК и сельскохозяйственного машиностроения в Казахстане / Научно-аналитический обзор. – Алматы: Ad time, 2015. - 274 с.

4. Усманов А.С., Голиков В.А., Рзалиев А.С., Утемуратов Ж.Ж. Состояние машинно-тракторного парка АПК юга-восточного региона Казахстана. АгроЖизнь / Россия – Казахстан, 2018, № 10. – С. 6-7

5. Усманов А.С., Утемуратов Ж.Ж., Боранбаев Б.Е. Қазақстан Оңтүстік-Шығыс аймағы агроөндіріс кешені машина-трактор паркінің жағдайы. Қазақстан жоғары мектебі, № 1, 2019. – Б. 132-141.

UO‘T 631.3:620.92

PAXTA TERISH MASHINALARIGA TEXNIK XIZMAT KO‘RSATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Xudaykuliyev R.R.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy tadqiqot instituti, t.f.n., k.i.x.

Urinov A.P.
M.T.O'rozboev nomidagi Mehanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti.

Kupaysinova X.A.
M.T.O'rozboev nomidagi Mehanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti.

Annotasiya. Maqolada paxta terish mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatishda qo‘llanilayotgan zamonaviy usullar, ularning samaradorligi hamda ishlab chiqarishni optimallashtirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, texnologik yechimlar, raqamlashtirish, avtomatlashtirish va masofaviy monitoring tizimlarining afzalliklari tahlil qilingan.

Аннотация. В статье освещены современные методы, применяемые при техническом обслуживании хлопкоуборочных машин, их эффективность и значение в оптимизации производства. Также проанализированы преимущества технологических решений, систем цифровизации, автоматизации и дистанционного мониторинга.

Annotation. The article highlights modern methods used in the maintenance of cotton harvesting machines, their effectiveness and significance in optimising production. It also analyses the advantages of technological solutions, digitalisation systems, automation and remote monitoring.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida paxta yetishtirish muhim strategik ahamiyatga ega. Hosilni yig‘ib olish jarayonida paxta terish mashinalari (CHP–cotton harvester picker) asosiy rol o‘ynaydi. Mashinalarning uzluksiz ishlashi, samaradorligi va ishonchliligi texnik xizmat ko‘rsatish tizimiga bevosita bog‘liq. An’anaviy texnik xizmat ko‘rsatish usullari ko‘proq rejalashtirilgan tekshiruv va ta’mirlash ishlari bilan chegaralangan bo‘lsa, hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar asosida xizmat ko‘rsatishning yangi yondashuvlari shakllanmoqda [1].

1. Diagnostika va monitoring tizimlari

Sensorli monitoring–dvigatel, gidravlik tizim, terish apparatlari va transmissiya qismlarida ishlash parametrlari onlayn nazorat qilinadi.

Vibratsion diagnostika–rulman va harakatlanuvchi qismlarning ishlash muddatini prognoz qilish imkonini beradi.

IoT texnologiyalari–mashinalar telemetriya orqali markaziy serverga ma’lumot uzatib, servis markazlari uchun real vaqtda nazoratni ta’minlaydi.

2. Raqamli texnik xizmat ko‘rsatish

Predictive maintenance (bashoratli xizmat)–mashinaning ishlash ko‘rsatkichlariga asoslanib, qaysi qism qachon ishdan chiqishini oldindan aniqlash.

Big Data tahlili–katta hajmdagi servis ma’lumotlari asosida eng ko‘p uchraydigan nosozliklarni guruhlash va ularga qarshi algoritmlar ishlab chiqish.

3. Servis intervallarini optimallashtirish

An’anaviy tizimda xizmat mashina ishlagan motosoat yoki ish mavsumiga qarab amalga oshirilsa, hozirgi usullar ishlash sharoiti va yuklanish darajasiga mos ravishda moslashuvchan servis intervallarini qo‘llashni taklif etadi.

Bu yondashuv ekspluatatsiya xarajatlarini 10–15% ga kamaytirishi mumkin.

4. Avtomatlashtirilgan ta’mirlash texnologiyalari

Robotlashtirilgan moylash tizimlari–ishchi organlarga avtomatik ravishda servis moylarini uzatadi.

3D-printing orqali ehtiyot qismlar ishlab chiqarish–uzoq muddatli logistika muammolarini bartaraf etadi.

5. O‘zbekiston sharoitida qo‘llanish imkoniyatlari

Paxta yig‘im-terim davri qisqa bo‘lgani sababli mashinalarning uzluksiz ishlashi muhim [2].

Raqamli servis markazlari tashkil etish, klasterlar kesimida mobil servis guruhlarini joriy etish samarali yechim bo‘lishi mumkin.

Mahalliy sharoitda ishlab chiqariladigan ehtiyot qismlarni 3D texnologiyalar asosida tezkor tayyorlash imkoniyati xizmat sifatini oshiradi [3].

Metodologiya

Texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar hisobga olindi:

Texnik tayyorgarlik koeffitsienti:

$$K_{tt} = \frac{T_{ish}}{T_{ish} + T_{to'xtash}} \quad (1)$$

bu yerda: T_{ish} – mashinaning ishlash vaqti (soat),

$T_{to'xtash}$ – nosozlik sababli to‘xtash vaqti (soat).

Ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish foizi:

$$E_x = \frac{X_{an'ana} - X_{zamonaviy}}{X_{an'ana}} \times 100\% \quad (2)$$

bu yerda: $X_{an'ana}$ – an’anaviy xizmat xarajatlari,

$X_{zamonaviy}$ – zamonaviy usullar bilan xizmat xarajatlari.

Natijalar

1. Diagnostika va monitoring samaradorligi

Masofaviy monitoring tizimlari orqali nosozliklarni erta aniqlash natijasida mashinaning mavsumiy to‘xtash vaqti 25–30 % gacha kamaydi [4].

2. Xarajatlarni kamaytirish

Hisob-kitoblarga ko‘ra, zamonaviy usullar qo‘llanganda ekspluatatsiya xarajatlari o‘rtacha:

$$E_x = \frac{100-82}{100} \times 100 = 18\% \quad (3)$$

ya’ni 18 % gacha iqtisod qilinishi kuzatildi.

Xulosa

Paxta terish mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatishning zamonaviy usullari, jumladan diagnostika tizimlari, raqamli monitoring, bashoratli servis va avtomatlashtirilgan ta’mirlash texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida bu usullarni joriy etish paxta yetishtirish va yig‘ib olish jarayonida xarajatlarni kamaytirish, hosilni o‘z vaqtida terib olish va mashinalarning xizmat muddatini uzaytirishga imkon yaratadi.

Zamonaviy yondashuvlar:

- texnik tayyorgarlik koeffitsientini oshiradi;
- ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartiradi;
- hosil yig‘im-terim jarayonida uzluksizlikni ta’minlaydi.

Kelajakda servis markazlarida raqamli diagnostika, IoT texnologiyalari va 3D bosma

ehtiyot qismlarni qo‘llash samaradorlikni yanada oshiradi [5].

ADABIYOTLAR

1. Toshboltayev M., Rustamov R., Seytimbetova Z. Qishloq xo’jalik mashinalariga firmaviy texnik servis ko’rsatish tizimining matematik va statistik modellari. Toshkent 2011 – B. 53-58.

2. Axmedov, B. Qishloq xo‘jalik mashinalariga texnik xizmat ko‘rsatishda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan nashriyoti 2022 – B 142.

3. Karimov, S., & To‘xtayev, O. Paxta terish mashinalarida raqamli diagnostika tizimlari. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2021. №3, B. 45–52.

4. ISO 14224:2016. Petroleum, petrochemical and natural gas industries - Collection and exchange of reliability and maintenance data. Geneva: ISO.

5. Smith, J., & Brown, A. Predictive Maintenance and Monitoring in Agricultural Machinery. Springer, 2020.

UO‘T 631.363.2

К ВОПРОСУ ИЗМЕЛЬЧЕНИЯ ГРУБЫХ КОРМОВ В ПРЕССОВАННОМ ВИДЕ

Каршиев Ф.У.
Термезский государственный университет.

Ёдгоров Ж.Н.
Каршинский государственный технический университет.

Аннотация. В статье приведена классификация измельчителей кормов, разработанная на основе анализа конструкций существующих технических средств по приготовлению кормов, предложена конструктивно-технологическая схема измельчителя грубых кормов в прессованном виде.

Annotasiya. Maqolada mavjud ozuqa tayyorlash texnika vositalarining konstruksiyalarini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan ozuqa maydalagichlarning tasnifi keltirilgan, dag‘al ozuqalarni presslangan holda maydalagichning konstruktiv-texnologik sxemasi taklif etilgan.

Annotation. The article presents a classification of feed grinders developed on the basis of an analysis of the designs of existing technical means for feed preparation and proposes a design and technological scheme for a grinder for coarse feed in pressed form.

Измельчением называется процесс разделения твердого тела на части механическим путем, то есть приложением внешних сил, превосходящих силы молекулярного сцепления. При приготовлении кормов измельчению подвергаются зерно злаковых, бобовых и масличных культур, мел, соль, прессованные корма, пищевые отходы, сено, солома, корнеклубнеплоды, зеленая масса трав. Теорию резания лезвием разработал академик В.П. Горячкин, а дальнейшее развитие она получила в работах В.А. Желиговского, Г.И. Бремера, А.Н. Карпенко, М.В. Собликова и других ученых. Факторами, которые влияют на процесс резания: удельное давление, скольжение, геометрические параметры ножа, свойства материала из которых изготовлен нож, рабочая скорость ножа, прочность и состояние разрезаемого материала, зазор режущей пары, угол резания, защемление материала.

Таблица 1

Технические характеристики измельчителей

Наименование параметров	Показатели измельчителей							
	ИСРК-12	ИРК-145	ИРТ-Ф-80	ГК-5	ИТ-165	ИСС-180	ИР-1,8	ИРР-1М
Габаритные размеры, мм:								
длина	6300	3800	4400	5500	11550	1000	6100	2370
ширина	2200	2400	5000	2100	3025	2600	2875	2100
высота	2500	2500	3450	2650	3630	3300	3100	2300
Производительность, т/ч	7,6	3,18	3...8	3,5	16	2,5	3,9	2,0
Установленная мощность привода, кВт	70	50	58,8	40	160	49	55	40

Измельчающий аппарат	Шнек с измельчающими ножами	Диск с 8-ю ножами	Молотки	Штифты	Молотки	Ножи молотки	Молотки	Молотки
Грузоподъёмность, т	4,0	0,8	-	1,6	5,0	1,5	1,2	1,0

Молотковый измельчитель рулонов соломы более эффективен в сравнении с барабанным, так как обеспечивает равномерное измельчение материала без рывков. Длина фракций измельченного материала в стандартной комплектации составляет от 8 до 12 см или 7-8 см при использовании усиленного ротора (с большим количеством ножей). Основной рабочий орган в измельчителе рулонов ИР-8-барабан-измельчитель, расположенный в передней части камеры, с помощью установленных на нём ножей (лезвий), обеспечивает измельчение материала. Разгрузочное устройство имеет возможность с помощью гидравлики изменять высоту и дальность выброса измельчённого материала. Работа измельчителя рулонов корма ИРК-145 основана на организации встречного вращения находящегося в барабане измельчителя рулона корма и фрезы, которая представляет из себя диск с 8-ю ножами, находящийся в нижней части днища барабана. Рулон прижимается к фрезе под действием собственного веса, в результате чего происходит измельчение прессованной массы грубых кормов. Измельченная масса попадает в полость под фрезой, попадет на лопасти крыльчатки ротора, под их действием выносится вверх и поступает в выгрузной рукав. Принцип работы измельчителя соломы ИС-2000 состоит в том, что сырье с помощью транспортера поступает в барабан измельчителя соломы. Измельчение происходит режущими ножами, установленными на барабанах измельчителя. Разрушенная солома подается на молотковую дробилку

Цель исследования-снижение энергоемкости процесса измельчения, путем разработки измельчителя с дисковым рабочим органом, оснащенным комбинированными режущими сегментами, и обоснование его конструктивно-режимных параметров.

Анализируя существующие технические средства для измельчения и раздачи кормов животным, измельчители можно классифицировать последующим признакам: по роду использования; по конструктивному исполнению; по способу подачи корма; по расположению режущего аппарата; по конструкции режущего аппарата; по способу измельчения кормов; по виду резания; по виду измельчающих элементов; по способу выгрузки кормов.

Методика исследований. Разработана следующая конструктивно технологическая схема измельчителя, которая включает в себя: бункер, измельчающий рабочий орган конусного типа с зубчатыми измельчающими элементами и двухплоскостными сегментами, лопастное колесо, выгрузной воздуховод. Измельчитель работает следующим образом (рис.2,3). Корма, заготовленные в рулонные тюки, загружают в вертикальный цилиндрический бункер с шнековой навивкой, размещенный на раме с ходовой частью, накалывают на иглу.

Измельченный материал поступает в ромбообразные отверстия, откуда подается посредством лопастного колеса в выгрузной воздуховод, посредством которого загружается в кормушки животных.

В процессе экспериментальных исследований решались вопросы по изучению физико-механических свойств стебельных кормов; исследованию процессов измельчения

грубых кормов; оценка работоспособности предлагаемой конструктивно-технологической схемы измельчителя; выбор наиболее значимые факторы, влияющие на процессы в измельчителе, и оптимизация основных параметров, влияющих на эффективность рабочего процесса. Задача оптимизации заключается в нахождении оптимального сочетания конструктивно-технологических факторов оборудования, при котором заданное количество всех видов кормов будет произведено с более высоким качеством.




Рис. 2 - Общий вид измельчителя




Рис. 3 - Измельчающий рабочий орган

Результаты исследований. В результате поисковых исследований было выбрано оптимальное количество зубчатых сегментов, расположенных по периметру измельчающего рабочего органа Z=6-9; количество измельчающих двухплоскостных дугового профиля сегментов n=7-9; угол между измельчающим рабочим органом конусного типа и горизонтальными зубчатыми измельчающими элементами а=30^0 до 35^0.Поэтому дальнейшие экспериментальные исследования по оптимизации конструктивно-режимных параметров измельчителя грубых кормов. График экспериментальной зависимости удельной энергоемкости Nуд показывает, что максимальные затраты удельной энергоемкости $N_{уд}$=0,0079 кВт ч/кг находятся при угловой скорости вращения измельчающего рабочего органа равной ω = 3,14 с-1. В первоначальный момент времени, затраты энергии минимальные и составляют $N_{уд}$=0,005 кВт ч/кг, поэтому вначале показатель удельной энергоемкости низкий, а затем нарастает.

Заключение

На основании проведенных исследований разработана конструктивно-технологическая схема раздатчика-измельчителя грубых кормов, заготовленных в прессованном виде, разработана программа и методика экспериментальных исследований.

Экспериментальные исследования подтвердили теоретические предпосылки для расчета конструктивно-режимных параметров раздатчика-измельчителя, такие как: угловая скорость вращения измельчающего рабочего органа, ω = 4,6-4,8, $с^{-1}$, количество зубчатых сегментов, расположенных по периметру измельчающего рабочего органа, z = 9; количество измельчающих двухплоскостных дугового профиля сегментов, n = 8; угол между измельчающим рабочим органом конусного типа и горизонтальными зубчатыми измельчающими элементами, α = 40^o при этом удельная энергоемкость процесса составляет $N_{уд}$ = 0,05 – 0,079 кВт·ч/кг.

ЛИТЕРАТУРА

1. F.Karshiyev, Y.Shamayev, J.Yodgorov. Don va dag`al ozuqa maydalagich-ezgichlarning ish sifati ko‘rsatkichlari / Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti ilmiy-texnik elektron jurnali. – Qarshi, – 2024. №3. B. 33-40.

2. Karshiyev F.U., SHamayev Y.J., Yodgorov J.N. Kichik chorvachilik xo‘jaliklari uchun Don maydalash qurilmasini dolzarbligi / AGRO ILM – O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi jurnali. – Toshkent, – 2025. №2. – B. 154-155.

3. Каршиев Ф. У., Ёдгоров Ж. Н., Шамаев Ю. Ж. Обоснование параметра и режима работы малогабаритного дробильного устройства для обработки грубых кормов / Mexanika va texnologiya ilmiy jurnali. – Namangan, – 2025. №2. – B. 115-119.

4. F.U.Qarshiyev, Sh.X.Gapparov, J.N.Yodgorov. Ozuqa tayyorlash qurilmasini ishlab chiqish bo`yicha izlanishlar / Termiz Davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Barqaror rivojlanish doirasidayengil sanoat, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohalarining innovatsiontexnologiyalardagi o‘rni Xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz-2025. 13-18 betlar.

5. К.Д.Астанақулов, Ш.Ҳ.Гаппаров, Ж.Н.Ёдгоров Озуқа майдалаш қурилмасини ишлаб чиқиш бўйича изланишлар / Termiz Davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti Barqaror rivojlanish doirasidayengil sanoat, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohalarining innovatsiontexnologiyalardagi o‘rni Xalqaro ilmiy-texnik anjuman. Termiz-2025. 51-55 betlar.

UO‘T. 631.362.36

SHOLI URUG‘IGA ELEKTRTEXNOLOGIK USULDA ISHLOV BERISH ORQALI DALA SHAROITIDA UNUVCHANLIGINI OSHIRISH

Akramov N. N.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institute, tayanch doktorant

Annotasiya. Ushbu maqolada sholining “Iskandar” navli urug‘iga elektrtexnologik ishlov berish orqali unuvchanlik va tuproqdagi mikroelementlarga Ultrabinafsha nurlarning(UBN) ta’sir natijalari keltirilgan. Tadqiqotlar natijalaridan UB nurlantirgichning o‘simlikka elektr ta’siri, urug‘larning ekish oldidan UBNning 253,7+300 nm to‘lqin uzunligi va 30,60,90 W quvattga ega lampalarda ishlov berish orqali dala sharoitida unuvchanligi 30 foiz ga oshgani, ildizlarning hosil bo‘lishi 15 foizga tezlashishi, hayotiy jarayonlar faollashishi, tuproqdagi almashuvchan kaliy va harakatchan fosfor miqdorini sezilarli oshgani aniqlangan.

Аннотация. В данной статье преведены результаты влияния ультрафиолетовых лучей (УФО) на всхожесть семян риса сорта “Искандар” при электротехнологической обработке. Результаты исследований показали, что электрическое воздействие УФ-облучателя на растения, обработка семян перед посевом УФО-лампами с длиной волны 253,7 + 300 нм и мощностью 30, 60, 90 Вт повысили всхожесть семян в полевых условиях на 30%, ускорили образование корней на 15%, активизировали жизненно важные процессы, значительно увеличили содержание обменного калия и подвижного фосфора в почве.

Annotation. This article presents the results of the effect of ultraviolet rays (UVR) on the germination of Iskandar rice seeds by electrotechnological treatment. The results of the research showed that the electrical effect of the UV irradiator on the plant, the treatment of seeds before sowing with UVR lamps with a wavelength of 253.7 + 300 nm and a power of 30, 60, 90 W, increased the germination of seeds in field conditions by 30%, accelerated the formation of roots by 15%, activated vital processes, and significantly increased the content of exchangeable potassium and mobile phosphorus in the soil.

O‘zbekistonda sholichilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega, so‘nggi yillarda ushbu sohada bir qator muammolar kuzatilmoqda, shu bilan birga, ularni bartaraf etish uchun turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sholi o‘simligi tropik mintaqadan kelib chiqqaniga qaramay, mo‘tadil iqlimli hududlarda keng tarqalgan. Bu ekinni yetishtirishning ham o‘ziga xos agrotexnologiyalari mavjud va ularni takomillashtirib borish sohaning dolzarb masalalaridan sanaladi. Sholi yetishtirishda ko‘p suv talab qilingani bois, jarayonda ilg‘or resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshiradi.


Sholichilikda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishda innovatsion va resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, eksportbop, jahon bozorida xaridorgir guruch mahsulotlari yetishtirish bo‘yicha dolzarb muammolarni hal etish zarur.

Bugungi kunda sholidan olinayotgan o‘rtacha hosildorlik sarflanayotgan harajatlarni qoplamayapti. Ekiladigan urug‘lik sarfi gektariga 200 kilogrammdan ortiq bo‘lib, unib chiqish darajasi 36-38 foiz atrofida.

O‘zbekistonda aholining guruchga bo‘lgan o‘rtacha yillik ehtiyoji 333,2 ming tonnani tashkil qiladi. Bugungi kunda Respublikada sholi hosildorligi gektaridan o‘rtacha 45,9 sentnerni, yalpi hosil 661 ming tonnani tashkil etmoqda. Sholi dunyoning 115 dan ortiq mamlakatlarida 155 mln. gektarga yaqin maydonlarda yetishtiriladi hamda qariyib 3 mlrd. kishining asosiy oziq-

ovqat manbai hisoblanadi. Har yili o‘rtacha 600 mln tonnagacha yalpi sholi mahsuloti yetishtirilib, dunyo bo‘yicha hisoblaganda kishi boshiga taxminan 90 kg gacha miqdorni tashkil etadi.

1-rasmda 2024-yilda O‘zbekistonda guruch yetishtirish bo‘yicha diagramma tasvirlangan.



1-rasm. 2024-yilda O‘zbekistonda guruch yetishtirishni bo‘yicha diagramma

Respublika qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan islohotlar samarasi natijasida don yetishtirish, xususan, sholi-guruch ishlab chiqarishni ko‘paytirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [1]. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 dekabr kuni o‘tkazilgan kengaytirilgan videoselektor yig‘ilishida hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Sholichilikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 986-sonli qarorida sholining eksportbop, yuqori hosildor, sho‘rga, zararkunanda va kasalliklarga chidamli, don sifati yuqori bo‘lgan navlari va duragaylarini yaratish, ularning birlamchi urug‘chiligini tashkil etish, shuningdek, resurstejamkor yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqish vazifalari belgilab berilgan [2].


Ushbu yo‘nalishda, jumladan, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga bosqichli elektrotexnologik ishlov berish orqali ularning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish imkonini beradigan energiya va resurstejamkor qurilmalarni ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘lari va ko‘chatlariga bosqichli elektrotexnologik ishlov berish, ya’ni ultrabinafsha nur (UBN) bilan ishlov berish hamda elektr faollashgan suvda (EFS) namlashga yo‘naltirilgan texnologiyani ishlab chiqish, uning texnologik ish jarayoni hamda parametrlarini asoslash dolzarb hisoblanadi.

UBN bilan nurlatish hisobiga o‘simliklarning avjlantirish va o‘sish jarayonini nazorat qilish va o‘simliklar hosildorligini oshirish bo‘yicha L.G.Prishev, I.F.Borodin, S.A.Rakutko, N.P.Kondratieva, M.G.Krasnolutskaya, A.S.Leshchev, R.G.Bolshin va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Respublikada o‘simliklarga nurlatish usuli bilan elektrofizik ta’sir etish texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo‘llab, qurilmalarning parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar A.Muxammadiev, T.Bayzakov, E.Faxrutdinov, N.Karimov, M.Ismoilov, M.Xoliyarov, X.Mirzaaxmedov, D.R.Yusupov, O.Aripov, A.Turdibaev, U.Eshmurodov, I.Usmonov, N.Maxmudov va boshqalar tomonidan bajarilgan. Ammo mazkur tadqiqotlarda sholi ko‘chatlarini yetishtirishda elektrotexnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar o‘tkazilmagan.

Sholi urug‘lariga ekish oldidan ishlov berishda UBN manbalari sifatida 30, 60, va 90 W quvvatga ega va 253,7 nm va 300 nm to‘lqin uzunligida nur tarqatadigan bakteritsid lampalar o‘rnatilgan yoritgich stenddan foydalanildi. Tadqiqotlar 2024 yilning aprel-may oylari oralig‘ida ayni sholi yetishtirish davrida Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining dala tajriba maydonida o‘tkazildi.

Sholi dala maydonida uchraydigan turli xil zararkunandalardan foriq etish uchun ekishga

ajratilgan sholi pollariga UBN ning (60+60) W quvattda va 253,7+300 nm to‘lqin uzunligida ishlov berildi. Ekish oldidan har bir variant uchun tanlab olingan sholi urug‘lari 2-rasmda tasvirlangan stend yordamida ikki xil to‘lqin uzunligida $P_{253,7}$ +P_{300} nm hamda uch xil quvvatda (30+30), (60+60), (90+90) W nurlantirildi.



a) b)

2-rasm. Sholi urug‘larini ultrabinafsha nurlantiruvchi laboratoriya stendi (a) va sholi urug‘lariga nur berish jarayoni (b)

Tadqiqot va kuztuvlar sholining “Iskandar” navli urug‘iga elektrtexnologik usulda ishlov berib ekilganda, dala sharoitidagi unuvchanligi nazoratga nisbatan sezilarli oshganini ko‘rsatdi.

1-Jadval

“Iskandar” navli sholi urug’ini dala sharoitida unuvchanlik ko‘rsatgichlari

T/r	Variantlar nomi	Ildiz uzunligi , cm	Poya uzunligi , cm	Ildiz massasi, gr	Poya massasi, gr	1-m^2 da unib chiqgan ko‘chatlar soni, dona
1	Yerga UBN bilan ishlov berilgan,(60+60)W, urug’ga (90+90)W	3,5	8	0,3	0,4	480
2	Yerga UBN bilan ishlov berilgan,(60+60)W, urug’ga (60+60)W	3	7.5	0,3	0,4	456
3	Yerga UBN bilan ishlov berilmagan, urug’ga(90+90)W	2	5,5	0,2	0,2	306
4	Yerga UBN bilan ishlov berilmagan, urug’ga(60+60)W	2,5	6	0,3	0,3	340
5	Nazorat	1,5	4,5	0,1	0,2	260

Jadvalda sholining “Iskandar” navli urug‘ga elektrtexnologik ishlov berilib so‘ng dala sharoitida ekilgandan so‘ng 7-kunda olingan natijalar keltirilgan.


Olingan natijalar shuni ko’rsatdiiki, eng yaxshi natija 2-variantda olindi, bunda UBN bilan bir vaqtda ham tuproqga ham urug‘ga ishlov berilgan. Ushbu variantda nazoratga nisbatan ildiz va poya uzunliklari 1,5 va 3 santimetrga uzunligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari ildiz va poya massasi 0.2 gramm ga og‘ir ekanligi aniqlandi. Dospexov metodi bo’yicha [3] 1m^2 da unib chiqgan ko‘chatlar soni esa nazoratga nisbatan 196 donaga ko‘p ekanligini ko‘rish mumkin.

3 va 4-rasmda nazorat va elektrotexnologik ishlov berilgan sholi urug‘larini dala

sharoitidag i unuvchanligidan lavhalar tasvirlangan.



3-rasm. Nazorat va ishlov berilgan sholi urug‘larini dala sharoitidagi unuvchanligi



4-rasm. Dala sharoitida unib chiqgan ko‘chatlarning ko‘rinishi

Tadqiqotlar natijalaridan UBNning o‘simlikka elektr ta’siriga kelsak, urug‘larga ekish oldidan ishlov berishdan keyin dala sharoitida vegetatsiya davrida ularni har 7 kunda bir marotaba 60 W quvvatli 253,7+300 nm to‘lqin uzunligida nur berilganda orqali ildizlarning hosil bo‘lishi 15 foizga tezlashishi, hayotiy jarayonlar faollashishi, ekinlarning hosildorligi 15-20 foizga ko‘payib pishish muddati tezlashishi aniqlandi.

Tuproqqa elektr ta’siriga kelsak, bu jarayon yuqorida aytib o‘tilganidek, shudgorlash, tuproqni urug‘larni ekish uchun tayyorlash (tekislash, tirmalash yoki yupqalash) jarayonida, urug‘larni ekish paytida yoki oldin bir vaqtning o‘zida amalga oshirilishi mumkin. Bunda o‘simlik tuprog‘ida uchraydigan har xil turdagi kasalliklarga qarshi kurashish hamda tuproq tarkibidagi, almashuvchan kaliy va harakatchan fosfor miqdorini oshirish imkoni paydo bo‘ladi[4].

Xulosa

Sholi urug‘larini ultrabinafsha nurlantirish parametrlari va rejimlarini o‘rganish bo‘yicha mazkur tadqiqotlarda yerga UBN bilan (60+60)W va urug’ga (90+90)W quvvatda ishlov berilgan variant eng yuqori unuvchanlikga ega bo‘lib, yana bir bor nurlantirish texnologiyasi va uning nurlantirish usullari maqbul ekanligi tasdiqlandi.

ADABIYOTLAR

1.M.Sattarov, M.Ergasheva, Ch.Qashqabayeva, N.Otamirzayev. Sholi parvarishi bo‘yicha TAVSIYANOMA. –Toshkent, 2024. – B. 2.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019 yil 12-dekabrdagi “Sholichilikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 986-sonli qarori// https://lex.uz/ru/docs/-4640331

3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.−М.: “Агропромиздат”, 1985. –351 с.

4. Ramazonov A., Buriev S., Tuproqshunoslik va dehqonchilik. − T.: “Barkamol fayz media”, 2018. − 256 b.

UO‘T 631.3.:658.5(075.8)

ELEKTR FAOLLASHTIRILGAN SUVNING TUT DARAXTI BARGLARIGA TA’SIRINI O‘RGANISH NATIJALARI

Yuldashev R.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada elektr faollashtirilgan suvning (EFS) tut daraxti barglariga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish, EFS ning ikki shakli anolit va katolit suv turlari barg o‘sishi, fotosintez faolligi, biokimyoviy tarkibi va fiziologik holatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi to’g’risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены сведения о научном анализе влияния электроактивированной воды (ЭАВ) на листья шелковицы и изучения влияния двух видов ЭАВ-анолита и католита-на рост листьев, фотосинтетическую активность, биохимический состав и физиологическое состояние.

Annotation. The article presents information on the scientific analysis of the effect of electro-activated water (EAW) on mulberry leaves and the study of the effect of two types of EAW-anolyte and catholyte-on leaf growth, photosynthetic activity, biochemical composition and physiological state.

Respublikamizda pillachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-yanvardagi PQ-4567-sonli “Pillachilik tarmog‘ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Respublikada tutzorlarni kengaytirish, tutchilikda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash hamda agrotexnika tadbirlarini samarali o‘tkazilishini rag‘batlantirish, innovatsion g‘oyalar, ilmiy ishlanmalar va ilm-fan yutuqlarini keng joriy etish orqali pillachilik tarmog‘i ozuqa bazasini ko‘paytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, shuningdek, pillachilik tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadi ko‘zda tutilgan. Tut daraxti ipakchilikda asosiy ozuqa manbai bo‘lib, uning barglari ipak qurti uchun asosiy oziq-ovqat hisoblanadi. Barglarning sifat va miqdori ipak ishlab chiqarish samaradorligiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda ekologik xavfsiz va samarali agrotexnik vositalardan biri sifatida elektr faollashtirilgan suvdan foydalanish bo‘yicha ilmiy izlanishlar kuchaymoqda. Ushbu maqolada EFS ning tut daraxti barglariga ta'siri, ya'ni ularning o‘sish sur'ati, morfologiyasi va biokimyoviy tarkibidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi [1,2].

Elektr faollashtirilgan suv - bu suvga elektr tokini berish orqali fizik-kimyoviy xossalari o‘zgartirilgan suvdir. Elektroaktivatsiya jarayonida suv anod va katod kameralarda qayta ishlanadi, natijada kislotali (anolit) va ishqoriy (katolit) suv hosil bo‘ladi. Bu suv turlari pH, oksidlanish-qaytarilish potentsiali (ORP) va vodorod konsentratsiyasi kabi parametrlarga ega bo‘lib, ularning o‘simliklarga ta'siri har xil bo‘lishi mumkin [3,4].

EFS ning o‘simliklarga ta'siri quyidagicha izohlanadi:

Hujayra devorlarining o'tkazuvchanligini oshiradi;

Oziq moddalar almashinuvini faollashtiradi;

Antioksidant himoyani kuchaytiradi;

Mikrobiologik zararlanuvchilarga qarshi tabiiy bar'yer hosil qiladi;

Fotosintez jarayonini tezlashtiradi;

Fermentativ faoliyatni faollashtiradi.

Shuningdek, EFS ning tarkibida kislorod va vodorod ionlarining faol shakllari mavjud bo‘lib, ular o‘simlik hujayralarida oksidlovchi stressni kamaytirishi mumkin. Bu esa hujayralarning barqaror ishlashiga xizmat qiladi.

Tut daraxti novdasi va bargi mahsuldorligini oshirish uchun biostimulyator ishlab chiqadigan suvni elektrda faollashtiruvchi uskunaga talablarni keltiramiz:

1. Ekspluatatsiya jarayonida ishonchlilik va stabilligi;
2. Uskuna tayyorlashda texnologik oddiy, ekspluatatsiyada qulay va iloji boricha oz kommutatsiyalovchi apparatlarga ega bo‘lishi;
3. Elektr energiya bilan o‘zgaruvchan tok kuchlanishi 220 V tarmog‘idan ta’minlanishi;
4. Imkon boricha minimal massa va gabaritlarga ega bo‘lishi;
5. Ishga tayyorlashda uskunaga qo‘shimcha moslama (elektr va suv ta’minotidan tashqari) va boshqalar o‘rnatilmasligi;
6. Konstruksiya ta’minot va suv ulash hamda tayyor mahsulot olish qulayligiga ega bo‘lishi;
7. To‘g‘rilangan kuchlanish va tok talab etiladigan chegaralarda ushlab turish uchun kuchlanish rostlagichiga ega bo‘lishi;
8. Elektrod bloklari konstruktiv bajarilishi tozalash, reviziya qilish va boshqa maqsadlar-buzish va yig‘ishda qulay bo‘lishi;
9. Elektrod bloklar va keltiriluvchi va olinuvchi suv kollektorlarini to‘la germetikligi ta’minlanishi;
10. Anod va katod kameralarini ajratuvchi diafragma kameralar orasida suv oqishiga yo‘l qo‘ymasligi;
11. Tok va maxsuldorlikni rostlab, suv pH ni 2-dan 11-gacha o‘zgartirish imkoni ta’minlangan bo‘lishi.

Suvni elektrda faollashtiruvchi uskuna ishlab chiqishda quyidagi kompleks talablar bajarilishi kerak:

- uskunani boshqarish oddiyligi va qulayligi, tayyorlash oddiyligi texnik-iqtisodiy ko‘rsatgichlar bilan belgilangan bo‘lishi;
- boshqarish sxemalari tipik bo‘lishi, yig‘ishni tejamkor sxemalari, ishonchli elektr apparatlar qo‘llanilishi;
- havfsizlik texnikasini yuqori darajasi ta’minlanishi;
- ekspluatatsiya ishonchliligi yuqori bo‘lishi.

Ma’lumki, elektr apparatlar loyihalash, tayyorlash va ishlatishda ipak qurti maxsuldorligini oshiradigan biostimulyator olish maqsadida tut daraxti novdasi va bargini yuvishga mo‘ljallangan suvlar oladigan elektrda faollashtiradigan uskunani tajriba varianti ishlab chiqilgan [5].

Tajriba Toshkent viloyatidagi “TCT Agro Cluster” da tut plantatsiyasida “O’zbekiston” navli tut daraxtlari asosida olib borildi. Daraxtlar uch variantga ajratildi:

1. Nazorat guruhi (oddiy suv bilan sug‘orilgan);
2. Anolit suv bilan ishlov berilgan;
3. Katolit suv bilan ishlov berilgan;

Har bir variantda har 7 kunda 3 hafta davomida suv purkaldi. Tajriba davrida quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganildi:

1. Barg uzunligi va kengligi (sm);
2. Yashil biomassa (g);
3. Xlorofill miqdori (SPAD ko‘rsatkichlari);
4. Bargdagi namlik foizi;

Barglarning sirt tuzilishi (mikroskopik kuzatuv orqali);


Jadvaldagi elektr faollashtirilgan suvning tut daraxti barglariga ta’siri bo’yicha aniqlangan ko’rsatkichlar keltrirlgan. 1-rasmda elektr faollashtirilgan suvning tut bargiga ta’siri diagramma ko’rinishida tasvirlangan.

Katolit suv bilan ishlangan variantda barg uzunligi o‘rtacha 12,4 sm, kengligi 8,7 cm ni tashkil etdi. Bu nazorat variantga nisbatan 15-18 foizga ko‘pdir. Xlorofill miqdori ham yuqori bo‘lib, SPAD ko‘rsatkichlari 42 birlikni tashkil etdi (nazoratda 35 birlik).

1-Jadval

Elektr faollashtirilgan suvning tut daraxti barglariga ta’siri bo‘yicha ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Anolit suv bilan ishlangan	Katolit suv bilan ishlangan
Barg uzunligi, sm	10,8	11,4	12,4
Barg kengligi, sm	7,1	7,8	8,7
Xlorofill miqdori, SPAD	35	38	42
Flavonoidlar, mg/g	1,2	1,6	1,8
Biomassa, g	95	105	112
Namlik, %	67	70	74
Fermentativ faoliyat (shartli birlik)	3,5	4,1	4,8



1-rasm. Elektr faollashtirilgan suvning tut barglariga ta’siri

Flavonoidlar miqdori katolit variantda 1,8 mg/g bo‘lsa, anolitda 1,6 mg/g va nazoratda 1,2 mg/g ni tashkil etdi. Biomassa hajmi va bargdagi namlik ham EFS ta'sirida ortganligi kuzatildi. Shuningdek, mikroskopik tahlillar barglarning ustki sirtida ko‘proq turg‘unlik va hujayralararo zichlikni ko‘rsatdi. Fermentativ faoliyat esa katolit variantda yuqori bo‘lib, bu antioksidant faollikning kuchayganini bildiradi.

2-rasm tut bargining o’lchamlarini olish jarayonidan lavha tasvirlangan.



2-rasm. Tut bargini o’lchamlarini olish jarayoni

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, elektr faollashtirilgan suv ayniqsa katolit shaklida barg o‘sishini tezlashtiradi, fotosintez jarayonini faollashtiradi va himoya metabolitlarini (flavonoidlar) ko‘paytiradi. Bunday natijalar avvalgi ilmiy tadqiqotlar bilan mos keladi. Anolit

esa mikrobiologik zararlarni kamaytirishda foydali bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlarda EFSning har xil shakllarini tut daraxti o‘sishining turli bosqichlarida qo‘llash natijasida optimal samaraga erishish mumkinligi aniqlandi.

Xulosa

Elektr faollashtirilgan suv tut daraxti barglari sifatini yaxshilashda ekologik xavfsiz va samarali vosita sifatida foydalanilishi mumkin. Ayniqsa, katolit shakli barg o‘sishini va xlorofill miqdorini oshiradi, fermentativ faoliyatni kuchaytiradi va biologik faol birikmalar darajasini yuqori holatda ushlab turadi. Bu esa ipak qurti uchun yuqori sifatli oziqa manbaini ta'minlaydi. Kelgusida bu usulni tijorat darajasida keng joriy etish orqali hosildorlik va ekologik barqarorlikni oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi PF-85 sonli “Pillachilik sohasida kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash hamda pilla etishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020 yil 10 noyabrdagi 705-son «O‘zbekiston Respublikasi pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida »gi qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi patenti № IAP 07267. Tut ipak qurti urug‘ini zararsizlantirish va jonlantirish usuli / Muxammadiev A., Yusupov D.R., Ismatullaeva D.A., Abdullaev M.T., Xayitov B.A // Rasmiy axborotnoma, – №3. –B. 30-31.

4. A. Muxammadiev, D.Yusupov, D. Ismatullaeva. Pillachilikda texnologik jarayonlarni ekologik sof elektrotexnologiyalar qo‘llash hisobiga rivojlantirish // Monografiya. – T.: 2021. – №3. –B. 84-92.

5. D.R.YUsupov Ekologik sof elektrotexnologik usulda ipak qurti urug‘ini zararsizlantirish va avjlantirish. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – Namangan, 2021. – B. 95-98.

UO‘T 631.363.2

CHORVA MOLLARI UCHUN GRANULALI OMUXTA OZUQALARNI TAYYORLAYDIGAN QURILMA ZICHLOVCHI JUVASINING PARAMETRLARINI ANIQLASH

G‘aybullayev B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.f.d., k.i.x.

Ergashev M.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.f.d., k.i.x.

Nasrullayev V.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada chorva mollari uchun granulali omuxta ozuqalarni tayyorlaydigan qurilmaning zichlovchi jo‘vasining uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментальных исследований по изучению влияния уплотнительного валика устройства для приготовления гранулированных кормов для скота на его эксплуатационные показатели.

Annotation. The article presents the results of experimental studies on the influence of the compacting roller of a device for preparing granulated feed for livestock on its operational performance.

Bugungi kunda respublikamizda aholi soni ortishi bilan oziq-ovqat hamda go‘sht maxsulotlariga talab tobora ortib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining barcha sohalari kabi chorvachilik xo‘jaliklarini ham rivojlantirishga katta etibor berilmoqda. Bundan tashqari, Ruspublikamizda chorvachillikka ixtisoslashgan kichik dehqon fermer xo‘jaliklari uchun dag‘al va donli ozuqalarni maydalaydigan unversal qurilma hamda granulali omuxta ozuqalarni tayyorlaydigan resurstejamkor qurilmalarni ishlab chiqishga talab katta. Bundan tashqari, O‘zbekistonda chorvachillikka ixtisoslashgan kichik dehqon xo‘jaliklarini tashkil etish va ulardan yuqori hosil olishda energiya tejamkor, bir necha texnologik jarayonlarni agrotexnika talablariga mos ravishda, amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqishga e‘tibor berilmoqda.


O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “Respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, chorvachilik xo‘jaliklarida mehnat unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish, chorvachilik sub’ektlariga ozuqabop ekinlar ekish, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, chorvachilik mahsulotlarining kelib chiqishi va ularni saqlash usullari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar asosida chorvachilik mahsulotlarining sotuv darajasi va xavfsizligini oshirish ustuvor vazifa qilib qo‘yilgan [1]. Ushbu qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish va chorvachilikni qishloq xo‘jaligining serdaromad sohasiga aylantirish uchun unda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalash talab etiladi.

Ushbu belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida granulali omuxta ozuqalarini tayyorlaydigan qurilma ishlab chiqildi hamda uning parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ushbu maqolada qurilmaning zichlovchi jouvasining uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribaviy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Qurilmaning parametrlarini o‘rganish bo‘yicha tajribaviy tadqiqotlarni o‘tkazish uchun laboratoriya qurilmasi ishlab chiqildi.

1-rasmda qurilmaning umumiy ko‘rinishi tasvirlangan.



1-rama; 2-yuklash bunkeri; 3-ishchi kamera; 4-nov; 5-reduktor; 6-elektrodvigatel; 7-boshqaruv pulti

1-rasm. Labaratoriya qurilmasining umumiy ko‘rinishi

Labaratoriya qurilmasi ixcham shaklda ishlangan bo‘lib, u rama 1, yuklash bunkeri 2, ishchi kamera (ishchi kamerada zichlovchi juva, matritsa va pichoq joylashgan) 3, nov 4, reduktor 5, elektrodvigatel 6 va boshqaruv pulti 7 dan tashkil topgan.

Laboratoriya qurilmasi turli xil parametrlarga ega bo‘lgan ishchi qismlarni o‘zgartirish imkoniga ega etib tayyorlandi.

Tajribalarni o‘tkazish uchun diametri 10; 12,5; 15 va 17,5 cm bo‘lgan zichlaydigan juvalar tayyorlandi (2-rasm).



2-rasm. Diametri 10; 12,5; 15 va 17,5 cm bo‘lgan zichlovchi jo‘valar

Bu tajribalarni o‘tkazishda zichlaydigan g‘altaklarning diametri 2,5 cm interval bilan 10 cm dan 17,5 cm gacha o‘zgartirildi. Bunda qolgan parametrlar o‘zgarmasdan qoldi.


Tajribalarning natijalari 3 va 5-rasmlarda tasvirlangan.

Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, zichlovchi juvaning diametri 10 cm dan 15 cm gacha ortganda granulalarning zichligi avval jadal, ya’ni 295 kg/m^3 ga kamaygan bo‘lsa, 15 - 17,5 cm oralig‘ida esa zichlikning kamayishi sustlashib 35 kg/m^3 ga kamaydi. Buni diametr ortishi bilan zichlovchi juva tomonidan berilayotgan bosim kuchini kamayishi bilan tushntirish


mumkin.

Zichlovchi juvaning diametri 10 cm dan 17,5 cm gacha ortganda u tomonidan berilayotgan bosim kuchi 6,2 MPa ga kamaygan. Buni diametr ortishi bilan juvalarning xomashiyoga ta’sir zonasi ortishi va natijada, u tomonidan beriladigan bosim kamayishi va xomashyo yetarli darajada zichlamasligi bilan tushuntirish mumkin.


Qurilmaning ish unumi zichlovchi juvaning diametri ortishi bilan ortib borgan. Bu juvaning diametri kattalashishi bilan uning xomashiyoga ta’sir zonasi va bir nuqtadan o‘tishlar sonini ortishi hisobiga yuz berdi.



3-rasm. Granulaning zichligini qurilma zichlovchi juvasi diametiriga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi



4-rasm. Zichlovchi juva tomonidan beriladigan bosim kuchini uning diametiriga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi



5-rasm. Qunilmaning ish unumini zichlovchi juva diametiriga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

Granulalarning zichligi, juva tomonidan beriladigan bosim kuchi va qurilmaning ish unumini zichlovchi juva diametriga bog‘liq ravishda o‘zgarishini ifodalangan 3 va 5-rasmlarda tasvirlangan grafiklarni eng kichik kvadratlar usuli [2-3] bilan aniqlangan quyidagi empirik formulalar bilan ifodalash mumkin:

$$\rho = 3{,}4Dj^2 - 140{,}1Dj + 2350{,}8 \ (R^2 = 0{,}9734); \quad (1)$$

$$P = 0{,}076Dj^2 - 2{,}91\,Dj + 34{,}175 \ (R^2 = 0{,}9994); \quad (2)$$

$$W = -0{,}44\,Dj^2 + 16{,}94\,Dj - 59{,}05 \ (R^2 = 0{,}989) \quad (3)$$

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlarning natijalari bo‘yicha kam energiya sarflagan holda granulali ozuqalarni tayyorlash uchun zichlovchi juvalarning diametri 12-15 cm oralig‘ida bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli Farmoni.

2. Джонсон Н., Лион Ф. Статистика и планирование эксперемента в технике и науке. Методы обработки данных / Пер. с английского. – Москва: Мир, 1990. – 610 с.

3. Аугамбаев М., Иванов А.З., Терехов Ю.И. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Ташкент: Укитувчи, 1993. – 336 с.

UO‘T 631.363.25

DAG‘AL VA DONLI OZUQALARNI MAYDALAYDIGAN UNIVERSAL QURILMA ROTORI VA PICHOQLARINING PARAMETRLARI HAMDA OZUQANI MAYDALASH JARAYONIGA TA’SIR ETADIGAN KUCHLARNI ANIQLASH

G‘aybullayev B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d., k.i.x.

Ergashev M.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d., k.i.x.

Turdiyev B.X.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada chorvachilikka ixtisoslashgan dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun dag‘al va donli ozuqalarni maydalaydigan universal qurilmaning pichoqlari tuzilishi, pichoqlar va rotorining texnologik ish jarayoni va afzalliklari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена информация о конструкции ножей, технологическом процессе работы и преимуществах ножей и ротора универсального устройства для измельчения грубых и зерновых кормов для дехканских и фермерских хозяйств, специализирующихся на животноводстве.

Annotation. The article provides information on the design of the blades, the technological process of operation, and the advantages of the blades and rotor of a universal device for grinding coarse and grain feeds for dekhkan and farm enterprises specialising in animal husbandry.

Chorvachilik-qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, maxsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida istiqomat qilayotgan fuqorolarning bandligini oshirish va daromadlarini ko‘paytirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois sohaga zamonaviy va innovatsion uslublarni jorish etish, maxsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish xamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘lida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda ozuqa tayyorlash va tarqatish uchun yirik chorvachilik xo‘jaliklarida xorijiy texnika vositalaridan foydalanilmoqda, ammo kichik chorvachilik xo‘jaliklari uchun narxi qimmatligi sababli, mamlakatimiz sharoitiga mos texnika vositalarini respublikada ishlab chiqarish dolzarb vazifalardan biridir. Shunga ko‘ra Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida kichik dexqon va fermer xo‘jaliklari uchun mo‘ljallangan ozuqalarni maydalaydigan xamda omuxta ozuqalaridan granulla qiladigan resurstejamkor qurilmalarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [1-3].

Maydalashga uzatilgan dag‘al va donli ozuqa bo‘laklarini maydalashda, maydalash apparati rotori va uning pichoqlarining parametrlari katta ahamiyatga ega [4] (1-rasm).

Pichoqlarning asosiy parametrlari uning uzunligi L_p, eni B_p va qalinligi δ_p hisoblanadi.


Pichoqning uzunligi uning kesadigan qismi uzunligi L_P^K va mahkamlash qismi uzunligi L_P^M dan iborat bo‘ladi, yani

$$L_p = L_P^K + L_P^M . \quad (1)$$

Bunda pichoqning kesadigan qismi uzunligi maydalashga uzatilayotgan bo‘lak uzunligiga teng yoki undan katta bo‘lishi kerak

$$L_P^K \geq L_{d.o}, \tag{2}$$

bunda $L_{d.o}$ – maydalashga uzatilayotgan presslangan dag‘al ozuqa bo‘lagining uzunligi, m.



1-rama; 2-bunker; 3-rotorli maydalovchi ishchi organ; 4-segmentli pichoq; 5-flanes maxovik; 6-bolg‘ali pichoq kronshteyni; 7-bolg‘ali pichoq; 8-tayanch g‘ildirak; 9-asinxron eletrodvigatel

1-rasm. Dag‘al va donli ozuqalarni maydalaydigan universal qurilmaning konstruktiv sxemasi

Pichoqlarning ishchi qismi uzunligi L_P^K ni biterlar tomonidan maydalashga uzatilayotgan presslangan dag‘al ozuqa o‘lchamidan kelib chiqib aniqlaymiz.

Maydalashga uzatilayotgan dag‘al ozuqa bo‘lagining uzunligi uzatish tezligiga bog‘liq ravishda quyidagicha bo‘ladi

$$L_{d.o} = V_{uz} \cdot t_{uz}, \tag{3}$$

bunda V_{uz} – uzatish tezligi, m/c;

t_{uz} – uzatish vaqti, s.

Ozuqalarni uzatish tezligi biter tezligiga bog‘liq bo‘lib, uni quydagicha aniqlash mumkin

$$V_{uz} = K_t R_b \omega_b, \tag{4}$$

bunda R_b – biterning radiusi, 40 mm;


ω_b – biterning burchak tezligi, s^{-1}.

$V_{uz} = K_t R_b \omega_b = 0{,}7 \cdot 0{,}4 \cdot 10$ =0,28 m/s.

Ozuqaning uzatish vaqti sifatida biterning bitta plankasi tomonidan uzatilayotgan ozuqani uzatish vaqtini olamiz

$$t_{uz} = \frac{\varphi_P}{\omega_b}, \tag{5}$$

bunda φ_P – biterdagi plankalar orasidagi burchak, °.



2-rasm. Pichoq o‘lchamlarini aniqlashga oid sxema

Biterdagi plankalar orasidagi burchak

$$\varphi_P = \frac{2\pi}{N_P}, \tag{6}$$

bunda N_P – biterdagi plankalar soni, $N = 2$ dona.

$\varphi_P = \frac{2\pi}{N_P} = \frac{360^\circ}{2} = 180^\circ$. U holda $t_{uz} = \frac{\varphi_P}{\omega_b} = \frac{180^\circ}{10s^{-1}} = \frac{P}{10s^{-1}} = 0{,}314s$. Bundan $l_{d.o} = V_{uz} \cdot t_{uz} = 0{,}28 \cdot 18\ m = 5.04$ mm ozuqa uzunligi.

U holda (4), (5) va (6) ifodalarga ko‘ra (7) ifoda quyidagicha bo‘ladi

$$L_{d.o} = \frac{2\pi k_T R_b}{N_P}. \tag{7}$$

(7) ifodani (4) ga olib borib qo‘yamiz va maydalashga uzatilayotgan bo‘lak uzunligiga bog‘liq ravishda, rotor pichog‘ining kesadigan qismi uzunligini aniqlaymiz

$$L_P^K \geq L_{d.o} = L_{d.o} = \frac{2\pi k_T R_b}{N_P}. \tag{8}$$

Agar k_T = 0,7, biter radiusi R_p = 27 cm va plankalar soni N_p=2 dona ekanligini hisobga olinsa, $L_P^K \geq L_{d.o} = L_{d.o} = \frac{2\pi k_T R_b}{N_P} = \frac{2 \cdot 3{,}14 \cdot 0{,}7 \cdot 27}{2} = 59{,}3$ cm rotor pichog‘ining kesadigan qismi uzunligi $L_P^K \geq 59$ sm bo‘lishini aniqlaymiz va $L_P^K = 59$ cm bo‘ladi.

Pichoqning rotor diskiga qo‘zg‘almas qilib mahkamlash uchun u kamida ikkita joyidan qotirilishi kerak, ya’ni boltlar o‘tishi uchun diametri d_T bo‘lgan ikkita teshikka ega bo‘lishi kerak.

SP 16.13330. 2011 ga ko‘ra, teshiklar orasidagi minimal masofa (2,5-3)d_t bo‘lishi kerak [5]. Boltlar o‘tadigan teshiklar orasidagi masofa shunga teng bo‘lsa, u holda teshiklar chetidan pichoq chetigacha masofa $\frac{(2{,}5 \div 3)d_t}{2}$ bo‘ladi

$$L_P^M = \frac{2{,}5}{2} d_t + \frac{2{,}5}{2} d_t = 22{,}5\ \text{mm}. \tag{9}$$

U holda (1.9) ifodaga ko‘ra pichoqning umumiy uzunligi L_p =81,5 mm bo‘lishi kerak. $L_P = L_P^K + L_P^M = 59 + 22{,}5 = 81{,}5$ mm.

Pichoq eni b_p maydalashga uzatilayotgan bo‘lak enidan katta bo‘lishi kerak

$$b_P \geq b_{d.o}, \tag{10}$$

Maydalashga uzatilayotgan bo‘lak eni biter plankalari tomonidan uzatish novidan kelayotgan presslangan ozuqadan ajratib olinayotgan bo‘lak eniga teng

$$b_{d.o} = \frac{V_{P.T}}{\eta_b N_P}, \tag{11}$$

bunda $V_{P.T}$ – dag‘al ozuqani bunkerga tushish tezligi, m/s;

η_b – biterning aylanishlar soni, min^{-1}.

Biterning aylanishlar soni $\eta_b = \frac{30\omega_b}{\pi} = \frac{30 \cdot 10}{3{,}14} = 95{,}54 \approx 100 r/\min$ bo‘lganligidan $b_{d.o} = \frac{\pi V_{P.T}}{30\omega_b N_P}$ (7) ifodaga asosan, (8) ifoda quyidagicha bo‘ladi $b_P \geq \frac{\pi V_{P.T}}{30\omega_b N_P}$. Agar $V_{P.T} = 0{,}5$ m/s; $\omega_b = 10$ s^{-1}; $N_P = 2$ dona ekanligini hisobga olinsa, u holda $b_P \geq \frac{\pi V_{P.T}}{30\omega_b N_P} \geq \frac{3{,}14 \cdot 1{,}5}{30 \cdot 10 \cdot 2} = 2{,}6$ mm $b_P \geq$ 2,6 mm kelib chiqadi va b_p = 3,06 mm ga teng.

Amaldagi mavjud qurilmalarda ham maydalash pichog‘ining qalinligi 3-5 mm oralig‘ini tashkil etadi. Shunga asosan, rotor pichog‘ining qalinligini b_p = 3,06 mm deb qabul qilamiz [5, 6, 7, 8.]

Xulosa.

Presslangan bug‘doy somoni, beda va yantoq presslarining zichligiga bog‘liq ravishda qurilmaning 360 kg/h ish unumini ta’minlash uchun ta’minlagich biterlarning diametri 80 mm, aylanishlar soni esa 100-150 r/min oralig‘ida bo‘lishi kerakligi ma’lum bo‘ldi.

ADABIYOTLAR

1. www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-121-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston agrar sektori: asosiy muammolar, xususiyatlar, islohotlar zaruriyati https://kun.uz/74732607

3. https://centralasia.media/news

4. Gapparov Sh.X. Presslangan dag‘al ozuqalarni maydalash qurilmasining parametrlari va ish rejimlarini asoslash. Texnika fanlari falsafa doktori PhD. – Toshkent, 2022. – B. 72-79.

5. СП 16.13330.2011. Стальные конструкции / Steel structures.

6. Резник Н.Е. Теория резания лезвием и основы расчета режущих аппаратов. – М.: Машиностроение. 1975. – С. 168-311.

7. Мельников С.В. Механизация и автоматизация животноводческих ферм. - Л.: Колос. - 1978. – 560 с.

8. Ягельский М.Ю. Обоснование параметров соломоизмельчителя разбрасывателя зерноуборочного комбайна. Дис. … канд. тех. наук. – Орел – 2018, – С. 68-70.

UO‘T 631.363.25

CHORVA MOLLARI UCHUN DAG’AL VA DONLI OZUQALARNI MAYDALAYDIGAN UNIVERSAL QURILMA KONSTRUKSIYASI

G‘aybullayev B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d., k.i.x.

Ergashev M.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d., k.i.x.

Turdiyev B.X.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada chorvachilikka ixtisoslashgan dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun dag‘al va donli ozuqalarni maydalaydigan universal qurilmaning tuzilishi, texnologik ish jarayoni va afzalliklari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье представлена информация о структуре, технологическом процессе и преимуществах универсального устройства для измельчения грубых и зерновых кормов для дехканских и фермерских хозяйств, специализирующихся на животноводстве.


Annotation. The article provides information on the structure, technological process and advantages of a universal device for grinding coarse and grain feed for dekhkan and farm enterprises specialising in animal husbandry.

Bugungi kunda respublikamizda aholi soni ortishi bilan oziq-ovqat hamda go‘sht va sut maxsulotlariga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining barcha sohalari kabi chorvachilik yo‘nalishidagi dehqon va fermer xo‘jaliklarini ham rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. Bundan tashqari, respublikamizda chorvachilikka ixtisoslashgan kichik dehqon va fermer xo‘jaliklari hamda aholi xonadonlari uchun dag‘al va donli ozuqalarni maydalaydigan unversal qurilma hamda granulali omuxta ozuqalarni tayyorlaydigan resurstejamkor qurilmalarni ishlab chiqishga talab katta. Xususan, O‘zbekistonda chorvachilikka ixtisoslashgan kichik dehqon va fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va ulardan yuqori sifatli sut va go‘sht mahsulotlari olishda energiyaresurstejamkor, bir nechta texnologik jarayonlarni agrotexnika talablariga mos ravishda, amalga oshiradigan texnika vositalarini ishlab chiqishga e’tibor berilmoqda [1]. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan “Respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash hamda chorvachilik va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish, chorvachilik xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, chorva mollari mahsuldorligini oshirish, chorvachilik sub’ektlariga ozuqabop ekinlar ekish, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, chorvachilik mahsulotlarining kelib chiqishi va ularni saqlash usullari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar asosida chorvachilik mahsulotlarining sotuv darajasi va xavfsizligi oshirish” ustuvor vazifa qilib qo‘yilgan [2]. Ushbu qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish va chorvachilikni qishloq xo‘jaligining serdaromad sohasiga aylantirish uchun unda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalash talab etiladi.

Ushbu belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Chorvachilik uchun ozuqa va yem-xashak yetishtirish mashinalari laboratoriyasida dag‘al va donli ozuqalarini maydalaydigan universal qurilma ishlab

chiqildi hamda uning parametrlarini asoslash bo‘yicha ilmiy va innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda (rasmga qaralsin). Dag‘al va donli ozuqalarini maydalaydigan universal qurilma rama 1, bunker 2, rotorli maydalaydigan ishchi organ 3, segmentli pichoq 4, flanes maxovik 5, bolg‘ali pichoq kronshteyni 6, bolg‘ali pichoq 7, tayanch g‘ildirak 8, eletrodvigatel 9 lardan tashkil topgan.

Qurilmaning ish jarayoni quyidagicha kechadi. Elektrodvigatel 9 elektr manbaaga ulanib maydalagich ishga tushiriladi. Maydalagichga ozuqalar qabul qilish bunkeri 2 orqali solinadi. U ozuqa qabul qilish bunkeridan to‘zitadigan va qabul qiladigan biterlar orqali to‘g‘ridan – to‘g‘ri maydalash kamerasi 3 ga uzatiladi va bu yerda maydalaydigan disk 5 ga o‘rnatilgan qo‘zg‘aladigan bolg‘achali 6 va qo‘zg‘almas pichoqlar qarshi kesadigan pichoq 4 lar tomon surib boradi. Ozuqa maydalash kamerasida maydalaydigan diskning aylanishlar soni yuqori bo‘lib, maydalangan ozuqa markazdan qochma kuch ta’sirida harakatlanib, maydalagichga o‘rnatilgan



1-rama; 2-bunker; 3-rotorli maydalovchi ishchi organ; 4-segmentli pichoq; 5-flanes maxovik; 6-bolg‘ali pichoq kronshteyni; 7-bolg‘ali pichoq; 8-tayanch g‘ildirak; 9-asinxron eletrodvigatel

Chorva mollari uchun dag‘al va donli ozuqalarni maydalaydigan universal qurilmaning konstruktiv sxemasi

setkadan chiqarish tuynigi orqali chiqariladi. Pichoqlar sonini ko‘paytirish yoki kamaytirish hisobiga, maydalanib chiqayotgan dag‘al va donli ozuqalarning o‘lchamini o‘zgaritirish mumkin [3, 4]. Bundan tashqari, flanes maxovik 5 ning o‘q atrofidagi aylanishlar sonini o‘zgartirish orqali esa qurilmaning ish unumini o‘zgartirish mumkin.

Xulosa

Taklif etilayotgan qurilmadan foydalanish ozuqalarning yeyimliligini oshirib, ulardan foydalanish davrida yuzaga keladigan muammolarni hal etish uchun zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-121-son “Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni.

3. B G‘aybullayev B.Sh., Turdiyev B.X., Nasrullayev V.G‘. Dag‘al ozuqalarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari. “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti”

respublika ilmiy va ilmiytexnikaviy anjumani materiallari. – Buxoro, 2023.

4. G‘aybullayev B.Sh., Turdiyev B.X., Nasrullayev V.G‘. Dag‘al ozuqalarni maydalash qurilmalarining tuzilishi va ishlash prinsiplari // Fan, innovatsion texnika va texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari: respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Qarshi, 2023.

UO‘T 631.362.36

SARALANGAN BULG‘OR QALAMPIR URUG‘LARINING FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI O‘RGANISH NATIJALARI

Diniqulov D.U.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada nazorat va triboelektrik qurilmada saralangan fraksiyadagi bulg‘or qalampir urug‘larining fizik-mexanik xossalari, ya’ni massasi, geometrik o‘lchamlari va sferiklik koeffitsiyentlarini o‘rganish hamda ularni o‘zaro taqqoslash natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты изучения физико-механических свойств, т.е. массы, геометрических размеров и коэффициенты сферичности семян болгарского перца исходной и сортированной фракции на трибоэлектрическом устройстве и их взаимное сопоставление.

Annotation. The article presents the results of studying the physical and mechanical properties, i.e. mass, geometric dimensions and sphericity coefficients of bell pepper seeds of the original and sorted fractions on a triboelectric device and their mutual comparison.

Ilmiy manbalardan ma’lumki, sifatli biologik ko‘rsatgichlari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligini hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘lik olish uchun qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini barcha muhim fizik-mexanik xossalari bo‘yicha saralash zarur [1,2]. Bunday talabga qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonda saralash to‘liq javob beradi. Chunki, elektr maydoni urug‘larni barcha muhim fizik-mexanik xossalarini hisobga olgan holda, ularga yo‘naltirilgan elektr maydon kuchi bilan ta’sir etadi. Natijada, urug‘lar elektr maydonida barcha muhim fizik-mexanik xossalari, ya’ni massasi, zichligi, geometrik o‘lchamlari, ishqalanish koeffitsiyenti, elektr qarshiligi, dielektrik singdiruvchanligi va boshqa shunga o‘xshash muhim xossalari bo‘yicha saralanadi. Bundan tashqari, elektr maydoni urug‘larga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning unuvchanligini oshiradi va unib chiqqan nihollarni keyingi o‘sib-rivojlanishi hamda hosilni pishib-yetilishini tezlashtiradi [3,4].

Yuqoridagilarni hisobga olib, biz mayda urug‘larni saralash uchun triboelektrik qurilma, ya’ni ish organi yuzasida yuqori kuchlanishli elektr maydoni, ikkita dielektrik materialni qarama-qarshi aylanib, bir-biriga ishqalanishi natijasida vujudga keladigan elektr maydoniga ega bo‘lgan qurilmadan foydalanishni taklif qildik [5]. Qurilma tuzilishi jihatdan sodda, tayyorlash oson , energiya va resurstejamkor bo‘lib, elektr va yong‘indan xavfsiz, eng asosiy yuqori kuchlanishli elektr maydonini hosil qilish uchun hech qanday qimmatbaho tashqi manbaa kerak emas.

Shuning uchun keyingi yillarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari hamda ilm-fan va ishlab chiqarish sohasidagi yutuqlarga tayanib,mayda urug‘larni saralaydigan triboelektrik qurilmaning konstruksiyasi ishlab chiqildi hamda tajriba nusxasi tayyorlanib, unda mayda urug‘larni saralash bo‘yicha ekspermentda tadqiqotlar o‘tkazildi.

Ilmiy manbalardan ma’lumki, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini saralagandan keyin, ularning fizik-mexanik xossalari o‘zgaradi. Shuning uchun triboelektrik qurilmada saralangan bulg‘or qalampir urug‘larining fizik-mexanik xossalari o‘rganildi. Nazorat va saralangan variantdagi urug‘larning fizik-mexanik xossalari to‘rt qaytariliqda o‘rganilib, olingan natijalarga matematik statistika usulidan foydalanib [6,7], hozirgi zamon kompyuterlarida mavjud bo‘lgan dasturlar asosida qayta ishlov berildi.

Quyida nazorat va saralangan variantdagi bulg‘or qalampir urug‘larining fizik-mexanik xossalari, ya’ni 1000 dona urug‘ massasi, geometrik o‘lchamlari va sferiklik koyeffitsentini o‘rganish natijalari keltirilgan. Nazorat va saralangan variantdagi 1000 dona urug‘ massasi

VLTK-20 elektron torozi, geometrik o‘lchamlari elektron shtangersirkul yordamida o‘lchanib, sferiklik koeffitsenti quyidagi ifoda orqali topildi

$$K=a/b,$$

bunda a – bulg‘or qalampir urug‘ining uzunligi, m;

b – bulg‘or qalampir urug‘ining eni, m.

1-jadvalda nazorat va triboelektrik qurilmada saralangan bulg‘or qalampir urug‘larining massasini o‘lchash natijalari keltirilgan.

1-jadvalda keltirilgan natijalaridan ko‘rinib turibdiki, bulg‘or qalampir urug‘ini triboelektrik qurilmada saralaganda, nazoratga nisbatan 1000 dona urug‘ massasining o‘zgarishi kuzatildi. Masalan, agar dastlabki 1000 dona bulg‘or qalampir urug‘ining massasi nazorat variantda 5,44 grammni tashkil etgan bo‘lsa, triboelektrik qurilmada saralangan 1000 dona urug‘ning massasi 5,82 grammni tashkil etib, nazoratga nisbatan 0,38 grammga ortdi. Shu bilan birga, nazoratga nisbatan nafaqat urug‘larning massasini ortishi kuzatildi, balki massasi bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan urug‘lar ham olindi. Bu nazorat va saralangan variantdagi bulg‘or qalampir urug‘larining variatsiya koeffitsiyentlarini qiymatlaridan yaqqol ko‘rinib turibdi.

1-jadval

Bulg‘or qalampir urug‘larining massasini o‘lchash natijalari

T/r	Variantlar nomi	1000 dona urug‘ massasi m, g	O‘rtacha kvadratik og‘ish σ, mm	Variatsiya koeffitsenti V, %
1	Nazorat	5,44	0,09	5,36
2	Saralangan	5,82	0,03	0,49

2-jadvalda nazorat va triboelektrik qurilmada saralangan bulg‘or qalampir urug‘larining geometrik o‘lchamlarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

2-jadval

Bulg‘or qalampir urug‘larining geometrik o‘lchamlarini o‘rganish natijalari

T/r	Variantlar nomi	Geometrik o‘lchamlari *a, b, c*, mm	O‘rtacha kvadratik og‘ish *σ*, mm	Variatsiya koeffitsiyenti V, %
1	Nazorat: -uzunligi -eni -qalinligi	 4,30 3,54 0,83	 0,17 0,18 0,05	 3,08 5,14 5,64
2	Saralangan: -uzunligi -eni -qalinligi	 4,55 3,62 0,83	 0,21 0,19 0,05	 4,67 5,21 5,64

2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki, nazoratga nisbatan saralangan variantdagi urug‘larning geometrik o‘lchamlarini ham o‘zgarishi kuzatildi. Masalan, agar nazorat variantdagi urug‘larning geometrik o‘lchamlari, ya’ni uzunligi 4,33 mm, eni 3,54 mm va qalinligi 0,83 mm ni tashkil etgan bo‘lsa, saralangan variantda uzunligi 4,55 mm, eni 3,62 mm va qalinligi 0,83 mm ni tashkil etib, nazoratga nisbatan uzunligi 0,25 mm va eni 0,08 mm ga kattalashib, qalinligi o‘zgarmadi. Shuning uchun ta’kidlanganlardan, bulg‘or qalampir urug‘larini triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayoni ularning uzunligi va eni bo‘yicha amalga oshayapti degan xulosaga kelish mumkin.

3-jadvalda nazorat va triboelektrik qurilmada saralangan bulg‘or qalampir urug‘larining sferiklik koeffitsiyentini aniqlash natijalari keltirilgan.

3-jadvalda keltilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki, bulg‘or qalampir urug‘ini triboelektrik qurilmada saralaganda, nazoratga nisbatan saralangan variantda sferiklik koeffitsiyentini katta

o‘zgarishi kuzatilmadi. Bundan bulg‘or qalampir urug‘lari saralash texnologik jarayonida asosan, uzunligi va eni bo‘yicha saralanadi degan xulosaga kelish mumkin.

Jadvallarda keltirilgan natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bulg‘or qalampir urug‘ini triboelektrik qurilmada saralash nazoratga nisbatan massasi jihatdan og‘ir hamda ushbu ko‘rsatkichi bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan va geometrik o‘lchamlari kattalashgan urug‘liklar olish imkonini beradi. Bu mayda urug‘larni aniq uyalab ekish va ularning sarfini kamaytirish hamda yetishtirilgan mahsulot tannarxini pasaytirishda juda muhim rol o‘ynab, shaxsiy tamorqa yer egalari, dehqon va fermer xo‘jaliklarining moddiy manfaatdorligini oshiradi.

3-jadval

Bulg‘or qalampir urug‘larining sferiklik koeffitsiyentini aniqlash natijalari

T/r	Variantlar nomi	Sferiklik koeffitsiyenti *K*	O‘rtacha kvadratik og‘ish *σ*, mm	Variatsiya koeffitsiyenti V, %
1	Nazorat	0,82	0,06	7,12
2	Saralangan	0,80	0,05	6,0

Xulosa

Saralangan bulg‘or qalampir urug‘larining fizik-mexanik xossalarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ularni triboelektrik qurilmada saralash nazoratga nisbatan massasi jihatdan og‘ir hamda ushbu ko‘rsatkichi bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan va geometrik o‘lchamlari kattalashgan urug‘liklar olish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Соловьев В.П. Посевные качества семян хлопчатника. – Т.: ФАН, 1978. – 144 с.

2. Росабоев А.Т. Выбор перспективной технологии для повышения посевных качеств семян хлопчатника //AGRO ILM.–Ташкент, 2015.−№2-3.–С. 9-12.

3. Гаппаров Л.М. и др. Сортирование и предпосевное стимулирование семян хлопчатника //Механизация и электрификация соц. сельского хозяйства. – Москва, 1985. − №10. – С. 50-52.

4. Оқулова В.А. Предпосевная обработка семян яровой пшеницы в электрическом поле // Применение аппаратов и средств ЭИТ в семеноводстве и птицеводстве. – Челябинск, 1988. – С. 92-97.

5.Rosaboyev A.T. Letuchkalarni triboelektrik qurilmada saralashning ilmiy va texnologik asoslari: Ilmiy nashr. − Tashkent: ”Adabiyot uchqunlari”, 2015. −109 b.

6. Веденяпин Г. Общая методика экспериментальных исследований и обработка опытных данных. −М,: Колос, 1973. −199 с.

7. Лакин Г.Ф. Биометрия. –М.: Высшая школа 1980. − 293с.

UO'T 631.362.32

MAYDA URUG'LARNI SARALASH UCHUN TRIBOELEKTRIK QURILMANING PARAMETRLARINI MAQBULLASHTIRISH NATIJASI

Rosaboyev A.T.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti t.f.n., k.i.x.

Diniqulov D.U.
Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktorant

Annotasiya. Maqolada bulg'or qalampir urug'i misolida, mayda urug'larni saralash uchun ishlab chiqarilgan triboelektrik qurilmaning konstruktiv o'lchamlari va ish rejimini maqbullashtirish bo'yicha o'tkazilgan ko'p omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты многофакторных экспериментальных исследований, проведенных по оптимизации конструктивных параметров и режима работы трибоэлектрического устройства разработанного для сортирования мелких семян, на примере семян болгарского перца.

Annotation. The article presents the results of multifactorial experimental studies on the optimization of the structural dimensions and operating mode of a triboelectric device for sorting small seeds using the example of bell pepper seeds.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik ekinlaridan mo'l hosil yetishtirishda, boshqa agratexnik tadbirlar bilan bir qatorda, ekishga tayyorlangan urug'larning sifat ko'rsatkichlari ham juda muhim ro'l o'ynaydi. Chunki, sifatli, bialogik ko'rsatgichlari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potentsial hosildorligi yuqori bo'lgan urug'lar mo'l hosil garovi hisoblanadi. Urug'larning sifat ko'rsatkichlarini har xil usullar, shu jumladan, saralash orqali amalga oshirish mumkin. Ammo, hozirgi kungacha respublika qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida mayda urug'larni saralash uchun biron-bir ilmiy asoslangan qurilma mavjud emas. Shuning uchun shaxsiy tomorqa yer egalari, dehqon va fermer xo'jaliklari mayda urug'larini saralamasdan ekishga majbur bo'lishyapti. Bu, birinchidan, urug'larni me'yoridan 1,5-2,0 marta ko'p sarflanishga, ikkinchidan, ortiqcha unib chiqqan nihollarni yaganalash uchun qo'shimcha qo'l mehnatidan foydalanishga, uchinchidan, yetishtirilgan mahsulotning tannarxini qimmatlashishiga olib kelyapti.

Yuqoridagilarni hisobga olib, biz mayda urug'larni saralash uchun triboelektrik usuldan foydalanishni taklif qildik [1]. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, ikkita dielektrik material, ya'ni polietilen quvur bilan cho'tkani qarama-qarshi aylanib, bir-biriga ishqalanishi natijasiga, polietilen quvurdan tayyorlangan ish organing yuzasida elektr maydoni vujudga keladi. Zaryadlanib aylanayotgan ish organi yuzasiga tushgan urug'lar qutblanib, hosil bo'ladigan elektr maydon kuchi bilan unga tortiladi. Urug'larga elektr maydon kuchidan tashqari, aks ko'zgu elektr kuchi, markazdan qochma kuch, og'irlik, inersiya, reaksiya va ishqalanish kuchlari ham ta'sir etadi. Ta'sir etadigan kuchlarning, o'zaro nisbati va fizik-mexanik xossalariga bog'liq ravishda, urug'lar har xil burchaklarda uzilib,qabul qilish bunkerining mos fraksiyasi, ya'ni urug'lik yoki texnik fraksiyaga ajraladi.


Mayda urug'larni elektr maydonida saralash bo'yicha taklif qilingan texnik vositalar, avval bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili hamda o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida, ularni saralash uchun ishqalanish natijasida vujudga keladigan elektr maydoniga ega bo'lgan triboelektrik qurilmaning texnologik sxemasi ishlab chiqilib, tajriba nusxasi tayyorlandi.

Mayda urug'larni ishqalanish natijasida vujudga keladigan elektr maydoniga ega bo'lgan

triboelektrik qurilmaning tajriba nusxasida saralash texnologik jarayoni talab darajasida bajarilishini ta’minlash uchun, uning parametrlarini maqul qiymatlarini aniqlash bo’yicha eksperimental tadqiqotlar tajribalarni matematik rejalashtirish usulidan foydalanib o’tkazildi [2,3,4].

Avval bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy manbalar, o’tkazilgan nazariy va dastlabki eksperimental tadqiqotlarning natijalari shuni ko’rsatadiki, mayda urug’larni triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayoniga ularning fizik-mexanik xossalaridan tashqari, ish organining diametri *D*, ish organini yerga ulangan elektrod bilan qamralish burchagi *γ*, elektr maydon kuchlanganligining qiymati *E* hamda bo’lish tekisligi o’qining gorizontal tekisligida joylashish nuqtasi *B* lar eng ko’p ta’sir ko’rsatar ekan.

Rasmda mayda urug’larni triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayoniga eng ko’p ta’sir ko’rsatadigan omillar belgilangan sxema tasvirlangan.



1–yerga ulangan elektrod; 2–ish organi; 3–qabul qilish bunkeri; 4–bo’lish tekisligi; 5–ishqalanadigan cho’tka; 6–sirpanish taxtasi

Mayda urug’larni triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayoniga ta’sir ko’rsatadigan omillar bergilangan sxema

Mayda urug’larni triboelektrik qurilmada saralash bo’yicha ko’p omilli eksperimental tadqiqotlar o’tkazish uchun nazariy va eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalar asosida, ularni saralash texnologik jarayoniga eng ko’p ta’sir ko’rsatadigan omillarning o’zgarish chegaralari va oraliqlari aniqlandi.

1-jadvalda mayda urug’larni triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayoniga eng ko’p ta’sir ko’rsatadigan asosiy omillarning o’zgarish chegaralari va oraliq qiymatlari keltirilgan.

1-jadval

Asosiy omillar, ularning o’zgarish chegaralari va oraliq qiymatlari

T/r	Asosiy omillarning nomi	Bergilanishi		O’zgarish chegarasi			O’zgarish oralig’i
		Xaqi-qiy	Ko’d-langan	– 1	0	+1	
1	Ish organi diametri, mm	D	X_1	220	310	400	90
2	Ish organini yerga ulangan elektrod bilan qamralish burchagi,º	γ	X_2	45	60	75	15
3	Elektr maydon kuchlanganligining qiymati, V/m	E	X_3	$3\cdot10^5$	$4\cdot10^5$	$5\cdot10^5$	$1\cdot10^5$
4	Bo’lish tekisligi o’qining koordinatasini gorizontal tekislikda joylashish nuqtasi,	B	X_4	290	310	330	20

	mm						

Ta’sir etadigan asosiy omillarning har xil qiymatlarida mayda urug’larni triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayonini baholash mezoni sifatida urug’larni urug’lik fraksiyasiga ajralish miqdori W (%) va urug’lik fraksiyaga ajralgan urug’larning 1000 donasini massasi m (g) qabul qilindi. Mayda urug’larni triboelektrik qurilmada saralash bo’yicha ko’p omilli eksperimental tadqiqotlar B_4 rejasi bo’yicha to’rt qaytarlikda bulg’or qalampir urug’ining “Superlastochka” navi bilan o’tkaziladi. Eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalarga matematik statistika usulidan foydalanib [5,6], hozirgi zamon kompyuterlarida mavjud bo’lgan dasturlar asosida qayta ishlab berildi.

Eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalarga qayta ishlob berish hamda koeffitsentlarining ahamiyatliligini baholash orqali, bulg’or qalampir urug’ini triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayonini adekvat ifodalaydigan quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

-urug’larni urug’lik fraksiyasiga ajralish miqdori bo’yicha

$$Y_1=84{,}660+7{,}141X_1–0{,}747X_2–2{,}772X_3–3{,}772X_4–0{,}346X_1X_4– –0{,}679X_4^2–0{,}616X_3^2–3{,}547X_4^2,\ \%\ ; \quad (1)$$

- urug’lik fraksiyasiga ajralgan urug’larning 1000 donasini massasi bo’yicha

$$Y_2=5{,}798–0{,}0790X_1+0{,}0088X_2+0{,}0196X_3+0{,}0388X_4–0{,}0185X_1^2– –0{,}0055X_1X_4–0{,}0165\ X_2^2+0{,}0115X_3^2\ +0{,}0315X_4^2,\ \text{g}. \quad (2)$$

(1) va (2) regressiya tenglamalaridan ko’rinib turibdiki, barcha omillar urug’larni urug’lik fraksiyasiga ajralish miqdori va urug’lik fraksiyasiga ajralgan urug’larning 1000 donasini massasiga o’zining ta’sirini ko’rsatadi.

Ushbu regressiya tenglamalarini bulg’or qalampir urug’larini urug’lik fraksiyasiga ajratish miqdori $Y_1 \rightarrow$ max intilish va urug’lik fraksiyasiga ajralgan urug’larning 1000 donasini massasi $Y_2 \geq 5{,}84$ grammga teng bo’lish sharti bilan birgalikda yechish, saralash texnologik jarayoniga ta’sir ko’rsatadigan asosiy omillarning maqbul qiymatlarini aniqlash imkonini berdi.

2-jadvalda bulg’or qalampir urug’ini triboelektrik qurilmada saralash texnologik jarayoniga ta’sir ko’rsatadigan asosiy omillarning maqbul qiymatlarini aniqlash natijalari keltirilgan.

2-jadval

Asosiy omillarning maqbul qiymatlarini aniqlash natijalari

Ko’rsatgichlar	Asosiy omillarning qiymatlari			
	D, *mm*	γ, º	E, V/m	*B*, mm
Shartli	+0,1449	+1	+1	–0,0860
Haqiqiy	323,043	75	$5{,}0\cdot10^5$	152,419
Yaxlitlangan	320	75	$5{,}0\cdot10^5$	152

2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko’rinib turibdiki, bulg’or qalampir urug’ini triboelektrik qurilmada saralaganda, urug’larni urug’lik fraksiyasiga ajralish miqdori ko’p hamda ularning 1000 donasini massasi yuqori bo’lishi ish organining diametri 320 mm, ish organini yerga ulangan elektrod bilan qamralish burchagi 75º, elektr maydon kuchlanganligining qiymati $5\cdot10^5$ V/m va bo’lish tekisligi o’qining koordinatasini gorizantal tekislikda joylashish nuqtasi 152 mm ga teng bo’lganda ta’minlanadi. Asosiy omillarning ushbu qayd qilingan maqbul qiymatlarida bulg’or qalampir urug’larini urug’lik fraksiyasiga ajralish miqdori 82,15 foiz hamda urug’lik fraksiyasiga ajralgan urug’larning 1000 donasini massasi 5,84 grammni tashkil etadi.

Bulg’or qalampir urug’ini triboelektrik qurilmaning maqbullashtirilgan parametrlariga saralash bo’yicha o’tkazilgan eksperimental tadqiqotlarga sifatli, biologik ko’rsatkichlari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potentsial hosildorligi yuqori

bo’lgan sara urug’liklar olindi.

Xulosa

Bulg’or qalampir urug’ini triboelektrik qurilmada saralaganda urug’lik fraksiyaga ajralish miqdori ko’p hamda ularning 1000 donasini massasi yuqori bo’lishi ish organining diametri 320 mm, ish organini yerga ulangan elektrod bilan qamralish burchagi 75º, elektr maydon kuchlanganligining qiymati $5 \cdot 10^5$ V/m va bo’lish tekisligi o’qining koordinatasini gorizantal tekilikda joylashish nuqtasi 152 mm ga teng bo’lganda taminlanadi.

ADABIYOTLAR

1. А.С. 1703178. Способ разделения семян / Ш.Г.Айдаров, А.Т.Росабоев, Ш.Б.Уразов, Р.А.Темербеков // Б. И. – 1992. – №.1. –С.44.

2. Адлер Ю.П. и др. Планирование эксперимента при поиске оптимальных условий. – М.: Наука, 1976. – 280 с.

3. Пляскин И.И. Оптимизация технических решений в машиностроении. – М.: Машиностроение, 1982. – 176 с.

4.Аугамбаев М.А. и др. Основы планирования научно-исследовательского эксперимента. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 336 с.

5. Вединяпин Г. Общая методика экспериментальных исследований и обработка опытных данных. – М.: Колос, 1973. – 199 с.

6. Лакин Г.Ф. Биометрия. – М.: Высшая школа, 1980. – 293 с.

UO‘T 631.363.25

RESPUBLIKAMIZNING CHORVACHILIK FERMALARIDA ENERGIYA TEJAMKOR, KONSTRUKTIV SODDA VA AVTOMATLASHTIRILGAN ELEKTR YURITMADAN FOYDALANISH

Yunusov R.F.
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

Rahmonov Sh.S.
Qarshi davlat texnika universiteti.

Annotasiya. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida xalq xo‘jaligining turli sohalarida turli elektr qurilmaiarda foydalanish ularni rivojlantirish soha mutaxasislarning oldiga o‘lkan vazifalarni qo‘yilmoqda.Jahon tajribalarini hisobga olgan holda sanoatning eng ko‘p ish bajaradigan va elektr energiyaning ko‘p talab qiladigan an’naviy motorlar o‘rniga xo‘jalikning ayrim sektorlariga chiziqli motorlardan foydalanish yo‘lga qo‘yilmoqda, bu esa o‘z navbatida o‘zining konstruksiyasining soddaligi,ish bajarishning yuqori unumdorligi bilan farq qiladi. Shu jumladan O‘zbekistonda turli sohalarida chiziqli asinxron motorlardan foydalanish istiqboli yo‘lga qo‘yilgan va ilmiy-amaliy izlanishlar olib borilmoqda.Yuqoridagilarni hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligining eng kerakli sohalaridan bo‘lgan chorvachilikda chiziqli motorlardan ozuqa tarqatish vositasi sifatida ishlatilib kelmoqda.

Аннотация. Сегодня, в условиях рыночной экономики, применение различных электротехнических устройств в различных отраслях народного хозяйства ставит большие задачи перед специалистами в области их разработки. Учитывая мировой опыт, вместо традиционных двигателей, выполняющих основную работу в промышленности и потребляющих много электроэнергии, в некоторых отраслях народного хозяйства находят применение линейные двигатели, которые, в свою очередь, отличаются простотой конструкции и высокой эффективностью работы. В частности, в Узбекистане установлена перспективность использования линейных асинхронных двигателей в различных отраслях и проводятся научно-практические исследования. Учитывая вышеизложенное, линейные двигатели используются в качестве средства раздачи кормов в животноводстве, которое является одной из важнейших отраслей сельского хозяйства.

Annotation. Today, in the conditions of a market economy, the use of various electrical devices in various sectors of the national economy poses great challenges to specialists in the field of their development. Taking into account world experience, instead of traditional engines that perform the main work in industry and consume a lot of electricity, linear motors are used in some sectors of the national economy, which, in turn, are distinguished by their simple design and high efficiency. In particular, in Uzbekistan, the prospects for using linear asynchronous motors in various industries have been established and scientific and practical research is being carried out. Taking into account the above, linear motors are used as a means of distributing feed in animal husbandry, which is one of the most important sectors of agriculture.

Chorvachilikdagi asosiy texnologik jarayonlar ozuqa tayorlash, saqlash va fermaga tashish, ularni tayorlash, chorvachilik fermasi hududida barcha turdagi gunglarni tashish, barcha turdagi em va ularning aralashmalarini taqsimlash, tozalsh, yuklash va go‘ngni tashish, ozuqa texnologiyasi. Kichik fermer xo‘jaliklari uchun yosh qoramollarni saqlash va boqishning texnologik sxemalaridan biri 1-rasmda ko‘rsatilgan. Qiydagi 1-rasmdan ko‘rinib turubdiki, bu yerda hayvonlarni parvarishlash bilan bir vaqtda ozuqa tayorlash, saqlash va tarqatish, gungni tozalsh va saqlash ishlari olib borilmoqda.




1-rasm. Chorvachilik fermasida mahaliy ozuqa tarqatish texnologiyasi.

Hayvonlarni ozuqani taqsimlash eng ko‘p mehnat talab qiladigan jarayonlarda biri bo‘lib, uning elektromexanizatsiyalash darajasi fermer xo‘jaliklarda taxminan 50...60% ni tashkil qiladi va hayvonlarni parvarish qilish uchun umumiy mehnat xarajatlarini 20…70% ni tashkilqiladi. Taqsimlash jarayoni ozuqa boqish ishlari kompleksini yakunlaydi va ushbu ishlar majmuasida mas’uliyatli jarayon hisoblanadi, chunki hayvonlarni ozuqlantirish bo‘yicha barcha zootexnik tadbirlarning samaradorli ozuqani o‘z vaqtiga taqsimlashga bo‘liq.

Ozuqa etkazib berish va taqsimlash usuliga ko‘ra ishlab chiqarish uch guruhga bo‘linadi :statsionar vositalar bilan; mobil qurilmalar bilan; ko‘chma etkazib berish vositalari va ozuqa tarqatishning satatsionar vositalari bilan. Shunday ekan sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun yuqori mehnat unumdorligi va har taraflama qulay texnikani jorij qilishimiz kerak. Shularni hisobga olgan holda chorvachilik fermalarda platformali ozuqa tarqatgichlardan foydalanish eng samarador yo‘lardan biri hisolanadi (2-rasm).


Fermer xo‘jaligida yosh qoramol (buzoq)larni maqsadga muvofiq boqish-o‘stirish, ularni to‘la qiymatli ozuqlantirishni tashkil etish, asrash texnologiyalarni qo‘llash, veterinariya-sanitariya tadbirlarga rioya qilish, ozuqabop ekinlarni etishtirish bo‘yicha tavsiyalardan foydalanish qoramolchilikni yanada rivojlantirishda muhim omillar bo‘lib hisoblanadi.




2-rasm. Mahaliy ozuqa tarqatgich (oxur) Chorvachilik va asalarichilik ilmiy-tadqiqot instituti fermasidan olngan lavha.

Kichik fermer xo‘jaliklari uchun yosh qoramollarni saqlash va boqishning texnologik sxemalardan biri quydagi 3-rasmda ko‘rsatilgan. Sxemadan ko‘rinib turibdiki, bu yerda hayvonlarni parvarishlash bilan bir vaqtda ozuqa tayyorlash, saqlash va tarqatish, gungni tozalash va saqlash ishlari olib borilmoqda.

Platformali ozuqa tarqatgich elektr yuritmasining strukturaviy ko‘rinishi.




1-chorvachilik binolari; 2-ozuqa uchun ombor; 3-em sexi; 4-tayyor emlarni saqlash ombori; 5-qoramollar uchun quttilar; 6-ozuqlantirish platformasi; 7-elektr yuritma; 8-ozuqlantirish platformasining harakatlanish yo‘li; 9-vazn-inventlar; 10-gungni saqlash.

3-rasm. Fermer xo‘jaliklari uchun yosh qoramollarni boqish texnologiyasi.

4-rasmda chiziqli asnxron elektr motorli platformali ozuqa tarqatgichning strukturaviy

sxemasi ko‘rsatilgan.



1-konveer platformasi; 2-rolik; 3-harakatlanuvchi yo‘llak; 4-ChAM induktori; 5-platforma konveeri; 6-egiluvchanelement; 7-rama; 8-havo bo‘shlig‘ini mahkamlash uchun rolik; 9-sozlash murvati.

4-rasm. Platformali ozuqa tarqatgich va chiziqli elektr motor

Platformali chiziqli ozuqa tarqatgichli asinxron elektr motorning 100 boshli qoramol fermasida joylashtirilgan texnologik xarakteristikasi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

100 boshli qoramol fermasining texnologik tavsifnomasi.

T.r.	Ko‘rsatgichlar nomi	O‘lchamlari
1	Tipik loyha 819	22x84
2	Fermadagi yosh qoramollar soni	100
3	Platformali ozuqa tarqatgichning hajmi, m^3	60
4	Platformali ozuqa tarqatgichning umumiy uzunligi, m	60
5	Qoramol boqadigan fermaning yon uzunligi, m	30
6	Platformali ozuqa tarqatgichning kengligi, m	1,2
7	Yemning chiziqli massasi, kg/m	12-60
8	Platformali ozuqa tarqatgichning tezligi, m/s	0,5-1,3
9	Platformali ozuqa tarqatgichning quvvati, kVt	5,0

Yuqoridagi ko‘rsatgichlardan bizga ko‘rinayabtiki chiziqli asinxron morotdan platformali ozuqa tarqatgich sifatida foydalanish fermalarda ish unumdorligini oshirishiradi.

Birinchidan, qoramollar uchun qurilgan fermaning hajmiga ta‘sir qiladi misol uchun agar biz qora mollarga mahaliy usulda ozuqa tarqatsak bizlar ozuqani tarqatish uchun texnikalarda (traktorlardan) foydalanishimizga tug‘ri keladi, bu o‘z navbatida bizlarda qoramollar uchun quriladigan fermamizni kattaroq qurishga olib keladi. Agarda ozuqa tarqatish platformalarda chiziqli asinxron motorlardan foydalansak, bu fermaning maydon jihatdan ancha tejalishga olib keladi.

Ikkinchidan, fermada texnikalardan foydalanish undan chiqayotgan shovqin hamda yoqilg‘i gazi qoramollarning tinchligiga ta‘sir ko‘rsatadi (5-rasm). Platformali ozuqa tarqatgichdan foydalanish ekologik toza va shovqinsizligi hisobiga qoramol fermasida qoramollarni bezovtalanish oldi olinadi.



5-rasm. Ozuqa maydalagich. Chorvachilik va asalarichilik ilmiy-tadqiqot instituti fermasidan olingan lavha.

Uchunchidan, platformali ozuqa tarqatgichni tezligini rostlash va avtomatik boshqarish imkoniyatiga ega bu qulaylik bizlarda ish unumdorligini oshirishga ishchi kuchuni kamaytirshga, bozor iqtisodiyoti talablariga mos mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytmoqchi bo‘lsak texnika texnologiya rivojlanib borayotgan zamonda har tomonlama resurs tejamkor elektr qurilmalardan foydalanish eng asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda an’naviy elektr motorlar o‘rniga chiziqli asinxron motorlardan foydalanish bizlarning sohamizda ayrim o‘rtaga quyilayotgan muamolarimizni yechilishiga sababchi bo‘ladi. Yuqorida aytib o‘tkanimizdek bugungi kunda reduktorsiz motorlardan foydalanish jamiyatning hamma sohasiga kirib kelmoqda, shu jumladan hozirgi kunda O‘zbekistonda ham deyarli barcha sohalarida shu jumladan chorvachilik fermalarida ozuqa tarqatgich sifatida ishlatish yo‘lga quyilmoqda. Bunda tashqari ko‘p ilmiy tadqiqot universitetining professor-o‘qituvchilari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 29.01.2020 г. №ПП-4576. «О дополнительных мерах государственной поддержки животноводческой отрасли». – Народное слово, 30 января 2020 г.

2. Дегтерев Г.П. Справочник по машинам и оборудованию для животноводства. – М.: Агропромиздат, 2017. – 224 с.

3. Muhammadiev A., Yunusov R.F. and other. Liner motor drive of cattle farm feeders. 1st International Conference on Energetics, Civil and Agricultural Engineering 2020 **(ICECAE 2020).** IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 614 (2020) 012013.

4. Мухаммадиев А., Юнусов Р.Ф., Халиқназаров Ў.А., Рахмонов Ш.С. Тяговые характеристики линейного асинхронного двигателя для электропривода платформенного кормораздатчика. – В кн.: «Аграрные теоретические и практические проблемы аграрной науки и их решение». Сб. материалов Международной конф., 2020 г., 14-15 декабря, ТашГАУ. – Ташкент, 2020, С. 863-867.

5. Yunusov R.F., Rahmonov Sh.S. ”Chiziqli motorlarni turlari va ularning ekspluatatsiyasining kamchilik va afzaliklari”. – Development of science Ilmiy jurnal 2025/4 volume 1 ISSN 3030-3907, 345-352 b.

УДК 631.115:636.085.53

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА УВЛАЖНЕНИЯ ГРУБЫХ КОРМОВ В КРЕСТЬЯНСКО-ФЕРМЕРСКИХ И ЛИЧНЫХ ПОДСОБНЫХ ХОЗЯЙСТВАХ

Толстоухова Т.Н.
ФГБОУ ВО РГАУ-МСХА им. К.А.Тимирязева, Россия

Халилов Э.Н.
ФГБОУ ВО РГАУ-МСХА им. К.А.Тимирязева, Россия

Назаров И.В.
АЧИИ ФГБОУ ВО Донской ГАУ, Россия

Зинович Р.И.
АЧИИ ФГБОУ ВО Донской ГАУ, Россия

Аннотация. Предложено технико-технологическое решение для обработки грубых кормов, позволяющее повысить их качество, эффективность использования, снизить затраты энергии животного на переработку и усвоения корма, повысить экологическую безопасность внутреннего пространства животноводческого помещения и хозяйства в целом. Наиболее оптимальным значением pH католита является для сена pH=10,43, а для соломы pH =9,5 при водородном показателе pH 10,43 и времени обработки 4 часа.

Annotasiya. Dag‘al ozuqalarga ishlov berish uchun ularning sifatini, foydalanish samaradorligini oshirish, ozuqani qayta ishlash va o‘zlashtirish uchun hayvonlarning energiya sarfini kamaytirish, chorvachilik binosi va umuman xo‘jalikning ichki maydonining ekologik xavfsizligini oshirish imkonini beruvchi texnik-texnologik yechim taklif etildi. Vodorod ko‘rsatkichi pH 10,43 va ishlov berish vaqti 4 soat bo‘lganda katolitning eng maqbul pH qiymati pichan uchun pH=10,43, somon uchun esa pH=9,5 hisoblanadi.

Annotation. A technical and technological solution has been proposed for processing coarse fodder, which makes it possible to improve its quality and efficiency of use, reduce the energy costs of animals for processing and digesting fodder, and improve the environmental safety of the interior of livestock buildings and the farm as a whole. The most optimal pH value for hay is pH=10.43, and for straw pH =9.5 at a hydrogen index of pH 10.43 and a processing time of 4 hours.

Для кормления крупного рогатого скота в крестьянско-фермерских и личных подсобных хозяйствах (КФХ и ЛПХ) используются грубые, сочные, зелёные и концентрированные корма, а также белково-витаминные и минеральные добавки.

В структуре кормовых рационов КРС в КФХ и ЛПХ грубые корма (сено и солома) составляют от 4 до 20 % общего количества кормов. Они характеризуются низким количеством влаги и высоким содержанием клетчатки [1].

В КФХ и ЛПХ одним из наиболее широко применяемых видов грубых кормов является сено. Оно представляет собой высушенную траву, содержащую не более 15…20 % влаги.

Солома значительно уступает сену по питательности, но намного дешевле и доступнее. В состав соломы входит небольшое количество протеина, минеральных веществ и витаминов, однако она богата клетчаткой (около 40 %). Клетчатка необходима для возбуждения моторики рубца.

Если в рационе КРС недостаточно клетчатки, то у животных нарушаются процессы

рубцового пищеварения и, как следствие, снижается жирность молока. Избыточное же содержание сырой клетчатки приводит к снижению переваримости питательных веществ кормов и эффективности их использования. Взрослым животным можно скармливать до 5…6 кг соломы в сутки.

Как показывают исследования и практический опыт, животные неохотно поедают грубые корма, не прошедшие предварительную подготовку. В тоже время, при потреблении грубых кормов возрастают затраты энергии животных на их переработку и усвоение.

Для повышения питательности, вкусовых качеств и усвояемости грубых кормов их необходимо подвергать дополнительной обработке. Для повышения эффективности использования грубых кормов их подвергают механической, термической и химической обработке.

Механическая обработка заключается в измельчении грубых кормов до 5…10 см. Если грубые корма используют в составе кормовых смесей, то их измельчают до 2…5 см. При необходимости гранулирования или брикетирования грубых кормов, их измельчают до 0,5…3 см. [2, 3].

Термическая обработка соломы заключается в ее запаривании в течение 10 часов с последующим охлаждением до температуры 40 ^{o}C и скармливании животным. А также можно приготавливать кормовые смеси [4].

Недостатком термической обработки соломы является то, что она не обеспечивает гидролизации клетчатки на более простые соединения и является трудоемкой.

Химическая обработка соломы позволяет решить этот недостаток и заключается в обработке соломы растворами каустической соды, аммиачной водой, известью или содово-солевым раствором. Химическая обработка соломы повышает её поедаемость животными, однако она также имеет ряд существенные недостатки. К ним следует отнести: высокую энергоемкость, необходимость приобретения дорогостоящего оборудования для производства каустической соды, а также агрессивное воздействие применяемых химических веществ на окружающую среду.


Нами предлагается более эффективное и безопасное для окружающей среды технико-технологическое решение обработки грубых кормов с использованием активированных сред.

Предлагаемая установка может быть использована для обработки грубых кормов, мойки молочного оборудования, дезинфекции помещений и оборудования и может применяться как в фермерских хозяйствах, так и в животноводческих комплексах. Схема предлагаемой установки представлена на рисунке 1.

Рабочий процесс предлагаемой установки протекает следующим образом. По трубопроводу 1 вода поступает в электроактиватор 2, в котором под действием электрического тока разделяется на кислую (анолит) и щелочную (католит) среду. Анолит обладает дезинфицирующими свойствами, а католит – биологически активными свойствами. Полученные растворы по циркуляционным парубкам 3 и 16 поступают в секции 9 и 10. Католит из емкости 10 подается в отделение обработки кормов, в доильно-молочный блок и в отделение первичной переработки молока для мойки технологического оборудования. Анолит из емкости 9 подается в отделение обработки кормов, а также используется для дезинфекции животноводческих помещений и технологического оборудования.

Обработку соломы производят католитом с уровнем pH ≥ 12 из расчета 1,5…2,5 т на одну тонну соломы [5]. Процесс обработки соломы происходит следующим образом. Солома, измельченная до размера частиц 3...5 см, загружается в смеситель. В

измельченную солому погружают распылители 14. Насосом 10 католит по трубопроводу 12 нагнетается в распылители 14, через которые он подается в солому. После внесения требуемого объема католита солома перемешивается в течение 30 минут и выдерживается 3…4 ч [5], после чего скармливается животным в чистом виде или в смеси с другими кормами. После обработки католитом солома приобретает светло-желтый цвет, мягкую консистенцию и имеет приятный хлебный запах.



1-вводной трубопровод; 2-электроактиватор; 3, 16-циркуляционные патрубки; 4, 10-центробежные насосы; 5, 13-вентили; 6, 7, 11, 12-трубопроводы для подачи анолита и католита; 8-крышка; 9-секция для анолита; 10-секция для католита; 14, 17-распылители; 15-теплоизолированный бак.

Рисунок 1 – Схема установки для обработки грубых кормов

Для раскисления силоса также используют католит с уровнем pH ≥ 12 из расчета 100…150 л на одну тонну. Раскислению подлежит силос с уровнем pH=3,8 и ниже, а также силос с нормальной величиной pH=3,9…4,2, но содержащий более 40 % уксусной и 10 % масляной кислот от общего количества всех органических кислот.

Вентилями 5 и 13 регулируется расход анолита и католита. В процессе обработки воды в электроактиваторе соотношение анолита и католита составляет 1:3 [6,7]. При этом расход энергии составляет около 10 кВт/м^3. Стоимость получения одного кубического метра католита составляет около 35 р., что значительно ниже стоимости запаривания грубых кормов или стоимости реагентов, применяемых для химической обработки соломы. Помимо этого, обработка грубых кормов активированными средами безопасна для человека, животных и окружающей среды.

Нами были проведены исследования влияния католита на свойства сена и соломы, а именно: на содержание в них сухих веществ, сырого жира, сырого протеина и золы.

Для проведения лабораторных исследований использовался католит с уровнем pH от 10 до 12 из расчета 1,5…2,5 т раствора на 1 т грубого корма.

В качестве грубых кормов использовали сено злаковых культур и ячменную солому. Обработка опытных образцов этих кормов массой по 300 гр. заключалась в смачивании, а также в их замачивании в течение 2, 4 и 6 ч католитом с уровнем pH = 10,34. Результаты исследований представлены в таблице 1.

Заключение

Предлагаемое технико-технологическое решение для обработки грубых кормов позволяет повысить их качество, эффективность использования; снизить затраты энергии животного на переработку и усвоения корма; повысить экологическую безопасность внутреннего пространства животноводческого помещения и хозяйства в целом.

Наиболее оптимальным значением pH католита является для сена pH=10,43, а для соломы pH =9,5 при водородном показателе pH 10,43 и времени обработки 4 часа.

Таблица 1

Результаты исследования образцов грубых кормов

Вариант обработки	Влажность, % *			Содержание сухого вещества, %**	Сырой протеин, % асв***			Содержание золы, % асв***	Содержание фосфора, %***		Содержание сырого жира, % асв***
	повторность		среднее		повторность		среднее				
	I	II			I	II			P	P_2O_5	
Сено											
Смоченное	52,0	52,5	52,3	47,7	9,00	9,00	9,00	6,02	0,13	0,30	1,99
2 часа	78,4	79,0	78,7	21,3	9,06	9,06	9,06	5,19	0,13	0,30	1,65
4 часа	77,8	77,9	77,9	22,1	9,63	10,25	9,94	4,61	0,12	0,27	1,55
6 часов	79,1	78,2	78,7	21,3	9,69	9,69	9,69	5,31	0,145	0,33	0,50
Солома											
Смоченная	73,9	67,9	70,90	29,1	4,25	4,25	4,25	5,88	0,12	0,27	0,62
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
2 часа	88,2	86,4	87,30	12,7	4,25	4,25	4,25	4,03	0,10	0,23	0,60
4 часа	86,9	88,3	87,60	12,4	7,18	5,44	6,31	4,17	0,09	0,21	0,61
6 часов	87,2	92,2	89,70	10,3	6,63	5,50	6,07	3,74	0,105	0,24	0,68

Примечание:
* влажность образцов в момент поступления в лабораторию;
**сухое вещество = 100 – влажность;
***асв – содержание на абсолютно сухое вещество

ЛИТЕРАТУРА

1. Гагай И.И. Способы подготовки кормов к скармливанию и их анализ / И. И. Гагай И.В. Гуджен Т.Н. Толстоухова // Активная честолюбивая интеллектуальная молодёжь сельскому хозяйству. – 2023. – № 1(14). – С. 24-28. – EDN MVLJTJ.

2. Рыжов С.В. Механизация переработки соломы на корм / С.В. Рыжов. – М.: Колос, 1983. – 198 с.

3. Назаров И.В. Совершенствование процесса обработки грубых кормов в фермерских хозяйствах / И. В. Назаров, Т. Н. Толстоухова, А. А. Поцелуев // Международный технико-экономический журнал. – 2018. – № 4. – С. 138-139. – EDN YOFNMD.

4. Щеглов В.В. Корма: Приготовление, хранение, использование // Справочник / В.В. Щеглов, Л.Г. Боярский – М.: Агропромиздат, 1990. – 324с.

5. Святкина А.А. Установка для обработки грубых кормов активированными средами / А. А. Святкина, Т. Н. Толстоухова // Научное обеспечение агропромышленного комплекса: Сб. статей по материалам XI Всероссийской конференции молодых ученых, посвященной 95-летию Кубанского ГАУ и 80-летию со дня образования Краснодарского края, Краснодар, 29–30 ноября 2017 года. – Краснодар: КубГАУ имени И.Т. Трубилина, 2017. – С. 458-459. – EDN YLQWUR.

Ushbu qurilmaning kamchiliklari yuqori metall sarfi va cheklangan funksionallik tufayli past samaradorlikdir.

2-rasmda elektr maydonida urug‘larga ekishdan oldin ishlov berish qurilmasi tasvirlangan, u yuklash va qabul qilish bunkerlari, barabanlar, konveyer lentasi hamda to‘rtta elektroddan (ikkita potensial va ikkita yerga ulangan) tashkil topgan. Ushbu mashina yordamida urug‘larga ikki elektrodlar orasidagi bo‘shliqda ishlov berish mumkin hamda bu bo‘shliqlarda elektrostatik maydon va toj razryadli maydon hosil qilinadi.



2-rasm. Chigitni ekishdan oldin ishlov berish uchun qurilma

Mashina po‘lat quvurlardan tayyorlangan korpusdan iborat bo‘lib. Urug‘larni konveyer lentasi 3 ga uzatish uchun yuklash bunkeri 2 mavjud. Lenta barabanlar 4 ga tortilgan va ular elektr yuritma 5 bilan harakatga keltiriladi. Ikki elektrodlararo bo‘shliq hosil qilish uchun yuqori kuchlanish manbai 6 nazarda tutilgan va u potensial elektrod 7 ga ulangan. Potensial elektrod 7 tojsiz 7a va tojli 7b bo‘limlardan tashkil topgan va yerga ulangan elektrod 8 mavjud.

Tojsiz 7a bo‘lim bilan yerga ulangan 8 elektrod orasidagi bo‘shliq elektrostatik maydonni, tojli 7b bo‘lim bilan 8 elektrod orasidagi bo‘shliq esa tojli razryadli maydonini hosil qiladi. 7a va 7b bo‘limlar orasiga dielektrik plastinka 9 o‘rnatilgan bo‘lib, u ionlarning tojli razryadli maydoni bo‘shlig‘idan elektrostatik maydon bo‘shlig‘iga o‘tishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Elektrostatik maydon va tojli razryadli maydoni parametrlari urug‘larning turi, unib chiqish davri va hokazolarga qarab, yuqori kuchlanish manbai 6 dan beriladigan kuchlanishni o‘zgartirish, shuningdek, 7a, 7b bo‘limlar va 8 elektrod orasidagi masofani ushlagich 10 lar yordamida sozlash orqali o‘zgartirilishi mumkin.

Elektroishlovdan o‘tgan urug‘larni joylashtirish uchun qabul qilish bunkeri 11 mo‘ljallangan. Qurilmani boshqarish uchun pult 12 mavjud.


Qurilma quyidagicha ishlaydi: potensial elektrodning tojsiz 7a va tojli 7b bo‘limlari ushlagichlar 10 yordamida yerga ulangan 8 elektroddan ishlov parametrlariga qarab belgilangan masofada o‘rnatiladi. Yuqori kuchlanish manbai 6 dan potensial elektrodning 7a va 7b bo‘limlariga kuchlanish beriladi. Elektroishlovdan o‘tkazilishi kerak bo‘lgan urug‘lar yuklash bunkeri 2 ga solinadi, va u yerdan elektr yuritma 5 yordamida harakatlanadigan barabanlar 4 orqali konveyer lentasiga 3 uzatiladi.

Konveyer lentasi bo‘ylab harakatlanib, urug‘lar avval tojsiz 7a bo‘lim va yerga ulangan 8 elektrod hosil qilgan birinchi elektrodlararo bo‘shliqqa kiradi va elektrostatik maydon ta’sirida ishlovdan o‘tadi. Keyin urug‘lar tojli 7b bo‘lim va 8 elektrod hosil qilgan ikkinchi elektrodlararo bo‘shliqqa o‘tadi va u yerda tojli razryadli maydoni ta’sirida ishlovdan o‘tadi. Shu bilan birga, 7a va 7b bo‘limlar orasiga o‘rnatilgan dielektrik plastinka 9 ionlarning bir bo‘shliqdan boshqasiga o‘tishini oldini oladi. Elektroishlov tugagach, urug‘lar qabul qilish bunkeri 11 ga tushadi. Qurilma pult 12 yordamida boshqariladi.

Ushbu qurilmaning kamchiligi shundaki, u faqat unib chiqayotgan urug'larni elektr bilan davolash uchun mo'ljallangan bo’lib, bu uning funksional imkonini cheklaydi va dukkakli ekinlar urug'larini yuqori sifatli elektr qayta ishlash uchun qurilmaning samarasini pasaytiradi.

Taklif etilayotgan qurilma o‘zining funksional imkoniyatlarini kengaytirish natijasida turli qishloq xo‘jalik va dukkakli ekinlar urug‘ini naviga qarab elektr bilan qayta ishlash sifatini oshirish imkonini beradi.

3-rasmda qishloq xo'jalik ekinlari urug’iga elektr bilan qayta ishlash uchun tavsiya etilgan qurilmaning prinsipial sxemasi tasvirlangan.



3-rasm. Qishloq xo'jalik ekinlari urug’ini elektr bilan ishlov berish uchun qurilma

Qurilmada yuklash bunkasi 1, konveyer 2, rama 3 va 7, erga ulangan elektrod 4, elektr yuritma 5, qabul qiladigan bunker 6, potentsial elektrod 8, dielektrik asos 9, vint mexanizmi 10 va o‘lchagich 11 dan tashkil topgan.

Qurilma quyidagicha ishlaydi. Qishloq xo‘jalik va dukkakli ekinlar urug‘ini elektr bilan qayta ishlashdan oldin ularning naviga qarab erga ulangan va potensial elektrodlar 4 va 8 o‘rtasida zarur masofa vint mexanizmi 10 va o‘lchagichi 11 yordamida o‘rnatiladi. Shundan keyin potentsial elektrodga 8 yuqori kuchlanish beriladi va konveyer tasmasi 2 elektrik yuritma 5 orqali harakatga reltiriladi. Bu vaqtda ishlov beriladigan urug'lik materiali yuklash bunkeri 1 dan konveyer lentasi 2 yuzasiga bir me’yorda etkazib beriladi va erga ulangan hamda potentsial elektrodlar 4 va 8 o‘rtasidan o‘tib, yuqori kuchlanishli elektr maydonida ishljv beriladi. Ishllov berilgan urug’ qabul qilish bunkeri 6 ga tushadi va keyingi texnologik operatsiyaga jo‘natiladi. Erga ulangan va potentsial elektrodlar 4 va 8 o‘rtasida zarur masofani vint mexanizmi 10 va o‘lchagich 11 yordamida urug’lik materialining turiga qarab rostlab, ularga yuqori kuchlanishli elektr maydoni bilan sifatli ishlov berishni amalga oshirish mumkin.

Xulosa

Qishloq xo‘jaligida dukkakli ekinlar urug‘lariga elektr maydon ta’sirida ishlov berish texnologiyasi ularning biologik faolligini oshirish, unib chiqish ko‘rsatkichlarini yaxshilash va hosildorlikni ko‘paytirishning samarali usullaridan biridir. Taklif etilayotgan yangi qurilmani mavjud analoglarga nisbatan funksional imkoniyatlari keng bo‘lib, turli ekin urug‘larini nav va o‘lchamiga qarab yuqori sifatli elektr ishlovdan o‘tkazish imkonini beradi. Qurilmadagi dielektrik asos, vint mexanizmi va o‘lchov asbobi elektrodlar orasidagi masofani aniq sozlashga

imkon yaratadi, bu esa ishlov jarayonining sifatini oshiradi va urug‘larning shikastlanish xavfini kamaytiradi. Natijada, elektr maydon yordamida urug‘larga dastlabki ishlov berish jarayoni yanada samarali, xavfsiz va universal bo‘lib, qishloq xo‘jaligi amaliyotida keng qo‘llash uchun qulay texnik yechim sifatida tavsiya etilishi mumkin

ADABIYOTLAR

1. Rosaboev A.T. Letuchkalarni triboelektrik qurilmada saralashning ilmiy va texnologik asoslari: Monografiya/A.T.Rosaboev. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2015. – 109 b.

2. Rosaboev A.T.Takomillashtirilgan elektr saralagich//AGRO ILM. – Toshkent, 2013. – № 1. – B.81-82.

3. Rosaboyev A.T, Umarov Sh.Sh Loviya urug‘iga yuqori kuchlanishli elektr maydonda ishlov berishning istiqbollari // “Zamonaviy energetikaning dolzarb muammolari va rivojlantirish istiqbollari” – Qo‘qon, 2024. – 342b.

UO‘T:631.362.36

POLIZ EKINLARI URUG‘INING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI OSHIRADIGAN ELEKTR SARALAGICH QURILMANING ISH ORGANINI BA’ZI PARAMETRLARINI ANIQLASH NATIJALARI

Rosaboyev A.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institute, t.f.n., k.i.x.

Tagayev B.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, t.f.f.d.

Annotasiya. Maqolada qovun urug‘i misolida, poliz ekinlari urug‘ining sifat ko‘rsatgichlarini oshiradigan elektr saralagich qurilmasining ish organini ba’zi parametrlarini aniqlash natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведены результаты определения некоторых параметров рабочего органа электрического сортировочного устройства, повышающего качественные показатели семян бахчевых культур, на примере семя дыни.

Annotation. The article presents the results of determining some parameters of the working body of an electric sorting device that increases the quality indicators of melon seeds, using the example of melon seeds.

2050-yilga kelib dunyo aholisi soni 10 milliardga yaqinlashishi mumkinligi haqida xalqaro tashkilotlar, jumladan, FAO mutaxassislari tomonidan berilgan prognozlar global miqyosdagi eng muhim masalalardan biri-oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash vazifasini yanada dolzarblashtirmoqda. Mavjud iste’mol darajasi saqlanib qolgan taqdirda ham oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini kamida 50 foizga oshirish zarurati paydo bo‘ladi. Bugunning o‘zida dunyo aholisining ikki milliarddan ortiq qismi yetarli darajada to‘yimli ovqatlanish imkoniyatidan mahrum ekanligi, ushbu muammoni strategik yondashuvsiz hal etib bo‘lmasligini ko‘rsatadi[1].

Shu nuqtai nazardan, qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, urug‘lik sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, balki jahon bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish, aholi turmush sifatini yuksaltirishda ham hal qiluvchi omilga aylanib bormoqda.

Ma’lumki, poliz ekinlaridan mo‘l-ko‘l hosil yetishtirishda, boshqa agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda, ekishga tayyorlanadigan urug‘larning sifat ko‘rsatkichlari ham juda muhim rol o‘ynaydi. Chunki, ekish uchun sifatli, biologik xossalari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan urug‘idan foydalanish mo‘l hosil garovi hisoblanadi. Ammo, hozirgi kungacha respublika qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida poliz ekinlari urug‘ini saralash uchun biron-bir ilmiy asoslangan qurilma mavjud emas. Shuning uchun dehqonlar poliz ekinlari urug‘ini saralashda premetiv usullardan foydalanishga yoki saralamasdan ekishga majbur bo‘lishayapti. Bu urug‘lik sarfini meyoridan 1,5-2,0 marta ko‘p sarflanishiga, ortiqcha unib chiqqan nihollarni yaganalash uchun qo‘shimcha qo‘l mehnatidan foydalanilshga hamda yetishtirilgan mahsulotning tannarxini qimmatlashishiga olib kelayapti [2, 3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz poliz ekinlari urug‘ini saralash va ularning sarfini kamaytirish uchun yuqori sifatli, biologik xossalari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘liklar olish imkonini beradigan elektr saralagich qurilmasidan foydalanishni taklif qilayapmiz.

1-rasmda poliz ekinlari urug‘ini sifat ko‘rsatgichlarini oshiradigan elektr saralagich


qurilmasining prinsipial sxemasi va ish organi tasvirlangan.

Ish organi elektr saralagich qurilmasining asosiy qismi hisoblanib, poliz ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayoni uning yuzasida amalga oshiriladi.

Qurilmaning ish organi polietilen quvurdan tayyorlanib, yuzasiga chuqurlik burchagi “γ”, eni “t” va orasidagi masofa “δ”ga teng bo‘lgan ikki yo‘lakli vintsimon ariqchalar yo‘nilgan va ularga diametri “d”ga teng bo‘lgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar o‘ralib, tok uzatgichlar 10 orqali yuqori kuchlanishli mabaaga ulangan.

Polietilen quvur flanes 9 va dielektrik materialdan tayyorlangan yon disklar 10 yordamida val 12 ga mahkamlangan.

Polietilen quvurdan tayyorlangan ish organi yuzasida elektr maydonini hosil qilish hamda unda poliz ekinlari urug‘ini saralash samaradorligini oshirish uchun, uning yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida ma’lum bir masofa bo‘lishi kerak. Bu o‘z navbatida ish organi yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofani aniqlashni talab etadi.



a) b)


1–yuklash bunkeri; 2– ta’minlagich; 3–ish organi; 4–qabul qilish bunkeri; 5–bo‘lish tekisligi; 6–ajratib oladigan cho‘tka; 7–sirpanish taxtasi; 8–polietilen quvur; 9–flaneslar; 10–tok uzatgichlar; 11–yon disklar; 12–val; 13–qarama-qarshi ishorali elektrodlar

1-rasm. Poliz ekinlari urug‘ini saralash uchun taklif qilingan elektr saralagich qurilmasining prinsipial sxemasi (a) va ish organi (b)

Ish organi yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofani aniqlash uchun dielektrik material olinib, uning yuzasiga γ =60° chuqurlik burchagi ostida, eni t=5,0 mm hamda orasidagi masofa δ=2,0; 3,0; 4,0; 5,0 va 6,0 mm ga teng bo‘lgan ariqchalar yo‘nildi. Ularga diametri d=5,0 mm li elektrodlar yelimlanib, maxsus laboratoriya stendi tayyorlandi.

2-rasmda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofani aniqlash uchun tayyorlangan stendning prinsipial sxemasi tasvirlangan.

Laboratoriya stendi yordamida elektrodlar orasidagi masofa quyidagicha aniqlandi. Tasodifiy tanlash yo‘li bilan poliz ekinlari (qovun) urug‘i orasidan bir dona ajratib olindi va massasi o‘lchanib, shoyi ip 8 bilan elektr tarozi 1 ning richagi 9 ga osib qo‘yildi. Keyin shesterna 3 ga mahkamlangan dielektrik asos 5 vint 4 yordamida qarama-qarshi ishorali elektrodlar qovun urug‘i 7 ga tekkunga qadar harakatlantirilib, shoyi ip 8 ning erkin osilib turishi ta’minlandi. Keyin yuqori kuchlanishli TG-1020 transformatoridan qarama-qarshi ishorali elektrodlar 6 ga kuchlanish berildi va dielektrik asos 5 asta-sekin pastga qarab tushirilib, qovun urug‘i 7 qarama-qarshi ishorali elektrodlar yuzasidan uzilgan paytda elektr tarozi 1 ning shkalasida ko‘rsatilgan son qiymati yozib olindi.



1−elektr tarozi; 2−tishli reyka; 3−shesterna; 4−vint; 5−orasidagi masofa har xil qilib ariqchalar yo‘nilgan dielektrik asos; 6−qarama-qarshi ishorali elektrodlar; 7−poliz ekin urug‘i; 8−shoyi ip; 9−richag

2-rasm. Elektrodlar orasidagi masofani aniqlash uchun tayyorlangan stendining prinsipial sxemasi

Elektr tarozi qovun urug‘ining massasi bilan elektr tortish kuchining qiymatini birgalikda ko‘rsatgani uchun, elektr tortish kuchining qiymati ushbu ifodadan topildi

$$F_e = F_\Sigma - m, \quad (1)$$


bunda F_e – elektr tortish, kuchi, mg;

F_Σ – elektr tarozi ko‘rsatgan kuch, mg;

m – qovun urug‘ining massasi, mg.

Tajribalar elektrodlar orasidagi masofa har xil bo‘lgan holatlar uchun to‘rt qaytariliqdan o‘tkazildi. Olingan natijalar dala daftariga qayd qilinib, ularga hozirgi zamon kompyuterlarida mavjud bo‘lgan dastur asosida matematik statistika usulida qayta ishlov berildi [4, 5].

3-rasmda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladigan elektr maydoni ta’sirida hosil bo‘ladigan elektr tortish kuchining qiymatini elektrodlar orasidagi masofaga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi tasvirlangan.



1–tajribada olingan egri chiziq; 2–hisoblangan egri chiziq

3-rasm. Elektr tortish kuchi(F_e)ning qiymatini elektrodlar orasidagi masofa (δ) ga bog‘liq o‘zgarish grafigi

3-rasmda tasvirlangan bog‘lanishdan ko‘rinib turibdiki, elektrodlar orasidagi masofa o‘zgarishi bilan elektr tortish kuchining qiymati ham o‘zgarayapti. Masalan, elektrodlar orasidagi masofa 2,0 mm ga teng bo‘lganda, elektr tortish kuchining qiymati $72{,}0 \cdot 10^{-5}$ N ni tashkil etgan bo‘lsa, ular orasidagi masofa 4,0 va 6,0 mm ga teng bo‘lganda elektr tortish kuchining qiymati, mos ravishda, $106 \cdot 10^{-5}$ N va $78{,}0 \cdot 10^{-5}$ N ni tashkil etdi. Yoki boshqacha aytganda, elektr tortish kuchining qiymatini elektrodlar orasidagi ma’lum bir masofagacha ortib

borishi va keyin yana kamayishi kuzatildi. Buning sababini shunday tushuntirish mumkin: elektrodlar orasidagi masofa kichik bo‘lganda, ular orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlarining bir qismi nafaqat urug‘ orqali, balki havo orqali ham o‘tgani uchun elektr tortish kuchining qiymati bir oz kam bo‘ladi. Ular orasidagi masofa ortib, urug‘ning o‘lchamiga tenglashganda, qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari asosan, urug‘ orqali o‘tadi. Shuning uchun elektr tortish kuchi o‘zining maksimal qiymatiga erishadi. Elektrodlar orasidagi masofa kattalashgani sari ular orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari havo+urug‘+havo orqali o‘tgani uchun elektr tortish kuchining qiymati yana kamayadi.

Demak, poliz ekinlari urug‘i ish organi yuzasiga maksimal elektr maydon kuchi bilan tortilishi uchun, uning yuzasiga o‘ralgan elektrodlar orasidagi masofa o‘zining ma’lum bir maqbul o‘lchamiga ega bo‘lishi kerak ekan. Elektrodlar orasidagi masofani ushbu o‘lchamdan kichik yoki katta bo‘lishi elektr tortish kuchining qiymatini kamayishiga olib keladi.


3-rasmda tasvirlangan egri chiziqdan ko‘rinib turibdiki, elektr tortish kuchining qiymatini elektrodlar orasidagi masofaga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi parabola xarakteriga ega bo‘lib, quyidagi empirik formula bilan ifodalanadi

$$F_e = -6{,}93\delta^2 + 56{,}92\delta - 14{,}8, N. \quad (2)$$

Tajribada olingan va hisoblab chiqilgan egri chiziqlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, poliz ekinlari urug‘ini ish organi yuzasiga maksimal elektr kuchi bilan tortilishini ta’minlash uchun, uning yuzasiga o‘ralgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasidagi masofa 4,0 mm atrofida bo‘lishi kerak ekan.

Poliz ekinlari urug‘ini saralash samaradorligini oshirishda elektrodlar orasidagi masofadan tashqari, ularning diametri ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ikki yo‘lakli vintsimon shaklda yo‘nilgan ariqchalarga o‘raladigan qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametrini aniqlash bo‘yicha ham tajribalar o‘tkazildi. Buning uchun orasidagi masofa 4,0 mm ga teng bo‘lgan ariqchalarga diametri 2,0; 3,0; 4,0; 5,0 va 6,0 mm li qarama-qarshi ishorali elektrodlar yelimlanib, yuqorida ta’kidlangan usul bilan ularga qovun urug‘ini elektr tortish kuchining qiymati to‘rt qaytariliqda o‘lchandi va dala daftariga qayd qilinib, olingan natijalarga matematik statistika usulida qayta ishlov berildi.

4-rasmda elektr tortish kuchining qiymatini qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametriga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi tasvirlangan.



1–tajribada olingan egri chiziq; 2–hisoblangan egri chiziq

4-rasm. Elektr tortish kuchi (F_e) ning qiymatini elektrodlar diametri(d)ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

4-rasmda tasvirlangan bog‘lanishdan ko‘rinib turibdiki, qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri oshishi bilan elektr tortish kuchining qiymati ham ortib borayapti. Masalan, agar qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri 2,0 mm ga teng bo‘lganda, elektr tortish

kuchining qiymati 76,0 ·10^{-5} N ni tashkil etgan bo‘lsa, u 4,0 va 6,0 mm ga teng bo‘lganda, elektr tortish kuchining qiymati, mos ravishda, 106,0 ·10^{-5} N va 122,0 ·10^{-5} N ni tashkil etdi. Buni shunday izohlash mumkin: qarama-qarshi ishorali elektrodlarning diametri kichik bo‘lganda, poliz ekinlari urug‘ini elektrodlarga tegadigan yuzasi nisbatan kam bo‘ladi. Urug‘ining elektrodlarga tegadigan yuzasi kam bo‘lgani uchun qutblangan yuzasi ham kichik bo‘lib, elektr tortish kuchining qiymati nisbatan kamroq bo‘ladi. Qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri oshishi bilan poliz ekinlari urug‘ini ularga tegib turgan yuzasi katta bo‘lib, qutblangan yuzasi ham ko‘payadi, natijada, elektr tortish kuchining qiymati nisbatan katta bo‘ladi. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametrini maqbul qiymatdan katta bo‘lishi, poliz ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayoniga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun qarama-qarshi ishorali elektrodlar o‘zining maqbul diametriga ega bo‘lishi lozim.

Eksperimental tadqiqotlarda olingan natijalarni matematik statistika usuli bilan qayta ishlash shuni ko‘rsatdiki, elektr tortish kuchining qiymatini qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametriga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi ham parabola xarakteriga ega bo‘lib, quyidagi empirik formula bilan ifodalanadi

$$F_e = -1{,}78d^2 + 39{,}87d - 98{,}5\,, N. \quad (3)$$

4-rasmda tasvirlangan egri chiziqlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, poliz ekinlari urug‘ini ish organi yuzasiga maksimal tortilishi va elektr saralagich qurilmasining ish unumi yuqori bo‘lishini ta’minlash uchun qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametri 5,0 mm atrofida bo‘lishi kerak ekan. Qarama-qarshi ishorali elektrodlar diametrini ushbu qiymatdan kichiraytirish elektr tortish kuchining qiymatini kamayishiga olib kelsa, undan kattalashtirish elektr saralagich qurilmasining ish ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa

Poliz ekinlari urug‘ining sifat ko‘rsatgichlarini oshiradigan elektr saralagich qurilmasida poliz ekinlari urug‘ini saralash samaradorligini oshirishga ish organlarining yuzasiga chuqurlik burchagi 60°, eni 5,0 mm va orasidagi masofa 4,0 mm ga teng bo‘lgan ikki yo‘lakli vintsimon ariqchalar yo‘nilib, ularga diametri 5,0 mm ga teng bo‘lgan qarama-qarshi ishorali elektrodlar o‘ralganda erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. https://www.fao.org/home/ru
2. Rosaboyev A.T., Usmonov I.I. Elektr saralagich qurilmalarining ish organini takomillashtirish yo‘llari// “Resurstejamkor va fermerbop qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish”. – Gulbahor, 2020. – B.316-325.
3. Rosaboyev A.T, Usmonov I.I, Qovun urug‘ini saralaydigan elektr qurilma// AGRO ILM. – Toshkent, 2021. – № 5. – B.90-91.
4. Отчет о НИР за 2000 год по заданию 2.7.2. по теме «Разработка и ис-следование кольцевого и индукционного диэлектрического устройства для сортирования, очистки и калибровки семян различных сельскохозяйственных культур». – Гульбахор, 2000. – 53 с.
5. Rosaboyev A.T. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralashga doir // “Sholi va dukkakli – don ekinlari yetishtirishning muammolari va istiqbollari: seleksiya, urug‘chilik, agrotexnika va joriy qilish” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2013. – B. 133-137.

UO‘T 631.632.36

POTENSIAL ELEKTROD O‘RALADIGAN DIELEKTRIK HALQANING QALINLIGINI ANIQLASH USULI

Otaxonova Sh.N.
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.

Annotasiya. Maqolada elektromexanik saralagich qurilmasining ish organidagi dielektrik halqaning qalinligini aniqlash usuli va tuksiz urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liqligini tajribalarda aniqlash natijalari keltirilgan.

Аннотация. В статье приведена методика определения толщины диэлектрического кольца в рабочем органе электромеханического сортировочного устройства и результаты полученных экспериментальных данных величины силы электрического поля, действующей на оголенные семена в зависимости от толщины диэлектрического кольца, на которое наматывается потенциальный электрод.

Annotation. The article presents a method for determining the thickness of the dielectric ring in the working organ of an electromechanical separator device and the results of experiments establishing the dependence of the electric field strength affecting the seedless cotton seed on the thickness of the dielectric ring wrapped around the potential electrode.

Paxtachilikni zamonaviy talablarga javob beradigan texnologiyalar asosida rivojlantirish hozirgi davrning dolzarb masalasi sifatida ko‘rilib, urug‘lik chigitlarni elektr maydon ta’sirida saralash bo‘yicha ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1]. Tuksiz chigitlar elektr maydon ta’sirida saralab ekilganda, nihollarning unib chiqish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lishi bilan birga, kasalliklarga chidamli, potensial hosildorligi yuqori bo‘lishiga erishiladi. Shu jihatdan, tuksiz urug‘lik chigitlarni elektr maydon ta’sirida saralaydigan qurilmani ishlab chiqish hamda konstruktiv o‘lchamlari va ish rejimlarini asoslash muhim ilmiy-texnik ahamiyatga ega [2].

Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralash bo‘yicha o‘tkazilgan patent izlanishlar va avval bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili asosida, tuksiz chigitlarni saralash uchun elektromexanik saralagich qurilmasining prinsipial sxemasi ishlab chiqildi [3].

Elektromexanik saralagich qurilmasining ish organi metall va dielektrik halqalardan tashkil topgan bo‘lib, dielektrik halqalarga ariqchalar ochilgan va ularga potensial elektrod o‘ralgan. Shuning uchun potensial elektrod o‘raladigan dielektrik halqalarning qalinligini aniqlash muhim rol o‘ynaydi. Chunki, dielektrik halqaning qalinligiga mos ravishda, potensial elektrod bilan metall halqa orasidagi masofa o‘zgaradi. Potensial elektrod bilan metall halqa orasidagi masofani o‘zgarishi urug‘larni ish organi yuzasiga tortish kuchini o‘zgarishiga olib keladi. Bu o‘z-o‘zidan dielelektrik halqalarning qalinligini aniqlash zarurligini taqazo etadi.


Dielektrik halqalarning qalinligini aniqlash uchun qalinligi 10; 13; 16 va 19 mm ga teng bo‘lgan fomeks materiali olinib, diametri 340 mm li halqalar tayyorlandi [4].

1-rasmda diametri bir xil va qalinligi har xil bo‘lgan dielektrik halqalar tasvirlangan.


Shundan keyin ushbu halqalarning yuzasiga chuqurlik burchagi γ=60º va eni d_a=6 mm ga teng bo‘lgan ariqchalar ochildi. Ariqchalarga ularning eniga mos keladigan potensial elektrodlar o‘raldi.

2-rasmda dielektrik halqaga ariqcha ochilgan va potensial elektrod o‘ralgan holat tasvirlangan.

Dielektrik halqaning qalinligini aniqlash uchun potensial elektrod bilan metall halqa orasiga urug‘larni tortadigan elektr kuchining qiymatini topish kerak.




1-rasm. Diametri bir xil va qalinligi har xil bo‘lgan dielektrik halqalar, mm



a) b)

2-rasm. Dielektrik halqaga ariqchalar ochilgan (a) va potensial elektrod o‘ralgan (b) holati



1–elektr tarozi; 2–tishli reyka; 3–shesterna; 4–vint; 5–asos 6– va 9–metall halqa; 7–dielektrik halqa; 8–potensial elektrod; 10–urug‘; 11–shoyi ip; 12–richag

3-rasm. Dielektrik halqaga o‘ralgan potensial elektrod bilan metall halqaga urug‘ni elektr tortish kuchini o‘lchash stendning prinsipial sxemasi

Urug‘larni potensial elektrod bilan metall halqa orasiga tortadigan elektr kuchining qiymatini topish uchun [5] ga asosan, maxsus stend tayyorlandi.

3-rasmda dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda, potensial elektrod bilan metall halqa orasiga urug‘larni elektr tortish kuchini aniqlash uchun ishlab chiqilgan stendning prinsipial sxemasi tasvirlangan.

Stend elektr tarozi 1, tishli reyka 2, shesterna 3, vint 4, asos 5, metall halqa 6 va 9, dielektrik halqa 7, potensial elektrod 8, urug‘ 10, shoyi ip 11 va richag 12 lardan tashkil topgan.

Metall halqa 6 va 9 potensial elektrod 8 o‘ralgan dielektrik halqa 7 asos 5 ga o‘rnatilgan bo‘lib, shesterna 3 ga mahkamlangan hamda vint yordamida tishli reyka 2 bo‘ylab yuqori va pastga harakatlanish imkoniga ega.

Potensial elektrod 8 bilan metall halqa 6 orasiga urug‘ni elektr tortish kuchi quyidagicha aniqlandi. Tasodifiy tanlash yo‘li bilan tuksiz chigitlar ichidan bir dona ajratib olindi va uning massasi o‘lchanib shoyi ip 11 ga osib qo‘yildi. Shundan keyin, shesterna 3 ga mahkamlangan asos 5 vint 4 yordamida tishli reyka 2 bo‘ylab yuqoriga ko‘tarildi va urug‘ potensial elektrod 8 bilan metall halqa 6 ni orasiga joylashtirilib, richag 12 ga bog‘langan shoyi ip 11 ning erkin osilib turishi ta’minlandi.


Keyin AI-70 rusumli yuqori kuchlanishli manbaadan potensial elektrod 8 ga yuqori kuchlanish berilib, shesterna 3 ga mahkamlangan asos 5 vint 4 yordamida tishli reyka 2 bo‘ylab, asta-sekin pastga qarab harakatlantirildi. Urug‘ potensial elektrod 8 bilan metall halqa 6 orasidan uzilgan vaqtda–sinxron ravishda, elektron tarozi 1 ning shkalasi ko‘rsatgan qiymat yozib olindi.

Shu usul bilan urug‘ga ta’sir etadigan elektr tortish kuchining qiymati metall halqalar orasiga har xil, ya’ni, 10; 13; 16; 19 mm qalinlikdagi dielektrik halqalarga potensial elektrod 8

o‘ralgan holatlar uchun o‘lchanib, olingan natijalar dala daftariga qayd etildi. Olingan natijalarga [6,7] ga asosan, matematik statistika usulidan foydalanib, hozirgi zamon kompyuterlarida mavjud bo‘lgan dasturlar asosida qayta ishlov berildi.

4-rasmda urug‘ga ta’sir etadigan elektr tortish kuchining qiymatini metall halqalar orasiga joylashgan potensial elektrodlar o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi tasvirlangan.

4-rasmda tasvirlangan egri chiziqdan ko‘rinib turibdiki, potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi o‘zgarishi bilan urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymati ham o‘zgarayapti. Masalan, potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi 10 mm ga teng bo‘lganda, urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr kuchining qiymati $80{,}6\cdot10^{-5}$ N ni tashkil etgan bo‘lsa, uning qalinligi 13; 16 va 19 mm ga teng bo‘lganda, elektr kuchining qiymati, mos ravishda, $104\cdot10^{-5}$, $115\cdot10^{-5}$ va $96\cdot10^{-5}$ N ni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning ma’lum bir qalinligigacha urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini avval oshib borishi va keyin kamayishi kuzatildi.



1 – tajriba; 2 – hisoblangan

4-rasm. Elektr tortish kuchi (F_e) ning qiymatini potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi (δ) ga bog‘liq o‘zgarish grafigi

Ya’ni urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymati potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda, parabola qonuniga asosan o‘zgarayapti. Buning sababini shunday izohlash mumkin: potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi kichik bo‘lganda, potensial elektrod bilan metall halqa orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlarining bir qismi urug‘lik chigit orqali o‘tmasdan havo orqali o‘tadi. Shuning uchun urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymati kam bo‘ladi. Potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi oshishi bilan potensial elektrod bilan metall halqa orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari asosan urug‘lik chigit orqali o‘tadi.

Bu urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini ortishiga olib keladi. Potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi yana ham oshganda potensial elektrod bilan metall halqa orasida vujudga keladigan elektr maydon kuch chiziqlari havo+urug‘lik chigit+havo orqali o‘tib, urug‘lik chigitga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini kamayishiga olib keladi.

Demak, elektromexanik saralagich qurilmasining ish organi yuzasiga kelib tushgan urug‘lik chigitlarga maksimal elektr maydon kuchi ta’sir etishi uchun potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqalar o‘zining maqbul qalinligiga ega bo‘lishi kerak ekan. Potensial elektrodlar o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligini maqbul ko‘rsatkichidan kamayishi yoki ko‘payishi urug‘lik chigitlarga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini kamayishiga olib keladi.

4-rasmda tasvirlangan grafikdan ko‘rinib turibdiki, potensial elektrodlar o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligiga bog‘liq ravishda, urug‘lik chigitlarga ta’sir etadigan elektr maydon kuchining qiymatini o‘zgarishi parabola xarakteriga ega bo‘lib, u quyidagi empirik formula orqali ifodalanadi

$$F_e = -0{,}9028\delta^2 + 27{,}197\delta - 93{,}019\,, \qquad (1)$$

bunda F_e– elektr maydon tortish kuchi, N;

δ – potensial elektrod o‘ralgan dielektrik halqaning qalinligi, mm.

(1) ifodani ekstremumga tekshiramiz

$$\frac{dF_e}{d\delta} = -0,09028 \cdot 2\delta + 27,197 = 0. \quad (2)$$

$\frac{dF_e}{d\delta} = 0$ dan δ = 14 mm kelib chiqadi.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalaridan ko‘rinib turibdiki, ish organi yuzasiga kelib tushgan urug‘lik chigitlarga maksimal elektr maydon kuchi ta’sir etishi uchun potensial elektrod o‘raladigan dielektrik halqaning qalinligi 14 mm atrofida bo‘lishi kerak ekan.

Xulosa

Tuksiz chigitlar elektromexanik saralagich qurilmasining ish organi yuzasiga maksimal elektr maydon kuchin bilan tortilishi uchun metall halqalar orasiga joylashib, potensial elektrod o‘raladigan dielektrik halqalarning qalinligi 14 mm ga teng bo‘lishi kerak ekan.

ADABIYOTLAR

1.Shukuraliyev A.Sh. Tuksizlangan urug‘lik chigit uchun unifikatsiyalangan ishchi organli dielektrik saralash qurilmasini ishlab chiqish // t.f.f.d.(PhD) Dis.ishi. – Andijon, 2022. – 146 b.

2. Otaxonova Sh.N. Elektromexanik saralash qurilmasining prinsipial sxemasi va ishlash prinsipi// “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Farg‘ona, 2025. –B 32-36.

3. Aydarov Sh.G., Otaxonova Sh.N., Qurbonboyeva D.E. Tuksiz chigitlarni elektromexanik qurilmasida saralash jarayoniga ta’sir etuvchi parametrlar//“Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari”//Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Gulbahor, 2024. –B 524-527.

5. Otaxonova Sh.N., Eshmatova G.Q., Qurbonboyeva D.E. Elektromexanik saralagich qurilmasining bo‘lish tekisligi o‘qini asoslash va urug‘larni ish organi yuzasidagi harakatini tatbiq etish//“Journal of transport” Research, innovation, results. – Volume: 2, Issue: 1, – Tashkent, 2025. –B 53-55.

6. Росабоев А.Т. Методика исследования деформации и упрогости волокон в электрическом поле // Вестник Таш ГТУ. – Ташкент, 2015. – № 3. –С. 89-94.

7. Вединяпин Г. Общая методика экспериментальных исследований и обработка опытных данных. – М.: Колос, 1973. – 199 с.

8. Лакин Г.Ф. Биометрия. – М.: Высшая школа, 1980. – 293 с.

UO‘T 631.362.36

ARPA URUG‘IGA ELEKTROTEXNOLOGIK ISHLOV BERISH USULLARINING TAHLILI

Rosaboyev A.T
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti.t.f.n., k.i.x.

Alimova F.A.
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.t.f.n., ptof.

Ergashev G‘.M.
Namangan davlat texnika universiteti.

Baratov X.M.
Namangan davlat texnika universiteti.

Annotasiya. Arpa urug‘iga elektrotexnologik ishlov berish usullarining tahlili. Maqolada qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga, arpa urug‘i misolida, elektrotexnologik ishlov berib, samaradorligini oshiradigan qurilmalarni tahlil etish natijalari keltirilgan.

Аннотация. Анализ методов электротехнологической обработки семян ячменя. В статье представлены результаты анализа устройств, повышающих эффективность электротехнологической обработки семян сельскохозяйственных культур на примере семян ячменя.

Annotation. Analysis of methods of electrotechnological processing of barley seeds. The article presents the results of an analysis of devices that increase the efficiency of electrotechnological processing of agricultural seeds, using the example of barley seeds.

Ilmiy manbalardan ma’lumki, sifatli, biologik xossalari bir-biriga yaqin, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘lar olish uchun, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini barcha muhim fizik-mexanik xossalari bo‘yicha elektrotexnologik ishlov berib saralash zarur. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i elektrotexnologik ishlov berib saralaganda barcha muhim fizik-mexanik xossalari hisobga olingan holda, ularga har xil qiymatdagi elektr maydon kuchi ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, pnevmatik va mexanik usuldan farqli, elektr maydonida qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i barcha muhim fizik-mexanik xossalari, ya’ni massasi, zichligi, geometrik o‘lchamlari, elektr qarshiligi, dielektrik singdiruvchanligi va boshqa shunga o‘xshash muhim xossalari bo‘yicha saralanadi. Bundan tashqari, elektr maydoni urug‘larga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligini oshiradi va nihollarning o‘sib-rivojlanishini tezlashtirib, pirovard natijada, qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini ko‘paytiradi [1,2].

Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektrotexnologik ishlov berib saralash samaradorligini oshiradigan elektr saralagich qurilmasining ish organi yuzasida elektr maydoni ikkita dielektrik materialni bir-biriga ishqalanishi natijasida hamda qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida vujudga kelgani uchun patent izlanishlar triboelektrik va dielektrik qurilmalar bo‘yicha o‘tkazildi. Patent izlanishlar QXMITI fondi va internet-sayt bo‘yicha oxirgi 40 yil ichida olingan yangiliklar asosida olib borildi.

Yirik urug‘lar (makkajo‘xori, lavlagi, oshqovoq, poliz ekinlari, paxta va boshqalar)ga ekishdan oldin ishlov berish va nurlash qurilmalarining texnologik sxemalari mavjud. Ular Butun ittifoq qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan 1980 yilda

ishlab chiqilgan. Ammo, ular eksperimental tajribalardan nariga o‘tmagan.

Bir guruh biologlar va fiziklar tomonidan ayrim arpa urug‘lariga elektromagnit maydoni bilan qayta ishlash qurilmasi ishlab chiqilgan. Qurilmadan tarqaladigan elektromagnit maydonning yuqoriligi hamda urug‘larga ishlov berishning bir xilligini ta’minlash murakkabligi, uning asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

Ultrabinafsha nurlar arpa urug‘lariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni zararsizlantirish va ekishdan oldin avjlantirishni ta’minlaydi. Amaliyotchilar tomonidan o‘tkazilgan ko‘p yillik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, urug‘larni ultrabinafsha nurlantirish bilan davolash ekologik toza "yashil energetika" texnologiyalarni anglatadi va toksik kimyoviy stimulyatorlar va tuzlarlan foydalanishni talab qilmaydi, Shu bilan birga, ularni dezinfeksiya qilish va ekishdan oldin stimulyatsiya qilishni ta’minlaydi va dastlabki o‘sish jarayonlarini tezlashtirishga olib keladi, o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishini kuchaytiradi. UBNlar urug‘lar yuzasidagi mikroorganizmlarni samarali ravishda yo‘q qiladi, kimyoviy va biologik jarayonlarni faollashtiradi, bu esa ularni unib chiqish, unib chiqish energiyasi va qayta ishlangan ekinlarning hosildorligini ko‘payishiga olib keladi.

Ukraina Fanlar Akademiyasining Elektrofizika va radiatsiya texnologiyalari instituti olimlari bilan birgalikda Xarkov elektrotexnika kompaniyasi muhandislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida 2008-yilda urug‘larni ultrabinafsha stimulyatsiyalash uchun ekishdan oldin ishlov beradigan tajriba qurilmasi ishlab chiqilgan. Ushbu qurilma kun davomida 4 tonnagacha urug‘larni qayta ishlash imkonini beradi.

2009-yilda Ukraina Fanlar akademiyasi bilan Xarkov elektrotexnika kompaniyasi birgalikda urug‘larni bir tekis nurlantirish uchun ularning fotokimyoviy aktivatori (mikroelementlar va biostimulyatorlari) orqali ultrabinafsha nurlantiradigan barabanli qurilma ishlab chiqilgan.

Ammo, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘iga elektrotexnologik ishlov berish o‘zining yutuqlari bilan birga, ma’lum bir kamchiliklarga ham ega bo‘lib, ushbu kamchiliklar ulardan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining urug‘lik tayyorlash texnologik tizimlarida keng miqyosda foydalanishga salbiy ta’sirini ko‘rsatayapti. Masalan, tojli elektr maydonida arpa ekinlari urug‘ini saralash sifati va turg‘unligiga havo harorati va nisbiy namligi o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, tojli elektr va elektrostatik maydonlarda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini saralash uchun 30-40 kV atrofida yuqori kuchlanishli elektr maydoni hosil qilib beradigan qimmatbaho manbaalar ham kerak bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini elektr maydonida saralash texnologiyasini urug‘lik tayyorlash tizimlarida keng miqyosda joriy etish uchun yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish zarur [3,4].

Ko‘p yillik olib borilgan ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik ishlari hamda laboratoriya-dala tajribalarining natijalarini chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, arpa ekinlari urug‘ini saralashda dielektrik usuldan foydalanish yuqorida qayd qilingan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi. Bunga sabab, tojli elektr va elektrostatik usullardan farqli, dielektrik usulda arpa ekinlari urug‘ini saralash texnologik jarayonini erkin zaryadlar bilan zaryadlamasdan, o‘zgaruvchan va o‘zgarmas elektr maydonida amalga oshirish mumkin. Dielektrik usulda urug‘larni erkin zaryadlar bilan zaryadlamasdan saralash, texnologik jarayonga tashqi havo harorati va namligining salbiy ta’sirini kamaytirish imkonini beradi.

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqib, ushbu maqolada sifatli, biologik ko‘rsatkichlari bir-biriga yaqin, barcha muhim fizik-mexanik xossalari mujassamlashgan, laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda potensial hosildorligi yuqori bo‘lgan sara urug‘lar olish uchun arpa ekinlari urug‘ini saralash texnologik samaradorligini oshiradigan, energiya va resurstejamkor elektr saralagich qurilmasini ishlab chiqish hamda uning konstruktiv o‘lchamlari va ish rejimlarini asoslash nazarda tutilgan.

Xulosa

Qo‘yilgan maqsadga ikki xil sharoitda vujudga keladigan, ya’ni qarama-qarshi ishorali elektrodlar orasida hamda ikkita dielektrik materialni bir-biriga ishqalanishi natijasida vujudga keladigan elektr maydonlarini bitta dielektrik barabandan tayyorlangan ish organi yuzasida hosil qilib, elektr tortish kuchining qiymatini ko‘paytirish va unda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini barcha muhim fizik-mexanik xossalariga bog‘liq ravishda saralab, uzilish burchagiga mos ravishda, alohida-alohida fraksiyalarga ajratish orqali erishiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rosaboev, A. T., & Maxmudov, N. M. Modernized device for seed sorting of legumes // Наука и Инновационное развитие.–Ташкент, 2019. - № 5. – 77-82 с.

2. Rosaboev, A., & Maxmudov, N. (2020). Ways to improve the quality of legume seeds // Agro Ilm.–Toshkent, 2020. - № 2, - B. 32-33.

3. Росабоев, А. Т., & Махмудов, Н. М. Результаты разработки модернизированного электрического сортирующего устройства // Вклад университетской аграрной науки в инновационное развитие агропромышленного комплекса – Резань, 2019. – С. 352-356.

5. Mukhammadiev, A., & Makhmudov, N. M. EFFICIENCY OF ELECTROTECHNOLOGICAL SELECTION OF MUNG BEAN SEED // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – India, 2022. – Vol. 3(8). 644-648 pp.

UDK: 621.8.03:378.147

VARIATORLAR MAVZUSINI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

Qo‘chqorov Sobirjon Karimjonovich
Namangan davlat texnika unversiteti, PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnik ta’lim tizimida “Variatorlar” mavzusini o‘qitishning samarali usullari va zamonaviy pedagogik texnologiyalari tahlil qilingan. Variatorlarning tuzilishi, ishlash prinsipi, turlari hamda ularning mashinasozlikdagi o‘rni haqida bilimlarni shakllantirishda modulli va interfaol o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) hamda virtual laboratoriya mashg‘ulotlaridan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash va o‘zlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы эффективные методы и современные педагогические технологии преподавания темы «Вариаторы» в системе технического образования. Показаны пути использования модульного и интерактивного обучения, информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) и виртуальных лабораторных занятий при формировании знаний о конструкции, принципе работы, видах вариаторов и их роли в машиностроении. Кроме того, разработаны предложения по развитию технического мышления студентов, укреплению практических навыков и повышению эффективности усвоения знаний.

Abstract. This article analyzes effective methods and modern pedagogical technologies for teaching the topic “Variators” in technical education. The study presents the use of modular and interactive teaching methods, information and communication technologies (ICT), and virtual laboratory sessions in forming knowledge about the structure, operating principles, types of variators, and their significance in mechanical engineering. Additionally, recommendations are developed to enhance students’ technical thinking, strengthen practical skills, and increase learning efficiency.

Kalit so‘zlar: variator, uzatmalar mexanizmi, modulli o‘qitish, interfaol metod, texnik ta’lim, kompetensiya, virtual laboratoriya.

Ключевые слова: вариатор, механизм передачи, модульное обучение, интерактивный метод, техническое образование, компетенция, виртуальная лаборатория.

Keywords: variator, transmission mechanism, modular teaching, interactive method, technical education, competence, virtual laboratory.

Zamonaviy ta’lim tizimida texnik fanlarni o‘qitish jarayoni o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Bugungi kunda texnik yo‘nalishdagi mutaxassislarni tayyorlashda mashinasozlik, avtomobilsozlik, energetika va qishloq xo‘jaligi texnikalari kabi sohalarda keng qo‘llaniladigan mexanik uzatmalar tizimlarini o‘rganish muhim o‘rin tutadi. Shulardan biri-variatorlar bo‘lib, ular uzluksiz o‘zgaruvchan uzatma nisbati asosida ishlaydigan murakkab mexanizmlardir.

“Variatorlar” mavzusi bo‘lajak muhandis va texnik mutaxassislar uchun asosiy amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘limlardan biridir. Ushbu mavzuni chuqur o‘rganish orqali talabalarda mexanik tizimlarning ishlash prinsipi, uzatma jarayonlari, harakat tezligi va momentning o‘zgarish qonuniyatlarini tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bois, mazkur mavzuni o‘qitishda an’anaviy yondashuvlardan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va virtual tajriba usullaridan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

So‘nggi yillarda texnik oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayoniga modulli tizim, interfaol metodlar, masalaviy yondashuv va masofaviy ta’lim elementlarini joriy etish natijasida talabalarning bilim darajasi va mustaqil fikrlash qobiliyati ortib bormoqda. Ayniqsa, “Variatorlar” mavzusini o‘qitishda 3D modellar, animatsion grafikalar va virtual laboratoriyalar yordamida mexanizmlarning real ishlash jarayonini namoyish etish nazariy bilimni amaliy tasavvur bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.


Shunday qilib, mazkur maqolada “Variatorlar” mavzusini o‘qitishda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar**,** interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalarining o‘rni, ularning samaradorligi hamda talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

1. Variatorlarning texnik mohiyati va ularni o‘rganish zarurati

Variator-bu kirish va chiqish vallari o‘rtasidagi uzatma nisbatini uzluksiz o‘zgartirib turuvchi mexanizm bo‘lib, harakat tezligini silliq tarzda boshqarish imkonini beradi. Ularning asosiy afzalligi-mexanik uzatmalar orasida energiya yo‘qotilishini kamaytirish va ish unumdorligini oshirishdir.

Variatorlar hozirgi vaqtda avtomobilsozlik**,** qishloq xo‘jaligi mashinasozligi**,** stanoksozlik **va** energetika sohalarida keng qo‘llanilmoqda. Shu sababli, ushbu mexanizmlarni o‘qitish texnik ta’lim tizimida muhim o‘rin egallaydi.

Talabalar variatorlarning tuzilishi, turlari (kamarli, konussimon, zanjirli, gidrostatik), ularning ishlash prinsipi, uzatma nisbatining o‘zgarish qonuniyatlarini chuqur o‘rganishlari zarur. Bu jarayon ularning texnik tafakkuri**,** analitik fikrlash qobiliyati **va** amaliy masalalarni hal etish ko‘nikmasini shakllantiradi.



1-rasm. Variatorning tuzilish sxemasi

2. O‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

“Variatorlar” mavzusini o‘qitishda an’anaviy ma’ruza-uslublar bilan cheklanib qolmasdan, **innovatsion o‘qitish texnologiyalarini** qo‘llash dolzarbdir. Quyidagi yondashuvlar eng samarali hisoblanadi:

2.1. Modulli o‘qitish texnologiyasi

Bu texnologiya o‘quv materialini kichik modullarga ajratib, har bir modulda nazariya, amaliy mashq va mustaqil topshiriqlarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, “Kamarli variator” moduli quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- ✓ nazariy qism-variatorning ishlash prinsipi;
- ✓ amaliy qism-kamar kuchlanishi va uzatma nisbatini hisoblash;
- ✓ mustaqil topshiriq-variator sxemasining 3D modelini yaratish.

Bu yondashuv talabalarda mavzuni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish imkonini beradi.

2.2. Interfaol o‘qitish metodlari

Talabalarni faollashtirish, ularning fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishda

interfaol usullar alohida o‘rin tutadi.

Quyidagi metodlar “Variatorlar” mavzusini o‘qitishda samarali natija beradi:

“Aqliy hujum” (Brainstorming)-variator turlarining afzalliklarini aniqlash bo‘yicha guruh muhokamasi;

“Klaster”-variatorlarning asosiy qismlari va ularning vazifalarini grafik tarzda ifodalash;

“Keys-stadi”-real ishlab chiqarishdagi variatorli uzatma tizimlari asosida tahliliy masalalar yechish;

“Insert”-ma’lumotni o‘zlashtirish darajasini baholash va o‘z fikrini qayd etish uchun interfaol jadvaldan foydalanish.

2.3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy ta’lim vositalari variatorlarning murakkab mexanik jarayonlarini vizual shaklda ko‘rsatish imkonini beradi.

Masalan:

3D animatsiyalar orqali variatorlarning ish jarayonini modellashtirish;

MATLAB, SolidWorks yoki Autodesk Inventor dasturlarida variator tahlilini bajarish;

elektron taqdimotlar, videodarslar va masofaviy o‘qitish platformalaridan foydalanish.

Bu vositalar nafaqat dars jarayonini jonlantiradi, balki talabalarning fanga qiziqishini oshiradi.

2.4. Virtual laboratoriya mashg‘ulotlari

Ayrim hollarda real tajriba o‘tkazish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Bunday paytda virtual laboratoriyalar qo‘l keladi.

Virtual dasturlar yordamida talabalar:

variatorning uzatma nisbatini o‘zgartirib, mexanik natijani kuzatish;

tork, tezlik va samaradorlik grafigini tahlil qilish;

turli konstruktiv yechimlarni taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Bu metod amaliy ko‘nikmalarni xavfsiz va samarali shakllantiradi.

3. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish

Amaliy mashg‘ulotlar “Variatorlar” mavzusining eng muhim bosqichidir. Unda talabalar quyidagi faoliyatlarni bajaradilar:

Variator turlarining chizmalarini tahlil qilish;

Ishlab chiqarishdagi namunalar asosida mexanik tizimlarni o‘rganish;

Variatorni yig‘ish va sozlash bo‘yicha laboratoriya ishi bajarish;

Uzatma nisbatining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash.

Bu jarayonlar talabalarda amaliy tajriba**,** eksperimental tahlil va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Baholash va refleksiya tizimi

Ta’lim jarayonining samaradorligini aniqlashda baholash tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.

“Variatorlar” mavzusini o‘qitishda quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

Test topshiriqlari-nazariy bilimlarni aniqlash uchun;

Amaliy vazifalar-mexanik hisob-kitob va modellashtirish bo‘yicha;

Portfolio baholash-talabalar ish faoliyati va loyihalarini yig‘ma shaklda tahlil qilish;

Refleksiya-talabaning o‘z fikrini baholash va tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Shunday qilib, o‘qituvchi baholash jarayonini o‘quvchining rivojlanishiga xizmat qiluvchi teskari aloqa vositasiga aylantiradi.

5. O‘qitish natijalari

Zamonaviy texnologiyalar asosida “Variatorlar” mavzusini o‘qitish natijasida talabalar quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘ladilar:

- mexanik tizimlarni tahlil qilish va modellashtirish ko‘nikmasi;
- variatorlarning ishlash prinsipini amaliyotda qo‘llash malakasi;
- muammoli vaziyatlarda texnik yechim topish qobiliyati;
- jamoaviy ishlash, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasi.

XULOSA

“Variatorlar” mavzusini o‘qitish texnologiyalarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. **Variatorlarning o‘qitilishi texnik ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi**, chunki ushbu mexanizmlar zamonaviy mashinasozlik, avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Shuning uchun talabalarning variatorlarning tuzilishi, ishlash prinsipi va amaliy qo‘llanilishini chuqur o‘zlashtirishi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.
2. **O‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish-** modulli, interfaol, axborot-kommunikatsiya va virtual o‘qitish texnologiyalarining qo‘llanilishi ta’lim jarayonini samarali, qiziqarli va natijador qiladi. Bu yondashuvlar talabalarni faollashtiradi, ularning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.
3. **Amaliy mashg‘ulotlar** “Variatorlar” mavzusini o‘zlashtirishning asosiy bosqichidir. Amaliy topshiriqlarni laboratoriya va virtual muhitda bajarish orqali talabalar mexanik tizimlarni tahlil qilish, konstruktsiyalarni modellashtirish va natijalarni baholash ko‘nikmalarini egallaydilar.
4. **Baholash va refleksiya tizimini takomillashtirish** o‘quvchilarning o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilish, o‘z ustida ishlash hamda o‘zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o‘qitish natijalarini yanada obyektiv baholash imkonini beradi.
5. “Variatorlar” mavzusini o‘qitishda **integratsiyalashgan yondashuv-**ya’ni nazariya, amaliyot va raqamli texnologiyalar uyg‘unligida tashkil etilgan ta’lim tizimi- kelajak muhandis va texnik mutaxassislarni tayyorlashda samarali natijalar beradi.
6. Umuman olganda, **“Variatorlar mavzusini o‘qitish texnologiyalari”** bo‘yicha olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar:
   - ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi;
   - o‘quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantiradi;
   - nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmaga aylantirish imkonini yaratadi;
   - raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

“Variatorlar” mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi, talabalarning nazariy bilimini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi. Modulli, interfaol va AKT asosidagi yondashuvlar orqali o‘quvchi faol ishtirokchi sifatida shakllanadi. Natijada bo‘lajak mutaxassislar real ishlab chiqarish jarayonlarida variatorli uzatmalar tizimlarini to‘g‘ri tahlil qilish, sozlash va samarali ishlatish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

ADABIYOTLAR

1. Абдураззаков Ш.Х. *Mashina detallari va mexanizmlar nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Karimov U., Raxmonov D. *Texnik ta’limda interfaol metodlar*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
3. Shadiev B. R. *Pedagogik texnologiyalar va o‘qitish metodikasi*. – Toshkent, 2023.
4. UNESCO. *Engineering Education in the 21st Century*. – Paris, 2020.

UDK 656.073

YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK MARKAZLARNING O‘RNI

Maxsumov Isroiljon Axmedovich
Toshkent davlat transport universiteti assistent maxsumovisroil1995@gmail.com

Nortojiyeva Nilufar Juma qizi
Bektemir tumani 289-IDUMning o‘qituvchisi, nortojiyevanilufar96@gmail.com

Annatosiya. Ushbu maqolada yuk tashish tizimida logistik markazlarning o‘rni, ahamiyati va ularning transport samaradorligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Logistik markazlar transport turlari o‘rtasida yuk oqimlarini muvofiqlashtirish, qayta yuklash, saqlash, bojxona va axborot xizmatlarini birlashtirish orqali multimodal tashuvlarning samaradorligini oshirishda muhim bo‘g‘in sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda logistik markazlarning asosiy funksiyalari, ularning iqtisodiy va tashkiliy afzalliklari, transport xarajatlarini kamaytirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston misolida Termiz, Angren va boshqa logistika markazlarining faoliyati tahlil qilinib, milliy transport tizimida ularning strategik ahamiyati asoslab berilgan.

Maqolada shuningdek, logistik markazlar yordamida yuklarni yetkazib berish tezligi va sifatini oshirish, transport tarmoqlarining integratsiyasini ta’minlash hamda ekologik barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Natijada, logistika markazlarini rivojlantirish mamlakatning tranzit salohiyatini kengaytirish va xalqaro transport yo‘laklarida raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili sifatida tavsiflangan.

Аннотация. В данной статье научно проанализирована роль, значение и влияние логистических центров на эффективность транспортной системы. Логистические центры рассматриваются как важное звено в повышении эффективности мультимодальных перевозок за счёт координации грузопотоков между различными видами транспорта, организации перегрузки, хранения, а также объединения таможенных и информационных услуг.

В исследовании раскрыты основные функции логистических центров, их экономические и организационные преимущества, а также роль в снижении транспортных затрат. Кроме того, на примере Узбекистана рассмотрена деятельность таких центров, как Термез и Ангрен, и обосновано их стратегическое значение в национальной транспортной системе.

Также в статье показаны возможности повышения скорости и качества доставки грузов, интеграции транспортных сетей и укрепления экологической устойчивости посредством развития логистических центров. В результате установлено, что развитие логистических центров является важным фактором расширения транзитного потенциала страны и повышения её конкурентоспособности на международных транспортных коридорах.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role, significance, and impact of logistics centers on the efficiency of the transportation system. Logistics centers are considered as an important link in improving the efficiency of multimodal transportation by coordinating cargo flows between different modes of transport, organizing transshipment, storage, as well as integrating customs and information services.

The study highlights the main functions of logistics centers, their economic and organizational advantages, and their role in reducing transportation costs. In addition, the activities of logistics centers such as Termiz and Angren in Uzbekistan are examined, and their

strategic importance in the national transport system is substantiated.

The article also outlines the possibilities of increasing the speed and quality of cargo delivery, ensuring the integration of transport networks, and strengthening environmental sustainability through the development of logistics centers. As a result, the development of logistics centers is identified as a key factor in expanding the country's transit potential and enhancing its competitiveness in international transport corridors.

Kalit so‘zlar: logistika, logistik markaz, multimodal tashuv, transport tizimi, yuk tashish, integratsiya, samaradorlik, infratuzilma.

Ключевые слова: логистика, логистический центр, мультимодальные перевозки, транспортная система, грузоперевозки, интеграция, эффективность, инфраструктура.

Keywords: logistics, logistics center, multimodal transportation, transport system, freight transport, integration, efficiency, infrastructure.

Kirish

Bugungi kunda zamonaviy iqtisodiyotni samarali boshqarish, ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashda logistika tizimining o‘rni ortib bormoqda. Xususan, yuk tashish jarayonlarida logistik markazlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ular turli transport turlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mexanizmini tashkil etish yuk oqimlarini muvofiqlashtirish, qayta yuklash, saqlash, bojxona va terminal xizmatlarini tashkil etish orqali multimodal tashuvlarning samaradorligini oshiradi [1].

Bugungi globallashuv sharoitida xalqaro savdo hajmining ortib borishi logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, logistik markazlar mamlakat transport tizimining strategik bo‘g‘ini sifatida shakllanib bormoqda. Ular nafaqat yuk tashish jarayonini tezlashtiradi, balki transport xarajatlarini kamaytirish, vaqtni tejash va tovarlar sifatini saqlash imkonini beradi [2].

I. Tadqiqot metodalogiyasi

Logistik markaz tushunchasi va uning vazifalari

Logistik markaz-bu transport, omborxona, bojxona, axborot va servis xizmatlarini o‘zida mujassam etgan kompleks infratuzilma bo‘lib, yuk oqimlarini boshqarish va taqsimlash jarayonini markazlashtirilgan holda amalga oshiradi [3].

Logistik markazlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yuk oqimlarini boshqarish va muvofiqlashtirish;
- Transport turlarini integratsiyalash (avtomobil, temir yo‘l, havo va daryo transporti);
- Ombor va terminal xizmatlarini ko‘rsatish;
- Bojxona, sertifikatlash, deklaratsiya va hujjatlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- Axborot-logistik tizimlarni yuritish, elektron ma’lumot almashuvini yo‘lga qo‘yish;
- Transport xarajatlarini optimallashtirish va yuklarni yetkazib berish muddatini qisqartirish.

Demak, logistik markaz nafaqat transport xizmatlarini ko‘rsatadi, balki butun ta’minot zanjirining boshqaruv markaziga aylanadi [4].

II. Muhokama va natija

Logistik markazlarning yuk tashish tizimidagi o‘rni

Yuk tashish jarayonida logistik markazlarning roli, eng avvalo, transportlararo uzluksizlikni ta’minlashda namoyon bo‘ladi. Masalan, multimodal tashuvlarda tovar avtomobil, temir yo‘l yoki dengiz transporti orqali ketma-ket yetkaziladi. Bu jarayonda logistik markaz yuklarni bir transport turidan boshqasiga o‘tkazish, qisqa muddatli saqlash va hujjatlarni rasmiylashtirish uchun xizmat qiladi [5].

Bundan tashqari, logistik markazlar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Ular atrofida sanoat korxonalari, eksport-import kompaniyalari,

bojxona omborlari va xizmat ko‘rsatuvchi bizneslar joylashadi. Natijada, logistika markazi butun hududni iqtisodiy faollik markaziga aylantiradi [2].

Misol tariqasida, Termiz Cargo Centre yoki Angren logistika markazini keltirish mumkin. Ular nafaqat O‘zbekiston ichki bozori, balki qo‘shni davlatlar bilan transport aloqalarini yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi [1].

Logistik markazlarning transport samaradorligiga ta’siri

Logistik markazlar transport tizimining samaradorligini quyidagi yo‘llar bilan oshiradi [3]:

1. Transport xarajatlarini kamaytiradi-yuklarning qayta yo‘nalishini oldini oladi va bo‘sh qatnovlarni kamaytiradi.
2. Yuk yetkazib berish tezligini oshiradi-markazlashtirilgan rejalashtirish va yo‘nalishlarni optimallashtirish orqali.
3. Transport vositalarining yuklanish koeffitsientini oshiradi-bu esa yoqilg‘i sarfi va tashish tannarxini kamaytiradi.
4. Axborot tizimlari orqali nazoratni kuchaytiradi-GPS, elektron deklaratsiya va onlayn kuzatuv tizimlari orqali yuklarning harakati real vaqt rejimida nazorat qilinadi.
5. Ekologik barqarorlikni ta’minlaydi-ortiqcha transport harakatini kamaytirish orqali atmosferaga chiqadigan zararli gazlar hajmi qisqaradi.

Ushbu omillar transport sohasida barqaror rivojlanishni ta’minlash, milliy va xalqaro logistika zanjirlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi [4].

O‘zbekiston misolida logistik markazlar tarmog‘ining rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasi geografik jihatdan qulay joylashgan bo‘lib, mintaqaviy transport yo‘laklarining kesishgan nuqtasida joylashgan. Shu sababli, mamlakatda logistik markazlar tarmog‘ini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etadi [1].

Hozirda Termiz, Toshkent, Angren, Sirdaryo, Farg‘ona, Buxoro va Nukus shaharlarida zamonaviy logistika markazlari faoliyat yuritmoqda. Ular orqali:

- eksport-import yuklar oqimi tartibga solinmoqda;
- “Bir darcha” tamoyili asosida bojxona va transport xizmatlari ko‘rsatilmoqda;
- multimodal tashuvlar uchun terminal infratuzilmasi yaratilmoqda [2].

Kelgusida “Termiz–Mozori Sharif–Peshovar” xalqaro transport yo‘lagi doirasida Termiz xalqaro logistika markazining roli yanada ortadi. U Afg‘oniston va Pokiston portlariga chiqish imkonini beruvchi asosiy multimodal tugun sifatida xizmat qiladi [5].

Xulosa

Yuk tashishda logistik markazlarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ular transport tizimining yuragi hisoblanadi, chunki barcha jarayon-yukni qabul qilish, saqlash, qayta yuklash, bojxona rasmiylashtiruvi va jo‘natish-bir nuqtada amalga oshiriladi [1].

Logistik markazlarning samarali ishlashi nafaqat transport sohasini, balki butun iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantiradi. Shuningdek, ular mintaqalararo integratsiyani kuchaytiradi, eksport salohiyatini oshiradi va mamlakatning tranzit imkoniyatlarini kengaytiradi [4].

Shu sababli, O‘zbekistonda logistik markazlarni barpo etish va ularni xalqaro talablar asosida modernizatsiya qilish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi [2].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5120-son qarori, 2021-yil.

2. M. G‘ulomov, T. N. Raxmatov. *Logistika asoslari.* – Toshkent: TDIU, 2022.
3. Christopher M. *Logistics and Supply Chain Management.* – Pearson Education, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy sayti – https://transport.uz
5. UNESCAP. *Integrated Logistics Centres in Central Asia.*–Bangkok.

UDK 656.1.07

EVALUATING URBAN TRANSIT INFRASTRUCTURE THROUGH PASSENGER COVERAGE AND DEMAND METRICS: EVIDENCE FROM TASHKENT CITY

Yuldoshev Davron Furqat ogli
Tashkent State Transport University Department of "Transport Logistics" PhD, E-mail: davron.yoldoshev@bk.ru
https://orcid.org/ 0000-0002-6042-2737

Matrasulov Kahramon Shikhnazarovich
Tashkent State Transport University Department of "Transport Logistics" Senior Lecturer E-mail: kaxramonmatrasulov207@gmail.com, https://orcid.org/ 0009-0004-3300-9228

Abstract. The assessment of urban public transport infrastructure has been approached by scholars using various parameters, including indicators such as safety, integration of digital technologies, traffic flow management, and passenger coverage levels. This study adopts a comprehensive approach to evaluating the efficiency of public transport systems in urban areas by focusing on passenger coverage, mobility rates, and service demand levels. Tashkent city was selected as the research object, with the territory divided into 11 administrative zones (C1–C11) for analysis. The annual average mobility rate of residents was calculated for each district, revealing that zones C3 and C8 exhibited the highest mobility levels (842 and 812, respectively), indicating a correspondingly high demand for public transport. In the next phase, the level of public transport coverage was evaluated. The results show that some areas, such as C1, C2, C7, and C8, were classified as having excellent coverage, whereas zones like C4, C5, C6, C10, and C11 showed only satisfactory service levels. In the final stage, the required number of transport units per district was estimated, providing valuable data to support the optimized allocation of transport resources and infrastructure planning.

Annotatsiya. Shahar jamoat transporti infratuzilmasini baholashda olimlar turli parametrlar, jumladan, xavfsizlik darajasi, raqamli texnologiyalar integratsiyasi, transport oqimini boshqarish hamda yo‘lovchi qamrovi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanishgan. Ushbu tadqiqot shahar jamoat transporti tizimlarining samaradorligini yo‘lovchi qamrovi, aholining mobillik darajasi va transport xizmatlariga bo‘lgan talab asosida kompleks yondashuv orqali baholashni taklif etadi. Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent shahri tanlanib, uning hududi 11 ta ma’muriy zonaga (C1–C11) bo‘lindi. Har bir tuman uchun aholining yillik o‘rtacha mobillik darajasi hisoblab chiqildi. Natijada C3 va C8 zonalari eng yuqori mobillik ko‘rsatkichlarini (mos ravishda 842 va 812) namoyon etdi, bu esa jamoat transportiga yuqori talab mavjudligini ko‘rsatadi. Keyingi bosqichda jamoat transporti qamrov darajasi baholandi. Natijalarga ko‘ra, C1, C2, C7 va C8 zonalari a’lo qamrovga ega deb topilgan, C4, C5, C6, C10 va C11 zonalari esa qoniqarli xizmat darajasiga ega. Yakuniy bosqichda har bir tuman uchun zarur transport vositalari soni baholandi, bu esa transport resurslarini optimal taqsimlash va infratuzilmani rejalashtirishda muhim ma’lumotlar beradi.

Аннотация. Оценка инфраструктуры городского общественного транспорта проводилась учёными с использованием различных параметров, включая показатели безопасности, интеграции цифровых технологий, управления транспортными потоками и уровня охвата пассажиров. В данном исследовании предлагается комплексный подход к оценке эффективности систем общественного транспорта в городских условиях на основе показателей охвата пассажиров, уровня мобильности и спроса на транспортные услуги. В качестве объекта исследования выбран город Ташкент, территория которого была

разделена на 11 административных зон (C1–C11). Для каждого района был рассчитан среднегодовой уровень мобильности населения, при этом зоны C3 и C8 показали наивысшие показатели (842 и 812 соответственно), что свидетельствует о высоком спросе на общественный транспорт. На следующем этапе была оценена степень охвата общественного транспорта. Результаты показали, что зоны C1, C2, C7 и C8 имеют высокий уровень охвата, в то время как зоны C4, C5, C6, C10 и C11 характеризуются удовлетворительным уровнем обслуживания. На заключительном этапе была рассчитана необходимая численность транспортных единиц по каждому району, что обеспечивает ценные данные для оптимального распределения транспортных ресурсов и планирования инфраструктуры.

Keywords: transport infrastructure, coverage level, mobility, modeling, demand, spatial analysis.

Kalit so‘zlar: transport infratuzilmasi, qamrov darajasi, mobillik, modellashtirish, talab, fazoviy tahlil.

Ключевые слова: транспортная инфраструктура, уровень охвата, мобильность, моделирование, спрос, пространственный анализ.

INTRODUCTION

One of the most pressing challenges in organizing urban public transport infrastructure is the insufficient spatial coverage of the population. In many cities, transport infrastructure is heavily concentrated in central areas, leaving densely populated peripheral zones underserved. This leads to an imbalanced distribution of transport resources, creating disparities between infrastructure capacity and actual mobility needs.

The case of Tashkent city illustrates this issue clearly: public transport routes and scheduling often do not align with population mobility patterns. The current network structure suffers from redundancy in some areas and shortages in others, resulting in inefficiencies in service provision. In particular, the relationship between daily commuting distances, residential and workplace locations, and service accessibility is not sufficiently taken into account in current planning practices.

In contemporary urban contexts, the effectiveness of transport systems is a critical determinant of sustainable development. Especially in cities with high population density, an efficient public transport infrastructure contributes to equal access to mobility across all social groups, environmental preservation, and overall economic productivity. As a result, there is growing demand for spatially balanced, need-based transport planning that considers coverage equity and functional adequacy [2].

LITERATURE SURVEY

In developed countries, considerable scholarly attention has been devoted to addressing challenges in urban transport systems by improving the efficiency of transport processes, expanding public transport accessibility through advanced infrastructural elements, enhancing the attractiveness of fixed-route bus services, and modernizing transport infrastructure. These efforts aim to ensure wider passenger coverage and improve the quality of public transport services [2].

In many large cities, the lack of comprehensive public transport coverage leads to inefficient system usage and limits the accessibility of services for urban residents. One critical issue is the insufficient consideration of criteria that could enhance transport coverage during the planning and organization of public transport operations. As a result, residents may experience unreliable service, undermining trust in public transport as a primary mobility solution.

International experience from transport systems in developed countries shows that full population coverage and the rational organization of transport flows significantly improve

system competitiveness and enable more efficient use of infrastructure resources. Comprehensive planning that aligns services with actual mobility needs is key to achieving equity, efficiency, and sustainability in urban transport.

For example, Yu and Cao (2024) proposed a genetic algorithm to simultaneously optimize bus route networks and departure schedules. [3]. An.K (2020) proposed a stochastic programming approach to determine the required number of reserve buses needed to ensure adequate passenger coverage in urban areas. [4]. Huang, D., Gu, Y., and colleagues (2021) proposed a two-phase optimization model for designing a demand-responsive customized bus network, incorporating both a dynamic phase for real-time adjustments and a static phase for long-term route planning [5]. Gong, M., Hu, Y., and colleagues (2021) proposed a modular service model for public transport networks, incorporating Particle Swarm Optimization (PSO) to optimize passenger-route assignments and vehicle operations [6]. Yin, W., and Zhang, Y. (2020) proposed a methodology for the precise selection of bus-priority corridors within urban road networks [7].

RESEARCH METHODOLOGY

In Tashkent city, the public transport system is characterized by dense and often overlapping routes, while passenger mobility varies significantly across time periods and route networks. This variation results in high mobility concentrations in certain districts and more dispersed patterns in others. Such uneven distribution adversely affects the level of public transport coverage across different urban areas.

This research primarily aims to determine the optimal number of public transport vehicles (A) for each district, ensuring a balanced and efficient relationship between mobility and coverage.

The goal is to align vehicle allocation with the spatial distribution of demand to enhance service equity and operational effectiveness.

TABLE 1

Initial input data for urban transport analysis

District Code	Number of Available Public Transport Vehicles (units)	Population Size (thousands)	Annual Transport Work Performed (million passenger-km)	Route Length (km)
C_1	184	259	91.8	312
C_2	145	288	77.3	245
C_3	240	318	114.3	321
C_4	140	226	74.2	201
C_5	175	302	87.1	156
C_6	184	259	82.2	150
C_7	223	291	105.2	195
C_8	231	338	109.3	200.3
C_9	194	311	98.2	154
C_{10}	135	298	71.2	144
C_{11}	159	274	91.5	175
Jami	2010	3164	1002,3	2253,3

Estimation of Population Mobility Levels Across Urban Districts

The level of mobility in urban transport can be determined based on the employment structure of the population, as shown in Equation (2). The urban population is categorized into socio-economic groups according to their employment status, and each group is assigned an

estimated number of potential annual trips based on typical mobility behavior throughout the year.

$$\sum Q_z = \sum_{i=1}^{n} \left(H_{ji} \mu_i D_{ni} P_{ei} \right) \quad (1)$$

Where::

H_{ji} –Number of individuals in each population group (e.g., workers, students, unemployed)

μ_i – Coefficient accounting for the share of the population using public transport;

D_{ni} –Number of travel days per year for each group (e.g., workers – approx. 250 days, students –approx. 263 days);

P_{ei} – Average number of daily trips per person within each group (e.g., 2–3 trips for work or school, 1–3 trips for cultural and daily needs).

TABLE 2

Average annual mobility levels by district

District Code	Average Annual Mobility Level by District
C_1	611
C_2	584
C_3	842
C_4	542
C_5	598
C_6	623
C_7	759
C_8	812
C_9	701
C_{10}	623
C_{11}	589
Jami	7284

1.2. Assessment of Public Transport Coverage Across Urban Districts

The level of public transport provision or coverage in a given district (I) can be estimated through a functional relationship between the district population and the seating capacity offered by the active public transport fleet.

$$I = \frac{1000 \sum a_i}{H} \quad (2)$$

Where:

$\sum ai$ – of active public transport units in service (in terms of passenger capacity);

H – total population of the city (persons).

TABLE 3

Criteria for assessing public transport provision and service coverage levels

Service Level	Public Transport Provision	Public Transport Service Coverage	Indicators of Public Transport Provision Level
1	>=0.6	>=1	Areas with excellent public transport provision – more than 60 seats per 1,000 inhabitants
2	0.4-0.6	0.7-1	Areas with good public transport provision – 40 to 60 seats per 1,000 inhabitants

3	0.2-0.4	0.3-0.7	Areas with fair (satisfactory) public transport provision – 20 to 40 seats per 1,000 inhabitants
4	<0.2	<0.3	Areas with poor public transport provision – fewer than 20 seats per 1,000 inhabitants

TABLE 4

Level of Public Transport Coverage Among the Population

District Code (C1, C2, …)	Public Transport Coverage	Service Provision Classification
C_1	62.3	Excellent
C_2	67.2	Excellent
C_3	42.1	Good
C_4	31.9	Fair
C_5	36.3	Fair
C_6	38.9	Fair
C_7	63.8	Excellent
C_8	67.1	Excellent
C_9	42.6	Good
C_{10}	33.2	Fair
C_{11}	39.9	Fair

1.3. Demand for Public Transport Vehicles by District

For a given district (e.g., C1), the required number of public transport vehicles in operation (A) can be determined using the following formula.

$$A = \frac{P_y R \eta}{365\, V_э T_{ish} q_n \gamma_{ст} 100} \quad (3)$$

Where:

P_γ – annual transport work performed (in passenger-kilometers);

R – share (%) of passengers served by the given vehicle capacity;

η – seasonal variation coefficient of passenger flow (η = 1.1);

V_e – operational speed of the passenger transport vehicle (km/h), typically 15–17 km/h;

T_{ish} – daily operating time of the transport vehicle (hours), usually T_{ish} = 14;

q_n – nominal capacity of the transport vehicle (seats or passengers);

γ_{st} – average daily vehicle utilization coefficient (γ_{st} = 0.33).

TABLE 5

Demand-based determination of the necessary public transit fleet by administrative area

District Code (C1, C2, …)	Demanded number of operational vehicles (units)
C_1	184
C_2	145
C_3	240
C_4	140
C_5	175
C_6	184
C_7	223
C_8	231
C_9	194

C_{10}	135
C_{11}	159
Jami	2010

RESULTS

As part of this research effort, Tashkent city was segmented into 11 designated districts (C1–C11), and for each one, average annual mobility, public transport coverage, and the estimated need for transport vehicles were identified. Differences among districts were subsequently examined.

The average annual mobility level across districts ranged between 600 and 850, with the highest values recorded in C3 (842) and C8 (812). In addition to these, C7 (759) and C9 (701) were also identified as high-mobility zones. The lowest mobility levels were observed in C4 (542) and C2 (584), indicating significant spatial disparities in transport demand across the city.

The public transport coverage level varied from 31.9% in C4 to 67.2% in C2. Districts such as C1, C2, C7, and C8 were rated as having "excellent" coverage, each exceeding 62%. In contrast, districts C4, C5, C6, C10, and C11 had coverage levels below 40%, and were therefore classified as "fair". These findings reflect the lower efficiency of the transport system in those areas.

In terms of vehicle demand, the highest requirements were observed in C3 (240 units), C8 (231 units), and C7 (223 units). This corresponds with high mobility levels and relatively lower coverage in those districts. Conversely, the lowest vehicle demand was registered in C10 (135 units) and C4 (140 units), where both mobility and coverage were minimal, resulting in proportionally lower demand.

The results clearly demonstrate that the effectiveness of public transport infrastructure varies significantly across districts. This underscores the need for region-specific planning based on actual demand and spatial distribution to ensure efficient allocation of transport resources.

CONCLUSION

Within the scope of this study, the state of public transport infrastructure across 11 districts of Tashkent city was comprehensively evaluated based on passenger mobility levels, coverage indicators, and demand for transport vehicles. The analysis revealed significant disparities in the development of transport infrastructure among urban districts.

The highest levels of mobility and vehicle demand were observed in districts C3 and C8, indicating that optimization of the transport system in these areas should be prioritized. In contrast, certain districts demonstrated relatively high coverage rates despite low mobility levels, suggesting underutilization of available transport resources.

The findings of this research provide a basis for improving district-level transport infrastructure planning, with a focus on aligning service provision to the actual needs of the population and promoting infrastructural equity. Assessing the necessary public transport fleet size for each district enables better alignment of the system with local demand.

Based on the results, this study supports the identification of priority areas for transport infrastructure development, reconsideration of resource allocation strategies, and more accurate assessment of population needs. For future research, it is recommended to develop regional transport network models and implement dynamic, demand-responsive management systems.

REFERENCES

1. Ceder, A. (2007). Public Transit Planning and Operation: Theory, Modeling and Practice. Elsevier.

2. BotirAbdullaev, Davron Yuldoshev, Tolqin Muminov, and Dilmurod Axmedov (2021). Improving the method of assessing road safety at intersections of single-level highways

E3S Web of Conferences 264, 05027 (2021).CONMECHYDRO 2021.https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405027

3. Yu, X.; Cao, H.; Cao, K.; Zou, L.; Zhu, L. (2024). Considering the Optimization Design of Urban Bus Network Scheduling. Applied Sciences, 14(14), 6337. https://doi.org/10.3390/app14146337

4. An, K. (2020). Battery electric bus infrastructure planning under demand uncertainty. Transportation Research Part C: Emerging Technologies, 111, 572–587. https://doi.org/10.1016/j.trc.2020.01.009

5. Huang, D.; Gu, Y.; Wang, S.; Liu, Z.; Zhang, W. (2020). A two-phase optimization model for the demand-responsive customized bus network design. Transportation Research Part C: Emerging Technologies, 111, 1–21. https://doi.org/10.1016/j.trc.2019.12.004

6. Gong, M.; Hu, Y.; Chen, Z.; Li, X. (2021). Transfer-based customized modular bus system design with passenger-route assignment optimization. Transportation Research Part E: Logistics and Transportation Review, 153, 102422. https://doi.org/10.1016/j.tre.2021.102422

7. Yin, W.; Zhang, Y. (2020). Bus-priority corridor selection methodology for urban road networks. Transportation Planning and Technology, 43(6), 541–562. https://doi.org/10.1080/03081060.2020.1793998

8. Zokirkhan Yusufkhonov, Malik Ravshanov, Akmal Kamolov, and Dilmurod Ahmedov , "Prospects for the development of transport corridors of Uzbekistan", AIP Conference Proceedings 2432, 030074 (2022) https://doi.org/10.1063/5.0089689

9. Nataliya Sarvirova, Gaffor Samatov, Ulugbek Samatov; Innovative development in agriculture. AIP Conf. Proc. 16 June 2022; 2432 (1): 040035. https://doi.org/10.1063/5.0090363

10. Abdulaziz Shermukhamedov, Muhiddin Jurayev, Botir Ergashev; Combination method for determining individual solutions to the problem of rational distribution of vehicles on radial routes. AIP Conf. Proc. 16 June 2022; 2432 (1): 030016. https://doi.org/10.1063/5.0089743

Ilmiy jurnalida maqolalarni chop etish uchun rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

1. Namangan muhandislik-qurilish institutining “Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali” («Научный журнал Строительство и образование», «Scientific journal Construction and education») da respublikamizning oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish markazlari va xorijda bajarilgan ilmiy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari nashr etiladi. Ilmiy jurnal bir yilda olti martagacha chop etilib, unda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar e’lon qilinadi:

- *Qurilish;*
- *Arxitektura va shaharsozlik;*
- *Pedagogika va ta’lim muammolari;*
- *Muhandislik va sanoat chizmachiligi;*
- *Qisqa xabarlar.*

2. Tahririyatga taqdim etilayotgan maqola qo‘lyozmasi bo‘yicha muallif faoliyat olib borayotgan muassasa rahbariyati tomonidan imzolangan yo‘llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi va maqola mualliflarining tarkibida fan doktori bo‘lmagan taqdirda tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha fan doktorining rasmiy taqrizi bo‘lishi shart. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. **Maqolaning nomi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillari**da beriladi.

3. Maqola matni “MS Word” dasturida “Times New Roman” shriftida 12 pt o‘lchamda, hajmi 1 intervalda 6-10 bet bo‘lishi kerak. Varoq o‘lchami 210x297 mm (A4-format), matn chegara o‘lchamlari yuqoridan va pastdan– 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi lozim.

4. Maqolani rasmiylashtirish qoidalari quyidagilardan iborat: Maqola boshining chap tomonida UO‘T (UO‘T), keyingi qatorda maqolaning nomi o‘zbek, rus va ingliz tillarida (bosh harflarda, o‘rtada, qalin yozuvda (jirniy)), undan keyingi qatorda mualliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili hamda telefon raqamlari) o‘zbek, rus va ingliz tillarida kichik bosma harflarda yoziladi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so‘zlar (10-15 ta) o‘zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Maqolaning annotatsiyasi (abstract) ya’ni maqolaning qisqacha mazmunida maqsadi (objective), usullari (methods), natijalari (results) va xulosa (conclusion) qismlari qisqacha yoritilib o‘tilishi shart. Chunki maqola annotatsiyasini o‘qib chiqib, olim maqolani to‘liq o‘qishga qaror qilishi uchun maqolaning asosiy tushunchalarini yetarlicha tushunishi kerak. Annotatsiyadan so‘ng mavzuga tegishli terminlar, kalit so‘zlar (keywords) ham keltirilishi kerak;

Maqolaning asosiy qismida Kirish (Introduction), usullari (methods), natijalar (results), muhokamalar (discussion), va xulosalar (conclusion) bo‘limlari aniq ma’lumotlar asosida yoritib berilishi kerak.

Bir qatordan so‘ng maqola matni yoziladi. Maqoladagi formulalar Word dagi Vstavkani ichida Obyekt bor shunga kirib Microsoft Equation 3.0 da yoziladi. Rasm (grafik, sxema va chizma)lar standart qoidalarga rioya qilingan holda 10x10 sm dan katta bo‘lmagan o‘lchamda tayyorlanishi, ularni soni 5 tagacha, qisqa xabarlarda esa 2 tagacha ruxsat etiladi. Nomlari esa rasmdan so‘ng qalin yozuvda o‘rtada yoziladi **(1-rasm. Nomi).**

Jadvallarning nomlari javalning yuqori qismida qalin yozuvda o‘rtada yoziladi (**1-jadval. Nomi).** Adabiyotlarga havolalar maqola ichida [1] ko‘rinishda bo‘lib, foydalanilgan adabiyotlar maqola oxirida havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: jurnalda chop etilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Maqolaning nomi // Jurnalning nomi. – Nashr joyi va yili. – Soni yoki

qismi. – Betlari. (1. Turayev N.S., Saidov R. Anor tuplarini yarim ochadigan mashinaning lemexlari va tuproq yo‘naltirgichlarining qamrash kengliklarini asoslash // Namangan muhandislik-qurilish instituti ilmiy-texnika jurnali. – Namangan, 2019. – №1. – B. 77-81.); monografiyalar uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Nomi. – Nashriyot nomi, joyi va nashr yili. – Betlar soni. (1. Imomkulov Q.B., Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarini asoslash. – Fan va texnologiyalara: Toshkent, 2021. – 180 b.); avtoreferatlar uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 44 b.); dissertatsiya uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. – Namangan, 2022. – 120 b.); kitoblar uchun - mualliflarning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, qismi va betlari (1. Jo‘rayev A., Mavlyaviyev M., Abdukarimov T., Miraxmedov D. Mexanizm va mashinalar nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom, 2004. – 592 b.); patent uchun – Patent olingan davlat va uning raqami / e’lon qilingan yil. Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi // Patent raqami, nashr yili. – Byulleten raqami. (1. Patent O‘zR FAP 00848 / 31.10.2013. Djurayev A., To‘xtaqo‘ziyev A., Muhamedov J., Mamaxanov A. Zanjirli uzatma // O‘zbekiston Respublikasi patenti, 2013. – Byul. №10.); internet ma’lumotlari uchun - URL, ma’lumotga murojaat etilgan sana. (1. ZiyoNet ta’lim portali. http://library.ziyonet.uz/ru. 20.07.2022.)

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi, ushbu taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi.

6. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

7. Keltirilgan talablar yakuniy emas, ba’zi maqolalar borasida tahririyat qo‘shimcha ma’lumot so‘rash huquqini saqlaydi. Tahririyat manzili:

160103. Namangan shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy.
Telefon/faks: (0-369) 234-15-23,
Bizning sayt: qurilishtalim.uz
Ye-mail: qurilishta’lim@edu.uz
Aloqa uchun



+998939254606

NamMQI kichik bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan vil. Namangan shahar I. Karimov ko‘cha, 12-uy